“IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SUG‘URTANING ROLI: TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Toshkent, 2023-yil 16-noyabr

TOSHKENT – 2023-YIL

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“KAFIL-SUG‘URTA” AJ SUG‘URTA KOMPANIYASI

“IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SUG‘URTANING ROLI: TENDENSIYALAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil 16-noyabr

Toshkent – 2023

O‘O‘T: 001.895, 336, 338.24, 657,
Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug‘urtaning roli: tendensiyalar, muammolar va yechimlar: *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.* / Mualliflar jamoasi. –Toshkent. TDIU, 2023.- 349 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, mamlakatimizda sug‘urta sohasini ilmiy asosda o‘rganish va tadqiq qilish, malakali kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarni izchil davom ettirish va ushbu sohaga ilg‘or xalqaro tajribalarni tatbiq qilish maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2023 yil 16 noyabrda “Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug‘urtaning roli: tendensiyalar, muammolar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya tashkil etildi.

Ushbu to‘plamda sug‘urta faoliyatini rivojlantirishda fan va ta’limda innovatsiyalar, sug‘urta kompaniyalari moliyasi, buxgalteriya hisobi va investitsion faoliyati, sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish, zamonaviy risklarni sug‘urtalash hamda sug‘urtada moliyaviy texnologiyalardan rivojlantirish bo‘yicha sohada olib borilayotgan islohotlar va tarkibiy o‘zgarishlar aniq raqamlar va dalillar asosida tahlil qilinib, ushbu soha oldida turgan mavjud muammolarning yechimi mamlakatimizdagi yetakchi professor-o‘qituvchilar, mutaxassislar, tadqiqotchi olimlar, iqtidorli yosh magistrant va bakalavriatlar tomonidan chuqur o‘rganilib, taklif va tavsiyalar berilgan materiallari jamlangan.

To‘plam oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot institutlarining olimlari, professor-o‘qituvchilari, talabalari, shuningdek, sug‘urta sohasi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning rahbarlari hamda mutaxassislari uchun mo‘ljallangan.

Maqola mazmuni hamda unda keltirilgan faktlar va raqamlarning to‘g‘riligi uchun mualliflar javobgardir.

KIRISH SO‘ZI

K.A.Sharipov – TDIU rektori, professor

Assalomu alaykum hurmatli konferentsiyamiz mehmonlari, hurmatli ustozlar, hurmatli hamkorlar. Bugungi universitetimizda tashkil qilingan konferentsiyamiz munosabati bilan barchalaringizni tabriklayman.

O‘zingizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmonida iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni bajarishda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish hamda eksportchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirishda moliya sektorining muhim tarkibiy qismi bo‘lgan sug‘urta faoliyatining rolini yanada oshirish, yuridik va jismoniy shaxslarga sifatli sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan bugungi universitetimizda o‘tkazilayotgan “Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug‘urtaning roli: tendensiyalar, muammolar va yechimlar” mavzusidagi halqaro ilmiy-amaliy konferentsiyaning maqsadi ham aynan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda iqtisodiyotning real sektori, tashqi va ichki investitsiyalar hamda sug‘urta sektorining rolini oshirish hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug‘urta bilan himoyalashning xalqaro tajribasini o‘rganish, fuqarolarga ko‘rsatiladigan sug‘urta xizmatlarini rivojlantirish, aholining sug‘urta madaniyatini oshirish va sug‘urta bozorini tartibga solishning prudentsial normalarini takomillashtirish, sug‘urta faoliyatini raqamlashtirish va axborot xavfsizligini ta’minlash yuzasidan fikr almashish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat ekanligi bilan e’tiborga molik.

Bugungi kunda sug‘urta faoliyatining rivojlanib borishi ayni sohada samarali ishlar qilinayotganligining yorqin namunasidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqgan holda hamkorlarimizga va barcha mehmonlarimizga yaxshi kun tilab konferentsiyamizni ochiq deb e’lon qilamiz.

ЎЗБЕКИСТОНДА СУҒУРТА БОЗОРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ

Бурханов Актам Усманович
Молия ва бухгалтерия ҳисоби факультети декани, и.ф.д., проф.

Жамолова Хонзода
Молия ва бухгалтерия ҳисоби факультети талабаси

Республикада молия бозорини янада ривожлантириш,ахолини сифатли молиявий хизматлар билан қамраб олиш кўламини кенгайтириш, суғурта ташкилотлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, шунингдек, ушбу сохада истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш учун қулай шарт шароитлар яратиш чора тадбирлари изчил амалга оширилмоқда.

Шу билан бирга ислохатларнинг ҳозирги босқичида иқтисодиётнинг барқарор ўсишини таъминлашга, аҳоли ҳаётининг сифати ва даражасини оширишга йўналтирилган молиявий хизматларни фаол ривожлантириш республикада суғурта бозорининг ролини кўчайтиришни ва суғурта воситаларини кенг қўллашни тақозо этмоқда.

Мамлакатимизда ҳозирги кунда суғурта фаолияти талаб даражада шаклланган йўқ, суғурта тармоқни ва суғурта бозорини ривожлантириш учун турли ислохатлар амалга оширилмоқда. Жумладан 2002 йил 5 апрелда “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги қонун қабул қилинди. Ушбу қонунда юридик ва жисминий шахсларнинг суғурта хизматларига бўлган талабни тўлароқ қондирилишини ва суғурта муносабатлари барча субъектлари манфаатларини химоя қилиниши ва мажбуриятлари аниқ белгилаб берилди.

Бундан ташқари Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августда “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг ривожланишини таъминлаш чора–тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4412 сонли қарори ва 2019 йил 31декабрда Вазирлар Махкамасининг “Ўзбекистон Республикаси молия вазирлиги ҳузуридаги суғурта бозорини ривожлантириш агентлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги №1060 сонли қарори суғурта бозорини ривожлантириш учун ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилмоқда.

Юқоридаги яратилган ҳуқуқий асослар ва кафолатлар туфайли суғурта суғурта фаолияти субъектларнинг иқтисодиётимиздаги ўрни ва роли тобора ўсиб бормоқда.

Сўнгги йилларда тиббий суғурта ҳам аста секин шаклланиб бормоқда.Унинг асосий мақсади инсонларни соғлигини сақлаш,тиббий ёрдам кўрсатиш,ҳамда суғурталанган шахсларнинг сиҳат-саломатлигини таъминлаш билан боғлиқ харажатларни қоплашдан иборат.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги ПФ-5953-сон Фармони билан тасдиқланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да

амалга оширишга оид давлат дастурига ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 2 августдаги “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4412-сон қарорига мувофиқ Вазирлар Маҳкамаси қарор қилди.

Қарор асосида Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ривожлантириш стратегияси Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги ПФ-5953-сон Фармони билан тасдиқланган 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастурига мувофиқ, шунингдек, Суғурта назоратлари халқаро уюшмасининг стандартларива тавсиялари, халқаро суғурта бозорларидаги замонавий трендларни инобатга олган ҳолда ишлаб чиқилган.

Стратегия суғурта фаолиятини бошқаришнинг замонавий усулларини жорий этишга, суғурта бозорининг профессионал иштирокчиларини янада қўллаб-қувватлашга, суғурта муносабатлари барча субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилишни кучайтиришга йўналтирилган ҳамда Ўзбекистон Республикаси суғурта бозорининг мақсадлари, вазифалари, устуворликлари ва уни ривожлантириш босқичларини белгилайди ва ушбу соҳада дастурлар ва комплекс чора-тадбирларни ишлаб чиқиш учун асос ҳисобланади.

Суғурта тизими суғурта бозорининг профессионал иштирокчилари бўлган тижорат ташкилотларидан иборат. Суғурта бозори ҳаётни суғурта қилиш ва умумий суғурта қилиш тармоқларини ўз ичига олади.

Суғурта бозорида 43 та суғурта ташкилоти (улардан 36 таси -умумий суғурта, 7 таси – ҳаётни суғурта қилиш тармоғида), 5 та суғурта ва қайта суғурта брокери, 22 та ассистанс, аджастер ва сюрвейер, 5 та актуарий, 9 мингдан ортиқ суғурта агенти фаолият кўрсатади.

2020 йилнинг I ярим йиллигида 958,3 млрд. сўм суғурта мукофоти йиғилиб, ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 76,5 фоизни ташкил этди. Ўсиш даражасининг пастлига жорий йилнинг апрель ойидан бошлаб республикамизда карантин чоралари киритилиши сабаб бўлмоқда.

Шунингдек, 2020 йил I ярим йиллигида жами 328,1 млрд. сўм (ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 85,6 фоизни ташкил этди) миқдорида суғурта тўловлари амалга оширилган бўлиб, шундан 76,5 млрд. Сўм ихтиёрий суғурта турлари ва 169,1 млрд. сўм мажбурий суғурта турлари бўйича тўланган.

Суғурталовчиларнинг ялпи устав капиталлари 1 242,7 млрд. сўмга ва иқтисодиётга киритилган инвестициялар ҳажми 2 944,3 млрд. сўмга етди.

Ҳисобот даврида суғурта бўлимлари сони – 1772 тага етди. Суғурталовчилар штатида 6,6 минг ходим ва 9 мингга яқин суғурта агенти фаолият кўрсатмоқда.

Суғурта бозорида давлат улушига эга 3 та компания мавжуд бўлиб, уларнинг капитали умумий капиталнинг 34 фоизини, активлари эса умумий активларнинг41 фоизини ташкил қилади.

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги Суғурта бозорини

ривожлантириш агентлиги, Ўзбекистон актуарийлари жамияти суғурта ташкилотларининг биргаликдаги суғурта қилишларига асосланган Суғурта шерикчиликлари ҳам суғурта бозор иинфратузилмасининг ажралмас қисми ҳисобланади.

Суғурта бозорини ривожлантиришдаги қийинчиликлар ва муаммолар қуйидагилар ҳисобланади:

1. Суғурта бозорининг ривожланганлигини кўрсатувчи асосий кўрсаткичлар – суғурта тушумларининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши 0,4 фоизни ҳамда жон бошига йиғилган суғурта мукофотлари 28 минг сўмни ташкил этиб, жуда паст даражада қолмоқда.

2. Ижтимоий ҳимоя ва иқтисодиётнинг устувор соҳаларидаги корхона ва ташкилотлар фаолиятининг узлуксизлигини таъминлашда суғуртадан фойдаланилмаяпти. Хусусан, жаҳонда жорий этилган мажбурий тиббий суғурта, қишлоқ хўжалигининг мажбурий суғуртаси ва мол-мулкларни мажбурий суғуртаси каби мажбурий суғурта турлари, шунингдек, ўзаро суғурта қилиш фаолияти тартиби ва инновацион лойиҳаларни қўллаб қувватловчи суғурта маҳсулотлари жорий этилмаган.

3. Умумий суғурта тармоғида давлат иштирокининг юқорилиги суғурта ташкилотлари фаолиятининг самарадорлиги ва соҳанинг инвестицион жозибадорлигига салбий таъсир этмоқда. Давлат компанияларининг умумий суғурта мукофотларидаги улуши 20 фоизни, умумий активларидаги улуши 41 фоизни ва умумий устав капиталдаги улуши 34 фоизни ташкил этади.

4. Давлат суғурта ташкилотларининг активлари рентабеллигининг коэффициенти 1,7 фоиз, низом капиталларининг рентабеллиги 6,5 фоиз, ўз капитали рентабеллиги 2,5 фоиз ва инвестициялар қайтиши коэффициенти 2,3 фоиз бўлса, нодавлат суғурта ташкилотларида эса бу кўрсаткичлар мос равишда ўртача 6,6 фоизни, 22,3 фоизни, 16,6 фоизни ва 13,0 фоизни ташкил этмоқда.

5. Бизнес жараёнлар ва тартиботларни рақамлаштиришда замонавий ахборот технологиялардан фойдаланиш даражаси паст. 2020 йилнинг ўтган даврида онлайн суғуртанинг умумий тузилган шартномалар сонидаги улуши 1 фоизни ҳам ташкил этмайди.

Суғурта фаолиятини тартибга солишнинг амалдаги тизими суғурта бозорининг етарлича ишончлилигини ва барқарорлигини таъминламайди, тартибга солиш ва назорат қилишнинг самарали механизмлари мавжуд эмас. Мамлакатимиз суғурта бозорига Суғуртанинг асосий тамойиллари татбиқ этилганлиги даражаси 35,0 фоиз бўлиб, самарали пруденциал назорат йўлга қўйилмаган.

Суғурта бозорини ривожлантириш учун қуйидагиларни инобатга олиш лозим:

1.Ташкилотлар ва идораларо ягона электрон ахборот алмашинуви тизими яратиш;

2.Суғурта бозорининг профессионал иштирокчиларининг, шу жумладан ноҳалол суғуртавоситачилари ва суғурта бозорининг бошқа иштирокчилари реестрини ўз ичига олган ягона ахборот базаси яратиш;

3.Суғурта хизматлари турларини кўпайтириш ва қамровини кенгайтириш;

4.”Онлайн” маркетинг ва реклама кўламини кенгайтириш, шу жумладан электрон китоблар, ўйинлар, викториналар ва бошқа рақамли реклама салмоғини ошириш

5.Суғурта бозори мутахассисларини тайёрлаш ва қайта тайёрлаш тизимини такомиллаштириш

6.Суғурта ташкилотлари самарадорлигини ошириш ва янги суғурта ташкилотлари ташкил этилиши эвазига суғурта бозорида рақобатни кучайтириш лозим.

ИНВЕСТИЦИОН РИСКЛАРНИ СУҒУРТАЛАШ

Бурханов Актам Усманович
Молия ва бухгалтерия ҳисоби факультети декани, и.ф.д., проф.

Муратов Амир Тимур уғли
Молия ва бухгалтерия ҳисоби факультети талабаси

Инвесторлар Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қонуний равишда фаолият кўрсатаётган ҳар қандай суғурта ташкилотида суғурта ҳимоясига бўлган ҳуқуқдан фойдаланади. Инвестицияларни сиёсий ва бошқа таваккалчиликлардан суғурталаш халқаро ташкилотлар, чет эл агентликлари, бошқа суғурта компаниялари томонидан ҳам амалга оширилиши мумкин. Инвестицияларни суғурталашни амалга оширувчи суғурта ташкилотлари Ўзбекистон Республикасининг мажбуриятлари бўйича жавобгар бўлмайди. Давлат суғурта ташкилотларининг мажбуриятлари бўйича жавобгар бўлмайди, бундан тарафларнинг битимларида назарда тутилган ҳоллар мустасно.

Инвестицияларни суғурталаш сиёсий ва бошқа таваккалчиликлардан, шу жумладан қуйидагиларни ўз ичига олувчи таваккалчиликлардан суғурта ҳимоясини ҳамда кафолатларини таъминлайди:

•Мулкнинг реквизиция (экспроприация) қилинишини, шунингдек мулкни олиб қўйишга ёки уни бошқа шахсга беришга, унинг устидан ёки ундан олинадиган даромадлар устидан назоратнинг йўқолишига олиб келадиган ҳар қандай қонунчилик ёки маъмурий чораларни;

• чет эл валютасини мамлакатдан ташқарига ўтказиш бўйича чекловлар жорий этишни; давлат бошқаруви органларининг, маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг ва улар мансабдор шахсларининг инвесторлар шартномавий муносабатларига аралашувини;

•урушларни, фуқароларнинг тартибсизликлари ва бошқа шунга ўхшаш воқеаларни; инвесторлар ва чет эл инвестициялари билан боғлиқ бўлган сиёсий ва ўзга таваккалчиликларнинг бошқа турларини.

Ҳар қандай инвестиция лойиҳалари турли ноаниқликлар, рисклар билан боғлиқ. Ҳар бир инвестиция иштирокчиси рисклар, риск турларининг вужудга

келиши сабаблари, уларнинг таснифи ҳамда риск эҳтимолларини олдини олиш бўйича тадбирлар ҳақида аниқ маълумотларга эга бўлишлари лозим. Шундагина улар инвестиция лойиҳасини муваффақиятли амалга оширишга ўз ҳиссаларини қўшишлари мумкин.

Шу жаҳатдан ҳам Ўзбекистон шароитида инвестиция лойиҳаларини ишлаб чиқишда уларнинг рисклилик даражасини ҳисобга олиш, баҳолаш ва аниқлаш, эҳтимоллиги мавжуд бўлган риск ҳамда ноаниқликларни пасайтириш ёки бартараф этиш йўлларини аниқлаш энг муҳим вазифалардан бири ҳисобланади. Инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда уни дастлабки мукаммал баҳолаш ва ўрганиш, шу жумладан, лойиҳа рискларини таҳлили қилиш ва уларни пасайтириш, бошқариш масалалари иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида ўта аҳамиятли ва илмий тадқиқот учун долзарб муаммолардан бўлиб келмоқда.

Инвестиция лойиҳаси тўлиқ ва мукаммал ҳисоб-китоблар ёрдамида асосланган юридик ҳужжатлар тўпламидир. У инвестицион тадбиркорлик ва ташаббуснинг натижаси сифатида яратилган инвестицион ҳужжат бўлиб, инвестициялар билан таъминланган ҳар қандай тадбирлар мажмуаси ҳисобланади, яъни у чекланган муддат давомида фойда олиш ёки ижтимоий самарага эришиш йўлидаги бир-бири билан ўзаро боғлиқ тадбирлар йиғиндиси ҳисобланади

Инвестиция лойиҳаси деганда фойда олиш мақсадида қўйилган инвестициядан фойдаланиш режасининг асосли равишда ишлаб чиқилиши тушунилади. Инвестиция лойиҳаси қуйидаги жараёнларни ўз ичига олади: ғоянинг туғулиши, инвестиция қўйиладиган объектни аниқлаш, шу объектга қўйилишининг фойдалилигини асослаш, комплекс тарзда экспертиза ўтказиш, инвестицияга пул маблағини топиш ва қўйиш, унинг самарадорлигини таъминлаш ва бошқалар.

Ўзбекистон шароитида инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда рискларни юзага келтирувчи омилларни аниқлаш, уларни сифат ва миқдор жиҳатдан баҳолаш, рискларни баҳолаш усулларини такомиллаштириш, рискларни пасайтириш йўлларини аниқлаш ҳамда самарали бошқариш энг муҳим вазифалардан ҳисобланади. Инвестиция лойиҳаларини амалга оширишда суғурталаш икки турда: мулкни суғурталаш ҳамда бахтсиз ҳодисалардан суғурталаш шаклида амалга оширилади.

Мулкий суғурталашнинг қуйидаги шакллари мавжуд:

– моддий йўқотишлар ва зарарлардан ҳимоя қилиш мақсадида пудрат қурилишларини суғурта қилиш;

– моддий йўқотишлар ва зарарлардан ҳимоя қилиш мақсадида денгиз ёки ҳаво транспортлари орқали ташилаётган юкларни суғурта қилиш;

– моддий йўқотишлар ва зарарлардан ҳимоя қилиш мақсадида пудрат ва субпудрат ташкилотларига тегишли бўлган асбобускуналарни суғурта қилиш. Бахтсиз ҳодисалардан суғурта қилишнинг қуйидаги шакллари мавжуд:

– қурилиш қатнашчилари тана жароҳатлари, шахсий зарар ёки мулкий зарар кўрганларида бош пудрат ташкилотлари фаолиятини ҳимоя қилиш мақсадида умумий фуқоролик жавобгарлигидан суғурта қилиш;

– лойиҳалаштириш жараёнида архитекторлик ва техник нуқтаи назардан

хатоларга йўл қўйилганда лойиҳаларни бошқаришда камчиликлар келиб чиққанда бош пудрат ташкилотини моддий жавобгарликдан суғурта қилиш.

Иқтисодий категория сифатида риск - бу бўлиши мумкин бўлган ёки аввалдан айтиб бўлмайдиган ҳодиса. Агар бу ижобий ҳодиса бўлса (фойда, даромад ёки бошқа тушум) ва салбий (ҳаражатлар, зарар, йўқотиш) натижа бўлиши ёки ҳеч қандай натижа бўлмаслиги мумкин. Молиявий операциялар риск даражасини баҳолашни, унинг миқдорини аниқлашни ва уни камайтириш чора-тадбирларини қўллашни талаб қилади. Мамлакат иқтисодиётига ўз сармоясини киритаётган инвестор нуқтаи-назарида, шу мамлакатдаги ҳолат, вазият инвестицион муҳит деб аталади. Инвестицион муҳит бир қатор риск омилларини ўз ичига олади. Бу омиллар ривожланиш истиқболлари, ички ва ташқи шарт-шароитлар ва вазият таъсири остида вужудга келади. Кўп ҳолларда мамлакатдаги ижтимоий-сиёсий ҳолат ва унинг ривожланиш истиқболларига қараб ижтимоий-сиёсий, ички ва ташқи рисклар тахмин қилинади.

Миллий иқтисодиётда инвестиция лойиҳаларини самарали амалга ошириш лойиҳа рискларини баҳолаш ва бошқариш усулларини такомиллаштиришни талаб этади. Бунинг учун Инвестиция лойиҳалари рискларини бошқаришда уларни таҳлил қилиш ва баҳолаш натижаларига асосланиб, бошқариш усуллари танланади. Лойиҳани самарали бошқариш эса, кўзланган самарали натижага эришишга олиб келади. Шунинг учун лойиҳа рискларини баҳолашни пухта ва мукаммал амалга ошириш лозим.

TDIU TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI 1931
KS KAFIL

SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Abdusalomova N.B.
TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi mudiri i.f.d., professor

Sug‘urta o‘zining iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra har qanday jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tizimining zarur elementi bo‘lib, kutilmagan hodisalar sodir bo‘lganda mulkiy manfaatlar buzilgan taqdirda kafolatlarni ta’minlovchi asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ho-zirgi bosqichida sug‘urtaning roli sezilarli darajada oshib bormoqda va tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki bu, bir tomondan, iqtisodiyotni milliy himoya qilish tizimi bo‘lsa, boshqa tomondan, u muhim ichki investitsiya resursi. Iqtisodiyotning nisbatan yosh tarmog‘i bo‘lgan sug‘urta hali uni rivojlantirish va takomillashtirish, xorijiy sug‘urta kompaniyalari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashish imkonini beradigan zarur uslubiy ishlanmalarga ega emas. Bundan tashqari, alohida tizim yaratishga qaratilgan mahalliy sug‘urta biznesini rivojlantirish bosh kompaniya tomonidan investitsiya kompaniyalarining sho‘ba korxonalarini jalb qilgan holda daromadlarni markazlashtirilgan holda boshqarishni nazarda tutadi.

Sug‘urtalovchining boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta’minlashning asosiy

manbai hisob va tahlil tizimi hisoblanadi. Bu faoliyatni boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish jarayonini axborot bilan ta’minlash uchun mo‘ljallangan buxgalteriya hisobida ma’lumotlarni aks ettirish usullari to‘plami. Buxgalteriya hisobi va tahlil tizimi qaror qabul qilish paytida tashkilotning moliyaviy-iqtisodiy jarayonlari to‘g‘risida tezkor ma’lumotlarni olish imkonini beradi. Shuningdek, u sug‘urta tashkilotining statistik ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun asosiy ma’lumot manbai bo‘lib, uning asosida aktuar hisob-kitoblarni amalga oshirish, tarif stavkalarining hajmi va tuzilishini aniqlash, sug‘urta kompaniyasining, umuman sug‘urta biznesi moliyaviy barqarorligiga erishish uchun statistik baza shakllantiriladi va takomillashtiriladi.

MHXS asosida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy aktivlari va moliyaviy majburiyatlarini hisobga olish, hisobot berish, baholash tizimini yanada takomillashtirishsiz sug‘urta tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish mumkin emas. Sug‘urta tashkilotlari uchun xorijiy sheriklar bilan ishlash, investitsiyalarni jalb qilish va tashqi bozorlarga chiqish uchun zarur shart - bu xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalanish. Qayd etish joizki, iqtisodiyotning moliya sektorida, jumladan sug‘urta tashkilotlarida MHXSni joriy etish masalasi 2020-yil boshidan boshlab davlat darajasida muhokama qilinib kelinmoqda.

Moliya sektori tashkilotlarining, shu jumladan sug‘urta tashkilotlarining aktivlari va passivlarini hisobga olish, hisobot berish, baholash tizimini takomillashtirish zarurati, sug‘urta tashkilotlarida shu vaqtgacha amalda bo‘lgan buxgalteriya hisobi, hisobot berish va baholash tizimi ayniqsa, aktivlar va passivlar qiymati haqidagi ma’lumotlarni o‘lchash va oshkor qilish MHXS qoidalariga mos kelmaganligi sababli yuzaga keladi.

Hozirgi kunda sug‘urta tashkilotlarida asosiy hisobni tartibga soluvchi standart bu 17-MHXS “Sug‘urta shartnomalari” nomli stanadart hisoblanadi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab sug‘urta shartnomalarini hisobga olishning yangi standarti - 17-MHXS kuchga kirdi. 2023-yilgi MHXS bo‘yicha moliyaviy hisobotlari yangi qoidalarga muvofiq qayta ko‘rib chiqilgan 2022-yilgi ma’lumotlarni taqdim etishi kerak.

17-MHXS kuchga kirgandan so‘ng sug‘urta kompaniyalari uchun asosiy o‘zgarishlarni ko‘rib chiqaylik.

Shartnomalar va ularning ko‘rsatkichlarini hisobga olishning yangilangan yondashuvida eng muhimi har bir shartnomani bir nechta ko‘rsatkichlar orqali ko‘rib chiqish kerak: majburiyatlar, risklarni tartibga solish, marja. Ushbu ko‘rsatkichlarning har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

Risklarni tartibga solish – tuzatishlar xavf va noaniqlik ta’sirini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu hisob-kitob moliyaviy oqimlarning miqdori va muddatlaridagi noaniqlikni aks ettiradi.

Diskontlash - pulning vaqt qiymatini hisobga olgan holda tizimga tuzatishlar kiritish. Kelajakdagi moliyaviy oqimlar joriy bozor holatiga muvofiq joriy summalarga aylantiriladi.

Naqd pul oqimlari aylanishi - sug‘urta shartnomalarini bajarish uchun mo‘ljallangan moliyaviy oqimlarni ob'ektiv baholash. Ushbu hisob-kitob sug‘urta shartnomalarini sotishdan kelib chiqadigan kutilayotgan pul oqimlari bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Shartnomada tavsiflangan xizmatlar uchun marja dastlabki tan olishda kutilayotgan kiruvchi va chiquvchi moliyaviy oqimlarning joriy qiymati o‘rtasidagi ijobiy farqdir. Agar shartnomada ko‘rsatilgan xizmatlar uchun marja salbiy qiymatga ega bo‘lsa, u zarar/foydada tan olinadi va og‘ir shartnomada aks ettiriladi.

Sug‘urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishda barcha tarkibiy qismlarni aniqlash va toifalarga ajratish uchun sug‘urta shartnomalari tahlilini o‘tkazish, chegirma stavkalarini hisoblash va moliyaviy bo‘lmagan risklarni tuzatish uchun yangi modellardan foydalanishga yordam beradigan ishchi tavsiyalarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

1-jadval.

Foyda va zararlar va umumlashgan daromad to‘g‘risidagi hisobot[1]

№	4-BHXS	17-BHXS
1.	Olingan bonus – netto (aniq)	Sug‘urta tushumlari
2.	Foizlar, dividentlar va boshqa investitsion daromadlar	Sug‘urta bilan bog‘liq xarajatlar
3.	Yetkazilgan zararlar, to‘lovlar, hisob-kitob xarajatlari - netto	Yetkazilgan zararlar, to‘lovlar, hisob-kitob xarajatlari
4.	Sug‘urta zahiralari bo‘yicha o‘zgarishlar	
5.	Akvizitsion xarajatlari -Sotib olish xarajat-lari sug‘urta kompaniyasining yangi sug‘ur-talovchilarni jalb qilish va eskilarini saqlab qolish, shuningdek, yangi sug‘urta shartno-malarini tuzish va amaldagilarini yangilash bilan bog‘liq xarajatlaridir.	Akvizitsion xarajatlar-Sotib olish xarajatlari sug‘urta kompaniyasining yangi sug‘urtalov-chilarni jalb qilish va eskilarini saqlab qolish, shuningdek, yangi sug‘urta shartnomalarini tuzish va amaldagilarini yangilash bilan bog‘liq xarajatlaridir.
6.	**Foyda yoki zarar**	**Qayta sug‘urtalashdan foyda yoki zarar**
7.		Sug‘urta operatsiyalari bo‘yicha natija
8.		Investitsion daromad
9.		Moliyaviy xarajat
10.		Jami moliyaviy natija
11.		Diskont stavkasini o‘zgarishi – sug‘urta majburiyati bo‘yicha
12.		Jami umumlashgan daromad

To‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etgan shartnomalarni hisobga olishda sug‘urta kompaniyasi moliyaviy oqimlarga nisbatan taxminlardan (hozirda dolzarb bo‘lgan) foydalangan holda shartnomalarni qayta baholashi, shuningdek, chegirma stavkalari va risklarni qayta baholashi kerak. Kelgusi xizmatlarni baholashda o‘zgarishlarning ta'siri xizmat taqdim etilgan vaqtda tan olinadi:

- variantlar va kafolatlar sug‘urta shartnomalarini baholashda majburiy ravishda aks ettiriladi.
- ba’zi shartnomalarni qisqa muddatli bajarishda mukofot taqsimotiga asoslangan yondashuv qo‘llanilishi mumkin. Bu soddalashtirilgan deb hisoblanadi, bu yerda asosiy tamoyil - ishlanmagan mukofotni zaxiralash hisoblanadi.
- sug‘urta qoplamasining qolgan qismi uchun majburiyat. Bu majburiyatlarni

[1] Muallif ishlanmasi

to‘lashda tan olinishi yoki shartnomaga ma’lum o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq alohida holatlar bo‘lishi mumkin.

17-MHXSni joriy etilishi hisobot shakllarini ham o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Bunda hisobot shakllaridagi ko‘rsatkichlar tarkibi o‘zgargan. Hisobot yangi shakllarda taqdim etilgan. O‘zgarishlarni quyidagi jadvallarda atroflicha yoritib berishga harakat qilamiz.

Jadvalni tahlil qilsak, asosiy o‘zgarishlar quyidagilarda bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

- investitsiya qoldig‘i sug‘urta shartnomasi bo‘yicha daromaddan chiqarib tashlanadi;
- xarajatlar va daromadlar yuzaga kelgan yoki olingan sifatida tan olinadi;
- sug‘urtani moliyalashtirish bilan bog‘liq xarajatlar sug‘urta xizmati doirasida hosil bo‘lgan umumiy summadan olinadi. Ushbu xarajatlar umumiy moliyaviy hisobotda yoki umumiy moliyaviy hisobotda va xarajatlar va buxgalteriya smetalarida aks ettiriladi, har bir alohida holatda bu joriy hisob siyosatining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi;
- mukofotlar eslatmalarda e'lon qilinadi.

Shunday qilib, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari nafaqat sug‘urta kompaniyalari, aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va yakka tartibdagi korxonalar uchun qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish vositasi va yuqori korporativ boshqaruv madaniyatining elementi sifatida, balki butun mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ham katta ahamiyatga ega, chunki ular shaffof va yanada ochiq biznesni shakllantirishga Respublikamizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini ta’minlashda katta o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.Чая В.Т., Чая Г.В. Международные стандарты финансовой отчетности. ISBN 978-5-4252-0182-9. – 368 с.

2.Попова А.Х., Аркаути В.В., Икаева Л.Э. Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО): проблемы внедрения и трансформации российской отчетности. // Пространство экономики. 2013. № 4-2. С. 215-218.

3.Новые международные стандарты финансовой отчетности. Перемены в стандартах страхования. // Международный бухгалтерский учет. 2011. № 25. С. 2-5.

4.Житлухина О.Г. О месте и особенностях производных финансовых инструментов в системе финансовых инструментов в аспекте международных стандартов финансовой отчетности. // Инновационная наука. 2015. № 3. С. 24-27.

5. Tashnazarov S.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. – T.: “Navro’z” nashriyoti, 2016 y. 31-47-b.

6. Бабаев Ю.А., Петров А.М. Международные стандарты финансовой отчетности. Вузовский учебник. – М.: ИНФРА-М, 2012. – 398 с. (Babaev Yu.A., Petrov A.M. International Financial Reporting Standards. University textbook. –M.: INFRA-M, 2012. –398 p.)

БАНК ОПЕРАЦИЯЛАРИНИ СУҒУРТАЛАШ: РИСКЛАРНИ МИНИМАЛЛАШТИРИШ ВА МОЛИЯВИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Мамадияров Зокир Тоштемирович,
ТДИУ, Молия бозори ва суғурта иши кафедраси мудири, и.ф.д., проф.

Банк сектори ҳар қандай иқтисодиётнинг таянчи бўлиб хизмат қилади, иқтисодий ўсиш ва ривожланишга ёрдам беради. Бироқ, бу жараёнлар риск ва ноаниқликларга қарши иммунитетга эга эмас. Омонатчилар, акциядорлар ва манфаатдор томонларнинг манфаатларини ҳимоя қилиш учун суғурта банк операцияларига потенциал таҳдидларни юмшатишда муҳим рол ўйнайди. Ушбу илмий тезис суғуртанинг банк операцияларидаги аҳамиятини ўрганади, унинг рискларни бошқариш, молиявий барқарорликни таъминлаш ва мижозлар ишончини оширишдаги ролини ёритади.

Банк операцияларида рискларни бошқаришда кредит рискини камайтириш, операцион рискни қоплаш ва бозор рискини ҳимоя қилиш талаб этилади.

1-расм. Банк операцияларини суғурталаш йўллари

Рискларни бошқаришда кредит рискини камайтириш, операцион риск ва бозор рисклари самарали бошқаришни талаб этади.

Кредит рискини минималлаштириш. Банклар фаолиятида кредитлаш асосий даромад олувчи йўналиш бўлиб, шу билан бирга дефолтларнинг ўзига хос риски ҳам юзага келади. Кредит дефолт своплари (СДС) ва савдо кредит суғуртаси каби турли хил суғурта маҳсулотлари орқали банклар кредит рискининг бир қисмини суғурта компанияларига ўтказишлари мумкин. Бу банкларга молиявий барқарорликка путур етказмаган ҳолда иқтисодий фаолиятни қўллаб-қувватлаб, эркинроқ кредит бериш имконини беради.

Рискларни самарали бошқариш банк операциялари учун мустаҳкам суғурта асосининг асосидир. Бунга қуйидагилар киради:

-потенциал таҳдидларни, шу жумладан кредит, операцион ва бозор хатарларини аниқлаш ва баҳолаш учун рискларни тўлиқ баҳолашни ўтказиш.

-аниқланган рискларни диверсификация қилиш, хеджлаш стратегиялари ва оқилона кредитлаш амалиёти орқали юмшатиш учун фаол чора-тадбирларни амалга ошириш.

-рискларни прогноз қилиш ва бошқаришни яхшилаш учун илғор таҳлил ва моделлаштириш усулларидан фойдаланиш.

Операцион хавфни қоплаш. Банклар фирибгарлик, киберҳужумлар ва инсон хатоси каби кенг кўламли операцион рискларга дучор бўлишади. Ушбу хавфларни қоплаш учун мўлжалланган суғурта полислари кутилмаган ҳодисалардан молиявий ҳимояни таъминлайди. Масалан, кибер жавобгарлик суғуртаси маълумотларнинг бузилиши ёки киберҳужумлар натижасида юзага келадиган молиявий йўқотишлардан ҳимоя қилади.

Бозор хавфини ҳимоя қилиш. Фоиз ставкалари, валюта курслари ва товарлар нархининг ўзгариши банкнинг рентабеллигига сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин. Ҳосила маҳсулотлари ва суғурта шартномалари банк даромадлари оқимининг барқарорлигини таъминлаб, бундай бозор рискларидан ҳимоя қилиш учун ишлатилиши мумкин.

Банклар молиявий барқарорликни таъминлашда депозитларни суғурталаш, стресс тести ва капиталнинг этарлилиги таъминлаш лозим.

Депозитларни суғурталаш. Банк фаолиятининг энг муҳим жиҳатларидан бири бу аҳоли ишончи ва ишончини сақлаб қолишдир. Ҳукумат ёки мустақил идоралар томонидан қўллаб-қувватланадиган омонатларни суғурталаш схемалари банк муваффақиятсизликка учраган тақдирда омонатчилар учун хавфсизлик тармоғини таъминлайди. Ушбу кафолат жисмоний шахслар ва корхоналарни ўз маблағларини банк тизимига ишониб топширишга ундайди, молиявий барқарорликни таъминлайди.

Стресс тести ва капиталнинг етарлилиги. Суғурта компаниялари кўпинча банкларнинг стресс тестлари жараёнида ҳал қилувчи рол ўйнайди. Экстремал сценарийларга қарши суғурта қопламасини таъминлаш орқали суғурта банкларга камроқ капитал захираларини сақлашга имкон беради ва шу билан кредитлаш ва инвестициялар учун ресурсларни бўшатади.

Мижозларнинг ишончини ошириш учун эса банк репутацияни орилона бошқариш ва мижозларга йўналтирилган суғурта маҳсулотларидан кенг фойдаланиши керак.

Репутацияни бошқариш. Мижозларни жалб қилиш ва ушлаб туришда банкнинг обрўси муҳим аҳамиятга эга. Турли хавф-хатарлардан суғурталанган бўлиш манфаатдор томонлар манфаатларини ҳимоя қилиш, ташкилотнинг яхлитлиги ва барқарорлигига ишончни сингдириш мажбуриятини кўрсатади.

Мижозларга йўналтирилган суғурта маҳсулотлари. Банклар, шунингдек, умумий қиймат таклифини ошириб, тўғридан-тўғри ўз мижозларига суғурта маҳсулотларини таклиф қилишлари мумкин. Ҳаётни суғурталашдан тортиб, мулк ва бахтсиз ҳодисаларни қоплашгача бўлган ушбу маҳсулотлар банклар учун қўшимча даромад манбалари бўлиб хизмат қилади, шу билан бирга мижозларга кенг қамровли молиявий ечимлар тақдим этади.

Ундан ташқари норматив ҳужжатларга риоя қилиш банк операцияларининг барқарорлиги ва ишончлилигини таъминлашда муҳим аҳамиятга эга. Суғурта қопламаларини яхшилаш учун банклар:

-янгиланаётган меъёрий-ҳуқуқий базалардан хабардор бўлиш ва уларнинг фаолиятига мувофиқлиги бўйича чораларини кўриш;

-рискларни бошқариш ва суғурталаш бўйича илғор тажрибаларни тушуниш ва жорий этиш учун назорат қилувчи органлар билан яқиндан ҳамкорлик қилиш лозим.

Яна бир жиҳатга алоҳида эътибор қаратиш лозим. Банк операцияларини суғурталашни яхшилаш учун муассасалар суғурта портфелини диверсификация қилишлари керак. Бунга қуйидагилар киради:

-ташкилот дуч келадиган муайян рискларга мослаштирилган бир қатор суғурта маҳсулотларини таклиф қилиш, жумладан кредит дефолтини алмаштириш, савдо кредитини суғурталаш ва кибер жавобгарликни қоплаш.

-ноёб банк рисклари учун мослаштирилган ечимларни ишлаб чиқиш учун ихтисослашган суғуртачилар билан ҳамкорлик қилиш ва бошқалар.

Умуман олганда, суғурта замонавий банк операцияларининг ажралмас таркибий қисми бўлиб, турли хавф ва ноаниқликларга қарши қўрғон вазифасини бажаради. Самарали рискларни бошқариш орқали суғурта банкларга янада самаралироқ ва кўпроқ мослашувчанлик билан ишлаш имконини беради. Бундан ташқари, у омонатчилар ва акциядорлар учун кафолатлар бериш орқали молия тизимининг барқарорлигини таъминлайди. Охир оқибат, банк операцияларида суғуртанинг мавжудлиги нафақат барча манфаатдор томонларнинг манфаатларини ҳимоя қилади, балки янада мустаҳкам ва ишончли молиявий экотизимни ривожлантиради.

KS KAFIL SUG'URTA

SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Alimixamedova Feruza Mirobidovna
Toshkent temir yo‘l texnikumi, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi yetakchi o‘qituvchisi

Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilib, barcha sohalardagi singari quyidagi yagona tamoyillarga asoslanadi: xolisona tug‘ri ma’lumot, uzluksiz xujjatlashtirish, ikki yoklama yozuv, ma’lumotlarni aks ettiruvchi shakllarning o‘zaro bog‘liqligi va schyotlar tizimiga asoslanishi.

Olimlarimiz A.A.Karimov, I.N.Qo‘ziev va M.Yu.Raximovlarning fikricha “...axborotlarning aniqligi va shaffofligida dunyo tan olgan mezonlardan ancha ortda qolinganligi, amaldagi tartiblarda asosan soliqlar, to‘lovlar va ijtimoiy muammoli vaziyatlarni hal qilishdagi jihatlarga ustunlik berilishi, rasmiy va chop etiladigan manbalarda faqat davlat organlari tomonidan belgilab bergan tartiblarga rioya qilinishi, korxona va tashkilotlarni moliyalashtirishda eng muxim ishtirokchilar bo‘lgan investorlar, qarz beruvchi va kreditorlarning ikkinchi o‘ringa quyilganligi rivojlanishda turg‘unlik va muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo‘lib keldi.” [1] Bu albatta buxgalteriya hisobini isloh qilishni talab etadi.

B.K.Hamdamov, K.SH.Ibragimovning ta’kidlashicha “O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya risobi va hisobotini islor yilish maysadlariga quyidagilar kiradi:

- respublika iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan jarayonlarni samarali tartibga solish tizimini joriy etish uchun sharoit yaratish;
- buxgalteriya hisobi tizimini, shuningdek, buxgalteriya risobining milliy standartlarini xalkaro moliyaviy xisobot standartlariga (MHXS) yakinlashtirish;
- axborotni yig‘ish, qayta ishlash va uzatish, boshkaruv qarorlarining oqibatlarini bashorat qilish va baholash tizimiga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning retrospektiv tendensiyalarini o‘z vaqtida aniqlash.”[2] zarurligi bugungi kuning dolzarb muammolaridan biri ekanligini ko‘rsatib berishgan.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni isloh kilishning belgilangan maqsadlariga erishish uchun asosiy chora-tadbirlar quyidagi muammolarni hal qilishdan iborat:

- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning umumiy uslubiy asoslarini qayta ko‘rib chiqish va uni jahon amaliyotida umumiy qabul qilinganlarga muvofiqlashtirish;

BHMS tizimini va moliyaviy hisobotni shakllantirish, foydalanuvchilarga moliyaviy xarakterdagi foydali ma’lumotlarni takdim etish;

- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni islox kilishning xalkaro larajadagi standartlarni uygunlashtirishning asosiy tendensiyalari bilan boglikdigini ta’minlash;

-xo‘jalik yurituvchi subyektlarga MHXS talablariga yakin buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning modernizatsiya qilingan modelini tushunish va amalga oshirishda uslubiy yordam ko‘rsatish;

MHXS talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o‘quv dasturi asosida buxgalteriya hisobi sohasidagi kadrlarni sifatli tayyorlash va qayta tayyorlash.”

Bizning fikrimizcha sug‘urta tashkilotida yuritiladigan buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

− sug‘urta tashkilotining bopqaruv kengashiga, shuningdek investorlar, mijozlar, soliq organlari, banklar va boshqa manfaatdor shaxslarga kerakli bo‘ltan xo‘jalik faoliyati va natijasi to‘g‘risidagi ma’lumotni shakllantirish;

− o‘rnatilgan me’yorlar doirasida pul mablag‘lari, mol-mulk va sug‘urta zaxiralarini shakllantirish va ular dan foydalanish talablarining bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash;

− texnik va bonqa zaxiralarni yuritish hamda moliyaviy xo‘jalik faoliyatidagi vujudga kelgan salbiy holatlarni o‘z vaktida aniqlash va bartaraf etish,

− sug‘urta tashkilotlarining xususiyatini inobatga olib, MHXS talablari buyicha buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining modelini yaratish.

Bugungi kunda sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi tartiblari hamda ularning faoliyatini xalqaro standarlar asosida haqqoniy aks ettirish, sug‘urta biznesning potensial qiymatini aniqlash va baholash, hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qator muammolar mavjud. Bu masalada olimlarimiz A.A.Karimov, I.N.Qo‘ziev, M.Y.Raximovlar MHXS talablariga hozirgi buxgalteriya hisobi talabga javob bermasligini alohida ta’kidlab aytganlar. "....**birinchidan**, biznes subyektlari faoliyatining real natijalarini aniqlash, ularning yutuqlarini tan olish, baho-

lash va ochiqlashdagi amaldagi tartiblari iqtisodiy resurslarni bulgusi haqiqiy egalari manfaatlariga mos *tushmaydi. Buning natijasida, biznes subyektlari resurslarini jalb* qilishning cheklangan oqimlaridangina foydalanishlariga to‘g‘ri kelmoqda;

ikkinchidan, biznes subyektlari daromadlari va xarajatlarini aniq o‘lchangan qiymatlari potensial qizikuvchilar manfaatlariga mos tushmaydi, bu o‘rinda, foydaning aniqligi, naqdligi va sifatini ta’minlash nazarda tutilmokda;

uchinchidan, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash, takdim etishdagi o‘rinsiz, ortiqcha, qat’iy talablarning belgilab qo‘yilganligi, shuningdek biznes subyektlarining o‘z mulklari doirasida aniq boshqaruv qarorlarini tayyorlashda hisobning mayda birliklariga qadar kat’iy tartib taomillarining belgilab qo‘yilganligi buxgalteriya xodimlarining erkin tajribaga tayangan holda xulosa tayyorlash va ularni manfaatdorlarga taqdim etish imkoniyatini bermaydi. Natijada biznes subyektlarining real holatini o‘zlari istagan tarzda emas, ular foydalanalayotgan resurslar egalari istagan tarzda ochib berishlarining imkonini yuqqa chiqdrmoqda;.

beshinchidan, buxgalteriya hisobining milliy standartlari MHXSga qanchalik moslashtirilmasin, agarda maqsadlar mushtarakligida axborotlar oqimi ochiqlanmaydigan bulsa, biznes subyektlarining real moliyaviy ahvoli, natijalari va ularning o‘zgarishlarini aniq aks ettirish imkonini bermaydi.”

Bugungi kunda sug‘urta tashkilotida ham yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun buxgalteriya hisobini yuritish tartibi puxta ishlab chiqilishi lozim. Ma’lumki, sug‘urta faoliyatini tashkil etish ishlab chiqarish, savdo va boshqa sohalardan tubdan farq kiluvchi xususiyatlarga ega. Masalan, ishlab chiqarish subyektlarida avval xarajat qilinib maxsulot yaratiladi, va u sotilgandan so‘ng daromad qilinadi, sug‘urta tashkilotida esa aksincha, avval daromad, ya’ni sug‘urta mukofotlari to‘planadi, so‘ng sug‘urta hodisasi yuz bergan takdirda xarajat amalaga oshiriladi, buning oqibatida qoplama to‘lanadi yoki kelib tushgan sug‘urta mukofotlari hisobot yili davomida majburiyatning bir qismi xisoblanib, yil tugagandan sung daromad sifatida tan olinishi va boshqalar. Sug‘urta tashkilotlarining o‘ziga xos jihatlari *O‘zbekistan Respublikasining “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi* Qonuni 23- moddasi “Sug‘urtalovchilar buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari” da ham o‘z aksini topgan bulib, “Sug‘urtalovchilar, sug‘urta brokerlari va qayta sug‘urta brokerlari maxsus vakolatli davlat organi belgilaydigan o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda konunchilikka muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadi”[3] deb alohida belgilab qo‘yilgan. Albatta mazkur xususiyatlar sug‘urta soxasida buxgalteriya hisobini yuritishning o‘ziga xos tartibini ishlab chiqishni talab etadi.

Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish texnologiyasi, uning xizmatlarining xususiyatlariga bog‘liqdir, ma’lumki, har qanday sug‘urta tashkiloti ma’lum haq evaziga o‘zining sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida sug‘urta shartnomasi, agar boshacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, sug‘urta mukofoti tulangandan yoki mukofot bo‘lib to‘lansa birinchi to‘lov amalga oshirilgandan sung kuchga kiradi. Demak, mazkur holatni tovarlarni sotish jarayoni bilan tenglashtiradigan bo‘lsak, sug‘urta tashkiloti sug‘urta xizmatlarining sotilishi hisobi faqatgina ularning haqi to‘lanish holatigagina olib borilishi mumkin.

Sug‘urta mukofot(vznos)larining iqtisodiy mohiyati shundaki, u milliy daromadning bir kismini o‘zida mujassamlantirib, sug‘urtalanuvchining manfaatlarini kafolatlab, sug‘urta hodisalari sodir bo‘lganda to‘lab beriladi. Sug‘urta mukofotlari huquqiy jihatdan olganda shartnomada belgilagan shartlar asosida qabul kilingan majburiyatlarning puldagi ko‘rinishi hisoblanadi.

1-jadval

Sug‘urta tashkilotlarida mukofotlarining turlari:

№	Turkumlash xususiyati	Sug‘urta mukofotlarining turlari
1.	Sug‘urta mukofotlarining tayinlanishi bo‘yicha:	a) Risklarni koplashga muljallangan mukofotlar b) Jamg‘arib borishga muljallangan mukofotlar
2.	Sug‘urta mukofotlarining xarakteri bo‘yicha mukofotlar:	a) Natural mukofot b) Doimiy mukofot
3.	Sug‘urta mukofotlarning tulash shakli bo‘yicha	a) Bir marotabalik to‘lanadigan mukofot b) Joriy to‘lab boriladigan mukofot v) Yillik mukofot g) Muddati o‘tgan mukofot

Sug‘urta tashkilotining tarif siyosati- bu sug‘urta tashkilotining faoliyatini samarali yuritishga erishish maqsadida sug‘urta tarifini aniqlash va tartibga keltirish uchun amalga oshiradigan tizimli ish jarayoni hisoblanadi.

Sug‘urta tashkilotining tarif stavkasi- to‘zilgan sug‘urta shartnomasi doirasida sug‘urtalovchining javobgarligini pul mablag‘lariga tenglashtirilgan risk va boshqa xarajatlarining narxi (bahosi) o‘zida mujassamlashtiradi. Tarif stavkalari yoki sug‘urta mukofotlarini belgilashda kuyidagi tamoyillarga amal qilish zarur:

1. Sug‘urta operatsiyalarining o‘zini qoplash va rentablilik.
2. Sug‘urta munosabatlarining ekvivalentlilik.
3. Sug‘urta tarifini hamma to‘lash imkoniyati (hamyonbob).
4. Sug‘urta tariflarining stabilligi (turg‘unligi).
5. Sug‘urtalovchining sug‘urta javobgarligining hajmini kengaytirish.

Sug‘urta tashkilotlarida hisob siyosati bu - boshqaruv, direksiyalar, tuman va shahar bo‘linmalarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni to‘zish tartib-qoidalari, ichki hisobotni to‘zish shakllarini muqobil tanlangan variantlari ishlab chiqilib tasdiqlangan hujjat bo‘lib, unda moliyaviy xo‘jalik muomalalarining baholanishi, aktivlarning kayta sanokdan o‘tkazilishi va hisobdan chiqarilishi, buxgalteriya schyotlarining qo‘llanilishi hamda tuman va shahar bulinmalari, direksiya, korparativ boshqaruv bilan o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni buxgalteriya yozuvlarida aks ettirishni o‘z ichiga oladi.

Sug‘urta tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishdagi yangicha yondashishning asosiy negizi shundaki, davlat tomonidan o‘rnatilgan umumiy qoidalar chegarasida sug‘urta tashkilotlari o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib hisob yuritish siyosatini ishlab chiqishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimov A.A., Quziev I.N., Raximov M.Yu. Moliyaviy hisobotning xalkaro standartlariga o‘tish: muammo v a istiqbol// "xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №

4, avgust, 2020 yil. ISSN: 2181-1016
2. Ҳамдамов Б.К., Ибрагимов К.Ш. Совершенствование бухгалтерского учета в Узбекистане на основе международных стандартов финансовой отчетности. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. №1, fevral, 2017 yil
3. O‘zbekistan Respublikasining "Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida"gi Qonuni. O‘zbekistan Respublikasining qonuni hujjatlari URK-730-son, 23.11.2021 yil

MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Amanova Nazokat Utkurovna
TDIU, i.f.f.d. (PhD), katta o‘qituvchi

Yuldoshev Rakimjon Maxsitboyevich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash va unga kredit berishlik imkoniyatini baholash tijorat banklari faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Mijozning kreditga layoqatliligini tahlil etishda tijorat banki mijozga beriladigan kreditning maqsadga muvofiqligini va kredit sharnomasida ko‘zda tutilgan shartlar asosida kreditning qaytarishlilik imkoniyati ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqsadlar uchun xalqaro amaliyotda tijorat banklari turli moliyaviy koeffitsientlar, pul oqimi va tadbirkorlik qaltisligini baholashdan foydalanadilar.

Buyuk Britaniyada ham «Parts» nomli qarz oluvchining kreditga layoqatliligini tahlil qilish usuli keng tarqalgan bo‘lib, unda:

- kreditning maqsadi – purpose;
- ssudaning hajmi – amount;
- qarzni to‘lash – repayment;
- muddati – term;
- ssudaning ta’minlanganligi – security kabilar tahlil qilinadi.

Baholash so‘ngida umumiy shart-sharoitlarga, xususan, davlatdagi ishbilarmonlik sohasidagi iqlim, bank bilan qarzdorlar holatiga ta’sir etuvchi omillar, mamlakatdagi iqtisodiy holat, monand tovarlar bo‘yicha ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobatning mavjudligi, soliqlar, xom ashyoga bo‘lgan narx-navolar va boshqa jihatlarga ham e’tibor beriladi.

AQShda potensial qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash uchun, o‘z navbatida, kredit riskini minimallashtirish uchun, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, 5 «C» nomli usul foydalaniladi. AQShda tijorat banklari tomonidan mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash uchun hamda beriladigan kredit riskini (tavakalchiligini) imkoniyati darajasida minimallashtirish uchun ular tomonidan ishlab chiqilgan 5 «C» lar qoidasi nomli usuldan juda keng foydalanadilar. Ushbu usul asosida tijorat banki tomonidan mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlari yotadi:

1. “Customer character” – mijozning mavqei;

2. “Capacity to pay” – mijozning to‘lovga qobiliyatliligi;
3. “Capital” – mijozning sarmoyasi (kapitali);
4. “Collateral” – beriladigan ssudaning ta’minlanganligi;
5. “Current business conditions and goodwill» – iqtisodiy kon’yuktura va uning rivojlanish istiqbollari.[2]

Tijorat banki mutaxassislari ushbu usul yordamida kredit oluvchi mijozning mavqei, obro‘si, uning ma’suliyati darajasi, olgan qarzini qaytarib to‘lab berishga bo‘lgan xohish-istagi va tayyorgarligini tekshiradi. Ushbu usul yordamida dastavval mijozning o‘tmishda (qarz olgunga qadar) o‘z qarz majburiyatlariga qanday munosabatda bo‘lganligi; olingan qarzlarni qaytarib to‘lashda qanday kamchiliklar bo‘lganligi; kredit oluvchi mijozning mamlakat iqtisodiyotida milliy (yoki baynalminal) bozorda qanday mavqega ega ekanligi o‘rganiladi va tekshiriladi. Bu erda tijorat banki-ning mutaxassislari mijoz bilan ochiq suhbat olib boradi, bank arxividan ushbu mijoz to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni olib ularni o‘rganib chiqib, tahlil etadi. Ushbu mijoz to‘g‘risida boshqa tijorat banklari va u bilan aloqada bo‘lgan turli firmalar bilan maslahatlashiladi. Mijozning to‘lov qobiliyatida uning barcha moliyaviy imkoniyatlari, olingan kreditni qaytarib to‘lash qobiliyati, foyda va zararlari hamda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni puxta tahlil qilish orqali aniqlanadi va shu bilan birga bank mutaxassilari asosiy e’tiborlarini yanada boshqa omillarga ham, shu jumladan, mijozning aksiyadorlik sarmoyasiga (kapitaliga), uning tarkibiy tuzilishiga, aktiv va passivlarining boshqa moddalriga bo‘lgan nisbatiga hamda olingan qarzning ta’minlanishiga, uning etarlilik darajasiga, sifatiga va to‘lamaslik holatida qo‘yilgan garovning likvidlilik darajasiga qaratadilar.

Yuqoridagi jarayonlar amalga oshirilgandan so‘ng tijorat bankining mutaxassislari o‘zlarining asosiy e’tiborini mijozning mamlakatdagi egallagan umumiy shart-sharoitlari hisoblangan; iqtisodiy holatning hozirgi zamon ahvoli, mijozning ishbilarmonlik darajasi, u tomondan ishlab chiqariladigan tovar maxsulotlari bo‘yicha bozorda boshqa ishlab chiqaruvchilar tomonidan raqobatning mavjudligi, mijoz to‘laydigan soliqlar va yig‘imlar, foydalaniladigan xom-ashyoga bo‘lgan narx-navolar tahlil etiladi. Tahlil natijasida iqtisodiy kon’yuktura va uning mijozning ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari aniqlangan taqdirda kreditga bo‘lgan talabnoma qondiriladi.

Angliyaning ixtisoslashgan kliring tijorat banklarida mijozlarning kreditga layoqatliligin baholashda mijozlarning kreditga to‘liq ma’lumotlardan foydalaniladigan “PARSER” va “CAMPARI” metodlaridan keng foydalaniladilar.

“PARSER” o‘z mohiyatiga asosan quyidagi mezonlarni o‘z ichiga oladi:

- “Rerson” bo‘lajak qarzdorning mavqei to‘g‘risidagi ma’lumot;
- “Amount”-bo‘lajak qarzdorning so‘ralayotgan kredit miqdorining asosnomasi;
- “Repayment” – olinadigan kreditning to‘lab berish imkoniyati;
- “Security” – kredit uchun qo‘yilayotgan garovni baholash;
- “Expendiency” - beriladigan kreditning maqsadga muvofiqligi;
- “Remuneration” – beriladigan kredit bo‘yicha tijorat bankining mukofoti va kredit bo‘yicha qaltislik darajasi.

[2] Банковское дело. Учебник.под.ред. проф Г.Г. Коробовой. М.: - “Экономистъ” 2006.

“CAMPARI” metodi quyidagi mezonlardan iborat:

- “Character” – bo‘lajak mijozning mavqei;
- “Ability” – bo‘lajak mijozning biznesini baholash;
- “Means” – mijozning kreditga ehtiyojini tahlil etish;
- “Purpose” – olinadigan kreditning maqsadi;
- “Amount” – olinadigan kredit summasining asosnomasi;
- “Repayment” – olingan kreditni qaytarib berish imkoniyati;
- “Insurance” – kredit riskini sug‘urta qilish usuli.[3]

Yuqorida ta’kidlab o‘tgan metodlardan tashqari boshqa metodlar bor. Lekin, mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash bo‘yicha barcha metodlar asosida kredit olish uchun murojaat etgan har bir mijoz to‘g‘risida mijoz to‘g‘risidagi zarur barcha ma’lumotlarni yig‘ish, ularni umumlashtirish va chuqur tahlil etishni tashkil qiladi.

Biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan mijozning kreditga layoqatliligini aniqlashning barcha metodlar talablari har bir tijorat bankida maxsus Nizomga jamlangan va uni bajarilishi qat’iy nazoratga olingan.

Ma’lumki, kredit qo‘yilmalarining iqtisodiyotning turli tarmoqlari va bankni mijozlari guruxi o‘rtasida diversifikatsiyalash esa, bank tizimini rivojlantirishdagi raqobatbardoshlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan holda, bank sektorini monopoliyadan chiqarishni kuchaytiradi. Tijorat banklari faoliyatining universallashtirish bank-lararo raqobatning shakllanishiga, ularning iqtisodiyotning bozor tamoyillari aosida faoliyat ko‘rsatishga undaydi. Iqtisodiyotning tarmoqlari (sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish, savdo va boshqalar) bo‘yicha kredit portfelining diversifikatsiyasi mijozlar bozorida banklararo raqobat uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan bevosita bog‘liqdir. O‘z vaqtida sog‘lom raqobat tijorat banklari tomonidan bank xizmatlari bozorini yanada kengaytirish zaruriyatini belgilaydi, ya’ni universallashtirishning ob’ektiv sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Shu erda ta’kidlash lozimki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat banklari o‘z mijozlariga 300 ga yaqin turli xildagi bank xizmatini taklif etadi.

Banklar faoliyatida qo‘llaniladigan zamonaviy usullardan biri bo‘lgan kredit skoring mijozning kreditga layoqatliligini aniq va chuqurroq baholash yo‘li bilan kreditning qaytmasligi bilan bog‘liq yo‘qotishlarning oldini olish imkonini beradi. Kreditlar bilan bog‘liq risklarni baholash usullari va tamoyillarini o‘zgartirish orqali ularni kamaytirish va kreditlarning o‘z vaqtida bankga qaytishini ta’minlash sohasida xorijiy banklar amaliyotida qo‘llanilayotgan mijozning kreditga layoqatliligini skoring baholash usulini respublikamiz banklari amaliyotiga joriy qilishni yo‘lga qo‘yish mijozning moliyaviy axvoli va uning kredit tarixiga oid masalalarni chuqur tahlil qilgan holda unga tezkor kredit berish va kredit bilan bog‘liq riskni kamaytirish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Skoring - «scoring»- inglizcha “score” so‘zidan olingan bo‘lib ochko yoki ballarni hisoblash degan ma’noni bildiradi. Banklar faoliyatida esa skoringga kredit berish bo‘yicha qaror qabul qilishning asosi, kreditlar bo‘yicha risklarni baholash tizimining usuli sifatida qarash mumkin. Yanada aniqroq qilib aytganda, skoring bank tomonidan

[3] Банковское дело. Учебник.под.ред. проф Г.Г. Коробовой. М.: - “Экономистъ” 2006.

qator kompleks ko‘rsatkichlar va statistik usullar asosida kredit oluvchi mijozning kreditga va to‘lovga layoqatliligiga baho berish orqali uning kreditni to‘lay olish yoki olmaslik ehtimolini aniqlashdan iborat. Skoring baholash *k*ompyuter dasturi orqali amalga oshirilib u mijoz turmush tarzi va faoliyatining turli tomonlarini o‘zida aks ettiruvchi bir necha xil tasniflarni o‘zida mujassamlashtirgan matematik model va usullar majmuasi hisoblanadi. Skoringning ishlash prinsipi shundaki, mijoz tomonidan to‘ldirgan anketa ma’lumotlari asosida u to‘g‘risida ma’lumotlar yig‘iladi. Mijozning bank xodimi tomonidan ishlab chiqilgan anketa savollariga bergan javoblarining har biri aniq ballar bilan baholanadi. Baholash mijozning kredit tarixi va anketaviy statistik ma’lumotlari asosi kreditni qaytara olish ehtimoli bo‘yicha matematik hisob-kitoblar hisoblanadi. Va ularning yig‘indisiga qarab mijozga kredit berish yoki bermaslik bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

Mijozning kreditga layoqatliligini baholashda skoringdan foydalanish kredit ajratish bo‘yicha qarorning tez qabul qilinishiga zamin yaratadi hamda kredit olish jarayonini maksimal darajada tezlashtiradi, kredit olish bo‘yicha ma’lumotlarga ishlov berish to‘liq avtomatlashtirilganligi bois, bu jarayonlarga inson omilining ta’siri minimallashadi. Bank xodimi va mijozning vaqti tejaladi, kredit olish va uning ta’minlanganligi bilan bog‘liq hujjatlashtirish jarayonlari va soni qisqaradi. Shuningdek, kredit skoringda ta’minot masalasining dolzarbligi kamayadi, mijozlarning faoliyati va kredit tarixida shaffoflik shakllanadi. Bularning barchasi kredit va kreditlash jarayoni bilan bog‘liq risk darajasi kamayadi.

Skoringning bir necha turlari bo‘lib ular nafaqat mijozning kreditga layoqatliligini baholashda, balki mijoz kredit olgandan keyin uning moliyaviy holatiga qarab kreditning qaytarilishi holati to‘g‘risida ham ma’lumot berishi mumkin. Shundan kelib chiqib banklar o‘z amaliyotida skoringning u yoki bu turini ko‘proq qo‘llashi mumkin.

Mamlakatimiz banklari amaliyotida kredit skoringni joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, keyinchalik ushbu tizimni yuridik shaxslarni kreditlashga ham joriy qilib borish, unda kredit skoringning omillari sirasiga mijozning moliyaviy ahvoli, kredit tarixi, daromadlarining barqarorligi, bozorda tutgan o‘rni, mahsulotlarining xaridorgirligi, o‘z mablag‘larining, debitor-kreditor qarzdorlik salmog‘i kabi ko‘rsatkichlarga ustuvorlik berish katta ahamiyat kasb etishi mumkin. Binobarin, mijozlarga kredit ajratishda kredit skoring amaliyotini joriy qilish kelajakda kredit qo‘yilmalar hajmining oshishiga, ishlab chiqirish hajmi va samaradorligining yuksalishiga zamin yaratadi, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan risklar va riskli holatlarning oldini olish, skoring natijalaridan kelib chiqib bank risklarini boshqarish strategiyasini muvofiqlashtirib borish imkonini beradi. Shu bois, bizning fikrimizcha, mamlakatimiz bank amaliyotiga kredit skoring tizimini joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish hamda amalga oshirish tijorat banklarining xalqaro talablar darajada faoliyat olib borishini yanada yuqori pog‘onaga olib chiqishi bilan birgalikda ularning moliyaviy barqarorligi va likvidliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mijozlarning kreditga layoqatliligini baholash bo‘yicha xorijiy tajribalarni o‘rganish geografik chegaralarni kesib o‘tuvchi turli xil uslublar va innovatsiyalarni yoritadi. Innovatsiyalar kreditga layoqatlilikni baholashning aniqligi

va samaradorligini oshirib, moliyaviy institutlarga risklarni samarali boshqarish bilan birga yanada ongli qarorlar qabul qilish imkonini berdi. Aslini olganda, xorijiy tajribalarni o‘rganish mijozlarning kredit qobiliyatini baholashda doimiy evolyutsiya va moslashish zarurligini ta'kidlaydi.

O‘ZBEKISTONDA CHAKANA MOLIYAVIY XIZMATLARNI KO‘RSATISH MEXANIZMI

Asqarov Sarvar Anvar o‘g‘li
TDIU tayanch doktoranti

Iqtisodiyotning raqamlashishi va iqtisodiy tizimning asosiy tarmog‘i sanalgan banklarning transformatsiyalashishi natijasida bank xizmatlari soni ham kundan kun ortib, raqamlashib bormoqda. An’anaviy bank xizmatlarini masofadan turib amalga oshirish va xizmatlarni onlayn amalga oshirish imkoniyatlarining yaratilayotganligi banklar uchun yangi zamonaviy platformalar orqali xizmatlar ko‘rsatish davrini boshlab berdi.

Bundan sharoitda esa banklar faoliyatini transformatsiya qilish, bank xizmatlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish hamda banklararo raqobat kuchayganidan dalolat beradi. Banklarni samarali transformatsiya qilishda ko‘p jihatdan innovatsion bank mahsulotlarini va xizmatlarini birinchilardan bo‘lib joriy qilish va sohaga yetarlicha investitsiyalar kiritishdan cho‘chimaslik kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019-yil 28-sentabr-dagi 24/5-sonli qarori “Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish to‘g‘risidagi” nizomiga muvofiq qarz beruvchi qarz oluvchi o‘rtacha oylik daromad-larini aniqlashda quyidagi tasdiqlovchi hujjatlar va ma’lumotlardan foydalanish huqu-qiga ega [1]:

- ish beruvchi tomonidan tasdiqlangan ish haqi to‘g‘risidagi ma’lumotlari;
- pensiya miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlari;
- fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma’lumotlari;
- qarz oluvchining bank hisobvaraqlariga tushgan daromadlari to‘g‘risidagi ma’lumotlari;
- to‘langan soliqlar to‘g‘risidagi ma’lumotlari;
- foizlar, dividendlar, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan va shular kabi boshqa doimiy tarzdagi daromadlarini tasdiqlovchi ma’lumotlar.

Shu o‘rinda 2023-yil 5 aprel kuni O‘zbekiston Respulikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “2023 yil uchun ipoteka dasturi” muhokamasi yuzasidan o‘tka-zilgan videoselektor yig‘ilishida ta’kidlanishicha 2023 yil 1 maydan boshlab rasmiy daromadi yetarli bo‘lmagan aholiga ham ipoteka krediti olish imkoni yaratilishi, bunda ularning to‘lov qobiliyatini aniqlashda bank kartasidagi aylanma, ijara, kommunal va boshqa xarajatlarga to‘langan pullari ham hisobga olinshi ta’kidlab o‘tildi [2].

Quyidagi jadvalda banklar tomonidan qanday daromad manbalari kredit ajra-

tishda hisobga olinishi yoki umuman hisobga olinmasligi haqida ma’lumot keltiramiz. Ya’ni kredit ajratishga asos bo‘luvchi va tan olinmaydigan jismoniy shaxslarning daromad manbalari keltirib o‘tilgan.

Pensiya to‘lovlari mijoz tomonidan ma’lum yoshga /holatga/ ijtimoiy mavqega yetganida olinadigan ijtimoiy nafaqalar. Kredit oluvchi pensiya to‘lovlari olinganligini pensiya tayinlanishi to‘g‘risida xat yoki pensiya guvohnomasi va pensiya to‘lovlari olinganligini tasdiqlovchi bank hisobvarag‘idan ko‘chirma asosida tasdiqlaydi.

Dividendlar esa yuridik shaxsning aksiyadori (ishtirokchisi) bo‘lgan mijozning yuridik tashkilot foydasidagi ushbu tashkilotning ustav kapitalidagi ulushlari bo‘yicha taqsimlanishidan oladigan daromadidir. Kredit oluvchi mijoz dividendlar olganligini tasdiqlash uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

–yuridik shaxs ishtirokchilarining dividendlar to‘lash bo‘yicha yig‘ilish bayonnomalari;

–dividendlar shaklidagi daromaddan soliq to‘langanligini tasdiqlovchi hujjat. Aksariyat hollarda, agar qarz oluvchi bunday to‘lovlarni kamida bir yil davomida olgan bo‘lsa va kelajakda bunday daromad olish ehtimoli mavjud bo‘lsa, dividend daromadi mijozning umumiy daromadiga kiritiladi.

1-jadval

Jismoniy shaxslaga chakana kreditlar ajratishda hisobga olinadigan va hisobga olinmaydigan daromad turlari [3]

№	Banklar tomonidan hisobga olinadigan daromadlar	Banklar tomonidan hisobga olinmaydigan daromadlar
1.	Ish haqi - qat’iy belgilangan qismi (ish haqi, oylik bonuslar (masalan, toifa uchun, tajriba uchun va boshqalar))	Qimmatli qog‘ozlardan olingan daromadlar
2.	Ish haqi - o‘zgaruvchan qismi (muayyan rejalarni amalga oshirish va / yoki ma’lum natijalarga erishish natijasida olingan mukofot va bonus to‘lovlari, komission daromadlari)	Bir martalik sug‘urta to‘lovlari
3.	Ta’til to‘lovlari	Valyuta, qimmatli qog‘ozlar, tovarlar, ko‘char va ko‘chmas mulk va boshqalarni oldi-sotdi qilish operatsiyalaridan olingan daromadlar
4.	Dividendlar	Lotereya va qimor o‘yinlaridan yutuq va sovrinlar
5.	Barqaror sug‘urta to‘lovlari ko‘rinishidagi daromad	Olingan jarimalar va penyalar
6.	Ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar	Bonus to‘lovlari (asosiy va qo‘shimcha ish joyidan tashqari)
7.	Pensiya to‘lovlari	Davlat nafaqalari (vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari bundan mustasno)
8.	Boshqa daromadlar	Aliment
9.		Ta’lim muassasalarining stipendiyalari
10.		Donorlar uchun mukofotlar
11.		Bir martalik yillik bonuslar

Barqaror sug‘urta to‘lovlari ko‘rinishidagi daromad bu mijoz va sug‘urta kompaniyasi o‘rtasida ma’lum bir yoshga qadar yashash to‘g‘risida shartnoma tuzish orqali sug‘urta to‘lovi tizimidan foydalangan holda to‘lanadigan haqdir.

Ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar esa mijoz o‘ziga tegishli bo‘lgan mulkni ijaraga berishdan ko‘radigan daromaddir. Buni tasdiqlash uchun quyidagi hujjatlar talab qilinishi mumkin:

–mijozning ijaraga beriladigan mulkka egalik huquqini tasdiqlovchi guvohnoma;

–joriy (va oldingi) tomonlar o‘rtasida tuzilgan ijara shartnomasi;

–mijozning oxirgi 12 oy uchun ijara to‘lovi olinganligini tasdiqlovchi hisobvaraqdan ko‘chirma;

–o‘tgan yilda ko‘chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha soliq to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar (to‘lov topshiriqnomalari yoki boshqa hujjatlar).

2-jadval

Mobil bank ilovasidan foydalanishning ijobiy jihatlari [4]

t/r	Afzallik	Izoh
1.	Hisobvaraqlar bilan ishlashda komissiya olinmasligi	Foydalanuvchilar qo‘shimcha komissiyasiz pul o‘tkazishlari, omonat ochishlari, chet el valyutasini sotib olishlari mumkin. Tranzaktsiyalari haqidagi hisobotlari ilovada saqlanadi.
2.	Foydalanish osonligi	Hatto texnologiyadan moliyaviy savodxonligi yuqori darajada bo‘lmagan foydalanuvchilar ham ilovani tushuna oladi. Dastur interfeysi aniq, menyu qulay joylashgan, tugmalar va bo‘limlar nomi yozilgan. Dasturning o‘zida kerakli xizmatni topish uchun yordamchi mavjud.
3.	Operatsiyalar tezligi	Smartfon va SIM-karta foydalanuvchiga bir necha daqiqada to‘lovni amalga oshirish, hisobidagi qoldiqni bilish, valyutani almashtirish va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. Bank ofisiga tashrif buyurish shart emas va internet mavjud bo‘lgan istalgan joydan opresiyalarni amalga oshirish mumkin.
4.	Katta funksionallikning bir joyda jamlanganligi	Mobil ilova orqali kommunal xizmatlar va boshqa xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirish, onlayn kredit olish, turli pul o‘tkazmalarini amalga oshirish, ayrim doimiy to‘lovlar uchun avtomatik rejimni yoqish va boshqalar. Shu bilan birga xavfsizlik uchun har qanday operatsiyalar haqida va turli yangiliklar haqida xabarlar kelib turadi.

Shunday qilib, rasmiy ish joyidagi rasmiy oylik maoshidan tashqari daromad qarz oluvchining yagona daromad manbai sifatida qarash noto‘g‘ridir.

Banklarda zamonaviy risk-menejment tizimini joriy etishga qaratilgan ishlar jadallashtirilib, tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslarning kredit bo‘yicha murojaatlarini qisqa muddatda ko‘rib chiqishni ta’minlashga yo‘naltirilgan anderrayting va skoring tizimlari joriy etildi.

Mobil bank ilovasidan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Xususan telefon qurilmalari orqali mobil ilovalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjud.

Mobil texnologiyalar iste’mol sanoatini o‘zgartirdi, ammo moliyaviy xizmatlar bozorini ko‘proq o‘zgartirdi. Mobil ilovalar millionlab bank mijozlari uchun o‘z

mablag‘larini boshqarish uchun maqul ko‘rgan aloqa nuqtasiga aylandi. Banklarda xizmat ko‘rsatishdagi navbatlar ortib borayotganligi sababli, raqamli bankingning dolzarbligi ortishi va banklar o‘z mobil ilovalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etmoqda.

Shuning uchun an’anaviy banklar mobil ilovalarini taqomillashtirish maqsadida xalqaro moliyaviy texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Bugungi kunda banklar mobil ilovalar orqali an’anaviy xizmatlarini mobil ilovalar orqali raqamli amalga oshirishga xarakat qilmoqda. Moliyaviy texnologiya inqilobi iste’molchilarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lidagi oldinga qadamdir.

3-jadval

Mobil bank ilovasidan foydalanishdagi salbiy jihatlar [4]

t/r	Kamchilik	Izoh
1.	Uyali aloqa zarurligi	Agar abonent tarmoqning qamrov zonasidan tashqarida bo‘lsa, u holda smartfonda dasturdan foydalanish imkoniyati bo‘lmaydi.
2.	Smartfonning yo‘qolishi	Qurilmaning yo‘qolishi uning egasini aloqasiz va bank dasturisiz qoldiradi. Endi uning shaxsiy moliyasiga uchinchi shaxslar kirishi mumkin. Fuqaro o‘z vaqtida ilovani blokirovka qilishi kerak. Shunda mijoz o‘z mablag‘larini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
3.	To‘liq funksionalning mavjud emasligi	Aksariyat bank xizmatlari mavjud, ammo ba’zilari cheklangan bo‘ladi.

Smartfon orqali moliyaviy operatsiyalar bajarilayotganda xavfsizlik choralariga e’tiborli bo‘lish lozim. Birinchidan, kirish parolini o‘zgartirib turish lozim. Ba’zi foydalanuvchilar barcha bank dasturlari uchun bir xil parollarni o‘rnatadilar. Bunday qilmaslik kerak, chunki nazariy jihatdan qurilmani shifrni terish orqali buzish mumkin. Agar u barcha dasturlarda bir xil bo‘lsa, buni qilish yanada oson bo‘ladi. Bundan tashqari parollarni oddiy ketma-ketlikdagi sonlar yoki xarflar bilan emas balki kichik xarf, katta harflar va raqamlardan iborat bo‘lishi kerak. Yoki belgilarni ham qo‘shgan holda parol biriktirish maqsadga muvoffiqdir. Ikkinchidan, biometrik xavfsizlik turlaridan birini o‘rnatish lozim. Ya’ni barmoq izi yoki yuz identifikatsiyasi orqali bank dasturiga kirish lozim. Ushbu turdagi himoya choralari firibgarlarning parolni buzishi va hisobraqam uchun PIN-kodni olishining oldini oladi. Uchinchidan umumiy foydalaniladigan Wi-Fi tarmoqlari orqali ilovaga kirish hamda notanish smartfonlardan foydalangan holda bank hisobiga kirish ham xavflidir. Belgilarni saqlab oladigan dasturga boshqa qurilma yoki dastur o‘rnatilgan bo‘lishi mumkin. Bu firibgarlarga parolga ega bo‘lish imkonini beradi. To‘rtinchidan, shubhali havolalarga ishongan holda kirib ko‘rish tavsiya etilmaydi. Onlayn bankingga havolasi bo‘lgan moliyaviy kompaniyaning elektron pochta xabarlari va bildirishnomalariga shubha bilan qarash lozim. Chunki ualar hech qachon bunday xabarlarni yubormaydi [5].

Aslida, mobil ilovalardagi onlayn operatsiyalar bankda amalga oshiriladigan ananaviy operatsiyalar bilan bir xil operatsiya deb qarash mumkin, faqat ular ancha tez va qulayroqdir. Banklar har doim mobil ilovalarini yanada ko‘proq funksiyalarni qo‘shib takomillashtirmoqda. Natijada bank mijozlari mobil ilovalarining barcha mavjud imkoniyatlaridan foydalanib, vaqtini va xarajatlarini sezilarli darajada tejashi va sog‘lig‘ini himoya qilishi mumkin [6].

Qayd etish joizki, birorta ham O‘zbekiston davlat banki kuchli uchlikka kirmadi, xorijiy raqamli bank va to‘lov tizimlari yetakchi bo‘ldi. Umuman olganda, natijalarga ko‘ra O‘zbekistonda mobil banklarda raqamlashtirish darajasi 50 foizdan oshmagan. Ko‘pgina jarayonlar hali ham bank ofisiga tashrif buyurish bilan faqat oflayn rejimda hal qilinadi, bu esa O‘zbekiston bank tizimida mobil bankingni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2019 yil 28 sentyabrdagi 24/5-sonli qarori “Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish to‘g‘risidagi” nizomi
2. https://www.gazeta.uz/uz/2023/04/05/ipoteka/
3. Muallif tomonidan tuzildi.
4. Internet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.
5. Navbatsiz banklar: bank mobil ilovalarining zamonaviy imkoniyatlari | Depozit.uz
6. Marin Luetic (2021) Fintech mobile applications and the new era of personal finance. June 2, 2021

SUG‘URTA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH JARAYONIDA ZAMONAVIY RISKLARNI SUG‘URTALASHNING AHAMIYATI

Axmatjonova Sevaraxon Tursunboy qizi
Bank va moliya akademiyasi magistranti

Jahon hamjamiyatining ko‘zlangan rivojlanish va farovonlikka erishishi uchun raqamlashtirishga bo‘lgan ehtiyoji katta sur’atlar bilan ortib bormoqda. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish bozor iqtisodiyotiga o‘tishni tezlashtiradi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi. Sug‘urta kompaniyalari faoliyatini rejalashtirish va xizmatlarni raqamlashtirishni joriy qilish va o‘zaro bog‘liq ma’lumotlar to‘plamini qayta ishlashni o‘z ichiga oladi, balki ularni tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini asoslash uchun ham ishlatilishi mumkin. Mamlakatda tobora sug‘urta sohasining rivojlanishiga katta ahamiyat berilmoqda. Sug‘urta sohasini taraqqiy toptirish sug‘urta sohasida yangi mahsulotlar va qulayliklarni uzluksiz ravishda yaratib borishni talab qiladi. Endilikda sug‘urta sohasining rivojlanishi uchun axborot texnologiyalaridan keng va samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Sug‘urta sohasida axborot texnologiyalaridan foydalangan holda agentlar uchun ushbu dastur ustida ish olib borilmoqda. Central Insurance Base (CIB.uz), ya’ni “Markaziy sug‘urta bazasi” deb ataluvchi dastur agentlar uchun ancha qulayliklar va ortiqcha narsalarni ko‘tarib sarson bo‘lmaydilar, degan maqsadda yaratilmoqda. Ushbu dasturning qulaylik taraflari shundan iboratki, agent uchun kompyuter, printer va boshqa ortiqcha buyumlar kerak emas.

Milliy sug‘urta bozorining jadal rivojlanishini ta’minlash, iste’molchilarning sug‘urta bozoriga bo‘lgan ishonchini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2021-yilda PQ-5265-sonli sug‘urta bozorini raqamlashtirish va

hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida Qarori qabul qilingan. Unga muvofiq:

2022-yil 1-iyuldan boshlab: sug‘urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat beriladi;

2023-yil 1-yanvardan boshlab majburiy sug‘urtaning barcha turlari bo‘yicha sug‘urta polislarini qog‘oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinadi. 2022-yil 1-yanvardan 2025-yil 1-yanvarga qadar hayot sug‘urtasi sohasida faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlarining mazkur faoliyati qismi uchun hisoblanadigan foyda solig‘i bo‘yicha belgilangan soliq stavkasi 50 foizga kamaytiriladi;

2022-yil 1-yanvardan 2024-yil 1-yanvarga qadar ish beruvchi tomonidan o‘z xodimlari uchun baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug‘urta qilish va tibbiy sug‘urta turlari bo‘yicha tuzilgan sug‘urta shartnomalari asosida O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta faoliyatini amalga oshirishga litsenziyasi bo‘lgan yuridik shaxslarga yo‘naltiriladigan mablag‘lar jismoniy shaxslarning jami daromadi sifatida qaralmaydi. [1]

Elektron sug‘urtaning amaliy tahliliga ko‘ra, dunyo bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining 2,5 trillion dollardan taxminan 1 foizi elektron sug‘urta orqali qabul qilingan. 2021-yilda sug‘urta mahsulotlarini sotib olish uchun 2894 mlrd. dollarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri mukofotlar ishlatilgan bo‘lib, u YaIMning 8,8 foizini, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich 208 mlrd. dollarni tashkil etgan. Shveytsariyaning SIGMA tadqiqot guruhi 2030-yilga kelib elektron sug‘urta bozorda 55-60 foiz ulushga ega ekanligini taxmin qilmoqda.

Sug‘urtani raqamlashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan strategiya kelajakda katta samaradorlik keltiradi. Istisnosiz ravishda barcha ish jarayonlarini raqamlashtirish, shu jumladan mijozlar bilan munosabatlarni o‘rnatish, masofaviy xizmat ko‘rsatish va mahsulotning yangi arxitekturasini joriy qilish – bu nafaqat sug‘urta kompaniyalarining, balki har qanday moliyaviy kompaniyaning istagidir. Yangi raqamli texnologiyalar bir tomondan rivojlanish imkoniyatlarini oshirish va tanlash erkinligini ta’minlasa, boshqa tomondan, bu ham kompaniyalar, ham mijozlar uchun moslashuvchanlikning jiddiy sinovidir. Shuni ta’kidlash mumkinki, sug‘urtani raqamlashtirish sug‘urta kompaniyalari xodimlari faoliyatini boshqarishga va mahsulot turlariga ta’sir qiladi. Bunda sug‘urta kompaniyalari risklarini xolisroq baholashi va natijada ishonchli sug‘urta portfelini shakllantirishi mumkin bo‘ladi. Bularning barchasi birgalikda mamlakatda sug‘urtani rivojlantirish uchun istiqbolli natijalarni taqdim etadi.

Rivojlanayotgan yangi risklar yangi mahsulotlarning shakllanishini oldindan belgilab beradi, ularni ilgari surish yangi tarqatish kanallarini talab etadi, bu sug‘urta kompaniyalarining zamonaviy bozordagi xatti-harakatlarini tubdan o‘zgartiradi, ularni mijozlarga yo‘naltirilganlikka undaydi. Sug‘urtaning innovatsion rivojlanishi masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar sug‘urtalovchilarning eng muhim faoliyati sug‘urta mahsulotining iste’mol qiymatini oshirishdan iborat ekanligi, bu mahsulotga yo‘naltirilgan sug‘urta kompaniyalaridan mijozlarga yo‘naltirilgan sug‘urta kompaniyalariga o‘tish, sug‘urtalanuvchilar manfaatlarining standart risklar to‘plamiga ega sug‘urta mahsulotlarini taklif qilingan (narxda sotib olishning moliyaviy imkoniyatlaridan ustunligi bildiradi. [2]

Sug‘urta sanoati raqamli transformatsiyadan o‘tmoqda va hayotni sug‘urtalash kompaniyalari bundan mustasno emas. Hayotni sug‘urtalash bo‘yicha raqamlashtirish sug‘urtachilarning biznes yuritishiga bir necha jihatdan ta’sir qiladi.Masalan, sug‘urtalovchilar jarayonlarni soddalashtirish, mijozlar tajribasini yaxshilash va yangi mahsulotlarni ishlab chiqish uchun bulutli hisoblash, katta ma’lumotlar, ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt (AI) kabi raqamli texnologiyalardan foydalanmoqda. Bundan tashqari, mobil ilovalar, videokonferensaloqa va bulutli xizmatlar kabi raqamli texnologiyalar mijozlar bilan muloqotni yanada samarali qilish uchun qo‘llanilmoqda.

Oxir oqibat, raqamli yechimlar hayotni sug‘urtalash tashuvchilarga o‘z mijozlarining ehtiyojlariga yanada tezkor va sezgir bo‘lishga imkon beradi.

Sug‘urta sanoati rivojlanishda davom etar ekan, hayotni sug‘urtalovchilar bozorda raqobatbardosh bo‘lib qolishi uchun raqamli transformatsiyani qabul qilishlari juda muhimdir.

Raqamlashtirish hayotni sug‘urtalash sohasida samaradorlikni oshirish, shaxsiylashtirish, shaffoflikni oshirish va boshqa imtiyozlar qatorida firibgarlikni kamaytirish orqali sezilarli yaxshilanishlarga olib keldi.

Raqamli transformatsiya hayotni sug‘urtalash sektorini yaxshilashiga oid ba’zi aniq misollar keltirilgan:

Mahsulotni ishlab chiqishni jadallashtirish : sug‘urta sohasida raqamlashtirish hayotni sug‘urtalovchi kompaniyalarga mijozlar ma’lumotlarini tahlil qilishni va mijozlarning ehtiyojlari va afzalliklarini yaxshiroq tushunishni osonlashtiradi. Ushbu ma’lumotlardan ushbu ehtiyojlarga mos keladigan sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish uchun foydalanish mumkin.

Mijozlarni ko‘rib chiqish va baholash: Raqamli kanallardan foydalanish hayotni sug‘urtalovchilarga mijozlarni jalb qilish jarayonini yanada samaraliroq, shaxsiylashtirilgan va ma’lumotlarga asoslangan holda konvertatsiya va joylashtirishni yaxshilashga yordam beradi. Bunga quyidagilar kiradi:

Raqamli marketing: Hayotni sug‘urtalovchilar potentsial iste’molchilarga yanada samarali erishish uchun raqamli marketingdan foydalanishlari mumkin. Ijtimoiy media platformalari, elektron pochta marketingi va onlayn reklamadan foydalangan holda, sug‘urtachilar iste’molchilarning ehtiyojlari va manfaatlariga mos keladigan shaxsiy xabarlar orqali muayyan auditoriyaga yo‘naltirilishi mumkin.

Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish (CRM): CRM dasturi tashuvchilarga dastlabki aloqadan tortib siyosatni yangilashgacha bo‘lgan mijozlar o‘zaro munosabatlarini kuzatish va boshqarishga yordam beradi. Mijozlarning xohish-istaklari, xatti-harakatlari va fikr-mulohazalari haqida ma’lumot to‘plash sug‘urtachilarga o‘z mijozlarining ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun takliflarni moslashtirishga imkon beradi.

Elektron ilovalar (eApps): e-ilovalar mijozlarga o‘z uylarida turib onlayn qamrovga ariza berish imkonini beradi va ariza berish jarayonini soddalashtirishi mumkin.

Da’volarni boshqarish: Onlayn da’volar va raqamli hujjatlarni taqdim etish orqali sug‘urtachilar ishlov berish vaqtlarini qisqartirishi va mijozlar ehtiyojini qondirishni yaxshilashi mumkin.

Anderrayting murakkabligini kamaytirish: Raqamlashtirish sug‘urtalovchi- larga

ma’lumotlar yig‘ish, xavflarni baholash va siyosat berish kabi anderrayting bilan bog‘liq ko‘plab vazifalarni avtomatlashtirishga yordam beradi.

Hayotni sug‘urtalash kompaniyalari o‘zlarining anderrayting jarayonlarini avtomatlashtirish uchun (AI) va mashinani o‘rganish (ML) algoritmlaridan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Avtomatlashtirish qo‘lda anderraytingning murakkabligini kamaytiradi va umumiy jarayonni tezlashtiradi. Bu sug‘urtalovchilarga yuqori xavf holatlarini aniqlashga, shaxsiylashtirilgan mahsulot va xizmatlarni taklif qilishga va polisni rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqtni qisqartirishga yordam beradi.

Tizimdan foydalanishdagi kamchilik va muammolar. Xavfsizlik masalalari va tashvishlari: Sug‘urta ilovalari raqamli bo‘lgani uchun ma’lumotlar xavfsizligi bilan bog‘liq muammolar mavjud. Foydalanuvchilar o‘zlarining shaxsiy va moliyaviy ma’lumotlariga nisbatan kiberxavflar samarali himoyalanganligiga ishonchlari komil bo‘lishi kerak.

Cheklangan odamlarning o‘zaro ta’siri: Ilovalar qulay bo‘lsa-da, ular qiyin sug‘urta vaziyatlari bo‘yicha muzokaralar olib borishda yoki qiyin da’volar qo‘yishda foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan moslashtirilgan yordam va insoniy teginishni ta’minlamasligi mumkin.

Texnik muammolar: Ilova foydalanuvchilari ulanish bilan bog‘liq muammolar, tizimdagi nosozliklar yoki boshqa texnik muammolarga duch kelishi mumkin, bu ularga sug‘urtalariga kirish yoki boshqarishga to‘sqinlik qiladi.

Murakkab xususiyatlar: Ba’zi sug‘urta ilovalari, ayniqsa texnik bo‘lmagan foydalanuvchilar uchun murakkab xususiyatlar va interfeyslar tufayli foydalanish qiyin bo‘lishi mumkin.

Qoplash uchun cheklangan imkoniyatlar: Barcha sug‘urta turlariga ilova orqali kirish mumkin emas, bu esa mutaxassisni qamrab olish uchun vakil yoki agent bilan o‘zaro aloqani talab qiladi.

Foydalanuvchining shaxsiy daxlsizligi bilan bog‘liq muammolar: Sug‘urta ilovalari foydalanuvchi faoliyati haqida ma’lumot to‘plashi va uni uchinchi shaxslarga etkazishi mumkin. Ilovaning maxfiylik sozlamalari va siyosatini diqqat bilan o‘qib chiqish juda muhimdir.

Texnologiyaga bog‘liqlik: Faqat sug‘urta ilovalariga tayanish foydalanuvchilarning texnologiyaga qaram bo‘lishiga olib kelishi mumkin, bu esa kelajakda an’anaviy usullardan foydalanishni qiyinlashtiradi.

Rivojlanayotgan yangi risklar yangi mahsulotlarning shakllanishini oldindan belgilab beradi, ularni ilgari surish yangi tarqatish kanallarini talab etadi, bu sug‘urta kompaniyalarining zamonaviy bozordagi xatti-harakatlarini tubdan o‘zgartiradi, ularni mijozlarga yo‘naltirilganlikka undaydi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirishni jismoniy va yuridik shaxslarning yangi raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali sug‘urta himoyasiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish sifatida belgilashni taklif qiladi. Sug‘urtaga innovatsiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish maqsadida sug‘urta mahsuloti iste’molchilarining sug‘urta madaniyati va ularning moliyaviy qarorlar qabul qilish malakasini oshirish zarurati belgilangan.

Sug‘urta bozorini raqamlashtirish sug‘urta risklarning mavjudligi va sug‘urta fondini shakllantirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar sifatida sug‘urtaning iqtisodiy mohiyatini o‘zgartirmaydiSug‘urta bozorini yanada rivojlantirish uchun mijozlarga xizmat ko‘rsatishning innovatsion yo‘nalishlariga e’tibor qaratish lozim, bu esa xorijiy amaliyotda muvaffaqiyatli isbotlangan va Yevropaning yetakchi sug‘urta kompaniyalari faoliyatida joriy etilgan P2P, M2M, veb-interfeys va yordam dasturlarini sug‘urtalovchilar amaliyotida faol qo‘llashni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xasanov X.N. “O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati” maqolasi – 2023, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. № 6-son.
2. Xalikulova G.T. “Sug‘urta tashkilotlarining innovatsion faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash” maqolasi – 2023, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. № 5-son.
3. https://zinnia.com

BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTINI RAQAMLASHTIRISHNING HUQUQIY JIHATLARI (XORIJ TAJRIBA)

Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.

Banklar iqtisodiyotda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular to‘lov tizimini boshqaradi, iqtisodiyotning katta qismi uchun asosiy kredit manbai hisoblanadi va (odatda) omonatchilar mablag‘lari uchun xavfsiz boshpana vazifasini bajaradi [1]. Shuningdek, ular iste’molchilar va kichik biznes subyektlarini bank va moliyaviy mahsulotlar bilan ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Bunda banklar foiz stavkalari, yig‘imlar va xususiy mahsulotlarga bog‘liq.

Ko‘plab xorijiy mamlakatlarda yirik tijorat banklari doimiy ravishda yuqori sifatli texnologik infratuzilma, yirik ma’lumotlar markazlari va dasturiy ta’minot dasturlariga sarmoya kiritib bormoqda. Ammo yirik va uzoq muddatli banklarda mavjud bo‘lgan turli xil infratuzilmalar va eski ilovalarning murakkabligi va soni tufayli yangi yondashuvlarga o‘tish yo‘li ancha vaqt talab qilmoqda. Bundan tashqari, tijorat banklarida yillar davomida o‘rnatilgan markazlashtirilgan va an’anaviy ierarxiyalar ishonchli va samarali bo‘lsa ham, har doim ham tez o‘zgarishlarga javob bermaydi [2].

Raqamlash - bu avtomatlashtirilgan ish jarayoni va jarayonlar bilan shug‘ullanish uchun ma’lumotlarning analog oqimlarini raqamli ma’lumotlarga aylantirish orqali qo‘lda ishlov berish jarayonini avtomatlashtirishdir [3].

Raqamlashtirish - bu raqamli ma’lumotlardan foydalanish, shuningdek, ma’lumotlar shaffofligi va jarayon samaradorligini oshirish uchun aloqa hamda media infratuzilmasi atrofida ijtimoiy-iqtisodiy hayotni qayta qurish orqali biznes amaliyotlairni o‘zgartirish uchun raqamli texnologiyalar va axborotdan foydalanish jarayonidir [4].

Raqamli transformatsiya - bu mijozlarga asoslangan biznesni strategik

o‘zgartirish, asosiy vakolatlarga tashkilot darajasidagi o‘zgarishlarni talab qiladigan maqsadi bilan bir nechta raqamlashtirish loyihasining kombinatsiyasidir [5].

Banklarda chakana kreditlash jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish va uning faoliyatini o‘rganish bo‘yicha iqtisodchi olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan hamda ilmiy qo‘llanmalar yozilgan bo‘lib turlicha ta’riflar berilgan. Ushbu sohada tadqiqot olib borgan olimlarning fikricha, tijorat banklarda chakana kreditlash jarayonlarini raqamli transformatsiyalash jarayonlari moliya va bank sohasidagi bir qancha ko‘rsatkichlar bo‘yicha milliy iqtisodiyotning YaIM o‘sish sur’atlariga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Unga ko‘ra tanqili evropalik iqtisodchi olim Dimitris Chorafas moliya va bank sohasida jumladan bank texnologiyalari, risklarni boshqarish va raqamli transformatsiya bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy tdqiqotlar olib borgan [6]. Tadiqqotchi bank ishining raqamli transformatsiyasi, jumladan, chakana kreditlash jarayonlari moliya sanoatidagi risklarni boshqarish amaliyotini axborot tizimlari va texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini o‘z asarlarida ta’kidlab o‘tgan.

Taniqli iqtisodchi olim D.Mhlanganing fikricha kreditlash jarayonlarining raqamli transformatsiyasi bank sohasida inqilob qilmoqda. Sun’iy intellekt va raqamlashtirish jarayonlarida ilg‘or axborot texnologiyalari tijorat banklarida kredit tavakkalchiligini aniqroq baholash imkonini beradi, bu esa kreditlash bo‘yicha ko‘proq ongli qarorlar qabul qilish va mijozlar tajribasini yaxshilashga imkoniyat yaratdi [7].

Xorijlik iqtisodchi olimlar Warner and Wägerlanring fikricha raqamli transformatsiyalar biznes modeli, hamkorlik va madaniyatni takomillashtirishni o‘z ichiga olgan kundalik jarayonidir deb ta’kidlagan [8]. Tadqiqotchilarning fikricha raqamli transformatsiya bir martalik hodisa emas, balki doimiy uzluksiz jarayondir. Bu raqamli texnologiyalarning tashkilot strategiyasi va faoliyatiga qay darajada integratsiyalashganligi hamda muvaffaqiyatli raqamli transformatsiya orqali texnologik yutuqlardan tez o‘zgaruvchan raqamli landshaftda rivojlanish uchun tashkilot tuzilmasi, jarayonlarini moslashtirishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ular raqamli transformatsiyalardagi nazariy hissaning aksariyati mijozlar qiymati, tajribasi, faoliyati, operatsiyalari, strategik innovatsiyalar va yangi biznes modelini ishlab chiqish atrofida rivojlanishini ta’kidlab o‘tkan.

Iqtisodchi olim Thakor to‘lov tizimlari, kreditlash va sug‘urta sohasidagi innovatsiyalar moliyaviy vositachilikni qay darajada o‘zgartirganini tasvirlash uchun fintech bo‘yicha tadiqotlar olib borgan [9]. Olimning tadqiqot natijalariga ko‘ra fintechning to‘lov tizimlari, kreditlash va sug‘urtaga ta’siri moliyaviy jarayonlarni qayta shakllantirgan, bu esa raqobatning kuchayishiga, samaradorlikning oshishiga va mijozlar tajribasining yaxshilanishiga olib kelgan.

Xorijlik iqtisodchi olim Consoli axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nazariyasiga asoslangan holda, ishlab chiqarish, tashkil etish, iste’mol va tartibga solishda bank sektori tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy omillari ekanligini ta’kidlaydi [10]. Unga ko‘ra axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bank sektoridagi tarkibiy o‘zgarishlarga ta’siri, ishlab chiqarish, tashkil etish, iste’mol va me’yoriy-huquqiy bazalarning integratsiyalashuvini ishlab chiqishda asosiy o‘rinni egallagan.

Banklarda chakana kreditlash amaliyotining raqamli transformatsiyasi turli qonunchilik va me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu qoidalar iste’molchilarning himoyasi, ma’lumotlarning maxfiyligi, adolatli kreditlash amaliyoti va moliyaviy tizimning umumiy barqarorligini ta’minlash uchun o‘rnatiladi. Quyida biz AQShda va Yevropa ittifoqining bir nechta asosiy huquqiy jihatlarga to‘xtalib o‘tamiz:

Birinchidan, Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunlari:

- Kredit berishda haqiqat to‘g‘risidagi qonun (Truth in Lending Act (TILA)): AQSh dagi federal qonun bo‘lib, kredit operatsiyalari bilan bog‘liq asosiy shartlar va xarajatlarni aniq oshkor qilishni talab qilish orqali iste’mol kreditidan oqilona foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan. TILA iste’mol kreditining har xil turlariga, jumladan, chakana kreditlashga nisbatan qo‘llaniladi va chakana kreditlash amaliyoti bilan bog‘liq maxsus qoidalarni o‘z ichiga oladi [11].
- Adolatli kredit hisoboti to‘g‘risidagi qonun (Fair Credit Reporting Act (FCRA)): Bu ham AQSh dagi federal qonun bo‘lib, iste’mol krediti ma’lumotlarini to‘plash, tarqatish va ulardan foydalanishni tartibga soladi. FCRA chakana kreditlash amaliyotini to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshqarmasa-da, iste’mol krediti ma’lumotlari qanday hisobot berilishi, ishlatilishi va kreditorlar tomonidan foydalanilishini tartibga solish orqali ushbu amaliyotlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi [12].

Teng kredit imkoniyatlari to‘g‘risidagi qonun (The Equal Credit Opportunity Act (ECOA)): Bu ham AQSh dagi federal qonun bo‘lib, kreditorlarga irqi, rangi, dini, milliy kelib chiqishi, jinsi, oilaviy ahvoli, yoshi yoki davlat yordamini olganligi sababli kredit da’vogarlarini kamsitishni taqiqlaydi. Qonun muayyan himoyalangan xususiyatlar asosida kredit operatsiyalarida kamsitishni taqiqlaydi. U kreditning barcha turlariga, shu jumladan chakana kreditlashga ham taalluqlidir va barcha iste’molchilarning kredit imkoniyatlaridan adolatli va teng foydalanishini ta’minlashga qaratilgan [13].

Ikkinchidan, ma’lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligi to‘g‘risidagi qonunlari:

- Ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha umumiy reglament(The General Data Protection Regulation (GDPR), Yevropa Ittifoqi kontekstida): Yevropa Ittifoqi hududida jismoniy shaxslarning shaxsiy ma’lumotlariga ishlov berishni tartibga soladi. GDPR - bu shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishlashni tartibga solish uchun Yevropa Ittifoqi tomonidan qabul qilingan ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylik to‘g‘risidagi keng qamrovli qonun. Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi reglament GDPR maxsus chakana kreditlashni maqsad qilib qo‘ymasa-da, uning qoidalari chakana kreditlash kontekstida shaxsiy ma’lumotlar, ayniqsa, mijozlar ma’lumotlari va ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq qanday ishlanishiga ta’sir qiladi. Yevropa Ittifoqi fuqarolarining ma’lumotlari bilan shug‘ullanadigan har qanday bank GDPR talablariga javob berishi kerak [14].
- Gramm-Leach-Bliley Act (GLBA) bu ham AQShning federal qonuni bo‘lib, u iste’molchilarning moliyaviy maxfiyligiga e’tibor qaratadi va moliyaviy institutlar iste’molchilarning nodavlat shaxsiy ma’lumotlari (NPI) bilan qanday ishlashini tartibga soladi. GLBA chakana kreditlashni maqsad qilib qo‘ymasa-da, uning qoidalari moliyaviy institutlar, jumladan, chakana kreditlash bilan shug‘ullanuvchilar mijozlar ma’lumotlarini qanday boshqarishiga sezilarli darajada ta’sir qiladi [15].

Uchinchidan, normativ muvofiqlik to‘g‘risidagi qonunlari:

- Bank siri to‘g‘risidagi qonun (Bank Secrecy Act (BSA)): AQShning federal qonuni bo‘lib, u pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish va boshqa moliyaviy jinoyatlarga qarshi kurashishga qaratilgan. BSA birinchi navbatda pul yuvishga qarshi (AML) chora-tadbirlarga e’tibor qaratsa-da, uning qoidalari moliya institutlari faoliyatining turli jihatlariga, jumladan, chakana kreditlashga ta’sir qiladi.
- Mijozlaringizni bilish qoidalari (Know Your Customer (KYC) Regulations): moliyaviy institutlar o‘z mijozlarining shaxsini tekshirish va tushunish hamda ular bilan biznes yuritish bilan bog‘liq xavflarni baholash uchun amalga oshiradigan jarayonlar va tartiblarga ishora qiladi. KYC qoidalarida faqat chakana kreditlash uchun mo‘ljallangan maxsus qoidalar mavjud bo‘lmasa-da, ular chakana kreditlash operatsiyalari qanday amalga oshirilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu qoidalar AQShda Bank siri to‘g‘risidagi qonun (BSA), Buyuk Britaniyada Moliyaviy institutlar Moliyaviy xulq-atvor organi (FCA), Yevropa Ittifoqida To‘rtinchi va Beshinchi Pul yuvishga qarshi direktivalarda (AMLD) ko‘rsatilgan va har bir a’zo davlatning tartibga solish organlari tomonidan amalga oshiriladi.
- AQShdagi Iste’molchilarni moliyaviy himoya qilish byurosi (Consumer Financial Protection Bureau (CFPB)) federal iste’molchi moliyaviy qonunlarini nazorat qilish va amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Chakana kreditlash bo‘yicha CFPB iste’mol krediti bozorida adolatli, shaffof va mas’uliyatli amaliyotlarni ta’minlash bilan shug‘ullanadi [16].

To‘rtinchidan, elektron imzolar va operatsiyalarni Global va Milliy tijorat qonunida elektron imzolar (Electronic Signatures in Global and National Commerce Act (ESIGN)) qonuni orqali davlatlararo va tashqi savdoda elektron imzo va shartnomalarni qonuniy ravishda tan oladi. Yagona elektron operatsiyalar to‘g‘risidagi qonuni (Uniform Electronic Transactions Act (UETA)) bilan elektron imzo va shartnomalarni tasdiqlash orqali elektron tranzaktsiyalar uchun huquqiy asosni ta’minlaydi.

Beshinchidan, risklarni boshqarish va kiberxavfsizlikni ta’minlashda Kiberxavfsizlik qoidalaridan orqali banklar mijozlar ma’lumotlarini kibertahdidlardan himoya qilish uchun tegishli kiberxavfsizlik choralariga ega bo‘lishini ta’minlash uchun tartibga soluvchi organlar tomonidan qo‘llaniladigan turli qoidalar va ko‘rsatmalar ishlab chiqiladi. Operatsion risklarni boshqarish orqali banklar raqamli kreditlash amaliyoti bilan bog‘liq operatsion risklarni yumshatish uchun tegishli risklarni boshqarish strategiyalarini ta’minlashi kerak [17].

Bank kreditlashda raqamli transformatsiyani amalga oshirishi uchun ular muvofiqlikni ta’minlash va yangi texnologiyalar va amaliyotlar bilan bog‘liq har qanday huquqiy xavflarni yumshatish uchun ushbu qonunchilik asoslarini boshqarishi kerak. Banklar tizimidagi muvofiqlikni ta’minlash uchun odatda kreditlash amaliyotida raqamli innovatsiyalarni qabul qilishda ushbu qonun va qoidalarga rioya qilishni ta’minlash uchun qattiq ishlaydi.

Yuqoridagi qonun-osti me’yoriy hujjatlarga muvofiq eng ko‘p miqdorlari aholi va ular yashaydigan hududlarda to‘g‘ri taqsimotini ta’minlash maqsadida tartibga solish uchun belgilangan.

Markaziy bankning me’yoriy hujjatlari O‘zbekiston Markaziy banki va bank-moliya sektorini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. U moliyaviy barqarorlikni, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va adolatli kreditlash amaliyotini ta’minlash uchun kreditlash amaliyotida raqamli transformatsiyaga qaratilgan ko‘rsatmalar yoki sirkulyartavsiyalarini chiqarishi mumkin [18].

Banklarda chakana kreditlash amaliyotini raqamli transformatsiya qilishning huquqiy asoslarining quyidagi asosiy elementlariga alohida e’tibor qaratish lozim:

- normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlik: Izoh banklar raqamli transformatsiyani qabul qilgan holda mavjud moliyaviy qoidalarni qanday boshqarishi va ularga rioya qilishini o‘rganadi. U kreditlash amaliyotini tartibga soluvchi me’yoriy landshaftni o‘rganadi, mintaqaviy va xalqaro qonunlarga rioya qilish muhimligini ta’kidlaydi;
- ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylik: Raqamli transformatsiya ko‘pincha katta miqdordagi nozik mijozlar ma’lumotlarini to‘plash, qayta ishlash va saqlashni o‘z ichiga olganligi sababli, izoh ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylikning huquqiy jihatlarini o‘rganadi. Bu banklar mijozlar ma’lumotlarini qonunlar va qoidalarga muvofiq qanday boshqarishi va himoya qilishini ko‘rib chiqadi;
- elektron imzolar va autentifikatsiya: Raqamli tranzaktsiyalarga o‘tish bilan elektron imzo va autentifikatsiya usullarining qonuniy kuchini tushunish juda muhimdir. Ushbu izoh elektron raqamli imzoning qonuniy qabul qilinishi va banklar onlayn tranzaktsiyalarning xavfsizligi va haqiqiyligini ta’minlash uchun qo‘llayotgan choralarni muhokama qiladi;
- iste’molchilar huquqlari va himoyasi: Iste’molchilar huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy bazani o‘rganish asosiy e’tibordir. Bu kredit shartlarining shaffofligi, adolatli kreditlash amaliyoti va nizolarni hal qilish mexanizmlari bo‘yicha muhokamalarni o‘z ichiga oladi. Izoh raqamli platformalar kreditlash jarayonida iste’molchilarning himoyasini qanday saqlab turishi va yaxshilashini o‘rganadi;
- kiberxavfsizlik va firibgarlikning oldini olish: Raqamli sohada kibertahdidlar xavfi ortib borayotganini hisobga olib, tahlil banklarning mustahkam kiberxavfsizlik choralarini ta’minlash bo‘yicha qonuniy majburiyatlarini ko‘rib chiqadi. U ma’lumotlar buzilishining huquqiy oqibatlarini va firibgarlik va ruxsatsiz kirishning oldini olish bo‘yicha choralarni o‘rganadi.

Chakana kreditlashda raqamli transformatsiya qilishning huquqiy jihatlarini o‘rganish natijasida texnologik innovatsiyalar va bank amaliyotini tartibga soluvchi huquqiy asoslari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni har tomonlama tushunish imkonini beradi. Ular manfaatdor tomonlar, iqtisodchilar, siyosatchilar va bank sektorida raqamli kreditlashning rivojlanayotgan manzarasini boshqaradigan mutaxassislar uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Omarini A. (2017) The digital transformation in banking and the role of FinTechs in the new financial intermediation scenario. – 2017.
2. Ansari S.S., Krop P. (2012) Incumbent performance in the face of a radical innovation: towards a framework for incumbent challenger dynamics. Research

Policy 41(8): 1357–1374.
3. Scardovi C. (2017) Digital transformation in financial services. Springer International Publishing. 2017; 236.
4. Eidhoff A, Stief S, Voeth M, Gundlach S. (2016) Drivers of digital product innovation in firms: An empirical study of technological, organizational, and environmental factors[Internet]; 2016
5. Gunawardene N. (2019) Digital transmation in Sri Lanka: Opportunities and challenges in pursuit of liberal policies 2019 Jan 6
6. Chorafas D. N. (2011) Risk management technology in financial services: risk control, stress testing, models, and IT systems and structures. – Elsevier, 2011.
7. Mhlanga D. (2021) Financial inclusion in emerging economies: The application of machine learning and artificial intelligence in credit risk assessment //International journal of financial studies. – 2021. – Т. 9. – №. 3. – С. 39.
8. Warner K, Wäger M. (2019) Building dynamic capabilities for digital transformation: an ongoing process of strategic renewal. Long Range Planning 52(3): 326–349.
9. Thakor V.V. (2019), Fintech and banking: what do we know? Journal of Financial Intermediation 41: 100833.
10. Consoli D. (2005) The dynamics of technological change in UK retail banking services: an evolutionary perspective. *Research Policy* 34: 461–480.
11. https://www.occ.treas.gov/topics/consumers-and-communities/consumer-protection/truth-in-lending/index-truth-in-lending.html
12. https://www.ftc.gov/legal-library/browse/statutes/fair-credit-reporting-act
13. https://www.justice.gov/crt/equal-credit-opportunity-act-3
14. https://www.consilium.europa.eu/en/policies/data-protection/data-protection-regulation/
15. https://www.ftc.gov/business-guidance/privacy-security/gramm-leach-bliley-act
16. https://www.consumerfinance.gov/
17. Мамадияров, З. (2023). Банк хизматларини масофадан кўрсатиш ва рақамлаштиришнинг долзарб жиҳатлари. *Iqtisodiyot va ta’lim*, *24*(1), 115-122.
18. Мамадияров, З. (2023). Ўзбекистонда банк хизматларини рақамли трансформация қилишга таъсир этувчи омиллар таҳлили. *Страховой рынок Узбекистана*, *1*(4), 39–45. извлечено от https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/68

METHODS OF OPTIMAL FORMATION OF INFORMATION IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF INSURANCE ACTIVITIES

Begalova Durdona Baxodirovna
Master’s student, Tashkent State University of Economics

The reforms being carried out in the country are having an impact on the economy, finance, money circulation, and are leading to the formation of positive views in

economic views. Now the organizer of each business entity not only strives selflessly for the effective use of the property at their disposal, but also seeks to take measures to restore and prevent deficiencies that may result from emergency and accidental damage, as a result of which the demand for insurance is growing in a market economy.

Marketing provides an opportunity to improve the modules developed for information systems, reinsurance operations, insurance reserves, accounting and more. There is a need to introduce a comprehensive marketing information system for the accounting of insurance services, insurance contracts and policy forms using barcodes. These marketing information systems allow you to keep track of insurance services, insurance contracts and policy forms using barcodes. In addition, insurance contracts provide for the creation of a program that ensures compliance with the central office of the company.[1.]

The technological process of data processing in insurance begins with its collection and registration. The essence of this stage is the quantitative and qualitative registration of indicators on the data carrier, reflecting the state of the object of management.

The completeness, reliability and timeliness of the initial information obtained in insurance companies depends not only on making the right decisions on specific management tasks, but also on the effectiveness of management in general.

The stage of data collection and registration in insurance companies is characterized by a large workload and requires the participation of many specialists in different departments of the management entity. Practice shows that the analysis of insurance indicators contained in the existing insurance information is one of the most relevant. Therefore, insurance is a system of analysis of marketing information, consisting of a set of modern methods of analysis of marketing data and problems. The basis of the marketing information analysis system is a statistical bank and a model bank. Based on the above, the structural aspects of the marketing information analysis system are listed below. (Figure 1).

- there will be an opportunity to gain a clear advantage over competing companies;
- reduce financial risks and prevent risks;
- allows to determine the attitude of customers to insurance products;
-evaluates how marketing activities are organized;
- provides informational support for management decisions;
-Improves economic efficiency. [2.]

It should be noted that market research and identification of its needs is the goal and preference of the insurer or insurance intermediaries. At the same time, the study of the insurance market is a central point in optimizing the financial and economic relations between the insurer and the insured. Determining customer needs is at the heart of a company's marketing strategy. The decision of the insurer to develop its activity in one or more areas is based on market data obtained on the basis of the results of relevant research.



Figure 1. Components of the marketing information analysis system

Our research suggests that marketing research by insurance companies should be seen as an integral part of ongoing integration information processes. The insurance company must introduce a system of continuous monitoring of changes in the external environment, keeping the information flows in the database, on the basis of which it will be possible to perform various analyzes in the future.

Once the insurance company's marketing plan is clear, it will be possible to fully meet the information needs of the marketing activity using marketing information systems. It should be noted that depending on the size, periodicity and relevance of the existing information flows in the insurance company, as well as financial capabilities, marketing information technology can be both computerized and non-computerized.

List of used literature

1. Gulyamov S.S. and dr. Trends in the formation of information economy. Proceedings of the scientific-practical conference "Sustainable socio-economic development of the economy: achievements, problems and challenges" in 2007. May 4-5, 7-11 b.
2. Begalov B.A. Econometric modeling of formation and development trends of the information and communication market. Dissertation for the degree of Doctor of Economics. T .: - 2001, -330p.

KORXONALAR BANKROTLIGI JARAYONIDA ORALIQ TUGATISH BALANSINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Davletov Ikram Raximberganovich
TDIU, Buxgalteriya hisobi
kafedrasi dotsenti, (PhD)

Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday tijorat tashkilotlari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan holda foyda olishga qaratilgan moliya-xo‘jalik faoliyatini

amalga oshiradi. Har qanday tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdja ma’lum bir risklar mavjud bo‘ladi. Ushbu risk hodisalarining sodir bo‘lishi natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy inqiroz holati vujudga kelishi hamda xo‘jalik subyektlarining o‘z faoliyatlarini tugatishiga olib kelishi, ya’ni bankrotlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Shu sababli mamlakitimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilingan (1994-yil 5-may). Keyinchalik mamlakat iqtisodiyotida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda O‘zbekiston respublikasining “Bankrotlik to‘g‘risida”gi qonuni yangi tahrirda (1998-yil 28-avgust) qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslarning, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlarning to‘lovga qobiliyatsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi (2022-yil 12-aprel) qonuni qabul qilindi. Mamlakatimizda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bankrotlik holatlari bo‘yicha ishlarni yuritishga doir tegishli normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan hamda ushbu holatlar bo‘yicha ilmiy tajqiqot ishlari olib borilmoqda. Lekin mamlakatimizda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bankrotligiga doir ishlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda tugatilayotgan korxonalar moliyaviy hisobotlarini shakllantirishda muammolarning mavjudligi ushbu jarayonga tegishli xo‘jalik muomalalarini buxgalteriya hisobida aks ettirishga maxsus yondashuvlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish dolzarbligini belgilab beradi.

Mamlakatimizda bankrotlikka doir ishlarning yuridik jihatlari doimiy ravishda takomillashtirilib borilgan bo‘lsa, nochor xo‘jalik subyektlarning hisobotlarini shakllantirish masalasiga yetarlicha e’tibor qaratilmasdan qolayapdi. Xo‘jalik subyektlari bankrotligi bilan bog‘liq xarajatlar hisobini alohida yuritish ham sohaga tegishli ilmiy va o‘quv adabiyotlarida o‘z aksini topmagan. Xo‘jalik subyektini tugatishda tugatish balansi tuzilishi kerak, lekin tugatish balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi tugatish hisoboti, pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi hisobotlarining mazmuni va uni shakllantirishning uslubiy masalalari hal qilinmagan.

Tugatish balansi operatsion balansdan, asosan mulklarning balans qiymatidan farq qiluvchi bozor yoki tugatish qiymatlarida baholanishi bilan farq qiladi. Operatsion faoliyat balansi uchun odatiy moddalar hisoblangan “Kelgusi davr daromadlari”, “Kelgusi davr xarajatlari” kabi moddalar tugatish balansida mavjud bo‘lmaydi.

Tugatish balansi foydalanuvchilarning manfaatlarini ko‘zlab shakllantiriladi, ularning aksariyati bankrotlik sharoitida kreditorlar bo‘lib, ular xo‘jalik yurituvchi subyektning to‘lolv qobiliyat darajasidan manfaatdor hisoblanishadi. Shu sababli oraliq tugatish balansida xo‘jalik subyekti faoliyatining moliyaviy natijalarini emas, balki uning mulkiy holatini aniq aks ettirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunining 27-moddasiga muvofiq xo‘jalik yurituvchi subyektni tugatish chog‘ida yakuniy moliyaviy hisobot tuzilishi hamda tugatish balansi va hisobotini tuzish uchun javobgarlik tugatish komissiyasining zimmasiga yuklatilgan[4]. Lekin normativ-huquqiy hujjatlarda tugatish

[4] Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги қонуни, 27-модда.

balansini tuzishning aniq muddatlari belgilanmagan. Oraliq tugatish balansini kreditorlar talablari reestrining yopilish sanasiga tuzish maqsadga muvofiqdir. Ushbu sana har doim ham chorak yoki oy oxiriga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

Ushbu vaqt davomida oraliq tugatish balansining aktivini tashkil qiladigan qarzdorning mulklari inventarizatsiya qilinadi va baholanadi. Boshqa tomondan bu vaqt ichida mulklarning bir qismi navbatdan tashqari xarajatlarni qoplash maqsadida sotilishi mumkinligi sababli konkurs massasining bir qismi balans ko‘rsatkichlarida aks ettirilmaydi.

Ushbu faktlarni xo‘jalik subyektining bankrotlik vaqtidagi mulkiy holati haqida hisobot foydalanuvchilarida ishonchli tasavvur hosil bo‘lishi uchun oraliq tugatish balansi izohlarida bayon qilinishi kerak.

Oraliq tugatish balansining aktivlari kreditorlarning talablari qoplanadigan tugatish massasi hisoblanadi. Aktivning ko‘rsatkichlari inventarizatsiya ma’lumotlari bilan tasdiqlangan va mulklarni baholash natijalariga muvofiq kelishi shart. Mulklar o‘tkazilgan baholashni hisoga olgan holda bozor qiymati yoki tugatish qiymati bo‘yicha aks ettiriladi. Bu, ayniqsa, o‘tkazilgan inventarizatsiya va baholash uning qiymati hisob bahosida keltirilgan qiymatdan sezilarli ravishda farq qilgan holatlarda ahamiyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasining “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonuning 146-moddasiga muvofiq qarzdorning barcha aktivlari, ular balansda ko‘rsatilgan yoki ko‘rsatilmaganligidan qat’iy nazar tugatish massasini shakllantirish uchun asos bo‘lib hisoblanadi[5]. Shundan kelib chiqqan holda oraliq tugatish balansini shakllantirishda tugatish massasi sifatida nafaqat tugatish ishi boshlangan vaqtdagi mulklar emas, balki tugatish ishini amalga oshirish jarayonida aniqlangan mulklar ham kiritiladi. Inventarizatsiya vaqtida aktivlarni olib qo‘yish bo‘yicha shartnomalar tahlil qilinadi va tuzilgan bitimlarni to‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risidagi qonunga muvofiq haqiqiy emas deb topish bo‘icha ishlar boshlanadi.

Oraliq tugatish balansida aktivlarni ikkita bo‘lim: uzoq muddatli va joriy aktivlarga taqsimlashni saqlab qolgan maqsadga muvofiq. Oraliq tugatish balansining passivida majburiyatlarni yuridik shaxsni bankrot deb tan olishgacha bo‘lgan majburiyatlar hamda tugatish ishlari boshlangandan keyin hisoblangan, lekin to‘lanmagan majburiyatlar sifatida aks ettirish maqsadga muvofiq.

Oraliq tugatish balansi passifining farqli jihati unda uzoq muddatli majburiyatlar (490-590 satrlar) va joriy majburiyatlar (600-760 satrlar) kabi bo‘limlarning mavjud emasligidir, chunki tugatish ishi ochilgan vaqtdan boshlab barcha majburiyatlarning ijro muddati yetib kelgan deb hisoblanadi.

Bankrot xo‘jalik subyektining ustav kapitali O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 56-moddasi hamda “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonuning 150-moddasiga muvofiq kreditorlarning talablarini qondirish navbatiga muvofiq ularning to‘liq qondirilishidan keyin subyektning ta’sischilariga beriiladigan kreditorlik qarzdorlikni anglatadi.

---

https://lex.uz/docs/2931253#2931648

[5] Ўзбекистон Республикасиниг “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуни, 146-модда. https://lex.uz/docs/5957612#5961625

Inventarizatsiya tugallanganidan so‘ng, oraliq tugatish balansi tuzilganiga qadar kelgusi xarajatlar va to‘lovlar uchun rezervlar, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlar va kechiktirilgan daromadlar schyotlari undagi summalarni boshqa daromadlar va xarajatlar schyotlariga olib borish yo‘li bilan yopilishi kerak. Shuningdek, kapitalni hisobga oluvchi (ustav kapitalidan tashqari) schyotlarni ham taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) schyotiga olib borish yo‘li bilan yopish zarur. Bankrot xo‘jalik subyekti uchun ushbu schyotlarning iqtisodiy maa’nosini yo‘qotganligi hamda ishchi schyotlar rejasidagi schyotlarni kamaytirish munosabati bilan ushbu buxgalteriya o‘tkazmalari ahamiyatlidir. Amaliyot shuni ko‘rsatadi-ki, ushbu hisobdan chiqarish summalalari zarar miqdoriga sezilirli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Ma’lumotlaran samarali foydalanish imkoniyatini beruvchi moliyaviy hisobotlarni tushunish sharti uni tayyorlash metodologiyasini bilishdir. Bu buxgalteriya hisobiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarga rioya qilish orqali ta’minlanadi. Oraliq tugatish balansini shakllantirishda ko‘plab korrektirovka va amaldagi qoidalardan chetga chiqishga yo‘l qo‘yiladi. Shu sababli oraliq tugatish balansiga quyiagi hujjatlarni ilova qilish zarur:

- Mulk(debitor)larning nomi, mulklarning balansi qiytmati (debitor qarz summalari), mulklarning tugatish qiymati (haqiqatda undiriladigan qiymat) kabi ko‘rsatkichlarni o‘z ichiga oluvchi xo‘jalik subyekti mulklari haqidagi ma’lumotlar;
- Kreditorlar talablarini hisoga oluvchi tahliliy qaydnoma.

Oraliq tugatish balansi xo‘jalik subyektining bankrotlikkacha bo‘lgan buxgalteriya hisobi va tugatish ishlarini amalga oshirish jarayonidagi hisob ishlarini o‘zaro bog‘lovchi komponent hisoblanadi. Balans kreditorlar talablarini qondirish ehtimolini aholashga yordam beradi, chunki unda majburiyatlar so‘ndirish tartibi bo‘yicha turkumlanadi, mulklar esa tugatish yoki bozor qiymati bo‘yicha aks ettiriladi. Qarzdorlikni so‘ndirish muddati va darajasini tahlil qilish uchun balans aktivi bo‘yicha mablag‘larni passivdagi majburiyatlar bilan taqqoslash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekison Respubikasining Fuqarolik kodeksi. Birinchi qism. https://lex.uz/docs/111189#111192
2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni, 27-modda. https://lex.uz/docs/2931253#2931648
3. O‘zbekiston Respublikasinig “To‘lovga qobiliyatsizlik to‘g‘risida”gi qonuni, 146-modda. https://lex.uz/docs/5957612#5961625
4. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliya-xo‘jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma. 21-son BHMS. https://lex.uz/acts/417624
5. Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish. 19-sonli BHMS. https://lex.uz/docs/812952

IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHIGA SUG‘URTANI TA’SIRINI O‘RGANISHNING AYRIM DOLZARB MASALALARI

Eshmurodov Umidjon Rashid o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot
universitet talabasi

Sug‘urta yuridik va jismoniy shaxslar to‘laydigan sug‘urta mukofotlaridan, shuningdek, sug‘urtalovchining boshqa mablag‘laridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqea (sug‘urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovoni (sug‘urta pulini) to‘lash yo‘li bilan ularni manfaatlari himoya qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari bo‘lgan sug‘urta bozorining professional ishtiroklari bo‘lgan yuridik shaxslarning ta’sischilari (ishtirokchilari) sifatida faoliyat yuritishlariga ruxsat berilgan. Fuqarolar va sug‘urta tashkilotlari o‘rtasida paydo bo‘ladigan, fuqarolik-huquqiy munosabatlar tegishli shartnoma qoidalarga asoslanadi. Bunda bir tomondan sug‘urta tashkilotining fuqaro oldida, ikkinchi tomondan fuqaroning sug‘urta tashkiloti oldidagi majburyatlari paydo bo‘ladi. Ya’ni, tuzilgan shartnomaga ko‘ra, fuqaro o‘z vaqtida sug‘urta mukofotini to‘lashi shart. Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda esa, sug‘urta tashkiloti sug‘urta shartnomasida qayd etilgan shart va muddatlarda sug‘urta qoplamasi(summa)sini fuqaroga to‘lab berishi lozim. Ko‘rinib turibdiki, shartnoma fuqarolik-huquqiy hujjat taraflarning o‘zaro munosabatini huquqiy tartibga solyabdi.

Sug‘urta faoliyati klassifikatori O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq sug‘urta quyidagi sohalarga bo‘liadi:

-hayotni sug‘urta qilish (jismoniy shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, mehnat qobiliyati va pul ta’minoti bilan bog‘liq manfaatlarini sug‘urta qilish, bunda shartnoma bo‘yicha sug‘urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug‘urta pullarining sug‘urta shartnomasida ko‘rsatib o‘tilgan oshirilgan foizni o‘z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to‘lovlarini “annuitetlarni”) qamrab oladi.

-umumiy sug‘urta (shaxsiy, mulkiy sug‘urta, javobgarlikni sug‘urta qilish hamda hayotni sug‘urta qilish sohasiga taalluqli bo‘lmagan boshqa sug‘urta turlari). Sug‘urta tavakkalchiliklari yoki ular guruhlarining va ular bilan bog‘liq majburiyatlarning umumiy xususiyatlariga muvofiq sug‘urta sohalari sug‘urta turlariga (klasslariga) bo‘linadi.

Sug‘urta turlari (klasslari) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Sug‘urta kompaniyalari – jismoniy (fuqarolar) va yuridik shaxslar (korxonalar) xatarlarini tuzilgan shartnoma asosida sug‘urtalovchi moliyaviy tashkilotning maxsus turi.[6]

2022-yil 1-iyun holatiga ko‘ra O‘zbekiston sug‘urta bozorida 42 sug‘urta kompaniyalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Sug‘urta kompaniyalari tomonidan aholi va tadbirkorlarga ko‘rsatilayotgan asosiy xizmatlaridan biri:

-Transport vositalarini sug‘urtalash;

[6] X.Shennayev,T. Baymuratov. “Sug‘urta ishi” nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferensiya: 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son]

-Tibbiy sug‘urta;
-Yuklarni sug‘urtalash;
-Ipoteka sug‘urtasi;
-Mol-mulkni sug‘urtalash va boshqalar.

Sug‘urta xizmatlarini raqamlashtirish va zamonaviy risklarni sug‘urtalash masalalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta bozorini raqamlash-tirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 23-oktabrdagi PQ-5265-son qaroriga muvofiq: sug‘urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat berilganligi: barcha sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta polislari Moliya vazirligi huzuridagi sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash jamg‘armasi bilan birgalikda yuritadigan yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida ro‘yxatga olinishi yo‘lga qo‘yilganligi; sug‘urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda sotish va rasmiylashtirish qoidalarini, shuningdek, ularning haqiqiyligini tekshirish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan elektron turdagi sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatish tartibini ishlab chiqish belgilangan.

Sug‘urta tashkilotlarining investitsiya faoliyatini amalga oshirish shart-sharoitlari**.** Sug‘urta tashkilotlari tuzgan sug‘urta shartnomasining boshlanishi va tugashi ma’lum bir muddatni o‘z ichiga oladi. Mana shu davr mobaynida ko‘p ming sonly sug‘urta qildiruvchilardan kelib tushgan sug‘urta mukofotlarining sug‘urta zaxiralarini shakllantirishning yo‘naltirilgan qismi vaqtincha bo‘sh bo‘ladi. Sug‘urtaning ana shu xususiyatlarini hamda bo‘sh turgan pul mablag‘larini iqtisodiyot rivojlanishi yo‘lida foydalanish uchun amaldagi qonun sug‘urta tashkilotlariga investitsiya faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beriladi. Hozirgi kunda sug‘urta kompaniyalari vaqtincha bo‘sh mablag‘larini, jumladan sug‘urta zaxiralarini quyidagi investitsiya obyektlariga joylashtirishlari mumkin:

- qimmatli qog‘ozlar, jumladan davlat qimmatli qog‘ozlar;
- bank depozitlari;
- ko‘chmas mulk;
- boshqa yuridik shaxslarning ustav kapitalida ishtirok etish.

Buyuk Britaniya iqtisodiyotida sug‘urtaning tutgan o‘rni va ahamiyati. Jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatorida Buyuk Britaniyaning Iqtisodiyotida sug‘urtaning tutgan o‘rni va ahamiyati. Keyingi o‘n yil mobaynida jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga Buyuk Britaniya sanoatinig qo‘shayotgan hissasi sezilarli darajada kamaygan, uning tovarlarining xalqaro bozordagi raqobatdoshligi tushib ketgan bo‘lsa-da, Buyuk Britaniyaning moliya kredit [7]tizimi hamon dunyodagi yetakchi o‘rinlardan birini egallab kelmoqda. Ayrim ma’lumotlarga qaragnda, sug‘urta kompaniyalarning qariyb 30% aktivi yirik sanoat kompaniyalarining aksiyasiga to‘g‘ri keladi.

Umuman olganda, Buyuk Britaniya sug‘urta bozori ikki qisimga bo‘lingan:
-hayotini sug‘urta qilish bozori;
-umumiy sug‘urta bozori.

Sug‘urta kompaniyalarining hisoboti quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

I.X.Abduraxmanov. Sug‘urta nazaryasi va amalyoti”_IQTISOD-MOLIYA Nashr yili: 2018

-kompaniyaning balansi;
-foyda va zararlar schyoti;
-sug‘urta mokofotlari dinamikasining tahlili;
-uzoq muddatli sug‘urta foizi ro‘y bergan o‘zgarishlar to‘g‘risida ma’lumot.

Islom sug‘urtasi bo‘yicha O‘zbekistondagi birinchi pilot loyiha – «APEX TAKAFUL»ning taqdimoti o‘tkazildi - 2021 yil 3- mart kuni Hilton Tashkent City Anjumanlar zalida, respublika sug‘urta bozorida jadal rivojlanayotgan «APEX INSURANCE» MChJ sug‘urta kompaniyasi tashkilotchiligida «O‘zbekistonda Islom moliyasi va takaful» mavzusidagi keng ko‘lamli anjuman bo‘lib o‘tdi. Vazirliklar va agentliklar, xalqaro moliya institutlar, diplomatik korpus va biznes hamjamiyat, shuningdek yetakchi banklar, sug‘urta, lizing va investitsion kompaniyalarning vakillari ishtirokida o‘tkazilgan anjumanda Islom taraqqiyot banki, Xususiy sektorni rivojlantirish bo‘yicha Islom korporatsiyasi, «AlHuda CIBE» Islom banking va iqtisodiyoti Markazining xalqaro ekspertlari amaliy tajribasi bilan bo‘lishishdi va moliya sohasining yangi tarmog‘ini rivojlanish salohiyati va umumiy istiqbollarini tahlil qilishdi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy majlisga qilgan murojaatida O‘zbekistonda Islom moliyasi xizmatlarini joriy qilish vaqti yetib kelganligi to‘g‘risida belgilangan vazifalar, o‘z navbatida mavzuga oid dolzarb va muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tadbir o‘tkazilishini taqozo etdi. Tadbir davomida «APEX TAKAFUL» nomli islom sug‘urtasi bo‘yicha O‘zbekis-tondagi birinchi pilot loyihasi taqdimoti o‘tkazildi. Ta'kidlash joizki, mazkur loyiha doirasida ishlab chiqilgan islomiy sug‘urta mahsulotlari bo‘yicha «AlHuda CIBE» Islom bankingi va iqtisodiyoti Markazidan muvofiqlik sertifikati hamda O‘zbekiston musulmonlar idorasi Fatvo bo‘limining ijobiy xulosalari olingani bilan ahamyatlidir.

O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va jadal rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida sug‘urta sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, shu jumladan xalqaro tashkilotlarning standartlari va tavsiyalarini hamda ushbu sohadagi eng yaxshi jahon tajribalarini izchil joriy etish, tartibga solish va prudensial nazoratning samarali mexanizmlarini joriy etish orqali sug‘urta bozorining ishonchliligi va barqarorligini ta’minlashga qaratilgan sug‘urta faoliyatini tartibga solish tizimini institutsional rivojlantirish va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining kapitallashuv darajasini, to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, ularning aktivlari sifatini yaxshilash, shuningdek, sug‘urtalovchilarning investitsiya faoliyatini rivojlantirish, sug‘urta brokerlari faoliyatini faollashtirish, sug‘urta agentlarining ishlash tizimini takomillashtirish, bank sug‘urta mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, umuman[8] sug‘urta bozori professional ishtirokchilarining rolini oshirish orqali sug‘urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish, sug‘urta xizmatlari iste’molchilari va sug‘urta faoliyatining boshqa subyektlari huquqlari himoyasini kuchaytirish, aholining sug‘urta savodxonligini va sug‘urtaga bo‘lgan ishonchini oshirish, sug‘urta bozorining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash,yangi innovatsion sug‘urta mahsulotlarini joriy etish va talab yuqori bo‘lgan an’anaviy mahsulotlarni rivojlantirish orqali ko‘rsatilayotgan

G.j. Jumayeva. Sug‘urta nazaryasi va amalyoti. VNESHINVESTPROM nashriyoti-T.:2019.268.b

sug‘urta xizmatlari hajmlarini, turlarini kengaytirish va sifatini oshirish,sug‘urta faoliyatini tashkil etish va tartibga solish sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, sug‘urta xizmatlarining elektron turlarini faol joriy etish va rivojlantirish,sug‘urta bozori mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, sug‘urta sohasida ta’lim berishning zamonaviy usullarini qo‘llash, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish,milliy sug‘urta bozorining ijobiy imijini shakllantirish va yuqori darajada ushlab turish hamda investitsiyaviy jozibadorligini, shu jumladan milliy sug‘urta bozorini xalqaro va xorijiy sug‘urta bozorlari bilan integratsiyalash orqali oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. X.Shennayev,T. Baymuratov. “Sug‘urta ishi” nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferensiya: 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son
2. Shaislamova.N Sug‘urta - investitsiya risklarini boshqarishning samarali vositasi: Akademiya, 2021.- 455 bet
3. I.X.Abduraxmanov. Sug‘urta nazaryasi va amalyoti”_IQTISOD-MOLIYA Nashr yili: 2018
4. G.j. Jumayeva. Sug‘urta nazaryasi va amalyoti. VNESHINVESTPROM nashriyoti-T.:2019.268.b

RESPUBLIKAMIZDA SUG‘URTA TIZIMINING ZAMONAVIY TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshonqulov Azamat Abdiraximovich
TDIU “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi assistenti

2022-ning 10-iyul kuni prezidentimiz SH. Mirziyoyev aynan sug‘urta sohasini rivojlantirish bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi va quyidagi fikrlarni takidlab o‘tdi:

“Mamlakatda qtisodiyot tarmoqlarini sug‘urta xizmatlari bilan qamrab olish muhim o‘rin tutadi. Moliya vazirligi hamda Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini sug‘urtalash xarajatlarining bir qismini davlat tomonidan subsidiyalash mexanizmlarini yaratish lozim”[9]

Biz asosan milliy sug‘urta kompaniyalarini xalqaro moliya bozoriga chiqishini ta’minlashimiz, ilg‘or korporativ boshqaruv tizimini tashkil qilish orqali halqaro reyting olishimiz mumkin. Bu ham mamlakatimiz aholisi va tadbirkorlarini sug‘urta tizimiga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Sug‘urta xizmatlarining raqobat bozorini yanada shakllantirish, sug‘urta faoliyatining zamonaviy turlarini rivojlantirish va sifatini oshirish, sug‘urtalovchilarning kapitallashuv darajasini ko‘paytirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ularning mintaqaviy tarmoqlarini kengaytirish, shuningdek sug‘urtalashni tartibga solish usullarini takomillashtirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan sug‘urta tashkilotlari

[9] 2022-ning 10-iyul kuni prezidentimiz SH. Mirziyoyev aynan sug‘urta sohasini rivojlantirish bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasidan

bilan birgalikda ishlab chiqilgan 2007 — 2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorini isloh qilish va rivojlantirish dasturiga muvofiq quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

sug‘urtalash, sug‘urta faoliyati va sug‘urta nazoratining qonunchilik va normativ-huquqiy bazasini xalqaro amaliyotga muvofiq yanada takomillashtirish;

ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlari, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatini, import-eksport operatsiyalarini sug‘urtalash, hayotni uzoq muddatga sug‘urtalash, shu jumladan sug‘urtaning jamg‘arma turlari sohasida sug‘urta xizmatlari hajmini, ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish;

respublika sug‘urta bozorini xalqaro sug‘urta bozorlariga integratsiyalash;

sug‘urtalash sohasi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi vazirliklar, idoralar va bajaruvchilar — sug‘urta tashkilotlari bilan birgalikda tadbirlarni belgilangan muddatlarda so‘zsiz va sifatli bajarilishini ta’minlasin.

2. Sug‘urta bozorining professional qatnashchilari to‘g‘risidagi nizomga muvofiq:

Faoliyat ko‘rsatayotgan sug‘urta kompaniyalari (sug‘urtalovchilar) ustav kapitali miqdorining mazkur qaror bilan tasdiqlangan Sug‘urta bozorining professional qatnashchilari to‘g‘risidagi nizomda belgilangan talablarda muvofiqlashtirilish.

3. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Moliya vazirligi Davlat soliq qo‘mitasi bilan birgalikda tasdiqlangan Sug‘urta bozorining professional qatnashchilari to‘g‘risidagi nizom talablariga javob bermaydigan sug‘urta tashkilotlari faoliyatini belgilangan tartibda to‘xtatish va litsenziyalarini bekor qilish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi mamlakat iqtisodiyot oliy ta’lim muassasalarida ixtisoslash-tirilgan guruhlar tashkil etish, sug‘urta bozori professional qatnashchilarining yuqori malakali mutaxassislari tayyorlash kontingentini kengaytirish va sifatini oshirish, ularning malakasini muntazam ravishda oshirish bo‘yicha bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va respublika sug‘urta kompaniyalarining quyidagilar faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan O‘zbekiston sug‘urta bozori professional qatnashchilari uyushmasini tashkil etish:

sug‘urta bozorining yuqori darajada ochiq-oydinligini ta’minlash, raqobatni rivojlantirish, sug‘urta xizmatlari hajmlarini ko‘paytirish, ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

potensial xorijiy investorlarga mablag‘larni O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta sohasiga investitsiyalashda ko‘maklashish;

respublika aholisi o‘rtasida sug‘urtalash masalalari bo‘yicha faol tushuntirish ishlarini olib borish;

sug‘urtalash uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, sug‘urta bozori professional qatnashchilari uchun professional etika normalarini ishlab chiqish.

6. Sug‘urta bozorini rivojlantirish hamda yuridik va jismoniy shaxslarning

sug‘urtalashda keng qatnashishini rag‘batlantirishni belgilab qo‘yish, hayotni uzoq muddatga sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini soliqqa tortmaslik.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi sug‘urta sohasiga ham Islom dini o‘z munosabatini bildiradi. Mamlakatimiz aholisining 80% dan ortig‘i Islom dinida ekaniligini hisobga olgan holda Sug‘urta tizimidagi qonun-qoida va yangi ilohotlarimiz dinimizni qoralamasligiga ham e’tiborimizni qaratishimiz kerak, aks holda aholining turli xil qarshiliklarga duch kelishimiz mumkin.

Islom sug‘urtasi turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan takaful[10], vaqf[11], o‘zaro yordam jamg‘armalari va o‘zaro sug‘urta ko‘rinishida. Misol uchun, “takaful” arabcha so‘z bo‘lib “o‘zaro kafolatlash” ma’nosini bildiradi va O‘zbekiston qonunchiligida ko‘zda tutilgan, fuqaro va tashkilotlar tomonidan muayyan pul mablag‘larini birlashtirish yo‘li bilan, amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ikki tomonlama sug‘urtaga mos keladi. Ushbu sug‘urta turi ayrim mamlakatlarda vaqf ko‘rinishida ham qo‘llanib kelinmoqda. Bundan, moliyaviy mahsulot yoki tizimning nafaqat nomiga balki uning shakli va tamoyillariga ham e’tibor qaratish muhimligini anglashimiz mumkin.

Sug‘urta tashkilotining asosiy targ‘ibotchisi, uni xalqqa yetkazuvchi vosita agent va ommaviy axborot vositalari hisoblanadi. Targ‘ibot-tashviqot ishlarini yanada jonlantirish, ochiq muloqotlarni ko‘paytirish, ommaviy axborot vositalarda chiqishlar sonini yanada oshirish hamda takror va takror ta’kidlash joiz malakali agentlar tayyorlash tizimini yaratish lozim. Zero, sug‘urta xizmatlari ko‘lamini oshirish uchun mijoz bilan ishlash talab etiladi. Malakali agentlar orqali mijozlarning talab va ehtiyojlariga mos sug‘urta xizmatlari ko‘rsatilsa, polislar sotilishining ortishiga olib keladi. Bu esa o‘z-o‘zidan aholining sug‘urta madaniyati shakllanganligidan dalolat beradi.

Takaful to‘g‘ri amalga oshirilishi uchun maxsus sug‘urta jamg‘armasi tuziladi. Jamg‘arma a’zolari oldindan e’lon qilingan tartib-qoidaga ko‘ra sug‘urta uchun badallarni ehson sifatida jamg‘armaga kiritishadi, jamg‘arma esa o‘z mulkiga aylangan ushbu mablag‘lar hisobidan a’zolarining kelishilgan zararlarini qoplab turadi. Yil yakunida sug‘urtadan ortgan mablag‘larning bir qismi jamiyat nizomidagi tartib-qoidalar asosida keyingi yillar zaxirasiga olib qo‘yilishi yoki a’zolar o‘rtasida taqsimlanishi, vaqf shaklida tuzilgan jamg‘armaning qoldig‘idan esa muhtojlarga moddiy yordam ham ko‘rsatilishi mumkin.

Jamg‘arma boshqaruvi odatda tijorat tashkilotiga topshiriladi. Bunda boshqaruvchi tashkilot jamg‘armaga egalik qilmaydi, balki jamg‘arma faoliyatini vakil sifatida boshqaradi va o‘zining hizmatlari evaziga jamg‘armadan haq olish huquqiga ega bo‘ladi. Bunda, boshqaruvchi tashkilot va jamg‘arma a’zolari o‘rtasida manfaatlar qaramaqarshiligi yuzaga kelmaydi, chunki jamg‘arma hisobidan zararlarni to‘lamaslikdan boshqaruvchi tashkilot hech qanaqasiga manfaatdor bo‘lmaydi. Shu o‘rinda bir narsani ta’kidlash lozim: jamg‘armaning tovon to‘lovidan ortgan qismi jamg‘arma va uning a’zolari ixtiyorida qoldiriladi, ya’ni boshqaruvchi tashkilot tasarrufiga o‘tkazilmaydi.

---

[10] Takaful- bu islom dinining asosiy ma'naviy kitoblari bo'lgan Qur'on va Sunnatga asoslangan shariat me'yorlariga muvofiq, foyda va zararlarni ishtirokchilar va operator o'rtasida taqsimlash mexanizmiga asoslangan sug'urta tizimidir.

[11] Vaqf- shariatda davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulk.



1-Rasm. A’zolar faoliyati.

Ba’zida ko‘rilgan zarar taxmin qilingan ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lib qolishi va shu sababli jamg‘arilgan badallar zararlarni qoplashga yetmay qolishi mumkin. Shunday paytlarda tovon to‘lovi uchun kerak bo‘lgan mablag‘ jamg‘armaning boshqaruvchi tashkilotidan qarz yoki boshqa o‘zaro sug‘urta jamiyatlaridan (avvalroq tuzilgan kelishuv asosida) yordam sifatida olinadi.

Olingan qarzlar keyingi yillardagi sug‘urta to‘lovlaridan ortgan zaxira hisobidan qaytariladi. Agar boshqa jamg‘armalardan, ularga oldindan badal o‘tkazib turish hisobiga, yordam puli olingan bo‘lsa, ushbu yordam puli qaytarilmaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida biror soha, jumladan, sog‘liqni saqlash ham samarali moliyalashtirish tizimisiz rivojlana olmaydi. Sog‘liqni saqlash sohasidagi smetali moliyalashtirish tizimi eskirgan, xalqaro amaliyotga mos kelmaydigan mexanizmlarga asoslangan. Chunki u moliya resurslarining samarasiz ishlatilishi va sohaning surunkali tarzda moliyalashtirilmay qolishiga olib kelmoqda. Moliyaviy resurslarning cheklanganligi, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish sog‘liqni saqlash sohasining muhim, hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolaridan biri bo‘lib turibdi.

Ajratilayotgan mablag‘lar sarflanishi samaradorligini oshirish, o‘z navbatida, tibbiy muassasalarni moliyalashtirish tizimini isloh qilishni talab etadi. O‘tgan yili Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va O‘zbekiston Respublikasi hukumati tashabbusi bilan JSST ekspertlari mahalliy mutaxassislar bilan hamkorlikda mamlakatimizda majburiy tibbiy sug‘urtani joriy qilishning texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqdi. Shuning asosidagi islohotlar jarayoni davom etmoqda.

Xususan, Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan tasdiqlangan Kontsepsiyada sog‘liqni saqlash sohasini moliyalashtirishni tubdan isloh qilish, joriy yilda tibbiy sug‘urtaga oid qonun qabul qilish, ushbu tizimni 2021-yildan Sirdaryo viloyatida tajriba-sinov tariqasida qo‘llash hamda 2025-yilgacha respublika miqyosida tibbiy sug‘urta tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish vazifalari belgilandi.

2021-yilning 6-noyabr kuni Prezidentimiz raisligida sog‘liqni saqlash tizimining birlamchi bo‘g‘inini takomillashtirish hamda aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda tibbiyotning birlamchi bo‘g‘inidagi muammolar tahlil qilinib, sohani tubdan isloh

qilish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmatlar va dori vositalari paketlarini moliyalashtirish maqsadida davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish, alohida jamg‘arma tashkil qilish lozimligi aytib o‘tildi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yili 12-noyabrda qabul qilingan “Sog‘liqni saqlash va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[12]gi qarorida tizimni axborotlashtirish, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tibbiyot xodimlari faoliyatini baholash va rag‘batlantirish, har bir tibbiyot muassasasi darajasida davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy xizmat va dori vositalari paketini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilandi. Qarorda davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasini tashkil etish, uning zimmasiga tibbiy sug‘urtani joriy qilish, boshqarish, kafolatlangan paket bo‘yicha ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlarni moliyalash-tirish, ajratilayotgan mablag‘lar samaradorligini nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Ayni paytda jamg‘arma davlat muassasasi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lib, hozirda uni malakali kadrlar va texnik vositalar bilan shakllantirish jarayoni ketmoqda.

Joriy etilayotgan davlat tibbiy sug‘urtasi tizimining mazmun-mohiyati va maqsadi yuzasidan sog‘liqni saqlash vazirining o‘rinbosari Abdulla Azizov shunday dedi:

- Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimini joriy etishdan asosiy maqsad — kasalliklarning oldini olish, erta aniqlash, tibbiy yordam ko‘rsatishning birlamchi bo‘g‘inida malakali va sifatli xizmatlar ko‘rsatishni tashkil etish, aholining salomatlik darajasi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirishdan iborat. Ushbu tizimning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda joriy qilinishi ishtirokchilar o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlash hamda tibbiyot xodimlari va bemorlar uchun kerakli ma’lumotlarni olish imkonini beradi.

Loyihada aholining elektron reyestrini shakllantirish, bemor yo‘llanmasi, kasalligi, qaysi shifokor tomonidan ko‘rilgani, tashxis va davolanish holatlari haqidagi ma’lumotlarni elektron bazaga kiritish rejalashtirilgan. Bu esa, o‘z navbatida, kasalliklarni oldini olish, prognozlash, shifokorlarni ish faoliyatini baholashga imkon yaratadi.

Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimiga xususiy tibbiyot tashkilotlarini ham jalb etish tibbiy xizmatlar bozorida raqobat muhitini rivojlantirish, aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda “sug‘urta madaniyati” iborasi tez-tez tilga olinmoqda. Aslida, bu atamada aholining sug‘urta xizmatidan xabardorligi, foydalanish qamrovi hamda kundalik turmush tarzining bir qismiga aylanganlik holati tushuniladi. Ushbu moliyaviy xizmatlar mohiyatini anglash, qabul qilish yoki rad etish insonning sug‘urta madaniyati darajasini aniqlovchi indikator sifatida ko‘riladi.

Jamiyatni xatarlar bilan hisoblashishga o‘rgatish va aholi turmush tarzida moliyaviy tavakkalchiliklarni bo‘lishish ko‘nikmasi shunchaki sodir bo‘lmaydi.

Zamon rivojlanib, yangi kasblar, yangi bilimlar paydo bo‘lmoqda. Xizmat ko‘rsatish sifati va ko‘lamini oshirishda, avvalambor kadrlar salohiyatini talab darajasiga yetkazish lozim.

[12] “Yangi O‘zbekiston” gazetasidan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “УЗАРО” o‘zaro sug‘urta jamiyatining telegram sahifasi
2. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi
3. LEX.UZ
4. Rasulov M «Bozor iktisodiyoti asoslari», T, Uzbekiston, 1999
5. Chjen V.A «Xususiylashtirish asoslari» T,1996
6. www.ziyonet.uz
7. Vikipediya

THE IMPORTANCE OF THE INSURANCE MARKET IN THE DEVELOPMENT OF THE FINANCIAL SYSTEM OF THE COUNTRY

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldikhuja ugli
TSUE, deputy dean of Business administration faculty PhD, associate professor

The financial system is an important part of the state and serves as a financial lever to ensure stable economic development. For this, it is necessary for the subjects of the financial sector to be stably developed. With the development of economic relations in the country, financial institutions will develop and financial instruments will be improved, and the financial system will be strengthened. The main participants of the financial sector are the central bank, commercial banks, non-bank financial institutions, financial investment institutions, pension funds, credit unions and associations. The financial sector, as an intermediary, occupies a special place in the distribution of resources between all other sectors. It also provides access to financial resources to borrowers through financial instruments. As part of the financial system, insurance companies are important for the country's economy.

The growing competition in the context of economic reforms requires the development and implementation of principles and principles for a more sustainable and dynamic development of our state, taking into account the expansion of the volume of insurance and leasing and other financial services through the introduction of new types and improving their quality, as well as special attention is paid to capital raising and the development of the stock market as an alternative source of financial institutions and free resources of the population. In particular, the “Development strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026” pays attention to the issue of expanding the scope of state support and the implementation of new insurance mechanisms in agriculture, as well as expanding the practice of financial and social support for migrant workers, life and health insurance.

Today, the development and implementation of a wide range of insurance services that can win the trust of not only domestic but also foreign customers by insurance companies, the expansion of regional insurance services, the effective management of the financial resources of insurance companies, and the national insurance market is one of the main problems in development. This situation represents the relevance of this topic. Insurance has been an important factor affecting the economy as an integral

part of financial relations in the stages of gradual development of human history.

Although the reforms and measures implemented in our country for the development of the insurance market serve to a certain extent for the development of the country's insurance market, the development of specific measures for the development of the insurance market in the context of the ongoing global financial and economic crisis serves to develop business relations and ensure continuity of production in the country. It is known that the state is an important subject of the insurance market and one of its participants. Based on the decision of the President of the Republic of Uzbekistan "On measures to organize the activities of the Insurance Market Development Agency under the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan" dated August 2, 2019 No. PQ-4412, Insurance under the Ministry of Finance The establishment of the state inspection of insurance control has created a basis for bringing the work carried out in the regulation of insurance activities to a new level in our country.

In order to perform important tasks, it is first of all important to prepare and prepare for practice employees of the insurance industry who meet international requirements, inform the population about insurance information. In practice, there are many reasons that hinder the development of the insurance market, one of these reasons is the emergence of a monopoly state. In countries with developed market economies, a safe situation regarding the emergence of a monopoly is the presence of at least ten or more companies operating in the same industry, while the contribution of one company in this market should not exceed 31% of insurance sales, the contribution of two companies should not exceed 44%, the contribution of three companies should not exceed 54%, and the share of four companies should not exceed 64%.

Today, the stability of the financial system is improved, mainly as a result of the growing relationship between large investors in financial markets and insurers, by insuring their financial risks. In modern insurance, the large number of participants in it, in addition to the fact that it protects against possible negative consequences in society, the accumulation of large capital in national insurance funds is important for the country's economy.

The importance of the activity of insurance companies in the development of the financial market is reflected in the following:

- Insurance companies ensure the financial stability of any financial market participant facing risk by compensating a part of the loss, reducing the amount of losses. At the same time, it protects the enterprise from situations that could lead to bankruptcy, as a result, it prevents the reduction of state tax revenues and has a significant effect on improving the macroeconomic situation of the economy..

- By increasing the amount of money collected as insurance premiums, insurance companies will have the opportunity to finance large investment projects, thus having a positive effect on the country's economic growth.

- On the verge of starting a new international trade between business representatives who do not have sufficient mutual trust and long-term cooperation, in most cases, some types of insurance are resorted to in order to prevent possible risks. This ultimately encourages the development of international trade.

A number of important works are being carried out to gradually eliminate existing protection gaps in developing markets. World practice shows that the consequences of uninsured risks can be more serious and last longer than other economic activities. By protecting the company's financial assets, insurance helps to overcome the risks that may arise in the process of economic development. Henry Ford says: the whole world relies on insurance. Without insurance, everyone keeps their money for fear of losing it, without investing it anywhere, and this causes assets to accumulate in the hands of people, and ultimately, economic development slows down.

In recent years, the expansion of the world insurance market has been observed, and it can be seen that the processes of merger, globalization and integration have intensified. The main reasons for mergers of insurance companies or acquisitions of small ones by large companies are as follows:

First of all, there is a large number of companies with a high level of capitalization among the participants of the national and world insurance markets and the presence of strong competition between them.

Secondly, there is a need for companies with a large amount of capital in the insurance and reinsurance of large risks. Insurers pay attention to the amount of their capital in the first place when choosing reinsurance companies. Reinsurance companies with capital of less than 50 million dollars are forced to stop their activities.

Thirdly, the goal of reducing the costs of doing business in the company. According to experts' conclusions, the income of insurance premiums for one company in the USA is 10 mln. The increase in dollars allows to reduce the amount of operating expenses from 30 percent to 10 percent. Fourthly, the desire to raise one's rating at the expense of a financially stable partner. As a result of mergers and acquisitions, large multinational insurance companies are formed, and they carry out a large amount of liability insurance and reinsurance in the international market. As in other fields, a new era of management is entering in insurance activity. This new era should ensure the safety of the activities of insurance companies. Ensuring the safety of the activities of insurance companies is one of the main functions of modern management.

Due to the fact that the manager of the company could not correctly assess the risks to the company's activity and did not take the necessary measures against it, the company may suffer significant losses. Therefore, a competent manager should take into account various aspects of the development of events, plan to quickly change strategies and tactics, and increase reserve funds when such situations occur. One of the factors hindering the development of the insurance market is the rise of extortion in the market.

As a result of studying the issues of development of the insurance market in our country, the following conclusions were formed: First, although the national insurance market of our country is developing relatively quickly, today it cannot fully meet the world's requirements. Secondly, the majority of the population who use and can use insurance services do not have complete information about insurance. However, the increase in demand for this type of insurance contributes significantly to the improvement of the financial situation of the insured and the insured. In order for legal

entities to provide insurance, first of all, they need trust. Individuals need accurate information. The fact that the information is correct and complete will attract them to the correct and targeted use of insurance. To implement this process, the insurance market requires qualified specialists. Most employees working in insurance companies are not insurance experts. An employee of one department does not have information about the activities of the employee of the other department. Agents have the same problem. As a result, as a result of the incomplete and correct delivery of insurance services to the person who wants to be insured, there is a decrease in the demand for insurance and lack of trust in the activity.

References:

1. Decree No. PF-60 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 "On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026".
2. Resolution PQ-4412 of the President of the Republic of Uzbekistan dated August 2, 2019 "On measures to reform the insurance market of the Republic of Uzbekistan and ensure its rapid development".
3. Martysyuk A. "Features of the organization of riverside urban territories of rivers: the experience of the countries of near and far abroad" Bulletin of Polodsk State University. - 2015, article.
4. Nizamiddin Khaidarov. The role of customs in accelerating interstate economic relations. Technical and technological problems of the service, 2019

OPTIMAL PRINCIPLES FOR INTERNATIONAL STANDARDIZATION OF ACCOUNTING IN THE INSURANCE INDUSTRY

Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna
student of Tashkent State University of Economics
Scientific supervisor: Professor Abdusalomova N.B.

The role of insurance as an integral component of the financial system holds significant importance in ensuring the competitiveness and stability of the national economy. A notable example is the recent introduction of medical insurance, which signifies promising prospects in our economy. Presently, there is a pressing need to expand the insurance market by fostering the development of insurance relationships, establishing branches and divisions of insurance organizations in remote rural areas, introducing new services, and enhancing insurance legislation.

The ongoing reform of the insurance system has led to the emergence of diverse ownership structures within the insurance market. Legislative measures taken in this regard aim to elevate the status of the insurance system within society, provide high-quality services in accordance with global standards, and enhance the infrastructure of the insurance market. Currently, our country is home to over thirty specialized insurance companies that offer more than two hundred types of services to clients.

On November 9, a video conference chaired by President Shavkat Mirziyoyev of the Republic of Uzbekistan was held to discuss various aspects related to healthcare

system development, ensuring quality medical services for the population in different regions, analyzing the outcomes of reforms in strengthening the material and technical resources of medical institutions, and setting priority tasks for future endeavors. During this meeting, the topic of medical insurance was also addressed. The President's press service highlights that "compulsory medical insurance systems have been implemented in all developed countries, leading to reduced budgetary costs and improved healthcare quality." Consequently, starting from 2021, Uzbekistan will gradually introduce a mandatory health insurance system. The meeting emphasized the necessity of developing relevant laws and regulations in collaboration with international consultants, citing countries such as South Korea, Singapore, and Germany as examples.

In insurance organizations, the accounting process follows a journal-order format, which involves summarizing information from primary documents based on types and directions of transactions. This includes managing funds and other economic activities through synthetic and analytical charts, with accounting being reflected in all departments.

To ensure comprehensive recording of financial and economic transactions during the reporting period, primary documents are compiled and systematized in account registers. The following accounting registers are utilized in the journal-order format: journal-orders, general ledger, and record of transactions on accounts. In insurance organizations, the main accounting registers are the ledger and specific journal-orders such as "Cash Transactions," "Bank Transactions," "Account Books with Accounting Persons," "Account Books with Employees," and "Other Transactions."

Charts are employed in accounting for the current representation of economic funds and transactions, facilitating economic grouping and swift control. Each object of the account and type of funds or resources is assigned a separate account. A chart is divided into two parts: the left side known as debit and the right side known as credit. The sum of debit and credit transaction amounts is referred to as turnover, while the difference between the amounts recorded on each side is called the balance. Balances can be either debit or credit. To determine the new balance, the turnover sum indicating an increase in funds is added to the opening balance, followed by subtracting the turnover sum reflecting a decrease. If there is no balance, the account is considered closed. Accounts related to the company's funds are referred to as active accounts, while those reflecting the sources of the company's funds are known as passive accounts. In active accounts, the balance is on the debit side, with increases recorded on the debit side and decreases on the credit side.

The accounting process in insurance organizations comprises several interconnected stages. These include identifying and collecting financial data, processing the data, and preparing financial reports for presentation to users.

Under the new version of the Tax Code, mandatory contributions to extra-budgetary funds are calculated based on unearned insurance premiums (reserves) of insurers. However, these reserves are subject to taxation again when they are recognized as income upon reduction. Given this situation, it is necessary to review the current procedure for determining the income of insurance organizations and calculating the

tax base, considering the specific characteristics of income formation in this sector.

The association of professional participants in the insurance market should take responsibility for organizing the publication of a weekly newspaper focused on accounting and reports related to insurance organizations. This initiative aims to provide valuable information and insights to professionals in the field.

Regularly enhancing the qualification of accounting staff in insurance companies is crucial, aligning their expertise with the requirements of international standards. This ongoing improvement ensures that accounting practices remain up-to-date and in line with global standards.

It is advisable to give special attention to the utilization of methodological rules from other disciplines in the accounting processes of insurance organizations. Exploring and incorporating relevant methodologies from different fields can contribute to a more comprehensive and effective accounting approach.

References:

1. Abramov V.Yu. Insurance: Theory and Practice. -Moscow: Walters Kluwer, 2007. -512 p.
2. Gvozdenko A.A. Fundamentals of Insurance. Textbook. - Moscow: Finance and Statistics, 2004. - 320 p.
3. Grishchyenko N.B. Fundamentals of Insurance Activities: Tutorial. - Moscow: Finance and Statistics, 2006. - 416 p.
4. Ochilov I., Shirinov S., Sultanov D. Accounting in Insurance Organizations: Accounting and Auditing. - Tashkent: "Finance and Economy", 2008.

SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA DAROMADLARNI VA XARAJATLARNI HISOBGA OLISHNING AMALIY JIHATLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

Haydarova Nargiza Anvarovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti

O‘zbekistonda sug‘urta bozori jadal rivojlanib, iqtisodiy munosabatlarning barcha yangi sohalariii qamrab olmoqda. Mamlakatimiz rahbariyati tomonidan sug‘urta biznesini yuritish bo‘yicha xalqaro standartlarga mos keng ko‘lamli sug‘urta hizmatlarini taqdim etadigan sug‘urta tizimini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan chora tadbirlar bunda muhim omil bo‘lmoqda.

O‘zbekiston sug‘urta bozoridagi ijobiy o‘zgarishlar natijasi jahon sug‘urta bozori ko‘rsatkichlaridan past darajada bo‘lib qolmoqda. Albatta bu - sug‘urta tashkilotlarining daromadlari oshirishda amalga oshirish kerak bo‘lgan ishlar xali juda ko‘p.

Sug‘urta tashkilotlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bevosita ularning daromadlari va ularni ko‘paytirib borishlariga bog‘liq. SHunday ekan, ularning daromadlari tarkibi, manbasi, ko‘paytirish yo‘llarini o‘rganish hozirgi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Sug‘urtani amalga oshirish, qonunchilikda man etilmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanish natijasida hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag‘larining jami

sug‘urta tashkilotlarining daromadi hisoblanadi.

Ular ichida daromadlarni olingan manbalariga ko‘ra uch guruxga bo‘lishga asoslangan variant keng qo‘llaniladi:

1) Sug‘urta faoliyatidan olingan daromadlar. Sug‘urta operatsiyalarini amalga oshirishdan olingan daromadlar sug‘urtalovchi daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi.

2) Investitsiya faoliyatidag olingan daromadlar. Sug‘urta tashkilotining ushbu faoliyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq emas. Sug‘urtalovchining investitsiya joylashtirish imkoniyati sug‘urta mukofotlari hisobidan yuzaga keladi. Odatda, sug‘urta mukofotlari ma’lum vaqt oralig‘ida sug‘urtalovchi ixtiyorida bo‘lishi davrida amaldagi me’yoriy qoidalarga asoslanib, daromadli aktivlarga joylashtirilishi unga investitsiya daromadlarini keltiradi. Investitsiya imkoniyatlari bo‘yicha o‘zok muddatga xayotni sug‘urtalash zaxiralari ko‘proq manfaatlidir.

Buxgalteriya hisobida sug‘urta kompaniyasining daromadlarini turkumlash bo‘yicha bir qancha olimlar o‘zlarining qarashlarini bildirgan. I.V. Shaposhnikova fikricha “...Buxgalteriya hisobida sug‘urta kompaniyasining daromadlari quyidagi guruhlarga bo‘linishi mumkin:

- sug‘urta operatsiyalaridan olingan daromadlar (olingan sug‘urta mukofotlari, mukofotlar, qayta sug‘urtalovchilar tomonidan qayta sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha to‘lovlar ulushini qoplash, mukofotlar bo‘yicha hisoblangan foizlar va boshqalar);

- sug‘urta faoliyati bilan bog‘liq boshqa daromadlar (sug‘urta agenti, syurveyer, favqulotda vaziyatlar bo‘yicha avariya komissar xizmatlarini kursatganlik uchun to‘lanadigan haq investitsiya faoliyatidan olingan daromadlar); - boshqa operatsiyalardan keladigan daromadlar (asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni, moddiy aktivlarni sotishdan olingan daromadlar, olingan jarimalar, shartnomalar shartlarini buzganlik uchun jarimalar, kurslar farqlari va x-k.)[1].

Sug‘urta tashkilotlarida asosiy faoliyatidan olingan daromadlarni xssobga olishda faqat sug‘urta operatsiyalaridan olingan tushumlar daromad bazasini tuldirishning asosiy manbai hisoblanadi, shuningdek sug‘urta faoliyatini tashkil etishning asosiy sharti qilib belgilangan. Ammo amaliyot ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta tashkilotlari asosiy sug‘urta faoliyatidan moliyaviy natijalari zarar bilan yakunlashmoqda.

Sug‘urta tashkilotlarining daromadning asosiy manbai - sug‘urta badallari yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlari hisoblanadi. Sug‘urta kompaniyasiga berilgan sug‘urta mukofotlari xajmi sug‘urta portfelining tarkibi va tuzilishiga, narx (tarif) siyosati, marketing strategiyasi va boshqa omillarga bog‘liq.

Sug‘urta tashkiloti tomonidan asosiy (operatsion) faoliyatdan daromadlarni hisobga olishda qayta sug‘urta qilishga oid komission rag‘batlantirishlar, yigimlar bo‘yicha daromadlar olinadi va uning hisobi qayta sug‘urta qilishga berilgan shartnomalar bo‘yicha olingan komission rag‘batlantirishlar, yig‘imlarning hisoblangan summasiga “Qayta sug‘urta qilishga oid komission rag‘batlantirishlar, yig‘imlar bo‘yicha

olinadigan schyotlar” schyotining debetlanib, “Qayta sug‘urta qilishga oid komission ragbatlantirishlar, yig‘imlar bo‘yicha daromadlar” schyoti kreditlanadi.

Sug‘urta tashkilotlari tomonidan syurveyerlik va adjasterlik xizmatlarini ko‘rsatishdan olingan daromadlar "Syurveyer va adjaster xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar" schyotining kreditida hisobga olinib, hisobot davri oxirida "Syurveyer va adjaster xizmatlarini ko‘rsatishdan daromadlar" schyotiga o‘tkaziladi.

15-son MHXS xaridorlar bilan “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushumlar” standartida tushumlarni tan olish, baholash va hisobotdarda aks ettirishning yangi tartibini joriy etishni ko‘zda tutadi. 15-son MHXSni barcha xo‘jalik yurituvchilar uchun xos bo‘lib, sug‘urta tashkilotlaring xususiyatlarini ochib bera olmaydi.

Sug‘urta tashkilotlarii 4-son MHXSni quyidagi “...bevosita ishlab chiqaruvchi, diler yoki chakana sotuvchi tomonidan mahsulotga beriladigan kafolatlarga...”, “xo-dimlarning daromadlari bo‘yicha ish beruvchilarning aktivlari va majburiyatlari”larga hamda “..nomoliyaviy moddadan (masalan, ba’zi litsenziya to‘lovlari, royalti, o‘zga-ruvchan ijara to‘lovlari va shunga o‘xshash moddalar) kelgusida foydalanishga yoki ulardan foydalanish xukukiga bog‘liq; shartnoma xuquqlari yoki shartnoma majburiyatlariga, shuningdek ijarachining ijaraga biriktirilgan kafolatining qoldiq qiymatiga” qo‘llamasligi kerak.

Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini davr talabi asosida tashkil etish, sug‘urta xizmatlari tannarxini to‘g‘ri aniqlash, sug‘urta ishini yuritish xarajatlari yanada takomillashtirish bozor iqtisodiyotining muxim talablaridandir.



1-rasm. Xarajatlarni tan olish shartlarining muhim belgilar

Shunday qilib, biz xarajatlarni tan olish quyidagi shartlar bajarilganda sodir bo‘ladi degan xulosaga kelishimiz mumkin:

• agar yuqoridagi tan olish shartlaridan kamida bittasi bajarilmagan bo‘lsa, buxgalteriya hisobida xarajatlar emas, balki aktiv, shu jumladan debitorlik qarzlari shaklida tan olinadi;

• korxona qilingan sarflar va xarajatlar qaytarilsa, xarajatlar sifatida tan olinmaydi, ular debitorlik qarzi sifatida hisobga olinadi;

• daromadlarni olish ayrim moddalarini bilan sarflangan xarajatlar o‘rtasidagi

to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik asosida moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda xarajatlar tan olinadi. Daromad va xarajatlarni taqsimlash deganda, xuddi shu operatsiyalar yoki boshqa xodisalar natijasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bog‘liq ravishda kelib chiqadigan daromadlar va xarajatlarni bir vaqtda yoki birgalikda tan olish tushuniladi.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Шапошникова И.В. Бухгалтерский учет и отчетность в страховых организациях: учеб-ное пособие для студентов, обучающихся по направлению подготовки 080100.62 «Экономика» (профиль «Бухгалтерский учет, анализ и аудит») / сост. И.В. Шапошникова/ Саратовский государственный со-циально-экономический университет. - Саратов, 2013. - 180 с
2. Особенности учета доходов и расходов страховыми компаниями по операциям страхования, сострахования и перестрахования в соответствии с отраслевыми стандартами, https://gaap.ru/articles/

TO‘LIQ RASMIYLASHTIRILMAGAN SUG‘URTA SHARTNOMALARI BO‘YİCHA SUG‘URTA MUKOFOTLARINİ HISOBGA OLISH TARTIBI

Ikromova Shaxnoza Odilovna
Toshkent temir yo‘l texnikumi
“Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi kata o‘qituvchisi

To‘liq rasmiylashtirilmagan sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini hisobga olish tartibiga to‘xtalishdan avval sug‘urta shartnomasini rasmiylashtirish tartibini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Sug‘urta shartnomasi sug‘urtalanuvchining yozma yoki og‘zaki arizasiga asosan tuziladi. Sug‘urta shartnomasining yozma shakl da tuzilmasligi uning kuchga ega emasligi bilan ifodalanadi. Yozma shaklda sug‘urta shartnomasini tuzishni talab etmaydigan yagona istisno holati davlat majburiy sug‘urtasida vujudga keladi. Bu da sug‘urtalash shartlari va tartibi, sug‘urtalovchi va sug‘urtalanuvchilar qonunchilik asosida belgilanadi.

Sug‘urta shartnomasini tuzishda sug‘urtalanuvchi quyidagilarga majburdir:

− barcha sug‘urtalanayotgan obyektlarni sanab o‘tishi, agar hayot sug‘urtasi bo‘lsa, barcha sug‘urtalanuvchilarni sanab o‘tish;

− sug‘urta shartnomasida nazarda tutilayotgan sug‘urta hodisasining xarakteri to‘g‘risida ma’lumot berish;

− mulkiy sug‘urtada sug‘urtalanayotgan obyektning qiymatini yoki mulkiy manfaatlarning maksimal qiymatini ko‘rsatishi;

− sug‘urta obyekti bo‘yicha sug‘urta hodisasining yuz berish ehtimoliga ta’sir ko‘rsatuvchi barcha omillarni sug‘urtalovchiga ko‘rsatish.

Agar sug‘urta shartnomasi tuzilgandan so‘ng sug‘urta hodisa- sining ehtimolligi yoki uning natijasida etadigan zararning hajmi- ga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar

sug‘urtalanuvchi tomonidan yolg‘on tarzda sug‘urtalovchiga yetkazilganligi ma’lum bo‘lsa, sug‘urtalov chi muddatidan oldin sug‘urta shartnomasini bekor qilishni talab etish huquqiga ega.

Mulkiy sug‘urta shartnomasini tuzishda sug‘urtalovchi mulkni ko‘rikdan o‘tkazishi yoki uning haqiqiy qiymatini aniqlash maqsadida maxsus ekspertlarni jalb qilish huquqiga ega. Hayotni sug‘urtalash shartnomasini tuzishda sug‘urtalovchi sug‘urtalanuvchidan sog‘lig‘ining haqiqiy holatini aniqlash maqsadida meditsina ko‘rigidan o‘tishni talab etishi mumkin.

Tomonlar sug‘urta shartnomasini tuzishda sug‘urta obyektlar ning ro‘yxati, sug‘urta hodisalarining turlari, sug‘urta summasi va sug‘urta shartnomasining amal qilish muddati borasida o‘zaro kelishuvga erishishlari zarur. Ushbu sanab o‘tilgan shartlar sug‘urta shartnomasining muhim shartlari hisoblanib, sug‘urta shartnomasida albatta keltirilgan bo‘lishi qonunchilik asosida talab etiladi.

Sug‘urta obyektining sug‘urta summasini belgilashda, ushbu sug‘urta summasining sug‘urta obyektining qiymatidan oshib ketmasligiga e’tibor qaratish zarur.

Mol-mulkning haqiqiy qiymatini aniqlashning asosiy ikki turi mavjud:

Birinchisi, mulkning sug‘urta shartnomasini tuzish sanasi holatiga balans qiymatini olish. Mazkur qiymat mulkning balansdagi qiymati va qonunchilik asosida unga hisoblangan eskirishning qayta baholanishi hisobga olingan holdagi farqi asosida hisoblanadi.

Ikkinchi usulda sug‘urtalanayotgan mulkni sotib olish xarajatlarini eskirishni hisobga olgan holda qiymati belgilanadi.

Sug‘urta obyektining qiymati sug‘urta shartnomasi tuzilgandan so‘ng o‘zgartirilishi mumkin emas, faqatgina obyektning qiymatini baholashda sug‘urtalovchini sug‘urtalanuvchi tomonidan chalg‘itish holatlari yuz bergan holatlar bundan mustasno.

Tadbirkorlik risklarini sug‘urtalashda sug‘urta summasi yetkazilishi mumkin bo‘lgan sug‘urta zararining maksimal hajmidan oshib ketishi mumkin emas. Agar mulkiy sug‘urtada yoki tadbirkorlik riskini sug‘urtalashda sug‘urta summasi etishi mumkin bo‘lgan sug‘urta zararining maksimal hajmidan oshib ketsa, sug‘urta shart- nomasi sug‘urta summasining maksimal sug‘urta zararidan oshiq roq qismida kuchga ega bo‘lmaydi.[1]

Hayot sug‘urtasi va fuqarolik javobgarligini sug‘urtalashda sug‘urta summasi tomonlarning o‘zaro kelishuviga asosan belgilanadi.

Sug‘urta obyekti to‘g‘risida sug‘urtalanuvchi tomonidan berilgan ma’lumotlar va sug‘urta hodisasining ehtimolligini hisobga olgan holda sug‘urtalovchi sug‘urta shartnomasi asosida to‘lanadigan sug‘urta mukofotining summasini va to‘lash tartibini belgilaydi.

Sug‘urta shartnomasi sug‘urtalanuvchining arizasi asosida ikki tomonlama imzolangan shartnoma yoki sug‘urtalovchi tomoni- dan sug‘urtalanuvchiga sug‘urta polisini berish orqali ham tuzilishi mumkin. Sug‘urta polisini olgan shaxs sug‘urtalash shartlari va talablari bilan rozi ekanligini namoyon etadi.

Sug‘urta shartnomasidagi sug‘urtalash shartlari va talablari su- g‘urtalovchi tomonidan tuzilgan tasdiqlangan va Moliya vazirligi sug‘urta nazorati davlat inspek-

siyasi tomonidan deponent qilingan sug‘urta qoidalarida belgilanishi mumkin. Bunda sug‘urtalash shartlari sug‘urta polisining orqa tomonidan ko‘rsatiladi yoki alohida shartnomaga ilova qilinadi. Shuningdek, sug‘urtalovchi va sug‘ur- talanuvchi o‘zaro kelishgan holatda standart sug‘urta shartnomalarining ba’zi jihatlariga o‘zgartirishlar kiritgan holda shartnoma tuzishlari ham mumkin.

Sug‘urta qoidalarida yuqorida keltirilgan sug‘urtalashning muhim shartlaridan tashqari quyidagilar keltirilgan bo‘lishi lozim:

− sug‘urta shartnomasi bo‘yicha tomonlarning o‘zaro majburiyatlari, shuningdek, sug‘urta shartnomasi bo‘yicha to‘lovlarni amalga oshirish bo‘yicha majburiyatlar;

− sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta hodisasining yuz berish ehtimolligiga ta’sir etuvchi voqealarning sodir bo‘lganligi to‘g‘risida sug‘urtalovchiga xabar berish tartibi va shartlari;

− sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan sug‘urta hodisasining sodir bo‘lganligi to‘g‘risida sug‘urtalovchiga xabar berish tar tibi va shartlari;

− sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qoplamasini berish to‘g‘risidagi da’volarni ko‘rib chiqish va uni to‘lashni rad etish shartlari va tartibi;

− sug‘urta shartnomasining shartlariga o‘zgartirishlar yoki qo‘shimchalar kiritish tartibi;

− sug‘urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish tartibi va shartlari.

Sug‘urta shartnomasi unda ko‘rsatilgan muddatdan yoki sug‘urta mukofoti to‘langan kundan kuchga kiradi. Lekin sug‘urtalovchi sug‘urta mukofoti to‘lanmasdan oldin sug‘urta hodisasi yuz bergan taqdirda sug‘urta javobgarligini olib bormaydi.[2]

Ba’zi sug‘urta tashkilotlari sug‘urta polislarini rasmiylashtirishning quyidagi tartibini amalga oshirib boradilar.

Odatda, sug‘urta polisi sug‘urtalanuvchi tomonidan sug‘urta shartnomasi tuzish to‘g‘risida bergan arizasi asosida rasmiylashtiriladi. Mazkur ariza ikki nusxada tayyor-lanadi. Uning bir nusxasi sug‘urta tashkilotida qoladi ikkinchisi esa sug‘urta mukofoti to‘lash tartiblari ko‘rsatilgan holda sug‘urtalanuvchiga qaytariladi. Sug‘urtalanuvchi sug‘urta tashkilotiga sug‘urta mukofotini to‘laydi. Sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng belgilangan muddatda sug‘urta tashkiloti sug‘urta polisini rasmiylashtiradi va sug‘urtalanuvchiga taqdim etadi.

Bunday holatda sug‘urta mukofotini qabul qilib olish quyidagi provodka asosida hisobga olinadi:

Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 6330

“Sug‘urtalanuvchilardan olingan bo‘nak sug‘urta mukofotlari”

Sug‘urta polisining rasmiylashtirilishi va sug‘urtalanuvchiga taqdim etilishi quyidagi provodka bilan hisobga olinadi;

Kredit 6330 “Sug‘urtalanuvchilardan olingan bo‘nak sug‘urta mukofotlari” – Kredit 6280

Mazkur tarzda provodkalarni amalga oshirish, odatda, sug‘urta tashkilotlari tomonidan yuklarni sug‘urtalashda amalga oshiriladi. Chunki mazkur holatda, yuklarni sug‘urtalashda ariza berilgandan so‘ng sug‘urta tashkiloti uchun yuklarni ko‘rikdan o‘tkazish va tegishli ma’lumotlarni olishi uchun vaqt talab qilinadi. Bunday

ma’lumotlarga quyidagilarni keltirish mumkin:

− yukning aniq nomi, uning o‘rami og‘irligi va hajmi;

− konosament va boshqa yuk tashish hujjatlarining sanasi va raqamlari;

− transport turi (dengiz transportida kemaning tonnaji va qurilgan yili sanasi);

− yukni jo‘natish tartibi;

− yukni jo‘natish sanasi va riskni baholash uchun kerakli boshqa ma’lumotlar.[3]

Ko‘p hollarda sug‘urtalanuvchi barcha savollarga bir vaqtning o‘zida javob topa olmaydi. Shu bilan birga, sug‘urta shartnomasi to‘lov amalga oshirilgandan so‘ng kuchga kiradi. Shuning uchun sug‘urta tashkilotlari taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlar asosida dastlabki sug‘urta mukofotini hisoblab chiqib dastlabki sug‘urta shartnomasini tuzishi mumkin. Bunday shartnomaning asosiy sharti shundaki, sug‘urtalanuvchi belgilangan vaqt davomida sug‘urtalovchiga sug‘urta riski darajasini aniqlash imkonini beruvchi ma’ lumotlarni taqdim etishi kerak. Ushbu ma’lumotlar taqdim etilgandan so‘ng yakuniy sug‘urta mukofoti hisoblab chiqiladi va ya kuniy sug‘urta shartnomasi tuziladi.

Agar sug‘urtalanuvchi tomonidan kerakli ma’lumotlar taqdim etilmasa, yoki sug‘urtalanuvchi sug‘urta mukofotini to‘lashni rad etsa, sug‘urta hartnomasi tuzilmagan hisoblanadi va sug‘urta mukofoti qaytarilib beriladi. Bundan tashqari, yakuniy hisoblangan sug‘urta mukofoti dastlabki sug‘urta mukofotidan kam bo‘lsa, ortiqcha summa sug‘urtalanuvchiga qaytarib beriladi.

Yuqorida keltirilgan tadbirlarni buxgalteriyada aks ettirish tartibini ko‘rib chiqamiz.

Dastlabki sug‘urta shartnomasi tuzilgandan so‘ng sug‘urtala- nuvchi ma’lum miqdorda sug‘urta mukofotini to‘lashi zarur. Mazkur holatda sug‘urta shartnomasining to‘liq rasmiylashtirilmaganligini hisobga olib quyidagi provodkani berish mumkin:

Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 6330

“Sug‘urtalanuvchilardan olingan bo‘nak sug‘urta mukofotlari”

Agar sug‘urta shartnomasi tuzilmasa, sug‘urta mukofotlari su- g‘urtalanuvchiga to‘liq qaytariladi:

Debet 6330 “Sug‘urtalanuvchilardan olingan bo‘nak sug‘urta mukofotlari” – Kredit 5000 (5100,5200)

Agar yakuniy sug‘urta shartnomasi tuzilib, ortiqcha to‘langan sug‘urta mukofoti qaytarilishi zarur bo‘lgan holda, qaytariladigan summaga yuqoridagi provodka amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, yakuniy sug‘urta shartnomasi tuzilishi bilan sug‘urta mukofoti summasiga quyidagi provodka beriladi:

Debet 6330 – Kredit 6280

Agar yakuniy sug‘urta shartnomasi tuzilgandan so‘ng sug‘urta mukofoti dastlabkisidan ortiq bo‘lsa, dastlabki mukofot uchun yu qoridagi provodka, yetishmagan summa uchun esa quyidagi provodka amalga oshiriladi:

Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 6280.

Amaliyotda ba’zi hollarda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 928-moddasida nazarda tutilgan tartibda Bosh polis bo‘yicha sug‘urtalash amalga

oshiriladi. Bunda bir turdagi tovarlarning turli vaqtlarda yetkaziladigan partiyalari sug‘urtalanishi sug‘urta shartnomasida belgilab o‘tiladi.

Sug‘urta tashkiloti bilan tuzilgan sug‘urta shartnomasida sug‘urtalanuvchining butun tovar oborotiga tegishli sug‘urta mukofoti sug‘urtalanuvchiga bo‘nak sifatida o‘tkazilib berilishi mumkin. Bo‘nakning to‘liq summasiga quyidagicha provodka beriladi:

Debet 5000 (5100,5200) – Kredit 6330

Keyinchalik har bir partiya tovar uchun rasmiylashtirilgan polisda ko‘rsatilgan summaga bo‘nakning hajmi kamaytiriladi:

Debet 6330 – Kredit 6280

Bosh sug‘urta shartnomasining muddati tugashi bilan depozit- ning foydalanilmay qolgan summasi sug‘urtalanuvchiga qaytarib beriladi:

Debet 6330 – Kredit 5000 (5100,5200)

Ba’zi hollarda bosh polis bo‘yicha sug‘urtalash shartnomalari- da shartnoma muddatining tugashi bilan depozit qoldig‘iga nisba- tan kelishilgan foizda daromad ham hisoblanishi mumkin. Foizlarni belgilash qarzdorlikmunosabatlariga xos ravishda amalga oshiriladi, lekin depozit qoldig‘i qarz sifatida hisobga olinmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Куликов С.В. Финансовый анализ страховых организаций. Учебное пособие. Ростов н/Д.: Феникс, 2016
2. Никулина, Н.Н. Практический страховой аудит. Учебное пособие .— М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2015.
3. Очилов О., Ширинов С. Суғурта ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. –Т.: Иқтисод-молия, 2008.

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA ICHKI AUDITINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI VA SOHANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

Jo‘rayev Dilmurod Xolmo‘minovich
TIFT Universiteti "Iqtisodiyot va boshqaruv" kafedrasi assistenti assistenti

Hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida faoliyatlarni yaxshilashda ichki audit funksiyasi katta ro‘l o‘ynaydi. Bu ro‘lning asosiy sabablari iqtisodiyotni o‘zgartirish sur'atlarining ortib borayotgani, qarorlar qabul qilishning tezkorligi va raqobatda raqobatdosh ustunlikka erishish uchun tadbirkorlarning barcha mumkin bo‘lgan resurslarni to‘plash zaruratidir. Tashkilotning barcha funksiyalari ichida ichki audit funksiyasi bu rolni tabiiy tarzda o‘ynaydigan yagona hisoblanadi, chunki u "xavf, nazorat va boshqaruv bilan bog‘liq faoliyatni hujjatlashtirish, tushuntirish va baholash uchun o‘ziga xos mas'uliyatga ega". Ichki audit funksiyasi o‘ziga xos xususiyatga ko‘ra aksiyadorlik jamiyatlar faoliyatini oshirish imkoniyatiga ega, chunki u ma’lumotlarni yig‘ish orqali har kuni ma’lumot olishga olib keladi.

“Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, “ichki audit ishini ko‘rib chiqish” ichki audit sifatida korxonada tashkil topgan, korxona ijroiya organi va manfaatdor (mulkdorlar) tomonlari manfaatlarini himoya qilgan holda ishlaydigan, ichki me’yoriy hujjat va standartlar bilan tartibga solinadigan tizim tushuniladi. Hisob tuzish, yuritish va hisobot berishning belgilangan talablarga rioya etilishini, shuningdek, ichki nazorat tizimining faoliyatini yanada ishonchliligini nazorat qilish tizimi tushuniladi [1].

Buxgalteriya hisobi tomonidan taqdim etilgan iqtisodiy faktlarning yetishmasligi korxona raxbarlari uchun katta kamchilik bo‘lishi mumkin.

So‘nggi paytlarda, korxona ichidagi muhimlik nuqtai nazaridan, ichki audit tobora ko‘proq o‘rin egallaydi va shu bilan jozibador va qiziqarli tadqiqot sohasini ifodalaydi. Ushbu tadqiqot doirasi ichki audit funksiyasining istiqbollarini va ushbu funksiyani rivojlantirish usullarini aniqlash va ta'kidlashdan iborat[2].

Xalqaro ichki auditorlar instituti ichki auditga shunday ta'rif beradi: "Ichki audit - bu tashkilot faoliyatini yaxshilashga qaratilgan mustaqil va ob'ektiv ishonch va maslahat berish faoliyati". Ichki auditni belgilangan standartlar doirasida, korxonaning iqtisodiy strategiyasiga muvofiq, shuningdek, korxona faoliyati samaradorligiga haqiqiy baho beradigan belgilangan buxgalteriya hisobi tartibiga rioya qilgan holda. Ichki nazorat tizimining holatiga qarab, ichki auditning maqsad va vazifalari belgilanadi. Asosiy maqsad - tashkilot rahbariyatini kompaniya faoliyati to‘g‘risida xolis, ishonchli va o‘z vaqtida ma’lumot bilan ta'minlash. Ichki auditning vazifalari boshqaruv organi va mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirishning ajralmas qismi bo‘lgan ichki nazorat tizimini tashkil etishdan iborat. Shuni ta'kidlash kerakki, tashkiliy-huquqiy jihatdan ichki audit har bir kompaniya uchun individualdir, chunki bu uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining xususiyatlariga bog‘liq. Shunga asoslanib, iqtisodiy adabiyotlarda ichki auditning quyidagi tashkiliy shakllari ajratiladi: - o‘zining ichki audit xizmatini shakllantirish; - autsorsing; - kosorsing O'zingizning ichki audit xizmatini yaratish tashkilot xodimlarining biznesning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishini nazarda tutadi. Autsorsing ichki audit funksiyalarini uchinchi tomon kompaniyasiga yoki tashqi maslahatchiga to‘liq yoki qisman topshirishni o‘z ichiga oladi. Kosorsing kompaniya ichida ichki audit organlari tashkil etilishini nazarda tutadi, lekin ba'zi hollarda uchinchi tomon kompaniyalari mutaxassislari yoki tashqi maslahatchilar jalb qilinishi mumkin[3].

Ichki audit xizmati bir korxona yoki aksiyadorlik jamiyatlari bo‘limini nazorat qilishda quyidagi ishlar bajariladi[13].

Shu bilan birga, ichki audit tashkilotlarning korporativ boshqaruv risklarini boshqarish va ichki nazorat tuzilishining asosiy elementi hisoblanadi.

Samarali audit funksiyasini yaratish tashkilotlar uchun qiyinchilik tug‘diradi. Qabul qilinishi mumkin bo‘lgan raqobatdosh ustunliklar sarmoya qilingan sa'y-harakatlarni (resurslarni) to‘liq mukofotlaydi va ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: risklarni boshqarish jarayonlarini, nazorat muhitini takomillashtirish, nazorat qiluvchi organlar bilan munosabatlarni mustahkamlash, boshqaruv jarayonida yuqori

[13] Muallif tomonidan tuzilgan.

samaradorlik, risklarni boshqarishda yuqori samaradorlik va faoliyatini nazorat qilish.

1.	Audit tahlilini o‘tkazish bo‘yicha ish reja tuziladi
2.	Tahlil o‘tkazuvchilar ya’ni auditorlar ro‘yxati shakllantiriladi hamda tahlilni o‘tkazish ishlarning maqsadi va vazifalari belgilanadi
3.	O‘tgan davrdagi o‘tkazilgan tahlil natijalari bo‘yicha auditorlik xulosasi ko‘zdan kechirilib, shular bo‘yicha tadbirlarning bajarilishi ko‘rib chiqiladi
4.	Tahlil olib borishda buyruqlar hamda kassa tekshiruvini amalga oshirish uchun guvohnoma tayyorlanadi

Uzoq vaqt davomida ichki audit korxona ichidagi ichki nazorat jarayonini tekshirish orqali tashqi audit uchun yordam sifatida qaraldi. Bugungi kunda ushbu jihatni e'tiborsiz qoldirmagan holda, ichki audit faoliyati tashqi auditni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ichki nazoratni tekshirish va baholash roliga ega, ammo shunga qaramay, ichki audit funksiyasi boshqaruvga yordam berishda ancha muhim rol o‘ynay boshlaydi. korxona duchor bo‘lgan xavfga nima tegishli. Shu nuqtai nazardan, ichki auditorning professional profili nafaqat ular bajaradigan roldagi o‘zgarishlar, balki biznes olamida duch keladigan muammolar tufayli ham ba'zi o‘zgarishlarga duch kelishi aniq bo‘ladi.

Quyidagi maqsadlar ichki audit funksiyalari evolyutsiyasini aniqlashdan iborat. Tadqiqot ichki audit sohasidagi tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan nashr etilgan adabiyotlarni qamrab olishni, amaldagi me'yor va qoidalarni tahlil qilishni, shuningdek, nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan ichki audit evolyutsiyasiga oid tadqiqotlarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotda ilmiy yondashuvimiz umumiydan xususiyga deduktiv yondashuvga asoslanadi.

Shuning uchun biz ichki auditga oid asosiy tushunchalarni aniqlashdan bilimning haqiqiy bosqichidan boshladik.

Biz ilmiy ishning yakunlanishi keyingi rivojlanish yoki tadqiqot sohasidagi yangi yondashuvlarning boshlanishi bo‘lgan g‘oyaga qo‘shilamiz. Shu bilan biz tadqiqotimizni bir qator xulosalar bilan yakunlaymiz.

Hulosa qilib aytganimizda yuqorida aytilganlarning barchasini sarhisob qilsak, shuni aytishimiz mumkinki, ichki audit doimiy, kelajakka yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, u biznes jarayonlarini, biznes va moliyaviy risklarni boshqarish va boshqarish tizimlarining samaradorligini baholashdan iborat. Ichki audit xizmati korxonaning boshqaruv organlariga korxonaning faoliyati nazorati va uni ishlashining obyektiv tahlili, baholash, xulosa hamda tavsiyalar va axborot bilan ta’minlashga yordam beradi. Ichki audit korxona va tijorat banklarining ichki nazorat tizimining asosiy bo‘g‘ini bo‘lib, u xatarlarni bartaraf etishga yoki kamaytirishga va ijro intizomini to‘g‘ri yuritishda qo‘l keladi. Faqat O‘zbekistonda rivojlanayotgan holda kompaniyaning rivojlanish maqsadlariga erishishga to‘sqinlik qiladigan hodisalar. Kompaniyalarning amaliy tajribasi, xulosalari va tavsiyalari, allaqachon ichki auditdan foydalanadigan boshqa O‘zbekiston kompaniyalari ichki audit xizmatlarini yaratishda foydalanishlari mumkin. Shunday qilib, barcha qiyinchiliklarga qaramay, talab O‘zbekistonda ichki

audit barcha to‘siqlarni bosqichma-bosqich engib o‘tish tufayli har yili o‘sib bormoqda. Va tez orada, menimcha, biz O‘zbekistonda to‘liq huquqli ichki auditni kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 25.02.2021 yildagi O‘RQ-677-son
2. Mlinda Timea Fülöp, Universitatea Babeş-Bolyai, Facultatea de Ştiinţe Economice and Gestiunea Afacerilor, Cluj-Napoca, The evolution of the internal auditing function in the context of corporate transparency.
3. Mexmonaliyev Ulug‘bek Erkinjon o‘g‘li O‘zbekıstonda ichki auditni rıvojlantirishning istiqbollari
4. Dusmuratov R.D. Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot: monografiya. – T.: Moliya nashriyoti, 2007. – 276 b.
5. Mamatov Z.T. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy hisobot auditini o‘tkazishni takomillashtirish masalalari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dis. avtoref. – T., 2005. – 40 b. – 160b.; Tulaxo‘jaeva M. Korxona moliyaviy ahvoli auditi. – T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 1996 – 193 b.
6. Qo‘ziev I.N. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida auditorlik hisobotini tuzish va umumlashtirish metodologiyasini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. Toshkent-2017. -70 b.
7. Hamdamov B.K. O‘zbekiston iqtisodiyotining hisob va hisobot tizimida auditorlik nazoratini rivojlantirishning uslubiy asoslari: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dis. avtoref. – T.: 2007. – 260 b.
8. Meliev I.I. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish va o‘tkazishni takomillashtirish: Iqtisod fan. dok. (PhD) diss. avtoreferati. Toshkent: TMI, 2020. 63b.
9. Hajimuratov N.Sh. “Moliyaviy hisobot auditi metodologiyasini takomillashtirish”: DSc. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoref. – T., 2021.– 220 b.
10. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit: Monografiya. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 2006. – 262 b.;
11. Orlova O.E. Ichki nazoratni tashkil etish muammosi // Buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. – № 6.–2012.

SUG‘URTA BOZORIDA TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH TENDENTSIYALARI VA RIVOJLANISH TAJRIBALARI

Jo‘rayeva O‘.A.
Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi respublika iqtisodiyotini jadal raqamlashtirishni nazarda tutadi, bu esa iqtisodiy moliyaviy munosabatlarning asosiy toifalari, tamoyillari va tizimlarining o‘zgarishiga, ushbu munosabatlarning alohida subyektlarining roli va ahamiyatining qayta taqsimlanishiga olib keladi. Mazkur

strategiyaga muvofiq qurilish, energetika, qishloq va suv xo‘jaligi, transport, geologiya, kadastr, sog‘liqni saqlash, ta'lim, arxiv sohalarini raqamlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi farmoniga muvofiq, raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish bo‘yicha maqsadli vazifalar belgilandi, xususan: - raqamli iqtisodiyotni jadal shakllantirish – 2023 yilga borib uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ikki baravar oshishi kerak; - dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish va texnologik platformalar yaratish orqali “raqamli tadbirkorlik”ni rivojlantirish – 2023-yilga borib bu boradagi xizmatlar hajmini 3 barobarga oshirish, ularni eksport qilish hajmini 100 million dollarga yetkazish zarur.

Sug‘urta - bu milliy biznesning jadal rivojlanayotgan sohasi, ammo shuni ta'kidlash kerakki, mustaqil O‘zbekiston sug‘urta bozori hali ham uni yanada rivojlantirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi muammolarga duch kelmoqda. Bu borada raqamli iqtisodiyotda sug‘urtaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ichki sug‘urta bozorida yangi raqamli texnologiyalarning amaliyotga qo‘llanilishini joriy etish va baholash bilan bog‘liq. Shuningdek, sug‘urta munosabatlari ishtirokchilari uchun raqamli texnologiyalardan foydalangan holda yangi samarali yechimlarni izlash va o‘zgaruvchan iqtisodiyotda jismoniy va yuridik shaxslar mulkiy manfaatlarini yuqori sifatli himoya qilishni ta’minlash uchun sug‘urta bozori ishtirokchilari o‘rtasida samarali hamkorlikni ta’minlash zarurati bilan ham asoslanadi.

Dunyoda eng yirik sug‘urta va qayta sug‘urta hamda o‘z tadqiqot institutiga ega bo‘lgan Swiss Re Group tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, 2021 yilda jahon sug‘urta mukofotlari 6,9 trln. AQSh dollarga yetgan. Jahon sug‘urta bozorida yetakchi o‘rinda AQSh, Xitoy, Yaponiya davlatlari bo‘lib, ularning bozordagi ulushi 58,0 foizdan oshadi. Swiss Re instituti tadqiqotiga ko‘ra, COVID-19 pandemiyasidan keyin sug‘urta bozori o‘zining oldingi o‘sish sur’atlarini tiklab oldi. Jahon iqtisodiy forumi tomonidan tayyorlangan yillik The Global Risks Report–2022 hisobotida COVID-19 pandemiyasidan ham xavfliroq bo‘lgan global risklar (xavf-xatarlar) keltirib o‘tilgan. Bular orasida atrofmuhitning o‘zgarishi risklari, ayniqsa, katta talofatlarga olib kelishi ta’kidlangan. Shuningdek, sug‘urta biznesi uchun xavfli risklar sirasiga yuqumli kasalliklar, iqtisodiy inqirozlar va ekstremal tabiat hodisalari kiritilgan.

Xalqaro amaliyotda sug‘urta bozorining rivojlanishi sug‘urta mukofotlari hajmi va uning yalpi ichki mahsulot (YaIM)dagi ulushi orqali aniqlanadi. Dunyo bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi ulushi o‘rtacha 7,1 foizni tashkil qilmoqda. Bu esa O‘zbekistonda sug‘urta mukofotlarining nominal qiymatida o‘sishi bilan birga uning YaIMdagi ulushini ham oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Sug‘urta bozori milliy iqtisodiyotda risklarni taqsimlashda, aholining ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashda, iqtisodiyotda investitsiyalar hajmini oshirishda va mamlakat iqtisodiyotini jahon bozoriga integratsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda O‘zbekistonda sug‘urta bozorining o‘rni oshib bormoqda. Xususan, 2022 yil yakuniga ko‘ra, respublikamizda sug‘urta mukofotlari 6231,7 mlrd. so‘mga yetib, sug‘urta mukofotlarining YaIMdagi ulushi 0,7 foizni tashkil qildi. Bu esa sug‘urta mukofotlarining 2017 yildagi ulushidan 0,41 foiz punktiga yuqori ekanligini ifodalaydi.

Bugungi kunda mamlakatimizda sug‘urta bozorini yanada rivojlantirish, aholini

sifatli moliyaviy xizmatlar bilan qamrab olish ko‘lamini kengaytirish, sug‘urta tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ushbu sohada iste’molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun qulay shartsharoitlar yaratish uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarning rivojlanishida sug‘urta xizmatlari bilan bog‘liq qator vazifalar belgilangan. Bunda qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirishda sug‘urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish (35-maqsad), aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirishda tibbiy sug‘urtalash amaliyotini joriy qilish (56-maqsad), mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urtalash amaliyotini kengaytirish (86-maqsad) hamda aholini ijtimoiy himoya qilishda ijtimoiy sug‘urta tizimidan foydalanish va shu maqsadda ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasini tashkil etish (85-maqsad) vazifalari belgilab berilgan. Shu sababli, O‘zbekiston sug‘urta bozorini faollashtiruvchi omillarni aniqlash, ularni iqtisodiy-statistik tahlil qilish, sug‘urta bozorining rivojlanishiga omillar ta’sirini ekonometrik modellashtirishni nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan chuqur o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatdagi sug‘urta bozorida raqobat muhiti 2020 yilda 745,5 indeksiga teng bo‘lib, Xerfindal-Xirshman indeksining 3-oralig‘iga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida sug‘urta bozorida raqobat muhiti rivojlanganligini namoyon etdi. 2021 yilda ushbu indeks 661,2ga teng bo‘lgan va shu yili mamlakatda sug‘urta bozorida yanada raqobat rivojlanganligini namoyon etdi. 2022 yilda ushbu indeks yana biroz ko‘tarilgan. Lekin hamon ushbu indeksning 1000 tadan kichikligi mamlakat sug‘urta bozorining konsentratsiyalashuvi past darajada ekanligini ko‘rsatdi.

Mamlakatimiz sug‘urta bozori yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Sug‘urta mukofotlari, sug‘urta qoplamalari hajmi oldingi yillar bilan taqqoslaganda o‘sish tendensiyasiga ega. Xerfindal-Xirshman indeksi mamlakatda raqobat muhiti mavjud ekanligini ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari sug‘urta bozorida raqamli texnologiyaning zamon talabidek tendensiyalanmaganligi ba’zi bir holatlarda o‘z samarasini biroz bo‘lsada pasaytiradi. Bu esa moliyaviy bozorga raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha strategik vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilishiga sabab bo‘ladi. Raqamlashtirish iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga, xususan, moliya bozorining sug‘urta bozori kabi segmentiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Sug‘urta texnologiyalaridan foydalanish sug‘urta kompaniyalariga raqobatdosh ustunlikni beradi, bu ularga kerakli foyda olish va bozorda mustahkam o‘rnini saqlab qolish imkonini beradi

Sug‘urta sohasini rivojlantirish istiqbollari mavjud muammo va kamchiliklarni qay darajada bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘ladi. Xususan, umumiy makroiqtisodiy vaziyatning barqarorlashuvi boshqa sohalarda ham barqarorlikning oshishiga olib keladi. Moliyaviy sektor rivojlanishining hozirgi bosqichida sanktsiyalarni bekor qilish uchun hech qanday shart-sharoit yo‘q, aksincha, Yevropa Ittifoqi va AQSh, shuningdek, bir qator boshqa davlatlar sanksiyalar bosimini oshirish yo‘llarini izla-

moqda. Shubhasiz, ichki iqtisodiyot hozirgi vaziyatga moslashish davrini boshdan kechirmoqda, ammo jiddiy yutuqni hali kutmaslik kerak. Expert RA prognoziga ko‘ra, 2023 yilda sug‘urta bozori dinamikasi o‘rtacha bo‘ladi, mukofotlarning o‘sish sur'ati taxminan 7% ni tashkil qiladi. Sug‘urta mukofotlarining umumiy hajmi 1,9 trillion rubldan oshadi. Bozor dinamikasini belgilovchi asosiy omillar inflyatsiya darajasi va asosiy stavkaning oshishi, korxonalar va fuqarolarning iqtisodiy faolligining pasayishi, ayrim turdagi tovarlarning (birinchi navbatda, avtomobil sanoatida) davom etayotgan taqchilligi, shuningdek, o‘zgarishlar bo‘ladi.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, agar iqtisodiy zarbalar bo‘lmasa, bu prognoz haqiqatga mos keladi. Biroq, tashqi makroiqtisodiy omillardan qat'i nazar, aniqlangan muammolarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish kerak. Xususan, firibgarlikka qarshi kurashish bo‘yicha mavjud tajribani umumlashtirish va uni sug‘urta sohasi bo‘ylab faol tarqatish muhim ahamiyatga ega. Ayrim sug‘urta kompaniyalari o‘rtasida axborot o‘zaro hamkorligini rivojlantirish, firibgarlik sxemalarida ishtirok etgan sug‘urta qildiruvchilarning qo‘shma ma’lumotlar bazasini shakllantirish, xodimlar uchun ushbu hodisaga qarshi kurashish bo‘yicha seminar va treninglar o‘tkazish zarur.

Zamonaviy haqiqat shundaki, raqamli texnologiyalar katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlash imkonini beradi. Bu firibgarlik holatlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini to‘plash va axborot bilan o‘zaro ta'sir qilish nuqtai nazaridan ham, aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish nuqtai nazaridan ham foydalidir. Moliyaviy xizmatlar iste'molchilari bilan o‘zaro munosabatlar jarayonlarini o‘zgartirishga sezilarli hissa qo‘shgan bank axborot texnologiyalarini rivojlantirish tajribasiga tayanish kerak.

KS KAFIL SUG‘URTA

THE IMPORTANCE OF INSURANCE SYSTEM FOR FINANCIAL STABILITY

Kazakov Firdavs Farxod o‘g‘li
student of Tashkent State
University of Economics

Insurance companies can be important for the stability of financial systems mainly because they are large investors in financial markets, because there are growing links between insurers and banks and because insurers are safeguarding the financial stability of households and firms by insuring their risks.

The insurance sector has traditionally been regarded as a relatively stable segment of the financial system. This is mainly because most insurers’ balance sheets, unlike those of banks’, are composed of relatively illiquid liabilities that protect insurers against the risk of rapid liquidity shortages that can and do confront banks. In addition, insurers are not generally seen to be a significant potential source of systemic risk. One of the main reasons for this view is that insurers are not interlinked to the same extent as banks are, for instance, in interbank markets and payment systems.

The insurance sector can, however, be a source of vulnerability for the financial system, and the failure of an insurer – an event that has occurred from time to time –

can create financial instability. In addition, the traditional view that insurers pose limited systemic risk can be challenged, however, because it does not take account of the fact that interaction between insurers, financial markets, banks and other financial intermediaries has been growing. It is important, however, to recognize that insurance companies, given their role as mitigators of risk and their often long-term investment horizons, often also support financial stability.

The insurance sector is one of the largest institutional investors in the world with invested financial assets of nearly USD 24 trillion. Insurance assets account for 12% of all global financial assets, which places insurers in the same category as pension funds and mutual funds[14]. This strong market presence makes the insurance sector an important player in the financial system. Particularly in light of the large proportion of fixed income securities on their balance sheets, one would expect insurers as a whole to play an elevated role as predictable and stable providers of long-term funds for the primary fixed income market.

As a part of the financial system, the insurance sector is important for the entire economy. The insurance mechanism compensates a significant share of losses caused by fires, natural disasters, man-made disasters and other accidental events of an unfavorable nature. Thus, insurance performs the function of re-financing, which could increase the expenditure part of the budget. In this particular aspect, in economically developed countries, insurance companies are the largest investors.

The financial stability mechanism of insurers provides the necessity to form a financial stability management system and identify the subjects of this system. The main elements of the mechanism are the system of legal, organizational, economic and financial provisions of financial stability of insurers and reinsurers. At the macro level the following methods of managing financial stability can be identified: licensing, regulation, supervision, rating, audit; whereas at the micro level these methods are: diversification, retrocession, internal audit, investment.

The economic result of the effectiveness of the financial stability management on the insurance market should be stabilization of the insurance market in general and an increase in the share of the insurance market in GDP[15].

A reinsurance pool can serve as an application tool for managing the financial stability of individual insurers and stabilizing the insurance market as a whole.

The reinsurance pool, in our opinion, should perform the following main functions:

– to develop and implement, on behalf of all participants, the administration of insurance contracts (insurance policies), including statistical market research and actuarial calculations necessary for the calculation of unified tariffs;

– to carry out, on behalf of the participants, the settlement of losses, including the acceptance of applications for reimbursement, loss assessment procedures, the calculation and direct payment of compensation;

[14] Fitch Ratings (2022) Global Credit Derivatives: A Qualified Success (September).

[15] T Akinlo. The causal relationship between insurance and economic growth. Australian Journal of Business and Management Research , volume 2 , issue 12 Posted: 2023

– to reinsure their risks both on the national and international reinsurance market.

From our point of view, the reinsurance pool can be described as a system in which insurers, under a voluntary agreement or in accordance with the legislation, transfer all reinsurance risks to the reinsurance pool.

Sug‘urta tashkiloti tomonidan sug‘ urta hodisasi sug‘urta qilish, birgalikda sug‘ urta qilish va qayta sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha yuzaga kelishi munosabati bilan hisobot davri uchun sug‘urta to‘lovlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, sug‘urta tashkiloti tomonidan qayta sug‘ urta qilishga o‘tkazilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlaridagi qayta qurish - hovchilar ulushlarini, qaytarilgan sug‘urta mukofotlari (badallari) va to‘langan sotib olish summalari, shuningdek to‘ langan tibbiy sug‘urtalangan shaxsga shartlarga muvofiq taqdim etilgan shartlar- majburiy tibbiy sug‘urta bo‘yicha davolash-profilaktika yordami (tibbiy xizmatlar) ko‘rsatish to‘g‘ risidagi shartnomalarda "Sug‘ urta, birgalikda sug‘urta va qayta sug‘ urta shartnomalari bo‘yicha to‘lovlar" hisobvarag‘ i belgilangan [9], unga quyidagi sub-hisoblar ochiladi: "Sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari (asosiy)"; "Birgalikda sug‘urta shartnomalari bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari"; "Qayta sug‘urtalashda qabul qilingan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlari"; "Qayta sug‘urtalovchilarning sug‘urta to‘lovlaridagi ulushi"; "Sug‘urta mukofotlari (badallari) va sotib olish summalarini qaytarish" va boshqalar. Hayotni sug‘urtalashning ba'zi holatlarida, qarz qarzi sug‘urta qildiruvchiga ma’lum bir yoshga to‘lgunga qadar yoki hayotni sug‘urtalash o‘g‘risining amal qilish muddati tugaganidan keyin to‘lanadigan to‘lovlarni hisobga oladi. Bunday vaziyatlarda qarshi talablarni hisobga olish dalolatnomasini tuzish kerak. Dalolatnomada hayotni sug‘urtalash shartnomasi bo‘yicha sug‘urta qildiruvchiga to‘lanadigan to‘lov miqdori va sug‘urta kompaniyasining qaytarilishi bilan bog‘liq foizlar bilan qarz miqdori ko‘rsatilgan. Ushbu operatsiyalar bo‘yicha buxgalteriya hisobida yozuvlar tuziladi: Debet 2210 kredit 6910 -shartnoma bo‘yicha sug‘urta qildiruvchiga to‘lanadigan to‘lovlar miqdori hisoblab chiqilgan; Debet 6910 kredit 8810- "Hayotni sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha ssudalar bo‘yicha sug‘urta qildiruvchilar bilan hisob – kitoblar" subschyoti - shartnoma bo‘yicha to‘lovlar (sug‘urta tovonini to‘lash) berilgan sanada kreditni qaytarish bo‘yicha sug‘urta va kredit bo‘yicha foizlarni to‘lash majburiyatlari summasi hisobga olinadi. Sug‘urta da'vosi sodir bo‘lganda sug‘urta tovonini to‘lash quyidagi yozuvlarda aks ettiriladi: Debet 2210- kredit 5010, 5110-sug‘urta tovonining miqdori to‘langan. Bunday to‘lov uchun asos voqea, oldindan to‘lov bo‘ladi- shartnomadagi rennoye. Sug‘urta kompaniyasi sug‘urtalangan shaxsning iltimosiga binoan sug‘urta tovonini to‘laydi va tegishli to‘lovni zararlar va muddatidan oldin tugatilgan shartnomalarni hisobga olish jurnaliga kiritadi. Sug‘urta majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash uchun stra-

hovchilar sug‘urta zaxiralarini tuzadilar.

Mos tranzit schyotning analitik hisobi har bir sug‘urta turi va sug‘urta tashkilotini boshqarish va hisobot berish uchun zarur bo‘lgan boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi. Masalan, da'vo qilingan, ammo hal qilinmagan zararlar zaxirasi tuzilgan zararni qoplash uchun sug‘urta hodisalari sodir bo‘lgan davrlar nuqtai nazaridan [8, 963-bet]. Hisobot davri oxirida mos tranzit -schyotning sub-schyotlarida hosil bo‘lgan debet yoki kredit qoldig‘i mos ravishda mos tranzit schyotning "foyda va Zararlar" debetiga yoki kreditiga o‘tkaziladi. Sug‘urta zaxiralaridan farqli o‘laroq, profilaktika choralari zaxirasini hisobga olish mos tranzit "Kelgusi xarajatlar zaxiralari" hisobvarag‘ida tashkil etiladi. Buxgalteriya hisobi metodologiyasidagi farq profilaktika choralari zaxirasi boshqa iqtisodiy xususiyatga ega ekanligi bilan bog‘liq. Bu sug‘urtalovchining sug‘urta qildiruvchilar oldidagi majburiyatlarini ta'minlash uchun mo‘ljallangan sug‘urta zaxiralariga taalluqli emas. Sug‘urta tashkiloti sug‘urta hodisasi yuz berish ehtimolini aniqlash uchun sug‘urtalangan mulkning baxtsiz hodisalari, yo‘qolishi yoki shikastlanishining oldini olish bo‘yicha tadbirlarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan chap mablag‘lar fondini shakllantiradi [9, 53 - bet]. Ogohlantirish choralariga sug‘urta mukofotlaridan (badallardan) ajratmalar summasi "Profilaktika choralari zaxirasi" sub-schyotining krediti bo‘yicha 9910-schyotning debeti bilan yozishmalarda aks ettiriladi "Foyda va zararlar". Profilaktika korxonalari uchun mablag‘lardan foydalanish mos tranzit schyotning debetida "Profilaktika tadbirlari zaxirasi" sub-schyotida hisob-kitoblarni hisobga olish schyotlari bilan yozishmalarda aks ettiriladi [9]. "Profilaktik chora - tadbirlar zaxirasi" hisobvarag‘i bo‘yicha tahliliy buxgalteriya hisobi tashkilotni boshqarish va hisobot berish uchun zarur bo‘lgan yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Shunday qilib, xulosa qilib, quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin ayniqsa, sug‘urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobi:

1. sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq barcha operatsiyalari sug‘urta faoliyati va har qanday o‘lchov tashkilotiga xos bo‘lgan operatsiyalarga bo‘linadi;

2. sug‘urta operatsiyalari, o‘z navbatida, sug‘urta, qayta sug‘urtalash va qo‘shma sug‘urta operatsiyalariga bo‘linadi;

3. sug‘urta operatsiyalari hisobini yuritishda sug‘urta kompaniyalari tashkilotlarning moliyaviy - iqtisodiy faoliyati uchun buxgalteriya hisobi rejasini va uni qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalarni stra - tashkilotlar tomonidan qo‘shimchalar va qo‘shimchalar bilan qo‘ shimcha qiladilar;

4. sug‘urta, ko-sug‘urta va qayta sug‘ urta shartnomalarini tuzish bilan bog‘liq barcha xarajatlar, sug‘urta, ko-sug‘urta va qayta sug‘ urta operatsiyalarini tashkil etish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar, shuningdek sug‘ urta tashkilotini boshqarish bo‘ yicha xarajatlar 2510 "Umumiy xo‘ jalik xarajatlari" schyotida hisobga olinadi.;

5. sug‘urta, sug‘urta va sug‘urta agentlari bilan sug‘urta premiyamlari, sug‘urta to‘lovlari, mukofotlar bo‘yicha sug‘urta, qo‘shma sug‘urta va qayta sug‘urtalash bo‘yicha barcha hisob-kitoblar "Sug‘urta, qo‘shma sug‘urta va qayta sug‘urtalash bo‘yicha hisob-kitoblar" schyotiga tegishli sub-schyotlarda aks ettiriladi, uning debetida sug‘urta mukofotlarining hisoblangan summalari hisobga olinadi va kredit

bo‘yicha-ularning haqiqiy tushumlari;

6. sug‘urta tashkilotining dastlabki daromadlarining manbai sug‘urta mukofotlari (badallari) bo‘lib, ular "Sug‘urta mukofotlari (badallari)" faol - passiv hisobvarag‘ida hisoblash usuli bilan aks ettiriladi.;

7. sug‘urta mukofotlarini hisoblashning turli xil tartibi qo‘llaniladi: hayotni sug‘urtalash shartnomalari bo‘yicha, mukofot davriy ravishda to‘langanda, mukofotni hisoblash uchun buxgalteriya yozuvi o‘sha paytda va belgilangan davrda to‘lanishi kerak bo‘lgan qismda amalga oshiriladi va sug‘urta turlari bo‘yicha hayotni sug‘urtalashdan tashqari, mukofotlarning bir qismini qismlarga bo‘lib hisoblash ta'minlanmaydi;

8. sug‘urta hodisasi yuz berishi munosabati bilan hisobot davri uchun sug‘urta to‘-lovlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun hisob "Sug‘urta, ko‘p su-g‘urta va qayta sug‘ urta shartnomalari bo‘yicha to‘lovlar "debetida sug‘urta tashkilotining sug‘urta to‘lovlari, kredit bo‘yicha esa qayta sug‘ urta qiluvchilarning qayta su-g‘urta qilishga berilgan shartnomalar bo‘yicha sug‘urta to‘lovlaridagi ulushi hisobga olinadi;

9. sug‘urta majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash uchun sug‘urta zaxiralari "Sug‘urta zaxiralari" hisobvarag‘ida shakllantiriladi, bunda har bir sug‘urta turi va sug‘urta tashkilotini boshqarish va hisobot berish uchun zarur bo‘lgan boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha tahliliy hisob yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi-T.: Adolat, 1995-1996.
3. O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksi – T.: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasining "buxgalteriya hisobi to‘g‘risida"gi qonuni. - T.: O‘zbekiston, 2016.
5. O‘zbekiston Respublikasining "auditorlik faoliyati to‘g‘risida"gi qonuni. - T.: 2021.25.02 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000 yil 5-6-son, 149-modda.
6. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 6-maydagi O‘RQ-370-son "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida" gi qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi qarori
8. Страхование: учебник / под ред. Т.А. Федоровой. – 3-е изд., пере- раб. и доп. – М.: Магистр, 2008. – 1006 с.
9. Миронова О.А.,Азарская М.А. Учет, налогообложение и аудит в страховых организациях / О.А.Миронова. – М.: Изд-во «Бухгалтерский учет», 2005. -256 с.
10. Дополнения и особенности применения страховыми организациями Плана счетов бухгалтерского учета финансово-хозяйственной деятельности организаций и Инструкции по его применению, утв. Приказом Мин- фина РФ от 4

сентября 2001 г. № 69н (в редакции приказов Минфина РФ от 07.05.2003 № 38н, от 18.09.2006 № 115н).
11. Дубровина Т.А. Бухгалтерский учет в страховых организациях: учебник для студентов высших учебных заведений / Т.А. Дубровина. – М.: ЮНИТИ, 2000. – 543 с.
12. Вещунова Н.Л. Бухгалтерский учет в страховых организациях: учеб.-практическое пособие / Н.Л. Вещунова. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. – 608 с.

SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA 17-SONLI “SUG‘URTA SHARTNOMALARI” MOLIYAVIY HISOBOT HALQARO STANDARTIGA O‘TISHNING MUAMMOLARI

Maxkamboyev Abdulhaq Tajimatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti

Ergasheva Muqaddas Shuhrat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi tayanch doktoranti

MHXS asosida sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy aktivlari va moliyaviy majburiyatlarini hisobga olish, hisobot berish, baholash tizimini yanada takomillashtirishsiz sug‘urta tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish mumkin emas. Sug‘urta tashkilotlari uchun xorijiy sheriklar bilan ishlash, investitsiyalarni jalb qilish va tashqi bozorlarga chiqish uchun zarur shart - bu xalqaro moliyaviy hisobot standartlaridan foydalanish. Qayd etish joizki, Iqtisodiyotning moliya sektorida, jumladan sug‘urta tashkilotlarida MHXSni joriy etish masalasi 2020-yil boshidan boshlab davlat darajasida muhokama qilinib kelinmoqda.

Moliya sektori tashkilotlarining, shu jumladan sug‘urta tashkilotlarining aktivlari va passivlarini hisobga olish, hisobot berish, baholash tizimini takomillashtirish zarurati, sug‘urta tashkilotlarida shu vaqtgacha amalda bo‘lgan buxgalteriya hisobi, hisobot berish va baholash tizimi ayniqsa, aktivlar va passivlar qiymati haqidagi ma’lumotlarni o‘lchash va oshkor qilish MHXS qoidalariga mos kelmaganligi sababli yuzaga keladi. Xalqaro standartlarga o‘tish anchayin kuch, mablag‘ va malakaliy kadirlarni talab etishi hich birimizga sir emas.Shu sababli milliy tizimdan bosqichma bosqich xalqaro standartlarga o‘tish maqsadga muvofiqdir.

17-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari”, Xalqaro buxgalteriya Standartlar kengashi (IASB) tomonidan chiqarilgan sug‘urta tashkilotlari uchun eng so‘nggi standart bo‘lib, sug‘urtani o‘lchash, taqdim etish va oshkor qilish va sub'ektlar tomonidan chiqarilgan va ushlab turiladigan qayta sug‘urta shartnomalarini tan olish tamoyillarini belgilaydi. Ushbu Standart, 4-son MHXSga o‘xshab, shartnoma turlariga emas, balki huquqlarning turlariga e'tibor qaratadi.

Shuning uchun odatda, barcha huquqlar sug‘urta shartnomalarida ask ettiriladi.

17-MHXS quyidagi shartnomalarga nisbatan qo‘llaniladi:

• tashkilot tomonidan tuzilgan sug‘urta shartnomalari,

• tashkilot tomonidan chiqarilgan qayta sug‘urta shartnomalari

• Sug‘urta shartnomalarining bir qismi, ya’ni bir kompaniya topshirganda (sotilganda /berilgandagi xavf) qayta sug‘urta kompaniyasiga (qayta sug‘urta qilish shartnomalari tashkilot tomonidan o‘tkaziladi).

• tashabbus shaklidagi investitsiya shartnomalari ishtirok etish xususiyatlari, bilan birgalikda tashkilot sug‘urta shartnomalarini ham tuzadi (ixtiyoriy, chunki siyosat egasining foydasi ixtiyoriy va bozor bilan bog‘liq).

Buxgalteriya hisobi opetarsiyalarining qo‘llanilish muvifiqligiga (masalan daromadlarni tan olish va javobgarlikni baholash) ko‘ra 17-MHXS va 4-MHXS o‘rtasidagi asosiy farq hisoblanadi.

MHXSga muvofiq, korxonalar erkin ravishda o‘zlarining daromadlarni tan olish va zaxiralarni hisoblash bilan bog‘liq izohlarini ishlab chiqishlari mumkin. Misol uchun, 4-MHXSga muvofiq kompaniyalarning o‘zgarish riskini qamrab olishi ixtiyoriy deb belgalangan bo‘lsa, u 17-MHXS bo‘yicha majburiy hisoblanadi. Quyida 4-MHXS va 17-MHXS o‘rtasidagi asaosiy farqlar batafsil tasniflangan.

4-MHXS “Sug‘urta shartnomalari” bo‘yicha:

• shartnomaning boshlanishi foydani tan olish.

• daromad mukofotni qamrab olishi va o‘z ichiga investitsiya komponenti olishi mumkin investitsiya komponenti.

• qayta sug‘urtalash hisoblab chiqiladi aniq asosda.

• bozor qiymatining o‘zgarishidagi O‘zgarishlar Foyda va zarar to‘g‘risidagi hisobot orqali o‘tadi.

• aniq faktlar foydalanuvchilarga sug‘urtalanuvchilarning moliyaviy hisobotlaridagi miqdaorlarni tushunishga yordam beradi.

17-son MHXS “Sug‘urta shartnoma” bo‘yicha

•oldindan daromad tan olishga ruxsat etilmaydi murakkab shartnomalardagi yo‘qotishlarni dastlab tan olish majburiy.

• tashkilot sug‘urta xizmati va munosib riskdan ozod etilgani sababli daromaddan istalgan investitsiya komponenti va majburiyalarning kamayishidagi ko‘rsatkichlar Chiqarib tashlaydi.

• qayta sug‘urtalash alohida hisoblab chiqiladi

• bozor qiymatining o‘zgarishidagi o‘zgaruvchilar Foyda va zarar to‘g‘risidagi hisobot o‘tishi mumkin.

• aniq faktlar ko‘proq detallashtiriladi va alohidalanadi

• komponentlarni ajratish farqli bo‘lsagina talab qilinadi

4-MHXSga muvofiq, kompaniyalar sug‘urta tashkilotlarini ajratishni aniqlash orqali ixtiyoriy foydalanish imkoniyatga ega bo‘ldilar ajratishni aniqlash orqali, 17-MHXSga muvofiq esa sug‘urta shartnomalari qatiy guruhlar asosida hisobga olishi majburiy hisoblanadi.

17-sonli MHXS joriy etishdagi muammolar quyidagilar:

-munosabatlarning xilma-xilligi shartnoma turiga qarab va tashkilot talqinga bog‘liq;

-uzoq muddatli baholashlar misol uchun chegirma uzoq muddatli shartnomalarni

yangilanmaganligi;
-taxminlar asosidagi chegirma stavkasi iqtisodiy riskni aks ettirmasligi;
-ba’zi shartnomalarni baholash uchun chegirmalarning yetarli emasligi;
17-son MHXSni joriy etishga qo‘yilgan umumiy talablar
-barcha kompankiyalar tomonidan Hamma sug‘urta shartnomalari uchun izchil hisob-kitob;
-hisob-kitoblar joriy bozorga asoslangan ma `lumot aks ettirish;
-diskont stavkasi shartnomaning pul oqimlari xususiyatlarini ask ettirish kerak;
-sug‘urta shartnomasining bahosi vaqt qiymati va joyning muhimligini aks ettirish;

17 – son MHXSning ssosiy talablari:

1.Guruhlash. Korxonalar, sug‘urta va sug‘urtasiz komponentlari bor mahsulotlarga ega. 17-MHXS tavsiya qiladiki, shartnomaning sug‘uratalanmagan qismlari umumiy shartnoamadan alohida ajratilishi kerakligini va sug‘urtalanmagan qism aniq bo‘lsa hisob -kitoblar standartlari asosida yondashishni.

2.Bo‘linish. Ushbu holatda kompaniyalar sug‘urtasiz kompanentlarini ajratishi va ularni alohida hisoblash standartlari ,masalan 9 MHXS va 15 MHXSga muvofiq hisobga olishi talab qilinadi. Investitsiya bilan bog‘liq komponentlar odatda 9 MHXS ga asossan olib borilsa, 15 MHXS istalgan turdagi komponentlarni ya’ni tovar va xizmatlarni qamrab oladi.

17- MHXSga muvofiq, dastlabki tan olishda korxonalar sug‘urta shartnomalarining portfellarini aniqlashi zarur va ularni quyidagi kichik guruhlarga ajratishi kerak

– boshlanishida murakkab bo‘lgan shartnomalar;

- keyinchalik murakkab bo‘lish mumkin bo‘lgan muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan shartnomalar

-portfeldagi qolgan shartnomalar.

Shartnomalarning murakkab guruhlaridagi yo‘qotishlar darhol foyda va zara to‘g‘grisidagi hisobda aks ettiriladi.

Korxona bir yildan ko‘proq vaqt oralig‘ida tuzilgan shartnomalarni o‘z ichiga olmaydi bir xil guruhda bo‘lgan holatdan tashqari. Shuning uchun, har bir portfeldan iborat guruhlarga ajratilgan bir yil yoki undan kamroq muddatni qamrab olgan qisimlarga ajratiladi.

17-MHXSga muvofiq, agar polis egasi mumkin bo‘lsa da'voning bir qismi sifatida foyda olishida alohida xizmat yoki da'vo/xavf hodisasidan qat'i nazar, sug‘urtachilar aktivlarni baholashlari kerak.

17-IFRS sug‘urta shartnomalarini hisoblash uchun 3 xil baholash yondashuvi bilan ta’minlaydi. Bularga:

1. Umumiy o‘lchov modeli
2. Mukofotni taqsimlash yondashuvi
3.O'zgaruvchan to‘lov Yondashuv.

Uchta model ham sug‘urta shartnomasi majburiyatlarining komponentlarini hisoblash bilan, ya'ni yuzaga kelgan da'volar uchun javobgarlik va Qolgan qoplama uchun javobgarlikni kamaytiradi. Yuzaga kelgan da’volar uchun javobgarlik ma’lum bir aniq sug‘urta polis bo‘yicha allaqchon topshirilgan yoki taqdim etilishi rejalashtiril-

gan da’volarni anglatadi, masalan avtomobil polisi bo‘yicha baxtsiz hodisa. Qolgan qoplama uchun javobgarlik kompaniyaning ma’lum bir polis bo‘yicha kelajakdagi da'volari bo‘yicha taxminlarini anglatadi. Kompaniya ikkala holat uchun ham javobgarlikni yaratishi shart.

17-MHXS sug‘urta kompaniyalari uchun imkoniyatlar bilan birgalikda ko‘plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu yondashuvlardan ba'zilari qiyinchiliklarni yuzaga kelishi va ularni qanday hal qilish kerak degan muammoni o‘z ichiga oladi:

Yuqori operatsion xarajatlarni mavjudligi**.** Tashkilotlar dastur va xarajatlarni bir necha yil davomda tan olishlari kerak shunga muvofiq byudjetlarni rejalashtirishi kerak.

Guruhlarga ajratilgan va murakkab axborot texnologiyasi infratuzilma. IT sotuvchilarni va yetarli tajribaga ega maslahatchilar erta bosqichlarda jalb qilish.

Inson resurslari imkoniyatlaridan foydalanib, sug‘urtadagi ekspertiza bilan malakali xodimlarni ishga olish hamda aniq belgilangan vazifalar bilan boshqaruv komissiyalarini tashkil etish.

Shartnomalar va ularning ko‘rsatkichlarini hisobga olishning yangilangan yondashuvida eng muhimi har bir shartnomani bir nechta ko‘rsatkichlar orqali ko‘rib chiqish kerak: majburiyatlar, risklarni tartibga solish, marja. Ushbu ko‘rsatkichlarning har birini alohida ko‘rib chiqamiz.

Risklarni tartibga solish – tuzatishlar xavf va noaniqlik ta’sirini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ushbu hisob-kitob moliyaviy oqimlarning miqdori va muddatlaridagi noaniqlikni aks ettiradi.

Diskontlash - pulning vaqt qiymatini hisobga olgan holda tizimga tuzatishlar kiritish. Kelajakdagi moliyaviy oqimlar joriy bozor holatiga muvofiq joriy summalarga aylantiriladi.

Naqd pul oqimlari aylanishi - sug‘urta shartnomalarini bajarish uchun mo‘ljallangan moliyaviy oqimlarni ob'ektiv baholash. Ushbu hisob-kitob sug‘urta shartnomalarini sotishdan kelib chiqadigan kutilayotgan pul oqimlari bilan bog‘liq barcha ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Shartnomada tavsiflangan xizmatlar uchun marja dastlabki tan olishda kutilayotgan kiruvchi va chiquvchi moliyaviy oqimlarning joriy qiymati o‘rtasidagi ijobiy farqdir. Agar shartnomada ko‘rsatilgan xizmatlar uchun marja salbiy qiymatga ega bo‘lsa, u zarar/foydada tan olinadi va og‘ir shartnomada aks ettiriladi.

Sug‘urta kompaniyalarida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishda barcha tarkibiy qismlarni aniqlash va toifalarga ajratish uchun sug‘urta shartnomalari tahlilini o‘tkazish, chegirma stavkalarini hisoblash va moliyaviy bo‘lmagan risklarni tuzatish uchun yangi modellardan foydalanishga yordam beradigan ishchi tavsiyalarni shakllantirish alohida ahamiyatga ega.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etgan shartnomalarni hisobga olishda sug‘urta kompaniyasi moliyaviy oqimlarga nisbatan taxminlardan (hozirda dolzarb bo‘lgan) foydalangan holda shartnomalarni qayta baholashi, shuningdek, chegirma stavkalari va risklarni qayta baholashi kerak. Kelgusi xizmatlarni baholashda o‘zgarishlarning ta'siri xizmat taqdim etilgan vaqtda tan olinadi:

• variantlar va kafolatlar sug‘urta shartnomalarini baholashda majburiy ravishda aks ettiriladi.

• Ba’zi shartnomalarni qisqa muddatli bajarishda mukofot taqsimotiga asoslangan yondashuv qo‘llanilishi mumkin. Bu soddalashtirilgan deb hisoblanadi, bu yerda asosiy tamoyil - ishlanmagan mukofotni zaxiralash hisoblanadi.

• sug‘urta qoplamasining qolgan qismi uchun majburiyat. Bu majburiyatlarni to‘lashda tan olinishi yoki shartnomaga ma’lum o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq alohida holatlar bo‘lishi mumkin.

TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH VA SUG‘URTALASH ORQALI MUAMMOLI KREDITLAR HAJMINI QISQARTIRISH

Maxmudov Rahimjon Hamid o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi

Iqtisodiy tizimda tijorat banklari uchun jiddiy risk tug‘diruvchi bank amaliyotlardan biri muammoli kredit amaliyoti alohida o‘rin tutadi. Ushbu kreditlar bank sektorida hamda iqtisodiyotga ta'sir ko‘rsatadigan moliyaviy muammo hisoblanib kelmoqda. Iqtisodiy faoliyatni moliyalashtirishda tijorat banklarining roli ahamaiyati tobora oshgani sari ularning samaradorligi umumiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi bilan izohlanadi, chunki sog‘lom va daromadli bank sektori salbiy zarbalarga bardosh bera oladi hamda moliyaviy tizim barqarorligiga hissa qo‘shadi [1].

Xususan, muammoli kreditlar va moliyaviy barqarorlik kuzatilganda makroiqtisodiy sharoitlar yanada muhimroq bo‘lib, uning ta'siri yanada mazmunli bo‘lib bormoqda. Xalqaro bank amaliyotlari shuni ko‘rsatmoqdaki Markaziy banklarning moliyaviy barqarorlik hisobotlarida, bank sektorining moliyaviy barqarorligiga eng katta tahdid muammoli kreditlari hisoblanmoqda.Tijorat banklari nafaqat o‘z moliyaviy faoliyatini nazorat etishi, balki moliya tizimining barqarorligiga hissa qo‘shish uchun muammoli kreditlarni samarali boshqarish muhimligini tan olib kelmoqda. Bank sanoati iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun kreditlar berish orqali iqtisodiy o‘sish va rivojlanishda katta rol o‘ynaydi. Biroq, kredit berishda har qanday kreditorning asosiy tashvishi moliyaviy mablag‘larni qay tarzda qaytarishdir [2]. Muammoli kredit amaliyotlarida qarz oluvchilarning qarz shartlari bo‘yicha defolt qilish ehtimolidan kelib chiqadi va natijada muammoli kreditlarning yuqori darajasiga olib keladi.

Iqtisodchi olimlar Ximenez va Saurina kreditlarning tez o‘sishining kredit portlashiga ta'siri bo‘yicha tadqiqotlarida kreditlarning tez o‘sishi va muammoli kreditlarning ko‘payishi o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik mavjudligining empirik tahlillari orqali izohlagan [3]. Bundan tashqari, mualliflar bank sektoridagi muammoli kreditlar darajasiga ta'sir qiluvchi omillari bo‘yicha birlamchi ma’lumotlardan foydalanilgan va bank sektorida tashqi omillar ichki omillarga qaraganda ancha mazmunli ekanligi o‘z isbotini topgan.

Tadiqoqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki muammoli kreditlarning bir qancha sabablari

bo‘lib jumladan, iqtisodiy tanazzul, kredit riskini baholashdagi xatolar, garov ta’minotining etarli emasligi va qarz oluvchiga xos omillardan iborat. Tanqili iqtisodchi olim G.N. Mwangining fikricha kredit riski tijorat bankirlarni hamda butun biznes olamini tashvishga solishi natijasida savdo hamkorlarining o‘z majburiyatlarini belgilangan muddatda to‘liq bajarmaganligi boshqa sherikning ishlariga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin [4]. Ba’zida bu qiyinchiliklar banklar nazorati ostida bo‘lmagan tashqi hodisalar, xususan, bozor o‘zgarishi, geosiyosiy omillar yoki kutilmagan global inqirozlar natijasida yuzaga kelishi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, tijorat banklari muammoli kreditlar yuzaga kelishini minimallashtirishga qaratilgan risklarni proaktiv boshqarish va kreditlash amaliyotiga sodiqdir. Ushbu majburiyat jiddiy kredit tahlilini, oqilona kreditlash standartlarini, diversifikatsiyalangan kredit portfelini va kreditlar samaradorligini doimiy monitoringini o‘z ichiga oladi.

Muammoli kreditlar banklar faoliyatini aks ettiradi. Banklar kredit berish amaliyoti orqali iqtisodiy o‘sishni taraqqqiy etishi va risklarni kamaytirish uchun zarur himoya choralarini qo‘llab-quvvatlash o‘rtasida muvozanatni saqlashga intiladi. Muammoli kreditlar paydo bo‘lganda, tijorat banklari mas'uliyat bilan yondashishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi [5]. Tijorat banklari qarz oluvchilarga moliyaviy barqarorlikni tiklashga yordam berish maqsadida kreditni qayta tuzish imkoniyatlarini o‘rganishi, to‘lov muddatini uzaytirish yoki vaqtinchalik yengilliklarni ta’minlash uchun qarz oluvchilar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Bundan tashqari, banklar tashqi ekspertlar bilan hamkorlik qilishlari, me’yoriy huquqiy asoslarni himoya vositalarini qo‘llashi va tartibga soluvchi ko‘rsatmalarga muvofiq yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar yaratishi mumkin. Bank sektorida muammoli kreditlarning yuqori darajasi va o‘sish tendentsiyasi ushbu kreditlar bo‘yicha ajratilgan aktivlarning ko‘payishiga va natijada tiojrat banklar va butun moliyaviy sektorining rentabelligi hamda kapital etarliligining potentsial pasayishiga olib keladi [6].

Bank infratuzilmalari tubdan o‘zgarishi fonida, o‘zgaruvchan biznes modellari, tartibga solish va muvofiqlik bosimining kuchayishi va innovotsion texnologiyalardan kelib chiqadigan yangi raqobat tufayli o‘z aktsiyadorlari uchun foyda keltirib boradi [7]. Binobarin moliya bozorlarida o‘z mavqeini mustahkam pozitsiyasini saqlab turishda muammoli kreditlar amaliyotlarini samarali boshqarish va nazorat qilsih zarurati otrib bormoqda.

Muammoli kreditlar tijorat banklarning ishlash standartini aks ettirgan holda halqaro me’yoriy huquqiy asoslarga ko‘ra, moliyaviy institutlar tavakkalchilik darajasi va to‘lanmagan kredit sifatini anglatuvchi ko‘rsatkich sifatida o‘z ishlamaydigan kreditlarning umumiy kreditlar nisbati to‘g‘risida hisobot berishini [8] nomoyon etadi. Ko‘rsatkichlarning yuqori darajada aks etishi bank qarz summalarini undirmasa, yo‘qotish riski katta ekanligini anglatadi, kichik nisbat esa to‘lanmagan kreditlar bank uchun past riskini tug‘diradi.

Quyidagi 1-rasmga ko‘ra tijorat banklarida muammoli kreditlarni samarali boshqarish usullari keltirilgan. Unga ko‘ra bugungi kunda tijorat banklarida o‘z kapitalini saqlash, yuqori likvidlik, risklarni yumshatish hamda normativ muvofiqlik kabi omillar nafaqat muammoli kreditlarni boshqarishda balki bank moliyaviy samaradorlik

ko‘rsatkichlarini pozitiv holatiga olib kelishda aks etadi.



1-rasm. Muammoli kreditlarni samarali boshqarish yo‘llari [9].

1. Kapitalning saqlanishi: Muammoli kreditlar to‘liq to‘lanmaslik xavfi ostida bo‘lgan aktivlarni ifodalab tijorat banklari o‘z kredit portfelining muhim qismi to‘lanmaydigan kreditlar bo‘lsa, u boshqa yo‘l bilan yangi kreditlar va investitsiyalar uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan kapitalni bog‘laydi. Muammoli kreditlarni samarali boshqarishda bank kapitalining noto‘g‘ri ishlayotgan aktivlarga bog‘lanib qolmasligini ta’minlaydi, bu uning moliyaviy barqarorligi uchun zarurdir [10]. Ushbu holatda bank sektorining moliyaviy barqarorligi o‘zining joriy va kelajakdagi faoliyatida jiddiy buzilishlarsiz, moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko‘rsatmasdan zarbalarni o‘zlashtira oladigan jarayonni anglatadi.

2. Yuqori rentabellik: Muammoli kreditlar foiz daromadlarining pasayishi bilan bog‘liq va ko‘p hollarda moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha zaxiralarni hisobdan chiqarishni talab qiladi. Muammoli kreditlarni samarali boshqarish ushbu kreditlarni qaytarish yoki hal qilish strategiyalarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bank o‘z rentabelligini oshirishi, kreditlar bo‘yicha foizli daromad olishni boshlashi va muammoli kreditlarni boshqarish bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirib boradi. Muammoli kreditlar nisbatining pasayishi davlat sektori banklari va xususiy sektor banklari yuqori rentabellik ko‘rsatkichlari sifati yaxshilanganidan dalolat beradi. Shuningdek, xorijlik iqtisidchi olimlar Stuti va Bansallar o‘z ilmiy tadqiqotlarida muammoli kreditlar umumiy kreditlarga nisbatining oshishi tijorat banklarini xavotirga solishi lozimligini ta’kidlab o‘tkan [11].

3. Riskni yumshatish:. Muammoli kreditlar tijorat banklarida kredit riskining ajralmas ko‘rinshlaridan biri hisoblandi. Risklarni noto‘g‘ri boshqarish banklarning ish faoliyatini salbiy munosabatlarni nomoyon qilish natijsida muammoli kreditlar va boshqa moliyaviy inqirozlar ortib borish tendentsiyani ko‘rsamoqda [12]. Agar ushbu moliyaviy risk to‘g‘ri boshqarilmasa, to‘lovga layoqatsizlik riski va moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin. Muammoli kreditlarni samarali boshqarish, ushbu kredit xavfini kamaytirishga yordam beradi va bankni beqarorlashtirishi mumkin

bo‘lgan kredit to‘lamaslikning domino effektini oldini oladi.

4. Normativ muvofiqlik: Bank regulyatorlari tomonidan bank ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan muammoli kreditlar darajasiga talablar qo‘yadi. Kredit tavakkalchiligini miqdoriy baholashda tijorat banklari potentsial ravishda amalga oshirishi mumkin bo‘lgan turli xil yondashuvlar mavjud bo‘lib, ular ham ichki kapitalga, ham risklarni boshqarishga, shuningdek, kapitalning minimal talablarini tartibga solishga ta'sir qiladi [13].

Bugungu kunga kelib muammoli kreditlarni samarali boshqarish tijorat banklar va moliya institutlarining samaradorligi hamda barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib ushbu kreditlarni muntazam nazorat qilish banklarning uzluksiz ishlashi va uzoq muddatli daromadlilik tsiklini va hayotiyligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanolgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Athanasoglou, P. Brissimis, S N., and Delis, M D. (2005), “Bank-specific, industry specific and macroeconomic determinants of bank profitability”, MPRA Paper No. 153
2. Do H., Ngo T., Phung Q. The effect of non-performing loans on profitability of commercial banks: Case of Vietnam //Accounting. – 2020. – T. 6. – №. 3. – C. 373-386.
3. Jimenez, G. and Saurina, J., 2005, Credit cycles, credit risk and prudential regulation, s.l.: Bank of Spain
4. Mwangi G. N. The effect of credit risk management on the financial performance of commercial banks in Kenya: дис. – University of Nairobi, 2012.
5. Do H., Ngo T., Phung Q. The effect of non-performing loans on profitability of commercial banks: Case of Vietnam //Accounting. – 2020. – T. 6. – №. 3. – C. 373-386.
6. Kozarić K., Dželihodžić E. Ž. Effects of macroeconomic environment on non-performing loans and financial stability: Case of Bosnia and Herzegovina //Journal of Central Banking Theory and Practice. – 2020. – T. 9. – №. 2. – C. 5-17.
7. SINGH S. K., BASUKI B., SETIAWAN R. The effect of non-performing loan on profitability: Empirical evidence from Nepalese commercial banks //The Journal of Asian Finance, Economics and Business. – 2021. – T. 8. – №. 4. – C. 709-716.
8. Ekinci R., Poyraz G. The effect of credit risk on financial performance of deposit banks in Turkey //Procedia Computer Science. – 2019. – T. 158. – C. 979-987.
9. Muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqilgan
10. Effective management of non-performing loans ensures that the bank's capital is not tied up in non-performing assets, which is essential for its financial stability.
11. Stuti, M., & Bansal, (2013). S. An analysis of non-performing assets in Indian Banking sector
12. Haneef S. et al. Impact of risk management on non-performing loans and profitability of banking sector of Pakistan //International Journal of Business and Social Science. – 2012. – T. 3. – №. 7. – C. 307-315.
13. Erdinç D., Gurov A. The effect of regulatory and risk management advancement on non-performing loans in European banking, 2000–2011 //International advances in economic research. – 2016. – T. 22. – C. 249-262.

O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISHNING TAKOMILLASHUVI

Maxramova Maxliyo Abdumalik qizi
Bank-Moliya akademmiyasi tinglovchisi

Raqamli texnologiyalar dunyoda muhim ahamiyat kasb etib borayotgan yo‘nalishdir. Raqamli texnologiyalar bir necha sohalarda katta o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Birinchidan, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish bosqichlarini qisqartirib, ularni sodda va osonlashtirib berishga xizmat qiladi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi va samaradorlikni oshiradi. Ikkinchidan, yangi texnologiyalar analitik ma’lumotlarni kengaytirib, ularni qayta ishlashni osonlashtirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida standartlashtirilgan takliflardan individual takliflarga o‘tish va noyob tajribalarni amalga oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Hozirgi kunda deyarli barcha sohalardagi kompaniyalar o‘z faoliyatlarida o‘zgarishlarga ehtiyoj sezmoqda, sababi yangi texnologiyalar, innovatsiyalar va iste’molchilarning xulq-atvori eski o‘rnatilgan biznes-modellarni tubdan o‘zgartirib yubormoqda.

Jahon hamjamiyatining ko‘zlangan rivojlanish va farovonlikka erishishi uchun axborot texnologiyalariga (AT) bo‘lgan ehtiyoji katta sur‘atlar bilan ortib bormoqda. Iqtisodiy o‘sishning faollashuvi, dunyo aholisi yashash darajasining yaxshilanishi axborot texnologiyalarining kundalik hayotimizga singib ketgani natijasidir. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, erkin axborot oqimining ta’minlanishi bozor iqtisodiyotiga o‘tishni tezlashtiradi va ijtimoiy farovonlikni oshiradi. Axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi iqtisodiyotda ham o‘z aksini topmasdan qolmaydi. Hozirgi kunda ayniqsa tadbirkorlik sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va ularning samarali qo‘llanilishi yotadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas, albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari, masalan, ma’lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internetresurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashinuvi, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. O‘zbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma’lum darajadagi informatsion tayyorligi mavjud bo‘lgan holatdagina sodir bo‘ladi

Shuningdek 2021-yil 23-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5265-qarori qabul qilindi.

Qarorga asosan, milliy sug‘urta bozorining jadal rivojlanishini ta’minlash, iste’molchilarning sug‘urta bozoriga bo‘lgan ishonchini oshirish, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan vazifalarni bajarish maqsadida:

2022-yil 1-iyuldan boshlab sug‘urtaning barcha turlarini (klasslarini) elektron shaklda amalga oshirishga ruxsat beriladi. Barcha sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta polislari Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi Sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash jamg‘armasi bilan birgalikda yuritadigan yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimida ro‘yhatga olinadi;

2023-yil 1-yanvardan boshlab majburiy sug‘urtaning barcha turlari bo‘yicha sug‘urta polislarini qog‘oz blankalarda rasmiylashtirish amaliyoti bekor qilinadi.

Sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash jamg‘armasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda 2022-yil 1-iyunga qadar transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha yagona axborot tizimi negizida barcha sug‘urta polislarini ro‘yhatga oluvchi va ularning aylanmasini nazorat qiluvchi yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy etilishini ta’minlaydilar.

Sug‘urta shartnomalarini Yagona axborot tizimi orqali rasmiylashtirish sug‘urta tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. [1]

Moliya vazirligi huzuridagi Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash jamg‘armasiga:

2022-yil 1-aprelga qadar manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda sug‘urta siri to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan talablarga qat’iy rioya qilgan holda Yagona axborot tizimini vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish bo‘yicha texnik topshiriqni ishlab chiqish, 2022-yil 1-mayga qadar Yagona axborot tizimining manfaatdor vazirlik va idoralar axborot tizimlari, jismoniy va yuridik shaxslarning markaziy ma’lumotlar bazasi bilan sug‘urta sohasida o‘zaro elektron axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish vazifalari yuklatildi.

Sug‘urta shartnomalarini Yagona axborot tizimi orqali rasmiylashtirish sug‘urta tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi.[2]

Keng ko‘lamli sug‘urta kompaniyasida uzoq vaqt davomida mijozlar, shartnomalar, sug‘urta hodisalari, to‘lovlar to‘g‘risida turli xil ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan va o‘z vaqtida yangilanadigan ma’lumotlar bazasi yaratildi. Bitta ma’lumotlar bazasining alohida qismlari turli xil kompyuterlarda namoyish etiladi va shu bilan birga, ma’lumotlar bazasini tarqatish ―shaffofligini‖ ta’minlaydi.

Sug‘urta kompaniyasining axborot tizimida amalga oshiriladigan asosiy funksional vazifalarga quyidagilar kiradi:

1. Sug‘urta shartnomasini tuzish jarayoni. Har bir sug‘urta qildiruvchi uchun avvalgi shartnomalarning mavjudligini, sug‘urta to‘lovlarini to‘lash holatlarini tekshirish, tarif stavkasi va maxsus shartlarga tuzatish koeffitsientlarini hisoblash, agentlarga komission haqni hisoblash, shartnomani keyinchalik qayta ishlash uchun ma’lumotlar bazasiga kiritish, kerakli hujjatlarni rasmiylashtirish va h.k.

2. Qo‘shimcha shartnoma tuzish. Asosiy shartnomani, yangi tuzilgan yoki o‘zgartirilgan shartnomalar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini to‘ldirishni hisobga olgan holda o‘zgartirilgan shartlar yoki sug‘urta ob‘ektlari bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga

oshirish.

3. Qayta sug‘urta shartnomasini tuzish. Tegishli ma’lumotlarni tekshirish, komissiyalarni hisoblab chiqish.

4. Sug‘urta mukofotini (yoki uning bir qismini) to‘lash. Pul mablag‘larini hisob varaqlarga o‘tkazish, qayta sug‘urtalash mavjud bo‘lganda – qayta sug‘urtalovchilar bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish.

5. Sug‘urta shartnomasini bekor qilish. Zaxiralarni shakllantirish uchun ma’lumotlar bazalariga ma’lumotlarni uzatish va boshqa hisob-kitoblar. Sug‘urta qildiruvchi bilan hisob-kitob qilish, pul mablag‘larini joylashtirish, shartnomalar bazasiga o‘zgartirishlar kiritish.

6. Sug‘urta hodisasining paydo bo‘lishi. Kompensatsiyani hisoblash, to‘lovlarni joylashtirish, shartnoma bo‘yicha qayta hisoblash yoki uni bekor qilish, sug‘urta hodisalari ma’lumotlar bazasini yaratish.

7. Sug‘urta turlari bo‘yicha asosiy tarif stavkalarini hisoblash. Ma’lumotlar bazasida sug‘urtaning muayyan turi, sug‘urta hodisalari bo‘yicha barcha shartnomalarni ko‘rish, statistik jadvallar yordamida hisoblash.

8. Zaxira fondini hisoblash. Hisob-kitoblarning joriy holatini tahlil qilish, sug‘urta turlari bo‘yicha shartnomalar soni va miqdoridagi o‘zgarishlarni kuzatish, talablar va joriy holatni hisoblash.

9. Sug‘urta portfelini tahlil qilish. Sug‘urta bozoridagi tendensiyalarni aniqlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish, istiqboldagi 16 rivojlanishni bashorat qilish, mumkin bo‘lgan boshqaruv qarorlarini tahlil qilish.

10. Kompaniyaning moliyaviy holatini tahlil qilish. Ko‘rsatkichlardagi tendensiyalar va munosabatlarni ochib berish, rivojlanishning mumkin bo‘lgan variantlarini tahlil qilish.

11. Ichki buxgalteriya hisobi. Kompaniya xodimlarining ish haqini hisoblash, mol-mulkni hisobga olish va boshqalar.[3]

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki Sug‘urta faoliyatini avtomatlashtirish jarayoni quyidagilarni ta’minlaydi: dastlabki ma’lumotlarni to‘plash; ma’lumotlarni guruhlash maqsadida ularni tahlil qilish; kompaniya faoliyati uchun maqbul strategiyani ishlab chiqish maqsadida ma’lumotlarni umumlashtirish. Sug‘urta faoliyatini boshqarish bo‘yicha barcha axborot jarayonlari axborot texnologiyalariga asoslangan. Sug‘urta faoliyatining axborot tizimi faoliyatda foydalaniladigan ma’lumotlarni tayyorlash, uzatish, saqlash va qayta ishlash uchun axborot texnologiyalarini ta’minlashi kerak.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Moliya vazirligi sayti ma’lumotlari (www.imda.uz)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.10.2021 yildagi PQ-5265-son
3. N.A.Mavrulova. Sug‘urtada axborot texnologiyalari (O‘quv qo‘llanma).. – T.: «Nihol print» OK, 2022. – 120 b.

IMPLEMENTATION OF DIGITAL POTENTIAL IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN

Mirpulatova Luiza Mansurovna
«Banking and investments» department, TSUE

The digitalization of the economy causes serious problems for existing business models, including the structural divisions of the banking system, which is currently undergoing a transformation process throughout the world. Client focus and personalized offerings are key components of a digital banking strategy. For its effective implementation, it is necessary to solve problems aimed at the accumulated experience of clients, as well as introduce innovations that support the interests of clients.

With the development of technological innovation, the digital economy has become one of the most important sectors of the national economy of the Republic of Uzbekistan. In the era of globalization, digitalization of production, finance and education has become a necessary condition for countries to actively participate in more efficient global value chains and benefit from global connectivity. The combination of technological advances, from advances in digital technologies to the creation of new materials and biotechnologies, opens up new opportunities for socio-economic growth and industrial development.

Digitalization is a corporate tool. The transition of the economy to digital rails implies the presence at each stage of the value chain of digital data and processes that support the free movement of this data between producers and buyers.

Uzbekistan has officially set a course for the development of digital banks and the digital economy as a whole. How to develop a digital transformation strategy and what can be done now for successful digitalization commercial banks of Uzbekistan. Currently, a number of innovative payment technologies that have already proven themselves in other countries are beginning to develop in Uzbekistan.

The term “neobank” (from ancient Greek – “new”) first appeared in foreign media in 2017 in a description of new players in the banking sector who began to provide banking services exclusively remotely. Today there is no single generally accepted term, so you can find names such as “digital bank”, “virtual bank”, “online bank” and “neobank”. It should be noted that digital banks are divided into 2 types: some are licensed and initially operate independently under their own brand, others directly cooperate with existing traditional banks and become a kind of online subsidiaries of these banks, but can also have their own name and brand. For example, in Uzbekistan, the Georgian digital bank TBC Bank opened in 2020, which has a head office and full-fledged branches in Georgia, as well as a digital division with its own name Space, which is positioned as a digital bank with a license from TBC Bank.

The advantages of neobanks over traditional ones are: free connection of new clients without queues and bureaucracy; personalized customer support works 24/7/365; The vast majority of banking transactions through an online application are inexpensive, all processes work using blockchain technology, and loan rates and deposits are often offered at a greater benefit to the client.

It is noteworthy that favorable conditions were laid in Uzbekistan for the opening of digital banks back in 2018, thanks to the Decree of the President of Uzbekistan “On measures to radically improve the activities of the Central Bank.” It is obvious that the number of digital banks, compared to “traditional” ones, is currently much smaller. However, it is already possible to evaluate the advantages of digital banks over “traditional” ones and predict a significant increase in their number in the near future. In Uzbekistan, the implementation of electronic document management systems (E-Hujjat), that is, digitization, is in full swing. The greatest attention is paid to the use of digital technologies such as silicone bracelets and ceramic rings with a chip, the development of digital banking, remote service channels and others. The last decades have been a period of introduction of new computer technologies, credit cards and important innovations in the monetary and financial market. These include instruments for hedging banking risks, credit derivatives, the Internet, and smart cards.

Thanks to savings on the maintenance of offices, full-time employees, equipment, a reduction in the cost of transactions is achieved (according to various estimates, from 2 to 16 times), opening and closing accounts occurs quickly, more attractive interest rates on loans and deposits appear, and due to online opportunities, the customer base is expanding and the issue with queues is practically being resolved. Thus, the profit-ability of this type of banks increases sharply due to a significant reduction in the cost of services provided while simultaneously increasing their volume. The main cost item for such a bank is investment in the creation of convenient and understandable software for the smooth functioning of digital products and its continuous modernization.

Innovation in the banking sector can be characterized as the result of a bank’s innovative activities, a set of fundamentally new banking products and services. Banking innovation is a synthetic concept of the goal and result of a bank’s activities in the field of new technologies aimed at generating additional income in the process of creating favorable conditions for the formation and placement of resource potential through the introduction of innovations that help clients make much profit.

Considering the banking industry as a whole, the introduction of innovations in the activities of the banking sector is to attract the maximum number of clients, that is, the goal is to expand the bank’s client base. The main incentives for banks, in particular for commercial banks of Uzbekistan, to launch product innovations are esteemed, as one of the ways to attract customers and more accurately meet their needs. One of the ways is highlighted - the launch of fundamentally new products based on digital technologies, and strategies for introducing commercial banks into the work of three types of innovative areas and launching fundamentally new products based on digital technologies are formulated. The transformation of corporate culture is characterized. At the same time, the role of commercial banks that operate on the territory of Uzbekistan in promoting innovative technologies in the banking sector of the economy of the Republic of Uzbekistan is studied.

The development of financial services is gradually moving towards an open, integrated and forward-looking technology ecosystem, which opens up broad opportunities for differentiation of services. Based on the material considered, in

modern economic conditions in Uzbekistan, various technologies of innovative payment instruments are being developed, which have proven themselves in other countries as the most effective. An assessment was made of a set of areas of contact between clients and commercial banks, which allows these financial institutions to effectively provide financial services and work proactively with their clients, eliminating any potential problems.

The development of technologies and their active use in the country’s modern monetary policy affects the relationship between credit institutions and clients in the field of lending, servicing, and informing their clients. In this connection, the priority task for all commercial banks of Uzbekistan is, firstly, the digitalization of the current credit system, and secondly, the introduction of IT technologies in the credit sector. Increasing attention is being paid to attempts to reduce the execution time of credit, settlement and other operations so that the client can devote more attention and resources to their own development and growth.

- directions of the insurer's investment policy;
- the scale of investments.

As can be seen from the table, the indicators reflecting the investment potential of insurance companies and the company's competitiveness include: company assets, authorized capital, insurance payments, insurance reserves, variety of insurance products. district, insurance premium, availability of regional departments.

From the information presented above, it can be concluded that increasing the capitalization of the insurance market allows insurers to actively participate in investment activities in the national insurance market and to insure more risks. The formation of a developed, modern and competitive insurance market serves as a guarantee of the stable growth of the republic's economy and increases the insurance culture of the country's population.

In general, using insurance as an investment risk management mechanism has the following advantages:

1. Insurance is considered as a means of effective risk management and allows to carry out basic steps such as risk identification (identification), analysis and assessment, as well as compensation for the damage caused by the risk;

2. Cheapness and convenience of insurance compared to other risk management methods;

3. If the insurance companies' ability to accept large insurance risks is limited, then there is a possibility of elimination by a special approach of redistribution of responsibility for compensation of relevant damages among other participants of the insurance market;

4. Tax benefits are often given for insurance transactions;

5. By using the knowledge, skills and experience of insurance company experts for the assessment and management of investment risks, it allows to prevent excessive costs of risk management;

6. The competitiveness of insurance companies is determined by analyzing the direct and indirect factors affecting indicators reflecting the investment potential of insurance companies. Getting the right answers to the questions that are of interest to both the investor and the insured, in particular, will allow you to make the right decision about which insurance company to choose as a reliable partner in the market.

In conclusion, it can be said that the issue of further development of insurance relations in the national economy is one of the current urgent tasks, because the development of insurance relations leads to the accumulation of idle funds and their use not only for the purpose of insurance, but also for the leading sectors of the economy and to be mobilized as investment resources in the fields, ultimately leading to the development of these sectors and fields.

List of references:

1. Address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis. Tashkent. December 28, 2018. www.press-service.uz.
2. Priorities regarding investment activities and strategic development were discussed. Information on the site of the agency for attracting foreign investments under the

Ministry of Investments and Foreign Trade of the Republic of Uzbekistan. https://invest.gov.uz/uz/mediacenter/news/priority-tasks-of-investment-activity-and-strategic-development-were-discussed/.
3. Information from the website of the Ministry of Finance (Svodnye pokazateli straxovogo rynka Respubliki Uzbekistan za 2021 god) https://imda.uz/wp-content/uploads/2022/03/Itogoviy-pokazatel-2021. pdf.
4. Insurance market: Results and Trends of 2020 and 1Q2021. https://avestagroup.com/en/2021/07/02/ market - insurance - results - and - trends - 2020/.
5. Turgaeva A.A. Investment potential insurance companies And grade their competitiveness/Finance and Credit, 2017, volume 23, issue 2, pages 89-109. https://cyberleninka. ru/article/n/investitsionnyy-potentsial-strahovyh-kompaniy-i-otsenka-ih-konkurentosposobnosti.

RAQAMLI BANKLARNING VUJUDGA KELISHI VA ZARURLIGI

Salaev Rasul Shavkatovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
Raqamli bank ishi kafedrasi mudiri v.b., i.f.f.d. (PhD)

Maxkamov Diyor Eshpo‘latovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Bugungi kunda bank tizimida transformatsiyalash, tijorat banklarini bosqichma-bosqich xususiylashtirish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bank va mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari asosida yo‘lga qo‘yish kabi ishlar amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, davlat ulushi mavjud bo‘lgan tijorat banklarini kompleks transformatsiya qilish va bank tizimida davlat ulushini kamaytirishga alohida e’tibor qaratilib, banklar davlat ishtiroki saqlab qolinadigan hamda xususiylashtiriladigan banklarga ajratilmoqda.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishni bank tizimini raqamlashtirishsiz tasavvur qilish qiyin, chunki bank tizimi iqtisodiyotning lokomotivi hisoblanadi. 1983 yilda Buyuk Britaniyada bank mijozlariga telefon orqali kompyuterga ulangan holda o‘zining omonatlarini tekshirish, bankdagi hisob raqamidan to‘lovlar va pul o‘tkazmalarini amalga oshirish imkonini beruvchi Homelink tizimi yaratildi. O‘sha yili AQShda ham xuddi shunga o‘xshagan Pronto tizimi ishga tushirildi. Lekin odamlar Homelink va Pronto tizimlarga ishonchsizlik bilan qaraydi, lekin internet tarmog‘i keng yoyilishi bilan ushbu tizimlardan keng foydalanish boshlandi. 2001-yilda Bank of Amerika 1 mlrd. AQSh dollari miqdorida onlayn xizmatlar ko‘rsatib, elektron-banking sohasida birinchi ilg‘or bank bo‘ldi. Mazkur bank 2017-yilda o‘zining 3 ta raqamli (neobank) filialini ochdi.[23] Payments Industry Intelligence portali ma’lumotlariga ko‘ra, 2018 yilda

[23] Борис Паньшин. Цифровая трансформация. цифровая экономика: понятия и направления развития. //Наука и

dunyoda 60 ta raqamli – neobank bo‘lgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2021 yilga kelib 319 tani tashkil qildi, ular ishlatadigan pullarning 90 foizini elektron pullar tashkil qiladi.[24]

Citi Group hisob-kitoblariga ko‘ra, raqamlashtirish natijasida banklarda ortiqcha ishchi kuchi yuzaga keladi, mazkur ish o‘rinlarini qisqartirish banklarning operatsion xarajatlarini teng yarmigacha qisqartirishga olib keladi. Bundan tashqari, Accenture o‘tkazgan tadqiqotlarga ko‘ra, raqamlashtirish bo‘yicha ilgarilab ketgan banklarning kapital rentabelligi 0,9 foizga oshgan, aksincha, bu sohada oqsayotgan banklarda mazkur ko‘rsatkich 1,1 foizga tushib ketgan. Accenture tahlilchilari kelajakda ushbu farq yanada kattalashishini ta’kidlaydi.

Bank faoliyatida raqamlashtirish jarayonining rivojlanish darajasini pandemiyadan “oldingi” va “keyingi” davrga bo‘lish mumkin. Deloitte hisobotiga ko‘ra, dunyodagi banklarning 60 foizi koronavirus pandemiyasi davrida o‘z ofislarini yopib, to‘liq onlayn xizmat ko‘rsatishga o‘tdi. Jumladan, respublikamizda ham pandemiya davrida raqamli bank tizimiga o‘tish va masofadan xizmat ko‘rsatish jarayoni ancha tezlashdi. Bank mobil ilovalari va turli neobank to‘lov tizimlari o‘rtasida raqobat kuchayib, mijozlarga turli chegirma va imtiyozlar taqdim etildi. Bu esa xizmat sifatining oshishi va xizmatlar narxining tushishiga olib keldi.

Bank mijozlari onlayn hisobraqamlar ochish va yuritishni xohlashmoqda. Aksariyat bank mijozlari ofislarga borish va navbatda turishni xohlashlarini ko‘rsatadigan tadqiqotlarga ishonmaslik kerak. Darhaqiqat, mijozlar ofisga borishlari kerak, chunki ularga alternativa yo‘q. Agar bir necha telefon tugmalarini bosish orqali hisobraqam ochish imkonini beradigan yaxshi bank ilovalari paydo bo‘lsa, ular bundan, albatta, foydalanadilar. Banklar tomonidan doimo yangi mijozlarni jalb qilish tizimi ishlab turadi. Agar bank yangi mijozlarni jalb qilishda manzilli, ommaviy, mobil va onlayn reklama vositalaridan foydalansa, bu o‘z samarasini beradi.

Iste’molchilar alohida e’tiborni xohlashadi. Agar mijozga o‘zi borib turadigan qahvaxona, aviakompaniya yoki mehmonxonada alohida e’tibor qaratilsa, u o‘z jamg‘armalarini saqlaydigan bankda ham shu e’tiborni kutishga haqli hisoblanadi. Moliyaviy xizmat ko‘rsatmaydigan tashkilotlar banklarga qaraganda o‘z mijozlariga ko‘proq e’tibor qaratishadi. Oddiylik har doim g‘alaba qozonadi. Raqamli banklar rivojlanayotgan yangi davrda mijozlarga bank mahsulotlari va xizmatlarining eng oddiy usullarini taklif qila oladigan tashkilotlar g‘olib chiqadi. Eng ommalashgan dasturlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning barchasi bir necha tugmalarni bosish orqali natijalarga erishish imkonini beradi. Bular, masalan, Uber, Amazon, Google, PayPal kabilardir. Bank ilovalari ham shular kabi sodda va tushunarli bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining “Banklarni ro‘yxatga olish va ular faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida“ gi nizomga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish haqidagi 2018 yil 30 iyundagi 22/5-sonli qarorining birinchi bandida O‘zbekiston qonunchiligiga ilk marta raqamli bank tushunchasi kiritildi.[25]

O‘zbekiston Respublikasining 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan bank tizimini

инновации. №3 (193). 2019 г.с. 53

[24] https://finance.uz/index.php/ru/fuz-menu-economy-ru/11083-uzbekistan-vtsifrovoj-ekonomike.

[25] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar.

isloh kilish strategiyasi[26]da zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, tijorat banklarining biznes jarayonlarini avtomatlashtirish va masofaviy bank xizmatlari turlarini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida tijorat banklarini korporativ transformatsiya kilish jarayonida zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish soxasida asosiy vazifalar belgilab olingan:

•masofaviy bank xizmatlari, shu jumladan, kontaktsiz to‘lovlar soni va qamrovini kengaytirish;

•avtomatlashtirilgan skoring tizimi, rakamli identifikatsiyalash va kredit konveyerlaridan keng foydalanish;

•bank ma’lumotlari va tizimlarining axborot xavfsizligini kuchaytirish;

•bank sohasidagi yangi konsepsiya va texnologiyalarni keng joriy etish (fintex, rakamli bank). Bundan tashqari, Harakatlar strategiyasining 71-bandida barcha xizmat ko‘rsatish sohalarida raqamli tranformasiyani amalga oshirishga alohida e’tibor qaratilgan.[27] Bularning barchasini amalga oshirishdan ko‘zlangan maqsad rakamli iqtisodiyotni rivojlantirish asnosida axolining moliyaviy va xuquqiy savodxonligini oshirish, mamlakatimizning xalqaro maydondagi integratsiyasini jadallashtirishdan iboratdir.

VALYUTA RISKNING TURLARI VA YUZAGA KELISH SABABLARI

Salayev Rasul Shavkatovich
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
Raqamli bank ishi kafedrasi mudiri, PhD

Mahmudov Qudratillo Xursandbek o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Bozor iqtisodiyoti korxona, jamoa tashkilotlari, banklar va fuqarolarga tashqi iqtisodiy faoliyatni va valyuta operatsiyalarini mustaqil tarzda amalga oshirish imkoniyatini yuzaga keltirdi. Hech kimga sir emaski, bozor iqtisodiyoti risk bilan bog‘liq. U bilan bankirlar ham, tadbirkorlar ham, aholi ham to‘qnashadi. Biroq, ko‘pgina hollarda riskni kamaytirish, oldini olish, va hattoki undan qochish mumkin. Moliyaviy risklarni kamaytirishda banklar muhim o‘rin tutadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatlarni qayta qurilishi, xalqaro aloqalarning kengayishi bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshiruvchi korxona va tashkilotlar faoliyatini muvofiq ravishda o‘zgartirishlarini taqozo etadi. Ularning xo‘jalik faoliyatlariga valyuta kurslarining tebranishi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Bank tizimini erkinlashtirish, alohida olingan korporativ banklarni faoliyatini

[26] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish Strategiyasi to‘g‘risida PF-5992-sonli farmoni 12.05.2020. https://lex.uz/docs/4811025

[27] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947 son Farmoni. 07.02.2017 y. https://lex.uz/.

universallashtirish sharoitida, alohida olingan bank risklarini hisoblash va baholash muammosi amaliy ahamiyatga egadir. Shu sababli, biz tijorat banklari faoliyatida doimo uchrab turadigan valyuta risklari xususida to‘xtab o‘tishni lozim topdik.

Valyuta risklarining mavjudligi – valyuta bozorlarida valyuta operatsiyalarni amalga oshirilishi, transmilliy korxonalarni barpo etish orqali, bank operatsiyalari bozorini baynalminallashuvi, shu jumladan ularni faoliyatini diversifikatsiyalash bilan bog‘liq. Shu sababdan, riskka bir qator omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadilar. Bularga misol qilib, geografik, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik va boshqa omillarni ko‘rsatish mumkin.

Valyuta riski deganda, tashqi iqtisodiy faoliyat jarayonida ayirboshlash kurslarini o‘zgarishidan yoki boshqa turli valyuta operatsiyalarini amalga oshirilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar (yoki daromad olish) tushuniladi. Valyuta risklarining yuzaga kelishining asosiy sababi – valyuta kurslarini o‘zgarishi hisoblanadi. Bunday o‘zgarishlar hamma shaxslarga: ishbilarmon firmalar va davlat strukturalariga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bu shunga bog‘liqki, ko‘pgina hollarda ularning faoliyati eksport-import operatsiyalari bilan bog‘liq va shu sababli kreditorlar va qarz oluvchilar, investorlar va chayqovchilar, xo‘jalik subyektlari o‘z bizneslarini milliy (ichki) valyutaga nisbatan boshqa (xorijiy) valyutalarda amalga oshirishni ma’qul ko‘radilar.

Valyuta riskiga - tashqi savdo, kredit, valyuta operatsiyalari, hamda fond va tovar birjalarida amalga oshirilayotgan operatsiyalarda milliy valyuta kursiga nisbatan xorijiy valyutani kursini o‘zgarishi bilan bog‘liq valyuta yo‘qotishlari xavfi kiritiladi.[28]

Valyuta riskining hajmi valyutaning sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan bog‘liq, shu sababli u bitim imzolangan va to‘lovni amalga oshirish muddati o‘rtasidagi vaqt oralig‘ining farqiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Eksportyor uchun (sotuvchi) kursdan yo‘qotishlar to‘lov valyutasini kursini tushishigacha bo‘lgan muddatda bitim imzolab qo‘ygan bo‘lsa, yuzaga keladi, chunki, olingan tushum mablag‘lariga eksporter kamroq milliy pul mablag‘larni olishi mumkin. Importer esa (xaridor), baho valyutasini kursini oshishidan zarar ko‘rishi mumkin, chunki xarid qilib olishi uchun endi ko‘proq milliy valyuta mablag‘larini xarajat qilishi lozim bo‘ladi.

Xalqaro amaliyotda tashqi iqtisodiy faoliyatda yuzaga keladigan har qanday risk eksportyor (sotuvchi) ning bo‘yniga tushadi.

Milliy moliya bozorlarida risklarni ma’lum bir sezilarli miqdorda prognoz qilish mumkin, hududiy va xalqaro moliya bozorlarida esa, bundan farqli o‘laroq prognoz qilish juda qiyin.

Valyuta riskini uch kategoriyaga bo‘lish mumkin:

1. Pul o‘tkazishda yuzaga keladigan risk – xorijiy valyutada ifodalangan (misol uchun, xorijdagi filialning hisobotlari) bankning moliyaviy hisobotlari natijalarini milliy valyutaga o‘tkazish (misol uchun, firmaning moliyaviy hisobotlari konsolidatsiya qilish vaqtida);

2. Tranzaksiya (bitimlar) riski – to‘lovni kelajakdagi bir sanada amalga oshirishda

[28] Валютный портфель, Изд. Москва «Соминтэк», 1995 й., 476- бет.

milliy valyutaning qiymatini yoki bitimning daromadliligining noaniqligini aks ettiradi. Bunga misol qilib, importerga kredit taqdim etilgan holda importer valyutasida tovarlarni eksport qilib olishi xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy risk: kelajakda valyuta ayirboshlash kurslarining o‘zgarishi natijasida xorijiy valyutada ifodalangan bank aktiv va majburiyatlarining milliy valyutadagi qiymatining o‘zgarishi. Bunga misol qilib, firmaning xorijiy bo‘linma va filiallarining aktivi va majburiyatlarini ko‘rsatish mumkin.

Pul o‘tkazishda yuzaga keladigan risk – bu hisob-kitob amaliyotida yuzaga kelib, xorijiy valyutada ifodalangan bankning aktiv va majburiyatlarining milliy valyutaga o‘tkazishda davriy ravishda ayirboshlash kursi o‘zgarib turishidir. Agarda milliy valyutada ifodalangan xorijiy valyuta qimmatlashsa, u holda firma yoki bankning xorijiy valyutadagi aktivlari, majburiyatlari va mol-mulki ham milliy valyutaga nisbatan qiymat jihatidan oshadi. Xorijiy valyuta ayirboshlash kursining qadrsizlanishi yuqoridagi holatning aksi bo‘lib chiqadi.

Tranzaksiya (bitimlar) riski to‘lashga yo‘naltirilgan yoki to‘lovga qabul qilingan xorijiy valyutada ifodalangan hisob bilan bog‘liq moliyaviy riskdir. Ayirboshlash kursi transaktsion ko‘rinishga tegishli ravishda xejirlash (sug‘urtalash) orqali barham berilmagunga qadar firmaning daromadiga, milliy valyutada to‘lovlarni qabul qilish va to‘lash o‘zgarishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Barqaror siyosatni amalga oshirish maqsadida tijorat banklari doimiy ravishda o‘z mijozlaridan ayirboshlash kursining kutilmagan o‘zgarishlaridan yuzaga keladigan zararlarni oldin olishi uchun ularni xejirlashni tavsiya qiladilar.

Banklar o‘z mijozlari qatori risklarni minimallashtirish manfaatini ko‘zlaydilar. Foiz risklari holatida xalqaro banklar va firmalar odatda ayirboshlash kursining prognozlashiga juda ko‘p vaqtlari va harakatlarini sarflaydilar. Ayirboshlash kurslarini prognozlash milliy (ichki) foiz stavkalarini baholashdan ancha murakkab hodisa ekanligini isbotlab berdi. Bunga asosiy sabab bo‘lib, har qanday davlatda ichki foiz stavkalariga nisbatan ayirboshlash kurslarining juda ko‘p miqdordagi murakkab o‘zgaruvchanlik xususiyatiga ega ekanligidir.

Ayirboshlash kurslari va foiz stavkalarini prognozlashga qiziqish va o‘z navbatida xorijiy valyutalar pozitsiyasini «ochiq» qoldirish (xedjirlamaslik) korporativ g‘aznachilikda yuqori bo‘lib turibdi, bu esa ba’zida halokatli natijalarga olib keladi.

Tijorat banklaridagi valyutani ayirboshlash bo‘linmalari ham odatda ochiq pozitsiyalarni ushlab turishga harakat qilishadi: «uzun» pozitsiyani (xorijiy valyuta zaxiralarini ko‘paytiradilar) yoki «qisqa» pozitsiyani (xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytiradilar) qoldiradilar. Bu holat odatda bank iqtisodchisi yoki bosh valyuta dileri tomonidan tayyorlangan va yuqori rahbariyat tomonidan ma’qullangan «bog‘liq» valyuta prognozlashga asoslangan maqsadli risklarni qabul qilishdir, u esa o‘z navbatida bank uchun katta xatar keltiradi. Shunday qilib, valyuta savdosida bank menejmenti uchun eng samarali siyosat bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

a) mijozlar tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tijorat tranzaksiyalari (savdo bitimlari asosida bo‘lgan) uchun valyuta bitimlarini cheklash;

b) korporativ mijozlar tomonidan doimiy ravishda talab qilinadigan valyuta

kassalari uchun overnayt amaliyotiga qattiq cheklovlar o‘rnatish hamda asosiy konvertirlanadigan valyutalar uchun limitlarni cheklash;

d) bankning valyuta savdosida aktiv bo‘lgan barcha korporativ va boshqa mijozlari uchun bankning ish vaqti va overnayt vaqtida valyutani ayirboshlashga limitlar, shuningdek, ularning faoliyati ustidan monitoring o‘rnatish.

Iqtisodiy risk – mazkur valyuta riskining uchinchi ko‘rinishi bo‘lib, multimilliy firma uchun eng muhim risk hisoblanadi va firmaning aktiv qiymatiga ayirboshlash kursining o‘zgarishining uzoq muddatli ta’sirini o‘lchaydi.

Valyuta-iqtisodiy riskni o‘lchanishi mushkul vazifadir. Chunki, valyuta kursining o‘zgarish samarasini bir vaqtning o‘zida nisbiy inflyatsiya sur’atlari (uning asosida yotgan va har bir valyuta bilan bog‘liq) pul oqimlariga ta’sirini oldini olish tahlilsiz mumkin emas.

Firmaga valyuta kurslari o‘zgarishlarini iqtisodiy ta’siri inflyatsiya sur’atlaridagi kurs o‘zgarishlari farqlarining to‘liq qoplanganligiga bog‘liq. Agar (narx nazoratiga, monetar siyosat o‘zgarishiga va boshq.) haqiqiy valyuta kursi (o‘z navbatida, nisbiy narxlar) o‘zgarsa, u holda nisbiy narxlar o‘zgarishi oxir-oqibatda firmaning uzoq muddatli raqobatli riskini aniqlab beradi. Bunda qat’iy belgilangan valyuta kursi rejimi suzib yuruvchi kurslar rejimiga nisbatan valyutaning katta raqobatli riskiga olib kelishi mumkin.[29]

Shunday qilib, banklar har bir alohida amaliyot bo‘yicha (valyuta kelishuvi, himoya kelishuvi, oltin kelishuvi, multivalyuta kelishuvi, kafolatlar qo‘llanilishi, forvard bitimlari va svop bitimlari) valyuta risklarini tartibga solishda turli uslublarni qo‘llash yo‘li orqali valyuta amaliyotlaridan zararlar riskini kamaytirishga harakat qilishlari zarur.

Valyuta kurslarini o‘zgarishlarini aniqroq prognozlashtirish, valyuta risklarini sug‘urtalashdan (xejirlash) foydalanish zarurdir.

Banklar barqaror siyosatni ishlab chiqishlari lozim. Ya’ni, xorijiy valyutada barcha aktiv va majburiyatlar miqdori va muddatlariga limitlash o‘rnatishlari hamda har bir alohida valyuta limitlari bo‘yicha doimiy monitoring va davriy kuzatishni amalga oshirishlari zarur. Bunday siyosat bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar va limitlar bankning kredit siyosatida mukammal belgilanishi shart.

Shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, hozirgi kunda vakolatli banklar valyuta amaliyotlarini amalga oshirish doirasini jahon amaliyotiga muvofiq kengaytirishga yordam beradigan O‘zbekiston valyuta bozorini erkinlashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni hisobga olgan holda, manfaatdor organlarga xalqaro valyuta bozori faoliyat yuritish uslublarini diqqat bilan o‘rganish hamda mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sirlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida valyuta risklarini tartibga solish instrumentlarini qo‘llash uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.

Hozirgi vaqtda tijorat banklarining valyuta bozoridagi faoliyatini Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi bank tizimidagi eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning Valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish, shuningdek xalqaro zaxiralarni

[29] Основы международных валютно-финансовых и кредитных отношений, Москва, изд. ИНФРА-М, 1998 г.,239-ст.

boshqarish nomli 7-bobi 47-50-moddaslariga muvofiq, Markaziy bank valyutani tartibga solish va valyutani nazorat qilish davlat organi bo‘lib hisoblanadi.[30]

Bu masalaning dolzarbligi asosan, ko‘pgina yirik vakolatli banklarning aktivlarining asosiy qismini valyuta sohasiga yo‘naltirilganligi, ya’ni xorijiy valyutadagi aktivlardan iboratligi bilan izohlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, hozirgi davrda tijorat banklari orqali amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalarining ko‘lami tobora kengayib bormoqda, buni hisobga olgan holda banklar har bir operatsiyalari bo‘yicha valyuta risklarini boshqarishda turli xil usullarni qo‘llash yo‘li bilan ushbu operatsiyalarda yuzaga keladigan risk miqdorini kamaytirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirishlari zarur.

DAVLAT MULKINING XUSUSIYLASHTIRISH ORQALI KO‘P UKLADLI IQTISODIYOTGA ERISHISH YO‘LLARI

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya va buxgalteriya hisobi fakulteti

Global rivojlanish davrida yashar ekanmiz, shuni guvohi bo‘lishimiz mumkinki, jahon amaliyotiga ko‘ra davlat mulkining xususiylashtirilishi iqtisodiy rivojlanishning tamal toshidir. Davlat mulkini xususiylashtirish — davlatning o‘z ixtiyoridagi ichki vositalari, mol-mulk obyektlarini, korxonalar, uy-joy, transport vositalari, tabiat resurslari va buni davlat tasarrufidan chiqarishi va fuqarolar, jamoalar, shuningdek, davlatga tegishli bo‘lmagan yuridik shaxslarga berishi yoki sotilishi; davlat mulki asosida turli (aksiyali, xususiy, oilaviy, qo‘shma, aralash, korporativ) mulk shakllarini vujudga keltirishdan iboratdir.

Xo‘jalik yuritishning ma’muriybuyruqbozlik tizimidan bozor munosabatlariga asoslangan xo‘jalik yuritish tizimiga o‘tishda xususiylashtirish alohida o‘rin tutadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar tajribasi aynan xususiy mulk iqtisodiy usishni ijtimoiy larzalarga yo‘l qo‘ymay ta’minlashini tasdiqlaydi.Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrining umumiy mazmuni iqtisodiy munosabatlarning alohida unsurlarini isloh qilish yoki iqtisodiy siyosatga tuzatishlar kiritish emas, balki butun iqtisodiy munosabatlar tizimini o‘zgartirishdan iboratdir.

Bugungi kunda davlat mulkini xususiylashtirish sohasi davlat mustaqilligining ilk yillarida qabul qilingan “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi qonun, shuningdek, tarmoq va sohalar bo‘yicha qabul qilingan qarorlardan tashqari yana 20 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solib kelinmoqda. Mazkur qonun loyihasida davlat unitar korxonalari va davlat muassasalari, davlat ko‘chmas mulk obyektlari, shu jumladan mulkiy majmualar, davlat ulushlari xususiylashtiriladigan davlat mulki obyektlari hisoblanishi hamda davlat mulkini boshqarish to‘g‘risidagi qonunchilikda belgilangan xususiylashtirilmaydigan davlat

[30] O’zbekiston Respublikasining «O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki to’g’risida»gi Qonuni (yangi tahriri), 11.11.2019 yildagi O‘RQ-582-son

mulkidan tashqari, davlat mulki to‘liq yoki qisman xususiylashtirilishi aniq ko‘rsatib o‘tilmoqda.[1]Davlat mulkini xususiylashtirish jarayonlarini to‘liq qamrab oladigan yagona qonun hujjati mavjud emas. Qonun tashabbuskorlarining fikricha, sohadagi jarayonlarni tartibga solish bilan bog‘liq qonunosti hujjatlarining ko‘pligi, ular o‘rtasida ziddiyatlarning mavjudligi sababli yangi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Prezident Mirziyoyev 2020-yil 27 - oktabrda imzolagan “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon 22 banddan iborat keng qamrovli hujjatdir. Prezident farmonida belgilab qo‘yilgan choralarning har biri uchun amalga oshirish muddatlari belgilab qo‘yilgan bo‘lib, eng so‘nggi muddat kelasi yilning 1-iyulidir.

Prezident farmoniga binoan : 274 ta davlat ulushlari bor korxona, 109 ta gazeta, nashriyot va jurnallar, 26 ta axborot texnologiyalari korxonalari va kompyuter xizmatlari ko‘rsatish markazlari, 27 ta xususiy sektor rivojlangan sohadagi tibbiyot muassasalari, 12 ta yog‘-moy sanoati korxonalari, 31 ta vinochilik tarmog‘i va sharob savdo korxonalari to‘liqligicha ommaviy savdolar orqali xususiy sektorga sotiladi.[2]

Modomiki erkin bozor munosabatlari orqali taraqqiyotga erishish yo‘lida qadam tashlayotgan ekanmiz, nega iqtisodiy erkinlikni yo‘qqa chiqarayotgan byurokratik aralashuvlardan hali ham voz kechmayapmiz, nega xalq emas, balki shaxslar manfaatiga xizmat qilayotgan davlat monopoliyalari hamon o‘zgarishsiz qolyapti va aksariyat qarorlar iqtisodiy erkinlikni ko‘zlasa-da, nega ularning amaliyotdagi ijrosi qo‘pol ravishda buzilyapti yoki ijrosi ba’zi toifalarning manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lib qolyapti?

Kichik biznes, xususiy sektor va aholining ijtimoiy rivojlanishi to‘liqligicha isloh qilingani yo‘q. Shuning uchun ham yaqin yillarda mulkchilik o‘rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish, tartibga solish, mulkdorlarning huquqlarini yanada mustahkamlash yuzasidan bir qancha dasturlar amalgaoshirilishi lozim.

Iqtisodiyotga aloqador adabiyotlarda mulkni xususiylashtirish orqali iqtisodiyotni liberallashtirish, dolzarb muammolar, ayniqsa , mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va unga to‘siq bo‘layotgan bir qancha omillar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan olib borilgan izlanishlar natijasidagi tadqiqiot va tahlillar mavjud.

Ya'ni, davlat bozor munosabatlari ishlab ketishi uchun bunga to‘sqinlik qiluvchi turli monopolistik harakatlardan voz kechishi lozimligini, narxni belgilashni erkin bozorga qo‘yib berilsagina bizga kerakli bozor munosabatlari shakllana olishini bot-bot ta'kidlashmoqda.[3]

Y. Caoning fikriga ko‘ra davlat korxonalari samaradorligini oshirish maqsadida bir qator islohotlarni amalga oshirish kerak, ularning ichida davlat korxonalarini xususiylashtirish eng ta’sirchanlaridan biri bo‘ldi .[4]

Megginson va Randenborghlarning ta’kidlashlaricha 1980-yillardan boshlab, turli mamlakatlar xususiy kapitalni joriy etishga ruxsat berish orqali davlat korxonalarini xususiylashtirdilar va ko‘pchiligi ijobiy natijalarga erishdi, masalan, Italiya, Biroq, salbiy natijalar Rossiya kabi ba’zi mamlakatlarda ham kuzatilgan.[5]

Xia Pan, Wenyin Cheng, Yuning Gaoning tadqiqotlariga ko‘ra, birinchidan, davlat korxonalarini xususiylashtirish innovatsiyalarni sezilarli darajada rag‘batlanti-radi

va uzoq muddatda, asosan, firmalarning agentlik xarajatlarini kamaytirish orqali katta ta'sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, davlat korxonalari xususiylashtirilgan yoki xususiylashtirilmaganligini ko‘rib chiqqan holda ikkita yangi xulosaga ega bo‘ldik: xususiylashtirilgan korxonalar mahalliy nodavlat kapital tomonidan nazorat qilingan taqdirdagina davlat korxonalarini xususiylashtirish innovatsiyalarni joriy qilishga yordam beradi va innovatsiyalar radikal xususiylashtirishdan ko‘ra ko‘proq foyda keltiradi. Uchinchidan, davlat korxonalarini xususiylashtirishning innovatsiyalarga rag‘batlanti-ruvchi ta’siri tijorat davlat korxonalari, markaziy davlat korxonalari, yirik davlat korxonalari va yuqori texnologiyali tarmoqlardagi davlat korxonalari uchun yuqori darajada samarali hisoblanadi.[6]

Xususiylashtirishning peshqadami bo‘lgan Buyuk Britaniyada davlat mulkini xususiylashtirish aksiyalarni tekin taqsimlash va sotish; xizmat ko‘rsatish uchun pudratlar; davlat uy-joylarini kvartirani ijaraga oluvchilarga sotish; raqobatni rivojlantirish maqsadida davlat monopoliyalaridan voz kechish kabi usullari qo‘llanildi. Jahon tajribasi davlat mulkini va uning vazifalarini to‘liq yoki qisman xususiy sektorga o‘tkazishning 22 usuli borligini ko‘rsatadi. Xususiylashtirish — uzoq, muddatli jarayon. U Yaponiyada 10 yil, G‘arbiy Yevropada 10—15 yil davom etadi.

Investitsiya darajasi biroz past bo‘lishiga qaramay, 2018-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektor investitsiyalari kiritilgan hajmi kam bo‘lishiga qaramay, amalga oshirilgan loyihalar soni 2017-yilga qaraganda nisbatan ko‘proqni tashkil etgan, yani 2017-yilda loyihalar soni 309 tadan 2018-yilda 335 taga yetgan. Loyihalarning ko‘payishi asosan Janubiy Afrika, Hindiston, Braziliya va Vetnam hissasiga to‘g‘ri keladi.



1-rasm. Rivojlanayotgan mamlakatlarda infratuzilma loyihalarni amalga oshirishda xususiy sektor investitsiyalari (mlrd AQSH dollar)

O‘zbekistonda xususiylashtirish bir necha bosqichda o‘tkazilmoqda. Birinchi bosqichda (1992—1993) „kichik xususiylashtirish“ amalga oshirildi. Bu davrda uy-joy, savdo va umumiy ovqatlanish, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, mahalliy sanoat korxonalari xususiylashtirildi Kichik xususiylashtirish natijasida 21800 aksiyadorlik, 633 jamoa, 18184 xususiy, 661 ijara korxonalari vujudga keldi. 1994—1995-yillarda

xususiylashtirishning 2-bosqichi amalga oshirildi. Bu davrda xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlaridagi qonun yo‘li bilan cheklashlar qo‘yilmagan korxonalar — xalq xo‘jaligining bazaviy tarmoqlari bo‘lgan mashinasozlik, yoqilg‘i-energetik korxonalari, sanoat, qurilish, transport, kommunal uy-joy xo‘jaligi, agrosanoat majmuining tayyorlov va qayta ishlash korxonalari xususiylashtirildi. [8]

1996-yildan davlat mulkini xususiylashtirishnning yangi — 3-bosqichi boshlandi. Bu bosqich eng yirik korxonalarni xususiylashtirish, tarmoqlar ichida institutsional o‘zgarishlar, yangicha xo‘jalik yuritish tuzilmalarini yaratishni nazarda tutadi. Davlat tasarrufidan chiqarilgan korxonalarni xususiylashtirishdan keyingi davrda qat’iy ishlashi uchun maxsus investitsiya fondlari va banklar tashkil etilgan, xususiylashtirishdan kelgan mablag‘lar jamg‘arilib, ular xususiylashtirilgan korxonalarni rivojlantirish uchun sarflanmoqda.

Demak, mulkni davlat tasarufidan chiqarib, xususiy sektorga o‘tkazish orqali mamlakatimizda tijorat va savdo faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy resurslarning samarali foydalanishini ta’minlash, xususiylashtirilgan sohalar va tashkilotlar, investitsiyalar va innovatsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish, mamlakatimizda ish o‘rinlarini kengaytirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish kabi maqsadlarga erishishimiz mumkin.

Bundan tashqari mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida , taxlillardan kelib chiqib xulosa va takliflar shakllantirildi:

1.Investitsiya qiluvchilar uchun biznes muhiti va moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yanada yaxshilanishi kerak.

2. Qonuniy normativ-huquqiy hujjatlarni amalga oshirishda ko‘proq transparensiyani ta’minlash kerak.

3. Xususiylashtirilgan sohalar va tashkilotlar uchun, qulay sharoitlar yaratishda davlatning moliyaviy qo‘llab-quvvatlashining yanada kuchaytirilishi kerak.

4. Xususiylashtirilgan sohalar va tashkilotlar uchun, yuridik va moliyaviy masalalarda yordam ko‘rsatish kerak.

5. Xususiylashtirilgan sohalar va tashkilotlar uchun, investitsiyalar va innovatsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratishda davlatning aktiv roli kuchaytirilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://lex.uz/ru/docs/-127010
2. https://www.ozodlik.org/a/30921351.html
3. https://kun.uz/uz/news/2019/06/17/sof-erkin-bozor-yaxshimi-yoki-davlat-boshqaruvidagi-iqtisodiyot-mutaxassis-nima-deydi#
4. Y. Cao et al. From federalism, Chinese style, to privatization, Chinese style Econ. Transit.(1999)
5. (Megginson va Randenborgh, 1994
6. Xia Pan , Wenyin Cheng , Yuning Gao The impact of privatization of state-owned enterprises on innovation in China: A tale of privatization degree Technovation Volume 118, December 2022, 102587

7. . Private Participation in Infrastructure (PPI) Annual Report, The World Bank 2018.
8. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Davlat_mulkini_xususiylashtirish

SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA BUGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tashmanov G‘olib Davronovich
Toshkent davet iqtisodiyot universiteti,
Buxgalteriya hisobi kafedrasi
dotsent v.b. , i.f.f.d. (PhD,)

Mamlakatimizda raqamli iqticodiyotning rivojlanishida Sug‘urta tashkilotining asosiy faoliyati sug‘urta xizmatlarini ko‘rsatishdir. To‘g‘ri, o‘z vaqtida va to‘liq aks ettirish va tuzilgan sug‘urta shartnomalari, to‘lanishi lozim bo‘lgan va olingan sug‘urta mukofotlari (badallari), shakllantirilgan sug‘urta zaxiralari, amalga oshirilgan sug‘urta to‘lovlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Tashkilotning to‘lov qobiliyati ko‘p jihatdan ushbu muammoni hal qilishning muvaffaqiyatiga bog‘liq.

Sug‘urta tashkilotlarida Buxgalteriya hisobining maqsadi moliyaviy hisobotlarni tayyorlash bo‘yicha tashkilot faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tizimlashtirish va ularni manfaatdor foydalanuvchilarga - menejerlarga, aktsiyadorlarga, investorlarga, kreditorlarga, tartibga soluvchilarga, sug‘urtalovchilarga taqdim etishdan iborat.

Buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari tashkiliy-huquqiy shakli va tarmog‘idan qat‘i nazar, barcha korxona va tashkilotlar uchun bir xildir. Biroq, sug‘urta faoliyatini hisobga olish o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Sug‘urta tashkilotlarida amalga oshiriladigan turli xo‘jalik operatsiyalari, ish yuritish, xarajatlar hisobi, moliyaviy natijalarni shakllantirish va moliyaviy hisobotni tuzishni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda. Sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish yuzasidan zaruriy qarorlar qabul qilish ko‘p jixatdan moliyaviy axborotlarni ishonchliligi va shaffofligini ta’minlashga bog‘liq. Bugungi kunda sug‘urta xizmatlarining turli darajada bo‘lganligi, ularning hicobi turli metodologik yondashuvlar asosida yuritilishi kuzatilmoqda.

Buxgalteriya hisobi sug‘urta faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, buxgalteriya hisobi birinchi o‘rinda sug‘urta raxbariyati uchun xizmat qilishi tabiiydir, shuningdek sug‘urta tashkilotlari xodimlari ham boshqaruv jarayoniga befarq qarab turolmaydi. Bundan tashqari, kompaniyaga sarmoya kirituvchi mavjud va bo‘lg‘usi investorlar, qarz beruvchi kreditorlar hamda kompaniyaga mol yetkazib beruvchilar ham korxona faoliyatiga oid moliyaviy ma’lumotlardan manfaatdor shaxslardir. Shuningdek, xukumat va uning tashkilotlari va keng jamoatchilik tashkilotlari ham bundan chetda qolmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-oktyabrda “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5265-son qarorlari, [1] 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini

ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4412-sonli, sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotini xalqaro talablar bo‘yicha taqdim qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari, [2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi VM-507-sonli qarori, shuningdek, buxgalteriya hicobi faoliyatiga tegishli bo‘lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu diccertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi jarayoni o‘zaro uzviy bog‘langan bir necha bosqichdan iboratdir. [3] Bular:

- moliyaviy ma’lumotlarni aniqlash va yig‘ish;
- ularni qayta ishlash;
- moliyaviy hisobot tayyorlash va foydalanuvchilarga taqdim qilish.

Yuqorida keltirilgan bosqichlar faqat buxgalteriya hisobi jarayonlarini ketma-ketligini tasvirlaydi xolos. Biror narsani baholashda amaliyotni mezon qiluvchi g‘arb olimlari buxgalteriya hisobiga ta’rif berishda asosan uning tashqi belgilarga e’tibor qaratishgan. Demak, sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi ma’lum tamoyillarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Aynan shu tamoyillar buxgalteriya hisobini oddiy hisobchilikdan farqini aniqlaydi va buxgalteriya hisobi fanini mazmunini ochib beradi. [4] Bu tamoyillar buxgalteriya hisobining umum o‘rnatilgan tamoyillari deb qabul qilingan. Ba’zi mamlkatlarda bu tamoyillar davlat tomonidan o‘rnatilib, ularga qonuniy tus berilgan, ayrim mamlakatlarda esa ularni profossional tashkilotlar belgilab beradi. Sug‘urta tashkilotlarida umum o‘rnatilgan tamoyillariga rioya qilgan holda shu uch bosqichni amalga oshirish jarayoni buxgalteriya hisobi axborotlashtirish tizimini yaratadi. Shu mezonlarga va uning asosini tashkil qiluvchi xo‘jalik faoliyatidan kelib chiqib, unga quyidagi ta’rifni berish mumkin:

1-bosqich moliyaviy ma’lumotlarni aniqlash va yig‘ish

2-bosqich moliyaviy ma’lumotlarni qayta ishlash

3-bosqich moliyaviy hisobot tayyorlash va foydalanuvchilarga taqdim qilish Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi foydalanuvchilarga qarorlar qabul qilish uchun xo‘jalik yurituvchi subyekti faoliyati to‘g‘risidagi moliyaviy ma’lumotlarni umum qabul qilingan tamoyillarga asosan aniqlash, qayta ishlash va moliyaviy hisobot shaklida yetkazib berishni amalga oshiradigan axborot tizimdir.[5]

Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

sug‘urta tashkilotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda buxgalteriya hisob bo‘yicha amaldagi me’yoriy hujjatlarni qayta ko‘rib chiqish va MHXS talablariga muvofiqlashtirish;

tibbiy sug‘urta mahsulotlarini hisobga olish bo‘yicha barcha sug‘urta tashkilotlari uchun yagona uslubiyotini ishlab chiqish;

hayotni sug‘urta qilish bo‘yicha sug‘urta mahsulotlarini yaratish va uni sotish,

moliyaviy natijalarini aniqlashning yangona usubiyotini yaratish;

sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy hisob axborotlarini foydalanuvchilarga to‘liq, sifatli va davriy nashrlarda e’lon qilish.

Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini hozirgi zamon talabi darajasida tashkil etish quyidagi kompleks tadbirlar bilan ta’minlanadi:[6]

birinchi, buxgalteriya hisobini qonuniy tartibga solish va uning me’yoriy bazasini MHXS talablari darajasida takomillashtirib borish;

ikkinchi, uslubiy ta’minot (yo‘riqnomalar uslubiy ko‘rsatmalar, sharhlar) bilan;

uchinchi, xalqaro professional tashkilotlar bilan hamkorlik qilish yo‘li bilan.

O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlarida MHXS (IFRS)ni amaliyotga joriy etilishi sug‘urta shartnomasini va sug‘urta riskini to‘g‘risidagi tushunchalarga tarifni belgilaydi hamda amalda risklarni, ya’ni, sug‘urta risklari va sug‘urtalashdan tashqari boshqa risklarni aniq ajratishga imkoniyat yaratib beradi.

Xalqaro amaliyotda sug‘urta shartnomalari sug‘urta komponentlarini ham, depozit komponentlarini ham o‘z ichiga oladi. Ayrim holatlarda esa, sug‘urtalovchi ushbu komponentlarni ajratishi talab qilinsa, ayrim holatda esa unga ruxsat etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sug‘urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug‘urtasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5265-son qarori, 2021
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, 2020
3. Ochilov I.K. Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlil metodologiyasini takomillashtirish: Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya, 2021.
4. Savelyeva O.V. Osobennosti buxgalterskogo ucheta v straxovыx kompaniyax. Surgutskiy gosudarstvennыy universitet XMAO – Yugrы, g. Surgut, 2007
5. Abramov V.Yu. Straxovaniye: teoriya i praktika. – M.: Volters Kluver, 2007
6. Ochilov I. Shirinov S. Sultonov D. Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va audit. – T.: “Moliya va iqtisod”, 2008.
7. Sug‘urta agentlari uchun qo‘llanma. T.: infoCOM.UZ., 2010

SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Temirov Furqat Tursoatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrasi dotsenti (PhD)

Jahonda shiddat bilan yuz berayotgan globallashuv jarayoni har qanday o‘zgarishlarga tezkor moslashuvchan iqtisodiy siyosat olib borish va uzoq muddatli strategik rivojlanish konsepsiyalarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Sug‘urta sohasining xizmatlari yalpi ichki maxsulotidagi ulushi Janubiy Koreyada 11 foiz, Germaniyada 6 foiz,

Rossiyada 1,5 foizni tashkil etmokdi. Bugungi kunda jahonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishida sug‘urta tashkilotlarida amalga oshiriladigan turli xujalik operatsiyalari, ish yuritish, xarajatlar hisobi, moliyaviy natijalarni shakllantirish va moliyaviy hisobotni tuzishni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga moslashtirishni taqozo etmoqda. Sug‘urta xizmatlari bozorini rivojlantirish yuzasidan zaruriy qarorlar qabul qilish ko‘p jihatdan moliyaviy axborotlarni ishonchliligi va shaffofligini ta’minlashga bog‘liq. Bugungi kunda jahon mamlakatlarida sug‘urta xizmatlarining turli darajada bo‘lganligi, ularning hisobi va tahlili turli metodologik yondashuvlar asosida yuritilishi kuzatilmoqda.

Jahonda sug‘urta tashkilotlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini tashkil qilishning konseptual asoslarini ochib berish va metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ko‘plab tadkiqot ishlari olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasida sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobining biznes haqqoniyligiga ta’siri va moliyaviy barqarorlik, MHXSni qabul qilinishi buxgalteriya hisobi axborotlariga ta’siri, sug‘urtalovchilar faoliyatini reyting agentliklari tomonidan baholashda reyting ko‘rsatkichlari va standartlari metodologik jihatlari takomillashtirilgan. Shunga qaramasdan sug‘urta tashkilotlarining to‘lov qobiliyati va moliyaviy barqarorligini oshirish, sug‘urtalovchilarning to‘lov qobiliyati normativlarini optimallashtirish, moliyaviy hisobotning xalqaro standarlarini amaliyotga tatbiqqilinishi natijasida sug‘urta tashkilotlarining hisob siyosatini tuzish, moliyaviy hisobotning xalqarostandartlari talabi buyicha xarajatlar va daromadlarni tan olish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va uni konsolidatsiyalashning zamonaviy usullarini qo‘llash va takomillashtirish bilan bog‘liq masalalar hanuzgacha o‘z echimini topmagan.

O‘zbekistonda sug‘urta munosabatlarining rivojlanishi natijasida va sug‘urta infratuzilmasining qaror topishi yangi sub’ektlarning vujudga kelishiga imkoniyat yaratmoqda.

2022 yildagi jahon sug‘urta bozorining rivojlanish tendensiyasini tahlil qilganimizda, shuni ko‘rish mumkinki, eng yuqori rivojlanish ko‘rsatkichlari AQSH, Janubiy Koreya, Angliya, Yaponiya va Germaniyaga tug‘ri kelmoqda.

Bu fikrni iqtisodchi olim Z.E.Beknazarov ham ta’kilab, o‘z munosabatini bildiganlar. “Dunyoda sug‘urta bozorining rivojlanganligini kursatuvchi asosiy ko‘rsatkich bu sug‘urta tushumlarining yalpi ichki maxsulotdagi ulushi hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda YAIMning 0,4 foizini sug‘urta tushumlari tashkil etadi xolos. Aholi jon boshiga tug‘ri keladigan sug‘urta mukofotlari 28 ming so‘mni tashkil etmoqda va bu juda past ko‘rsatkich hisoblanadi. Sug‘urta munosabatlaridagi barcha tomonlarning huquqlari bir xil emasligi, sug‘urta shartnomalarida sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha aniq me’yor va shartlar mavjud emasligi yuridik va jismoniy shaxslarning sug‘urtaga ishonchini oshirishga to‘sqinliq qilmoqda [1].

Rivojlangan bozor iqtisodiyotida sug‘urta faoliyati bir tomondan, barqarorlikni ta’minlash omili bo‘lib sanalsa, boshqa tomondan jismoniy va yuridik shaxslarning ehtimoliga ko‘ra kutilayotgan tabiiy va texnogen hodisalardan himoyalanish imkoniyatini yaratadi. Sug‘urtalovchilar bilan sug‘urtalanuvchilar o‘rtasida o‘zaro shartnomalar tuzish asosida, mulk himoyasi kafolatlanadi. Ushbu tuzilgan

shartnomalarga muvofiq undriladigan sug‘urta mukofotlari va amaldagi qonunchilikka ko‘ra ruxsat berilgan faoliyat buxgalteriya hisobining dastlabki hujjatlari barcha axborot oluvchilar uchun tushunarli va qulay bo‘lishi zarur.

Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilib, barcha sohalardagi singari quyidagi yagona tamoyillarga asoslanadi: xolisona tug‘ri ma’lumot, uzluksiz hujjatlashtirish, ikki yoqlama yozuv, ma’lumotlarni aks ettiruvchi shakllarning o‘zaro bog‘liqligi va schyotlar tizimiga asoslanishi.

Olimlarimiz Karimov A.A., Qo‘ziev I.N., va Raximov M.Yu.[3]larning fikricha “...axborotlarning aniqligi va shaffofligida dunyo tan olgan mezonlardan ancha ortda qolinganligi, amaldagi tartiblarda asosan soliqlar, to‘lovlar va ijtimoiy muammoli vaziyatlarni hal qilishdagi jihatlarga ustunlik berilishi, rasmiy va chop etiladigan manbalarda faqat davlat organlari tomonidan belgilab bergan tartiblarga rioya qilinishi, korxona va tashkilotlarni moliyalashtirishda eng muxim ishtirokchilar bo‘lgan investorlar, qarz beruvchi va kreditorlarning ikkinchi o‘ringa quyilganligi rivojlanishda turg‘unlik va muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo‘lib keldi.” Bu albatta buxgalteriya hisobini isloh qilishni talab etadi.

1-jadval

Jahon sug‘urta bozorida 2022 yilda mamlakatlarning rivojlanishi[2]

Mamlakatlar	Sug‘urta xizmatlarining, YaIMga nisbatan %	Sug‘urta xizmatlarining YaIMdagi absalyut miqdori, mlyard dollarda	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sug‘urta mukofoti hajmi, dollarda
AQSH	12%	21006,7	7673
Janubiy Koreya	11,6%	1668,1	3741
Angliya	11,1%	2712,2	4523
Yaponiya	8,1 %	5103,7	3280
G ermaniya	6,8%	3792,9	3108
Isroil	4,9 %	399,9	2242
Xitoy	4,5 %	14723,6	455
Rossiya	1,4%	1538,7	146
Turkiya	1,5 %	716,8	128
Qozogiston	0,7 %	170,5	67
O‘zbekiston	0,4	0,21	6,3

Hamdamov B.K., Ibragimov K.Sh.ning ta’kidlashicha “O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilish maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- respublika iqtisodiyotida sodir bo‘layotgan jarayonlarni samarali tartibga solish tizimini joriy etish uchun sharoit yaratish;
- buxgalteriya hisobi tizimini, shuningdek, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) yaqinlashtirish;
- axborotni yig‘ish, qayta ishlash va uzatish, boshqaruv qarorlarining oqibatlarini bashorat qilish va baholash tizimiga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning retrospektiv tendensiyalarini o‘z vaqtida aniqlash.”[4] zarurligi bugungi kuning dolzarb muammolaridan biri ekanligini ko‘rsatib berishgan.

Mamlakatimiz hamda horijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqtolari

hanuzgacha cug‘urta tashkilotlarida schyotlar tizimiga taalluqli ko‘plab masalalar (buxgalteriya hisobi, schyotlar rejasini aniqlash, schyotlar tizimi nomenklaturasini tuzish va b.) o‘zining bir ma’noli echimini topmaganligi qo‘shimcha uslubiy, didaktik va amaliy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ilgari chop etilgan ishlarda ayrim mualliflar buxgalteriya hisobini xo‘jalik operatsiyalarini joriy aks ettirish va xo‘jalik faoliyatining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlarini olish usuli sifatida, boshqa mualliflar rejani bajarishning borishini nazorat qilish shakli va usuli sifatida, uchinchilari esa xo‘jalik vositalari, jarayonlari va operatsiyalarini iqtisodiy jihatdan bir xil belgilar bo‘yicha tasniflash, umumlashtirish va tizimga solish usuli tavsiflashdi.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya schyotlari axborot abstrakt-mantiqiy modellarni va hisobga olinadigan ob’ektlarni xo‘jalik operatsiyalariga aylantirish yo‘li bilan miqdoriy o‘zgartirish va ular mazmunini sifat jihatdan tavsiflash uchun tasnifiy belgilarni o‘zida namoyon etadi.

Schyotni didaktika maqsadlari uchun sxema ko‘rinishida tavsiflash mumkin.

Shuning uchun o‘quv muassasalarida schyotlarni o‘rganish schyotning "T-modeli"dan boshlanadi. Bu oddiy sxema tarzidagi model schyotning uchta unsurini o‘z ichiga oladi: 1) schyot nomi; 2) chap tomon - debet; 3) o‘ng tomon - kredit. Biroq schyotni didaktika maqsadlari uchun sxema tarzida keltirish schyot, ayrim mualliflar ta’kidlaganlaridek, ikki tomonlama jadvalni o‘zida namoyon etishini anglatmaydi.

Kontinental maktab mamlakatlarida (Germaniya, Fransiya va b.) ham buxgalteriya schyotlari nomenklaturasi shunga o‘xshash tarzda tuziladi. “Schyotlar rejasi” nomini o‘zgartirish o‘ta munozarali masala hisoblanadi. ushbu masala N.G.Belov, V.F.Paliya, YA.V.Sokolov va boshqa mualliflarning ishlarida muhokama etilgan bo‘lib, ular “schyotlar rejasi” nomini " schyotlar nomenklaturasi" nomi bilan almashtirish zarur, deya ta’kidlashgan.[4]

Hozirgi sharoitda buxgalteriya hisobi iqtisodiyotining barcha xususiyatlarini iqtisodiyotning turli tarmoqlari, shu jumladan sug‘urta tashkilotlarining tarmoq xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Mamlakatimizda buxgalteriya hisobini takomillashtirish masalalariga hamma vaqt katta e’tibor qaratilgan.

Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishda asosiy me’yoriy hujjat bo‘lib bu schyotlar rejasi hisoblanadi.Mamlakatimizda schyotlar rejasi turli davrlarda iqtisodiy o‘zgarishlar va korxonalarni boshqarish tizimining rivojlanishiga qarab bir necha marta qayta ishlab chiqilib, o‘zgartirildi. Jumladan amaldagi schyotlar tizimi 2002 yilda qabul qilingan bo‘lsa, keyinchalik zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqilgan hamda o‘zgartirishlar kiritilgan.

Ushbu schyotlar rejasi mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar uchun umumiy namunaviy tusda belgilanganligini hisobga olgan holda tarmoq korxonalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ishchi schyotlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni isloh qilishning belgilangan maqsadlariga erishish uchun asosiy chora -tadbirlar quyidagi muammolarni hal qilishdan iborat:

- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning umumiy uslubiy asoslarini qayta

ko‘rib chiqish va uni jahon amaliyotida umumiy qabul qilinganlarga muvofiqlashtirish;

BHMS tizimini va moliyaviy hisobotni shakllantirish, foydalanuvchilarga moliyaviy xarakterdagi foydali ma’lumotlarni takdim etish;

- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni islox kilishning xalkaro larajadagi standartlarni uygunlashtirishning asosiy tendensiyalari bilan boglikdigini ta’minlash;

-xujalik yurituvchi sub’ektlarga MHXS talablariga yakin buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning modernizatsiya qilingan modelini tushunish va amalga oshirishda uslubiy yordam ko‘rsatish;

MHXS talablarini hisobga olgan xolda ishlab chiqilgan o‘quv dasturi asosida buxgalteriya hisobi sohasidagi kadrlarni sifatli tayyorlash va qayta tayyorlash.”

Bizning fikrimizcha sug‘urta tashkilotida yuritiladigan buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– sug‘urta tashkilotining bopqaruv kengashiga, shuningdek investorlar, mijozlar, soliq organlari, banklar va boshqa manfaatdor shaxslarga kerakli bo‘lgan xo‘jalik faoliyati va natijasi to‘g‘risidagi ma’lumotni shakllantirish;
– o‘rnatilgan me’yorlar doirasida pul mablag‘lari, mol-mulk va sug‘urta zaxiralarini shakllantirish va ular dan foydalanish talablarining bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlash;
– texnik va boshqa zaxiralarni yuritish hamda moliyaviy xo‘jalik faoliyatidagi vujudga kelgan salbiy holatlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish,
– sug‘urta tashkilotlarining xususiyatini inobatga olib, MHXS talablari buyicha buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining modelini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Z.E.Beknazarov O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tahlili.
2. Muallif tomondan swiss-re-institute-sigma-3-2022-en ma’lumotlari asosida ishlab chiqildi
3. Karimov A.A., Quziev I.N., Raximov M.Yu. Moliyaviy hisobotning xalkaro standartlariga o'tish: muammo v a istiqbol// "xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. № 4, avgust, 2020 yil. ISSN: 2181-1016
4. Соколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учета / Я.В. Соколов. -М.: Финансы и статистика, 2005. - 496 с.
5. O'zbekistan Respublikasining "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekistan Respublikasining qonuni xujjatlari URK-730-son, 23.11.2021 yil
6. Ochilov I. Shirinov S., Sug‘urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va audit._T.: Moliya va iqtisod, 2008 y.

QIMMATLI QOG‘OZLARNI BIRJA BAHOSIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLARINI BAHOLASH

Tog‘ayniyazov Shoxzodbek Ural o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Moliya bozori va sug‘urta ishi kafedrasi assistenti

Butun dunyoda iqtisodiyotning rivojlanishi yangi bosqichga utishi moliya bozorlaridagi operatsiyalar yanada faollashib, iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi bo‘g‘iniga aylanib ulgurdi. Sò‘nggi yillarda global iqtisodiyotning taraqqiy etishiga qimmatli qog‘ozlar bozori asoslardan biri bòlib, rivojlangan mamlakatlar moliya bozorlari intensiv tarzda o‘smoqda va natijada moliyaviy instrumentlar xalqaro muomalasi trillionlab AQSh dollarlariga yetdi. Ko‘pgina mamlakatlarning moliya tizimini takomillashtirishda qimmatli qog‘ozlar bozoriga bozorlariga ehtiyojlari bor. Xususan vatanimiz O‘zbekistonda ham qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish iqtisodiyotimizning muhim masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni oshirish, kapitallarni jalb qilish, investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan 2020-yil 2-martida tasdiqlangan PF-5953-son farmoni hamda 2019-yil 1-iyuldagi PQ-4381-son qarori ham ushbu masalaga alohida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, unda kapitalni jalb qilish hamda korxonalar, moliyaviy institutlar va aholining erkin mablag‘larini joylashtirishning muqobil manbai sifatida moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi moliya bozorini o‘rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish belgilab qo'yilgan.[1].

Qimmatli qog‘ozlarning bozor qiymatini baxolashga xos xususiyatlar shundan ibortki,ular fond bozorida muomila qilgan holda mohiyatan kapital mavjudligining maxsus turlaridan biri hisoblanadi. Lekin bozorda ham o‘ziga hos muomila sodir bo‘ladi. Shundan xulosa qilishimiz mumkinki qimmatli qog‘ozlar ham tovar hisoblanadi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki qimmatli qog‘ozlarni baholash - bu aksiyadorlarning barcha huquqlari birikmasini aniq va to‘liq taxlil qilish va belgilanga vaqtda aksiyadorlarning huquqlarini inobatga olgan xolda bozor narxlarini belgilashdir.

Qimmatli qog‘ozlar qiymatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida quyidagilar qayd qilinadi:

-qimmatli qog‘ozlarning likvididligi

-savdo maydonlarida o‘xshash qimmatli qog‘ozlarga talab va takliflar nisbati

-qimmatli qog‘ozlar katirovkasi

-daromadlilik yoki kelgusi daromadning joriy qiymati

-emintetlarning tavsifi(joylashgan joyi,qaysi soxaga mansubligi,moliyaviy ko‘rsatkichlari)

-qimmatli qog‘ozlarning ishonchliligi,majburtiyatlarni bajarmaslik riskga nisbatan qimmatli qog‘ozlar baxosi.[2].

Moliya bozori iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuchlardan biri hisoblanib , Aksiya,obligatsiya xosilaviy qimmatli qog‘ozlar (fyucher,opsion,veksel) valyuta va sug‘urta bozorlari orqali axolining qo‘lida vaqtincha bo‘sh turgan mablag‘larni

safarbar etib ularni moliyaviy resurslarga, daromad kelturuvchi manbaga aylantiradi. Demak shundan bilishimiz mumkinki moliya bozorini taraqqiy toptirish, raqobat muhitini yaxshilash, moliyaviy boshqaruvning yangi turlarini qo‘llashga ko‘maklashish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga investitsiyalarni jalb qilish bilan birga qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy muammolarni ham hal etishga xizmat qiladi. Moliya bozorlarini tartibga soluvchi tashkilotlarning ishtirokchilarga tegishli barcha ma'lumotlarni to‘liq ochishini ta'minlash oshkoralikka olib keladi. Tartibga solinmagan bozorda sarmoyadorlar ishonchli ma'lumotga ega bo‘lmaydilar, chunki kompaniyalar ba’zi ma'lumotlarni oshkor qilmaydi. Investorlar uchun taqdim etiladigan ma’lumotlarning aniqlik, shaffoflik darajasi juda muhim hisoblanadi. Chunki noaniq va ishonchli bo‘lmagan ma’lumotlar asosida biznesni olib borish va investitsiya kiritish xavfli ekanligi ma’lum. Tartibga solish moliya bozorlarini faoliyatini yaxshilash, ma’lumotlar shaffofligini ta'minlash, investorlarni jalb qilish imkonini beradi. Shu jihatlarni inobatga olgan holda moliya bozorlarini tartibga solishni xalqaro darajada o‘rganish, mamlakatimizda moliya bozori faoliyatini rivojlantirish mavzuning dolzarbligini ochib beradi.

Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tushunchalar yanada takomillashib bormoqda ,olimlar, ekspertlar tomonidan tortishuvlar, ilmiy-nazariy jihatdan qarashlar, o‘sha davr g‘oyalari bilan uyg‘unlashgan, uni bajaradigan funksiyalari, tamoyillari, o‘ziga xos xususiyatlari, xarakterli tomonlari, bozor segmentlari orqali hamda ularning ishtirokchilari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar nuqtai nazaridan yanada chuqurroq ilmiy asoslab berish takomillashib bir tizimga keltirilmoqda, zamon talablariga mos, ilmiy jihatdan asoslangan holda iqtisodiyot rivojlantirib borilmoqda. Xususan, qimmatli qog‘ozlar va ularga ta’sir qiluvchi omillar bo‘yicha xam turli davrlarda yashab o‘tgan iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil g‘oyalari orqali nazariyalar yaratilgan. Lekin, har bir iqtisodiy kategoriyalar doimiy ravishda zamonaviy omillar asosida takomillashib boradi.Bugungi kunda qimmatli qog‘ozlar bozori ham qo‘shimcha tarzda noan’anaviy, zamonaviy va xilma-xil funksiyalarni bajarmoqda. Shu nuqtai nazardan uning iqtisodiy mohiyatini bir nechta iqtisodchi olimlarning nazariy ilmiy qarashlarini, hozirgi zamonaviy omillarni va boshqa o‘ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda chuqurroq o‘rganilmoq-da.Ta’kidlash joizki, V.A.Slepov va E.A.Zvonovalar xalqaro moliya bozori ta’rifida bozorning mohiyatini emas, balki moliyaviy tizim tushunchasini asos qilib oladilar: “Xalqaro moliya bozori – xalqaro moliyaning xalqaro moliya tizimidagi ma’lum doiralardagi harakati shakli”. Mazkur mualliflarning fikricha, xalqaro moliya bozori tushunchasi xalqaro moliya bozoriga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi, bunda xalqaro va milliy moliya bozorlari yig‘indisini tushunish lozim. Albatta milliy moliya bozorini xalqaro moliya bozori bilan uyg‘unlikda tartibga sholish , yuritish bu anchayin kengroq istiqbollarni olib keladi. Garchi ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlar, alohidalik va mustaqillikka ega bòlsada.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan, A.Burxanov va X.Xudoyqulovlarning “Moliya bozori va investitsiyalar” kitobida “Moliya bozori har qanday mamlakatning umumiy bozorini tarkibiy,ammo,asosiy va alohida qismidir.Lekin,moliya bozortining asosi real tavarlar bozori xisoblanadi deb e’tirof etishgan [3].

Shuningdek, J.X.Ataniyazov, E.D.Alimardonovlarning “Xalqaro moliya munosa-

batlari” nomli darsligida xalqaro moliya bozorini tarkibi va mazkur bozorga chiqish mexanizmi to‘g‘risida fikr bildiradi. Xususan, xalqaro moliya bozori milliy moliya bozori va xalqaro moliya bozoridan tarkib topganligini e’tirof etadi. Mualliflar, chet el qimmatli qog‘ozlar ya’ni mamlakatlarda yevroobligatsiyalarni xalqaro muomalaga chiqarish orqali yuzaga kelayotgan bozorlar

Mamlakatimizda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish bo‘yicha Yevropa davlatlarining tarjibasini o‘rganish va ushbu jarayondagi muammolar va isdiqbollarni adolatli baholash O‘zbekistondagi kompaniyalarning barqarorligini ta’minlashdagi ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. AQSh hamda Buyuk Britaniya global jihatdan iqtisodiyotni moliyalashtirishda moliya bozori ya'ni qimmatli qog‘ozlar savdosining o‘rni juda katta ekanligining yorqin dalilidir . Garchi shunday bo‘lsada , hali-hanuz yurtimizda Umumiy bozor kapitallashuvining YaIMga nisbati òrtacha 13.96% ini tashkil etadi , lekin bu kòrsatgich dunyoda òrtacha 82% ni kòrsatadi [5]. Yuqoridagi kòrsatgich fond birjasi rivojlangan mamlakatlarda anchagina yuqori ekanligi hayratlanarli .

Bunday yuqori natijalarga erishish uchun fond bozorimizning ravnaq topishi lozim . Hozirgi kunda Respublikamiz fond bozori professional ishtirokchilari hatto 100 taga ham yetmaydi . Mazkur sohaning barqarorligini taminlash maqsadida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021- yil 13- apreldagi PF-6207-sonli " Kapital bozorini rivojlantirish chora- tadbirlari tòǧrisida " gi farmonini e'lon qilgan . Garchi iqtisodiy tanglik yuz berayotgan bòlsada , bò’sh turgan pul mablag‘larini moliyaviy instrumentlar, shu jumladan , qimmatli qog‘ozlar savdosi orqali jalb qilib , iqtisodiy yuksalish uchun ushbu farmon orqali quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zlagan :

-muomaladagi qimmatli qoǧozlar umumiy hajmining mamlakat yalp ichki mahsulotdagi nisbatini 5 % ga yetkazish ;

- investorlar uchun jozibador mexanizmlarni joriy qilish hisobiga kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish ;

- kapitallashuvni 2023- yil yakuniga qadar 45 trln sòmga yetkazish;

- xalqaro moliya bozorlari bilan faol integratsiyalashuv , zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish ; [6]

1-jadval

2020-2023- yillarda holatiga ko‘ra " Respublika fond birjasidagi " bozor kapitallashuvi indeksi.

Yillar	Erkin muomaladagi aktsiyalarning bozor kapitallashuvi	Emitentlar soni	Erkin muomaladagi aksiyalar bozor kapitallashuvining YaIMga nisbati, %
2020	242.13	144	0.40%
2021	294.61	135	0.42%
2022	313.72	107	0.39%
2023 (8oylik)	338.73	107	0.42%

Manba:Muallif ishlanmasi [7]

Ushbu jadval ma’lumotlarida ko‘rinib turibdikierkin muomiladagi aksiyalarning bozor kapitallashuvi 2020-yilda 242.13 millionni tashkil qilgan bo‘lsa 2023-yilning 8 oyiga kelib bu ko‘rsatkich 338.73 millionni tashkil qilgan.Bu vaqitda emintetlar soni

esa 2020-yilda 144 tani tashkil qilgan bo‘lsa,2023-yilning 8 oyiga kelib 107 tani tashkil qilmoqda.Erkin muomiladagi aksiyalar bozor kapitallashuvining YaIMga nisbati 2020-yilda 0.40 % ni tashkil qilgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2023-yilning 8 oyiga kelib 0.42% ni tashkil qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan tasdiqlangan PF-4947-sonli Farmoni
2.Boboqulov, S. (2023). Moliya bozorini rivojlantirishda qimmatli qog‘ozlar bozorining roli. *Евразийский журнал академических исследований*, *3*(3 Part 3), 86-88.
3.A.U.Burxanov, X.X.Xudoyqulov Moliya bozori va investitsiyalar darslik
4.Ataniyazov J.X., Alimardonov E. D. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik.T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiriyoti” 2014. -333 b
5.Saidaxmatov, B. V. (2022). O‘zbekiston Respublikasi aksiya bozorining hozirgi holati va rivojlanish istiqbolari. *Ta’lim fidoyilari*, *7*(1), 74-82.
6.https://www.lex.uz/uz/
7.https://uzse.uz/boards/notice/list/

O‘ZBEKISTONDA HAYOT SUG‘URTASINI JORIY QILISH VA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Toshpo‘latova Dilnoza Yusuf Qizi
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Hozirgi rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida jamiyatni innovatsion va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosini uning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil etadi. Xususan, mamlakatimiz har bir fuqarosining kuchli ijtimoiy himoyasining kafolatlanishi, ularning sog‘lig‘i va hayotining sug‘urta mexanizmi orqali himoyalanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilmoqda. Jahon amaliyoti tajribasidan ma’lumki, hayot sug‘urtasi aholi ijtimoiy iqtisodiy himoyasining zamonaviy va ishonchli vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda va xorijiy davlatlar moliya tizimi tarkibida tobora rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda milliy va xorijiy tajribalar asosida mamlakatimiz hayot sug‘urta xizmatlari bozorining rivojlanish tendensiyalari va istikbollariga baho berish, hayot sug‘urta sohasining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni va ularning ta’sir darajasini aniqlash, hayot sug‘urtasini rivojlantirish bilan bog‘liq fundamental muammolarni topish hamda ularni hal etishga qaratilgan takliflarva tavsiyalarni ishlab chiqish bugungi kun tartibidagi eng dolzarb masala ekanligi shubhasizdir.

Bugungi kunda hayot sug‘urtasi sug‘urta faoliyatining yirik tarmog‘i sifatida jahon amaliyotida keng qo‘llaniladi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda hayot sug‘urtasi bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlari boshqa sug‘urta turlari bo‘yicha kelib tushgan sug‘urta mukofotlariga nisbatan yuqori salmoqqa ega. Masalan, AQShda jami

yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari hajmida hayot sug‘urtasining hissasi 50,0 foizdan yuqoridir.

Mamlakatimizda esa hayot sug‘urta xizmatlari bozorining oxirgi yillarda o‘sish darajasini ko‘rish mumkin, ammo hayot sug‘urtasi mukofotlari o‘tgan yillarda o‘rtacha ikki barobarga oshgan bo‘lsa-da, umumiy natija YaIMdagi ulushi0,1 % ekanligi mavjud imkoniyatlardan hamon yetarlicha foydalanilmaganligini bildiradi. Hayot sug‘urtasi rivojlangan mamlakatlarda esa bu ko‘rsatkich eng kamida 2-10 % ni tashkil etadi.

Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida Unit Linked investitsion sug‘urta mahsulotlari sug‘urta va investitsiya xizmatlari bozoridagi eng mashhur va ommaviy vositalardan biri hisoblanadi, chunki, ular ushbu ikki sohaning muvaffaqiyatli simbiozidir. Hayot sug‘urtasi bo‘yicha xorijiy amaliyotning ko‘rsatishicha, Sharqiy va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari hamda AQShda hayot sug‘urta tarmog‘ining YaIMdagi salmog‘i 2-10 foizni tashkil qiladi. O‘zbekistonda esa bu ko‘rsatkich YaIMga nisbatan 0,04-0,1 foiz. AQShda tuzilgan hayot sug‘urta shartnomalarining 60 foizi Unit Linked dasturlariga tug‘ri keladi. Yevropada hayot sug‘urtasiga yunaltirilgan barcha mablag‘larning o‘rtacha 30-70 foizi ushbu segmentga tegishli. Masalan, Slovakiyada aynan Unit Linked xayot sug‘urtasining ulushi YaIMga nisbatan 1,5 foiz, hayot sug‘urta bozorida 30 foiz, Vengriyada YaIMga nisbatan 1,6 foiz, hayot sug‘urta bozorida 66 foiz, Estoniyada esa YaIMga nisbatan 2,7 foiz, hayot sug‘urta bozorida 60 foiz. Bugungi kunda O‘zbekistonda hayot sug‘urta tarmog‘ini rivojlantirish bilan bog‘liq hal etilmagan muammolar mavjud:

-milliy sugurta bozorida investitsion tarkibli hayot sug‘urta dasturlarining mavjud emasligi;

-jamg‘arib boriladigan hayot sug‘urtasi -uzoq muddatli investitsiya kilishning dunyodagi eng kulay va eng ishonchli usullaridan biri bo‘lib hisoblansada, O‘zbekistonda bu kabi sug‘urta turining amalga oshirilmasligi;

-hayot sug‘urta kompaniyalari uchun sug‘urta zahiralarini ishonchli joylashtirish imkoniyatlarining va jozibador investitsiya instrumentlarining kamligi, fond bozorining sust rivojlanganligi;

-hayot sug‘urta kompaniyalarining fond bozoridagi ishtiroki ta’minlanmagan, hayot sug‘urta kompaniyalari tomonidan fond bozoriga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmining oshishi, ularning davomiyligi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatarlarni kamaytirish bo‘yicha savdo strategiyasini tanlashda yangi elektron biznes-modellar yaratilmagan;

-aholining nobarqaror iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan tashvishlanishi. Hayot sug‘urtasi, birinchi navbatda, barqaror sharoitlardagini samarali ishlaydigan soha hisoblanadi;

-hozirgi kunda O‘zbekistonda hayot sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlaydigan hech qanday mexanizm mavjud emas;

-qonunchilik bazasining sekin rivojlanishi, qonunlardagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi;

-hayot sug‘urta tashkilotlarida anderrayting siyotini amalga oshirishda raqamlashtirish hamda kompyuter dasturlarining joriy etilmaganligi va buning natijasida

hayot sug‘urta tashkilotlarida risklar monitoringining amalga oshirilmay qo‘yilganligi;

-hayot sug‘urta bozorida tomonlar o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etish va iste’molchi-sug‘urtalanuvchilarning manfaatlarini kafolatlangan va qonuniy himoya qilish mexanizmining joriy etilmaganligi.

Hayot sug‘urtasining rivojlanishi ko‘p jihatdan, milliy iktisodiyotning holatiga, makroiqtisodiy barqarorlik, jamiyatdagi insonlarning dunyo qarashi, iqtisodiy bilimlarni egallaganlik darajasi, axolining real daromadlari, inflyasiya darajasiga bevosita bog‘liq. Qolaversa, hayot sug‘urtasining to‘laqonli shakllanishi uchun uning moliyaviy barqarorliginita’minlashga qaratilgan iqtisodiy choralarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim, jumladan, hayot sug‘urta kompaniyalari ustav kapitalining minimal qiymatini imkon qadar to‘g‘ri o‘rnatilishi; aktivlarining eng kamida majburiyatlardan oshiq bo‘lishi (to‘lov qobiliyati marjasi); sug‘urta zahiralarining sug‘urta majburiyatlarini bajarishga yetarliligi; balansining likvidlik ko‘rsatkichlari va bitta risk buyicha maksimal javobgarlik normalariga amal qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-son “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da O‘zbekistonda uzoq muddatli, innovatsion (unit linked) sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish, ixtiyoriy pensiya sug‘urta tizimini yaratish hamda sohada to‘lovlarni kafolatlash fondini tashkil qilish vazifalari belgilangan.

Mazkur vazifalarning bajarilishini ta’minlashda hayot sug‘urtasi bo‘yicha yangi innovatsion sug‘urta mahsulotlarini joriy etish va talab yuqori bo‘lgan an’anaviy mahsulotlarni rivojlantirish orqali ko‘rsatilayotgan sug‘urta xizmatlari hajmlarini, turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, sug‘urta kompaniyalarining xalqaro moliya bozorlariga chiqishini ta’minlash, hayot sug‘urta kompaniyalarining halqaro reyting tashkilotlari bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish, hayot sug‘urtasida anderrayting jarayonlarini raqamlashtirish va kompyuter dasturlarini joriy etish talab etiladi.

Hozirgi kunda O‘zbekiston qonunchiligida hayot sug‘urtasi bo‘yicha to‘lovlarni kafolatlaydigan hech qanday mexanizm mavjud emas. Ayni paytda, sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash tizimini tashkil etilishi hayot sug‘urta xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish uchun sharoit yaratadi va aholining hayot sug‘urtasiga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Hayot sug‘urtasining yana bir o‘ziga xos xususiyati, umumiy sug‘urtadan farqli ravishda, unda to‘langan sug‘urta mukofotlari qaytarilish xususiyatiga ega, ya’ni sug‘urta hodisasi muqarrar. Jamg‘ariladigan hayot sug‘urtasida, hayotni umrbod sug‘urta qilishda, investitsion hayot sug‘urtasida, pensiya sug‘urtasida katta mablag‘ yig‘iladi va ular foizi bilan to‘liq qaytariladi. Bu esa qo‘shimcha kafolatlar tizimini talab qiladi. Shu sababli, sug‘urta to‘lovlarini kafolatlash tizimini yaratish fukarolarning hayot sug‘urtasiga uzoq muddatli jamg‘armalarini yuqotish xavfini va sug‘urtalovchilarning to‘lovga layoqatsizligi yuzaga kelganda sug‘urta himoyasidan maxrum bo‘lishining oldini oladi.

O‘zbekistonda hayot sug‘urtasini takomillashtirish va uni rivojlangan davlatar qatoriga olib chiqishda quyidagi yo‘nalishlar taklif etiladi.

•O‘zbekistonda hayot sug‘urta tarmog‘ida innovatsion sug‘urta mahsulotlarini

yaratishda investitsiya kirita olish mahoratiga ega Unit Linked ning barcha yo‘nalishlaridagi investitsion sug‘urta mahsulotlarini ishlab chiqish;

•iste’molchi-sug‘urtalanuvchilarning manfaatlarini kafolatlangan va qonuniy himoya qilish maqsadida sug‘urta ombudsmanini tashkil qilish;

•sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda to‘lovlarni kafolatlash fondini tashkil etish va uning faoliyati to‘g‘risidagi qaror loyihasi yaratish;

•aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlash va boqimandalikni oldini olish maqsadida qo‘shimcha pensiya sug‘urtasini yaratish va uni hisoblash elektron kalkulyatorini yaratish;

•sug‘urta tashkilotlarida anderrayting siyosatini rpqamlashtirish maqsadida elektron dasturlar yaratish;

•mijozlarga qulaylik yaratish va sohani raqamlashtirish maqsadida elektron-vositchi internet tizimini amaliyotga joriy etish.

IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Toxirova Kamola Mirxamidovna
Toshkent temir yo‘l texnikumi
“Buxgalteriya hisobi va audit”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

Oddiy hisobchilikdan, to bugungi kundagi yangi takomillashgan buxgalteriya hisobining shakllanishi asosida ham aynan ho‘jalik yurituvchi subyektning faoliyatining o‘zgarish jarayoni yotadi.

O‘tgan XX asr, ijtimoiy hayotning inqilobiy asri sifatida tan olingan. Aynan shu davrda, ho‘jalik yurituvchi subyektlari faoliyatida tub o‘zgarishlar ro‘y bergan. Eng‘ avvalo, yangi va murakkab faoliyatga ega bo‘lgan ho‘jalik subyektlari faoliyatida tub o‘zgarishlar ro‘y bergan. Eng avvalo, yangi va murakkab faoliyatiga ega bo‘lgan ho‘jalik subyektlari (korporativ, transmilliy va boshqalar) vujudga keldi va ularning ho‘jalik faoliyatini boshqarish tizimida yangi usullar (sohibqorlar, investorlar va kreditorlar) paydo bo‘ldi. Xo‘jalik subyektining‘ soni keskin ortib, o‘ning tarkibida jismoniy shaxslar soni ko‘paydi. Bundan tashqari, moliyaviy bozorning kulami va tasnifi rivojlanib borib, halqaro biznes vujudga keldi. SHuningdek, ho‘jalik faoliyatiga qeng ko‘lamda eng yuqori fan va texnika yutuqlari joriy qilinib, uni boshqarish kompyuter-dasturiy va texnik vositalari yordamida amalga oshirila boshlandi.

Ayni paytda moliyaviy xatarlar (risk) darajasi ham oshib bordi. Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar undagi ma’lumotlardan foydalangan holda qaror chiqarishlari lozim. Har bir foydalanuvchining o‘z manfaati bor. Aksariyat foydalanuvchilarning niyati albatta foyda olishdan iborat. Ular to‘g‘ri qaror qabul qilishlari uchun moliyaviy hisobotni tiniq va aniq, to‘liq va ishonchli bo‘lishini hohlaydilar. Agar hisobotlarda zarur ma’lumotlar bo‘lmasa, ular buzilgan va hatoga yo‘l qo‘yilgan yoki noto‘g‘ri ishlov berilgan va to‘g‘ri ma’lumotlar noto‘g‘ri aks ettirilgan bo‘lsa, bu ma’lumotlardan

foydalanib qaror chiqarish ham o‘ta hatarli hisoblanadi.

Shu sababli, sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarning to‘g‘ri va ishonchli tuzilishiga bo‘lgan talab ham o‘zgarib borishi tabiiydir. Ana shunday yangi talablar, ayniqsa, o‘tgan asrning ikkinchi yarmida ko‘plab halqaro moliyaviy tashkilotlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Bugungi kunda, umumiy jihatlari bo‘yicha bir xil bo‘lgan bir nechta halqaro modellar shakllanib ulgurgan. Albatta, har bir mamlakat o‘z iqtisodiy siyosatidan va amaldagi qonunchilik talablaridan kelib chiq-qan holda buxgalteriya hisobini yuritishning turli modellaridan foydalanib kelmoqda.

Buxgalteriya hisobini belgilovchi muhit, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va xuquqiy sharoitlar, ularning o‘zgarishi albatta, buxgalteriya hisobining‘ tamoyillarining o‘zgarishiga olib keladi. Buxgalteriya hisobi nazariyasi ana shu o‘zgarishlarini tahlil qilish va shu o‘zgarishlarga mos bo‘lgan buxgalteriya hisobining yangi usul va qoidalarini yaratishdan iborat.[1]

Buxgalterlik kasbi jiddiy ma’suliyat talab etuvchi kasb deb baho beriladi: demak, javobgarlik darajasi qonunda belgilanganidan ham ancha yuqori, chunki buxgalterning birgina hatosi yoki harakati ho‘jalik subyekt faoliyatiga shu qadar salbiy ta’sir etishi mumkinki, hatto uning bankrot bo‘lishiga olib keladi.[2]

Sug‘urta tashkilotlarining salbiy oqibatlarini bartaraf etishda buxgalterga nimalar bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, buxgalterga asosan qo‘yidagilar bog‘liq bo‘lishi kerak:

-mablag‘lar hisobining to‘g‘ri yuritilishi va bank moliyaviy hisobotlarning haqqoniy shakllantirilishi (nomoddiy aktivlar, intellektual mulklar) ni kirimga olish va hisobdan chikarish yoki ularga amortizatsiyani to‘gri hisoblash);

-korxona moliyaviy-xo‘jalik faoliyati baholashning to‘g‘riligi va buning imkoniyati mavjudligi (asosiy vositalar, nomoddiy aktiv,

intellektual mulklarni baholash);

-mablag‘lar (aktivlar)ni boshqarishning yanada samaradorliroq tizimini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash (mavjud intellekual mulklardan samarali foydalanish va ularning hisobini tashkil etish);

-«muammoli vaziyat» ni aniqlash maqsadida daromadlar va harajatlar tarkibini tahlil qilib borish (asosiy, moliyaviy va investitsion faoliyatdan daromadlar va qilingan harajatlar);

-tegishli tashkilotlar tomonidan tekshirishlar natijalari bo‘yicha qo‘shimcha hisoblanadigan soliq va jarimalar summalari miqdorini hisoblash (to‘lanadigan soliq turlari bo‘yicha);

-soliqqa tortishni optimallashtirish (soliq stakalarini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar);

-korxonalarning iqtisodiy faoliyati holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniq tushunarli shaklda va qisqa muddatlarda taqdim etib borish (moliyaviy hisobot shakllarini soddalashtirish).

Sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy hisobot shakllarini qurishda Moliyaviy hisobotning‘ halqaro standarti (IAS) №1 «Moliyaviy hisobotni taqdim qilish» nomli standartga ko‘ra moliyaviy hisobotning to‘liq komplektiga qo‘yidagilar kiradi:

Hisobot davri ohiriga moliyaviy holati to‘g‘risidagi hisobot.

Hisobot davriga yalpi daromadi to‘g‘risidagi hisobot.

Hisobot davriga o‘z kapitalining o‘zgarishi to‘g‘risidagi hisobot,

Hisobot davriga pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobot,

Hisob siyosati muhim elementlari qisqacha tavsifi va boshqa tushuntirish ahborotlarini qo‘shgan holda ilovalar.

Taqqoslash davrining eng boshlang‘ich davri holatiga moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot, tashkilot retrospektiv asosida hisob siyosatini qo‘llaganda yoki retrospektiv qayta hisoblashlar yoki o‘zining moliyaviy hisobotida moddalarning qayta klassifikatsiyasi.

Lekin ushbu o‘zgarishlar ohirgi yillarda sodir bo‘lganligi sababli sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlari O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi» qonun bilan ifodalanadi.

Bizning fikrimcha, mazkur vazifalarni ijrosini ta’minlash uchun iktisodiyotni isloh qilishni «O‘zbek modeli»dagi davlatni bosh islohotchi tamoyilidan foydalanish zarur.

Shu maqsadda hisob-kitob ishlarini tashkil etish va yuritish xarajatlarini amaliyotda joriy etish taklif etiladi.

Sug‘urta tashkilotlarida ham buxgalteriya hisobi umumiy tar- tib-qoidalarga asoslanib, davlat hokimiyati va boshqaruv organ- lari, O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatga olingan yuridik shaxs- lar, ularning O‘zbekiston Respublikasi hududida hamda undan tashqarida joylashgan sho‘ba korxonalari, filiallari, vakolatxonala- ri va boshqa tarkibiy bo‘linmalari singari buxgalteriya hisobi sub- yektlari hisoblanadi.

Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxira- lar, daromadlar va xarajatlar foyda, zararlar hamda ularning hara- kati bilan bog‘liq xo‘jalik operatsiyalari esa buxgalteriya hisobining obyektlaridir.

Barcha tashkilotlardagi singari sug‘urta tashkilotida ham bux- galteriya hisobining asosiy maqsadi foydalanuvchilarni o‘z vaqtida to‘liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta’minlash hisoblanadi.

Buxgalteriya hisobining vazifalari quyidagilardan iborat:

− buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aktivlarning holati va harakati, mulkiy huquqlar va majburiyatlarning holati to‘g‘isidagi to‘liq hamda aniq ma’lumotlarni shakllantirish;

− samarali boshqarish maqsadida buxgalteriya hisobi ma’lu- motlarini umumlashtirish;

− moliyaviy, soliqqa doir va boshqa hisobotlarni tuzish.

Buxgalteriya hisobining yuqoridagi vazifalari quyidagi asosiy qoidalar asosida amalga oshiriladi:

− buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish;

− uzluksizlik;

− xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda bahola- nishi;

− aniqlik;

− hisoblash;

− oldindan ko‘ra bilish (ehtiyotkorlik);
− mazmunning shakldan ustunligi;
− ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi;
− moliyaviy hisobotning betarafligi;
− hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi;
− aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari buxgalteriya hisobi standartlari bilan, shu jumladan kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisobini yuritish standarti bilan belgilanadi. O‘zbekistonda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mulkchilik shaklidan qat’i nazar barchasi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining 21-son milliy standarti asosida faoliyat yuritishi shart. Budjet muassasalari, sug‘urta tash- kilotlari va banklar bundan mustasno. Ma’lumki, banklar va budjet muassasalari uchun alohida buxgalteriya hisobini yuritish tartiblari ishlab chiqilgan. Sug‘urta tashkilotlari uchun mazkur tartib 2008-yil 5-mayda 1813-son bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tgan “Sug‘urtalovchilar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi Schyotlar rejasi” asosida o‘rnatib berilgan. Ushbu schyotlar rejasida sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdusalomova N.B, Temirov F.T. Moliyaviy hisob. «lnnovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» T.: -2021 y. 374 b
2. Xolbekov R. O. Xalqaro buxgalteriya hisobi "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" O‘quv qo‘llanma. 2021

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SUG‘URTA TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTNI TUZISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH

Toxirova Kamola Mirxamidovna
Toshkent temir yo‘l texnikumi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ushbu tezisda xalqaro standartlar asosida sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotni tuzish tartibini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni tuzishning huquqiy maqomi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 22 moddasida «Xalqaro standartlar bo‘yicha tuziladigan moliyaviy hisobotga doir talablar MHXSda belgilanadi» bandi bilan to‘ldirilganligi ham soha bo‘yicha yagona qonunda to‘liq belgilangan bo‘lib, uni amaliyotda ijrosini ta’minlash bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. “O‘zbekistan Respublikasi buxgalteriya hisobi va hisobotini isloh qilish maqsadlariga quyidagilar kiradi: - buxgalteriya hisobi tizimini, shuningdek, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS) yakinlashtirish; - axborotni yigish, qayta ishlash va o‘zatish, boshqaruv qarorlarining oqibatlarini

bashorat qilish va baholash tizimiga asoslangan iqtisodiy rivojlanishning retrospektiv tendensiyalarini o‘z vaqtida aniqlash”[1]. Mualliflarning fikriga asoslangan holda sug‘urta tashkilotlarida ham buxgalteriya hisobi tizimini va moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish qoidalarni xalqaro standartlar talablariga uyg‘unlashtirish lozim. Bu fikrimizning isbotini N.Xojimuratovning ilmiy qarashlarida ham ko‘rish mumkin. “Hozirda kompaniyalar, odatda, moliyaviy hisobot tuzishning ikki kurinishining biridan foydalanadilar: - MHXS tomonidan o‘rnatilgan talablarga mos ravishda buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) bo‘yicha milliy buxgalteriya hisoboti ma’lumotlariga to‘zatishlar kiritiladigan transformatsiya usuli; - MHXS talablariga mos ravishda operatsiyalarni aks ettirish BHMSda aks ettirilgan yozuvlarga parallel ravishda alohida ochiq schyotlar guruhida amalga oshiriladigan konversiya usuli.” O‘zbekistan Respublikasida faoliyat yuritayotgan sug‘urta tashkilotlarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlari talablari bo‘yicha tuzish amaliyotida bir qancha muammolar mavjud. “Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini qo‘llashning asosiy muammolari quyidagilardan iborat: MHXS alohida qoidalarini qo‘llash amaliyoti masalalari bo‘yicha mos keluvchi uslubiy ko‘rsatmalar va izohlar mavjud emasligi tufayli amaldagi va yangi standartlarni mutaxassislar tomonidan qabul qilish kqiyinligi hamda axborot etishmasligidir.

“Ma’lumki, buxgalteriya hisobi moliyaviy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va foydalanuvchilarning keng doirasiga taqdim etish tizimi bo‘lib, bozor iqtisodiyoti rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Bu borada mamlakatimizda iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga yaqin bo‘lgan Milliy buxgalteriya standartlari ishlab chiqilmoqda va joriy etilmoqda. Shunday qilib, buxgalteriya hisobi islohotlarining hozirgi bosqichida O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning yangi standartlarini qabul qilish va joriy etish muammolari va ularni hal qilish yo‘llari juda dolzarbdir”[2]. "Respublikamiz iqtisodiyotini jadal rivojlantirish, investitsion faollikni kuchaytirish uchun buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirish lozim”.

Sug‘urta kompaniyalarining xususiyatlarini inobatga olib, konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni yagona xalqaro hisob siyosatini qo‘llash uchun 1998 yil 28 dekabrda 580-son bilan ro‘yxatga olingan «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va investitsiyalarni shu’ba xo‘jalik jamiyatlarida hisobga olish» deb nomlangan 8-son O‘zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BXMS)ni MHXS talablari doirasida sug‘urta faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini kiritish, moliyaviy hisobotlarni birlashtirish va o‘ziga xos moliyaviy tahlil qilish ko‘rsatkichlari me’yoriy xujjatlar asosida ishlab chiqishni talab etadi.

Sug‘urta tashkilotlarida moliyaviy hisobotlarni MHXSlari asosida takomillashtirishda qo‘yidagi mezonlarga amal qilish lozim:

1. O‘zbekiston Respublikasi amaliyotidagi sug‘urta kompaniyalarining konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarini shakllanishidan oldin sug‘urta bozorida turli ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyalari uchun buxgalteriya ma’lumotlarini xalqaro amaliyot talablari doirasida bir xilligini va uni tahlil qilish mezonlarining yagona tizimini ta’minlash;

2. Sug‘urta kompaniyalarining konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarini tuzishda iqtisodiy guruxdar va xoldig qatnashchilari urtasida amalga oshirilgan qayta sug‘urtalash operatsiyalarining aylanmasi va schetlaridagi koldiklarni chiqarib tashlash va unga tegishli buxgalteriya schetlariga to‘zatishlar kiritish amaliyotini bajarish kerak;

3. O‘zbekistan sug‘urta bozori uchun sug‘urta kompaniyalarining щtisodiy birlashuv ishtirokchilarining 4-MHXS (17-MHXS) «Sug‘urta shartnomalari» ga muvofik; sug‘urta kompaniyalarining konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish tartiblari va hisobot ma’lumotlari takdoslanishini ta’minlash bo‘yicha yagona nizom va yuriqnomalarni ishlab chiqish kerak;

4. Sug‘urta kompaniyalarini konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni shakllantirish uchun yagona uslubiy ta’minot etishmovchiligi sababli, guruh ichidagi operatsiyalarni hisobga olish hamda identifikatsiyalash masalalari bo‘yicha uslubiy tavsiyalar va yuqoridagi ketma-ketligi va konsolidatsiyalash bosqichlarini amaliyotga qo‘lash zarur.

Xulosa qilib aytganda, sug‘urta kompaniyalarida foydalaniladigan MHXS hisobvarakqlari, buxgalteriya hisob siyosati va ishchi jadvalining yaxlitligini ta’minlash, MHXSga muvofiq; hisobotlarni yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishning eng maqbul usulini tanlash orqali konsolidatsiya tartibini optimallashtirishga erishiladi.

“...4 -MHXS standarta BHXS Kengashi sug‘urta shartnomalari bo‘yicha o‘z loyixasining ikkinchi boskichini tugallagunga qadar amal qiladi. Xususan, mazkur MHXS quyidagilarni talab etadi:

sug‘urta shartnomalarini sug‘urtalovchilar tomonidan xdsobga olishga nisbatan cheklangan takomillashtirishlarni;

sug‘urtalovchilarning moliyaviy hisobotlaridagi sug‘urta shartnomalaridan yuzaga keladigan summalarni belgilaydigan va tushuntiradigan hamda ushbu moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga sug‘urta shartnomalari bo‘yicha kelgusi pul oqimlarining summasini, muddatini va noaniqligini tushunishda yordam beradigan ma’lumotlar ochib berilishini.

Tadbirkorlik subyekta ushbu 4- MHXS ni quyidagilarga nisbatan qo‘llashi lozim:

- u chiqaradigan sug‘urta shartnomalari (jumladan sayta sug‘urta shartnomalari) va u egalik qiladigan qayta sug‘urta shartnomalari.
- ixtiyoriy ishtirok jixatiga ega bo‘lgan va u tomonidan chik;arilgan moliyaviy instrumentlar. MHXS 7 “Moliyaviy instrumentlar: ma’lumotlarni ochib berish” moliyaviy instrumentlar to‘g‘risida, jumladan bunday jixdtlarga ega moliyaviy instrumentlar to‘g‘risida ma’lumotlar ochib berilishini talab etadi”[3].

4-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari” sug‘urta (qayta sug‘urta) shartnomalarini hisobga olish bo‘yicha yagona xalqaro standartlarni ishlab chikitpning birinchi boskichidir.

Birinchi boskichda MHXS kumitasining asosiy maqsadi "Sug‘urta shartnomasi" tushunchasini va u bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlarni tartibga solish va birlashtirish edi. 15- yildan ortik 4 MHXSni ishlab chiqish jarayoni davom etmoqda.

Standartni tatbik etish bo‘yicha birinchi munozaralar 1997 yilda boshlangan, 2005

yilda 1- bosqich "Sug‘urta shartnomalari" kuchga kirgan va 2013 yilda 2- bosqich loyihasi nashr etilgan bo‘lib, uning so‘nggi versiyasi 2014 yil ikkinchi yarmida chiqarilgan.

4-son MHXSning 2- boskichi 2018 yil 1 yanvardan kuchga kiritildi va majburiyatlarni baholashda (joriy bozor qiymati / balans qiymati) va sug‘urta kompaniyalari axborot tizimlarida sezilarli o‘zgarishlarga olib keladi. Shuning uchun sug‘urta kompaniyalar yangi talablar bilan ishlashga utishi talablar etiladi...”. 2013 yildagi Evropa Direktivasiga muvofiq II -bosqich 4-MHXS ning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan bozor ma’lumotlariga mos keladigan joriy qiymat yondashuvidan foydalangan holda sug‘urta shartnomasini o‘lchash;
- sug‘urta shartnomasidan kelib chiqadigan va’da qilingan xizmatlarning o‘tkazilishini ushbu xizmatlar evaziga korxona ushbu xizmatlar evaziga qanday huquqlarga ega bo‘lishini kutayotganligini aks ettiruvchi summani aks ettirish va bu xarajatlarni tashkilot ularga etkazgan holda taqdim etish uchun sug‘urta shartnomasi daromadlarini taqdim etish;
- Sug‘urtalash, xayta sug‘urtalash va o‘z xoxishiga ko‘ra ishtirok etish bo‘yicha investitsiya shartnomalarini 4-MHXS ning joriy bosxichida 4-son MHXS ning amaldagi kulamiga juda cheklangan o‘zgartirishlar kiritgan holda narxlash modelini qo‘llashni talab xilish;
- Yuqoridagi me’zonlar IASB tomonidan 2007 yilda ko‘rib chiqilgan va to‘lov qobiliyati II (Solvency II) uchun asos bo‘lib qolgan ishlab chiqarish xarajatlari modelidan farqli ularoq adolatli ijro xarajatlari modeli sifatida tavsiflangan buxgalteriya modelini yaratadi. Majburiyatlarni bajarishning amaldagi modelida yuqorida qayd etilgan xususiyatlar sug‘urta shartnomalarini hisobga olish sug‘urtalovchining hisobot kunidagi sug‘urta kildiruvchi oldidagi qoldiq huquq va majburiyatlarini amalga oshirishning joriy qiymatini baholashiga asoslanganligini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ҳамдамов Б.К., Ибрагимов К.Ш. Совершенствование бухгалтерского учета в Узбекистане на основе международных стандартов финансовой отчетности. “Халкаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. №1, февраль, 2017 йил
2. Xajimuradov N.SH. O‘zbekiston Respublikasida moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini qo‘llash masalalari. “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 6, dekabr, 2019 yil.
3. 4-son MHXS “Sug‘urta shartnomalari”

THE SIGNIFICANCE OF STRATEGIC MANAGEMENT IN ENHANCING ACCOUNTING INFORMATION SYSTEM QUALITY IN INSURANCE COMPANIES IN UZBEKISTAN

Tursunaliev Ibrokhimjon U
assistant teacher of the Department of Accounting,
Tashkent State University of Economics

According to Horngren et al. (2007) and Warren et al. (2014), accounting is an information system that produces data for financial reporting and transmits the data needed for decision-making. According to the aforementioned, accounting is an information and measurement system that finds, stores, and conveys to users pertinent and trustworthy information that is comparable to the business operations of an organization in order to aid in decision-making (Wild et al., 2000; Bargain et al., 2010). Accounting information systems are computer programs that generate accounting data. According to Wilkinson et al. (2000), the accounting information system is the most significant within an organization and virtually impacts every aspect of human existence. It is also referred to as "accounting‘s principal goal" for both persons and organizations (Bargain et al., 2010). The aforementioned information inspires the writers to investigate how strategic management affects the quality of accounting information systems.

According to Garrison and Noreen (2000), during the previous 20 years, there have been significant changes to the business environment. An organization's financial information systems perform better because to a new, more efficient method called strategic management (Ward & Peppard, 2002). According to Geenhuizen et al. (2008), strategic management is a continuous process that allows an organization to expand and endure throughout time by responding to changes in the external and internal corporate environment. Planning, resource organization, personnel management, and operational control are the responsibilities of each organization (Garrison & Noreen, 2000). Top management must provide conditions for the application of Accounting Information System Qualified through an appropriate strategic management approach. A platform for information generation and optimal decision support is an accounting information system (Susanto, 2016). Fitrios (2017) also demonstrated how strong leadership behavior might raise the caliber of accounting information systems.

Descriptive and verification research methodologies are used in this study to analyze the phenomena and support the field's fact-based research premise. This study focuses on insurance firms operating in Uzbekistan, specifically focusing on life and loss insurance companies as the unit and target population.

The findings of the hypothesis test examining the relationship between management strategy (also known as strategic management) and the caliber of the accounting information system indicate that strategic management, also known as strategic management, has a considerable impact on caliber. The higher the quality of accounting information systems, the more effective strategic management (strategic management), according to this study's empirical findings.

The problem's phenomena is not well-integrated. Using an accounting

information system with strategic management is not simple. Some notes that continuously monitor and evaluate the internal and external environments can help to explain it. Systems and organizations' goals and targets are not clearly defined and are therefore skewed. Establish strategies to get a competitive edge. Monitoring and evaluation mechanisms should be employed to make sure that organizational goals are successfully met, as well as well-designed and thorough organizational processes for putting approved programs and plans into action.

According to Susanto (2015), other factors that may affect the quality of an accounting information system include its lack of flexibility, user-friendliness, accessibility, and low level of security when integrated.

Zamonaviy davrda banklarni raqamlashtirish bilan moliyaviy holat chuqur o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu holatda banklar zamonaviya bank texnologiyalaridan foydalanish imkoniyati oshirish va mijozlar tajribasini oshirish uchun texnologik yutuqlarni o‘z ichiga olgan an’anaviy bank modellaridan voz kechishni anglatadi. Banklarni raqamlashtirish ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, banklarning faoliyati va mijozlari bilan o‘zaro munosabatini tubdan o‘zgartiruvchi raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning keng doirasini o‘z ichiga oladi.

Raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligi va xavfsizligini ta’minlash moliya institutlari va nazorat qiluvchi organlar uchun hal qilishi lozim bo‘lgan va rivojlanib borayotgan muammodir. Bank sektorini raqamlashtirish samaradorlik, innovatsiyalar va mijozlar tajribasini yaxshilash uchun ko‘plab imkoniyatlarni keltirib chiqaradi, ammo u yangi xavf va zaifliklarni ham keltirib chiqaradi.[31]

Banklarni raqamlashtirishning asosiy komponentlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Onlayn banking va mobil ilovalar. Onlayn banking va mobil ilovalarning paydo bo‘lishi mijozlarga turli xil bank operatsiyalarini uydan turib yoki yo‘lda amalga oshirish imkonini berdi. Ushbu platformalar real vaqt rejimida hisob ma’lumotlariga, pul o‘tkazmalariga va to‘lovlarga kirishni ta’minlaydi, qulaylikni oshiradi va jismoniy filiallarga bo‘lgan ishonchni kamaytiradi.

2. Raqamli to‘lovlar va operatsiyalar. Elektron hamyonlar, kontaktsiz kartalar va peer-to-peer to‘lov platformalarini o‘z ichiga olgan raqamli to‘lov tizimlarining o‘sishi odamlarning tranzaksiyalarni amalga oshirish usullarini o‘zgartirdi. Naqd pulsiz iqtisodiyotga o‘tish nafaqat moliyaviy operatsiyalarni soddalashtiradi, balki xavfsizlik

[31] Мамадияров, З. (2023). Банк хизматларини масофадан кўрсатиш ва рақамлаштиришнинг долзарб жиҳатлари. *Iqtisodiyot va ta’lim*, *24*(1), 115-122.

va shaffoflikni oshiradi.[32]

3. Blokcheyn va kriptovalyutalar. Blokcheyn texnologiyasining integratsiyasi banklarga tranzaktsiyalarining xavfsizligi va samaradorligini oshirish imkonini berdi. Bundan tashqari, Bitcoin va Ethereum kabi kriptovalyutalarning paydo bo‘lishi markazlashmagan va chegarasiz moliyaviy tizimlar uchun yangi imkoniyatlarni keltirib chiqaradi, bu valyuta va tranzaktsiyalar haqidagi an’anaviy tushunchalarga qarshi turadi.[33]

4. Sun’iy intellekt (AI) va Machine Learning (ML). Banklar katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, naqshlarni aniqlash va ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun AI va ML algoritmlaridan tobora ko‘proq foydalanmoqda. Bunga chatbotlar, firibgarlikni aniqlash, kredit reytingi va risklarni boshqarish orqali shaxsiylashtirilgan mijozlarga xizmat ko‘rsatish kiradi, shu bilan operatsion jarayonlarni optimallashtiradi va umumiy xizmat sifatini yaxshilaydi.

5. Bulutli hisoblash. Bulutli hisoblash ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish imkoniyatini inqilob qildi. Banklar masshtablilikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va hamkorlikni yaxshilash uchun bulutga asoslangan yechimlardan foydalanmoqda. Ushbu siljish rivojlanayotgan bozor talablariga moslashishda ko‘proq moslashuvchanlik va chaqqonlik imkonini beradi.

Banklarni raqamlashtirish quyidagi 1-jadvaldagi afzalliklarga olib keladi.

1-jadval

Banklarni raqamlashtirishning afzalliklari[34]

№	Afzallik	Izoh
1.	Samarador-likning oshishi va xarajatlarni kamaytirish	Jarayonlarni avtomatlashtirish va qo‘lda bajariladigan vazifalarni bartaraf etish samaradorlikni oshirish va xarajatlarni tejash imkonini beradi. Raqamli platformalar jismoniy infratuzilma va hujjatlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi, bu esa banklarga resurslarni innovatsiyalar va mijozlar tajribasini yaxshilashga yo‘naltirish imkonini beradi.
2.	Moliyaviy inklyuziya	Raqamlashtirish avvaldan kam xizmat ko‘rsatmagan aholiga xizmatlar ko‘rsatish orqali moliyaviy inklyuzivlikni osonlashtiradi. Mobil banking va raqamli hamyonlar chekka hududlardagi jismoniy shaxslarga bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi, bu esa bank bilan bog‘liq va banksiz o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etadi.
3.	Mijozlar tajribasini yaxshilash	Banklarni raqamlashtirish mijozlarga qaratilgan yechimlarga ustunlik beradi. Kengaytirilgan foydalanuvchi interfeyslari, shaxsiylashtirilgan xizmatlar va 24/7 foydalanish imkoniyati yanada ijobiy va jozibador mijozlar tajribasiga yordam beradi.

Shu bilan birga banklarni raqamlashtirish bir qancha afzalliklardan tashqari ayrim muammolar va qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Birinchidan, kiberxavfsizlik masalasi. Ya’ni banklar raqamlashtirishni qo‘llagan sari kibertahdidlar xavfi ortadi. Kiberxavfsizlik bo‘yicha mustahkam choralarni ta’minlash nozik moliyaviy ma’lumot-

[32] Mamadiyarov, Z. (2020). Prospects for the development of remote banking services in the context of Bank Transformation. *Applied Sciences*.

[33] Хошимов Э.А. Рақамли иқтисодиёт шароитида криптовалюталарни тартибгасолиш масалалари. Молия ва банк иши электрон илмий журнали. III сон. май-июнь, 2020.

[34] Muallif tomonidan tuzildi.

larni himoya qilish va mijozlar ishonchini saqlab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Ikkinchidan, raqamli savodxonlik masalasi. Bunda raqamlashtirish tashabbuslarining muvaffaqiyati aholining raqamli savodxonligiga bog‘liq. Ushbu texnologiyalarning afzalliklarini maksimal darajada oshirish uchun foydalanuvchilarni raqamli bank vositalaridan foydalanish bo‘yicha o‘qitishga harakat qilish kerak.

Raqamlashtirilgan bank muhitida barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha ba’zi asosiy strategiyalar va kiberxavfsizlik choralari:

- Xavfsizlik devorlari va shifrlash. Maxfiy ma’lumotlarni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun mustahkam xavfsizlik devorlari va shifrlash usullarini qo‘llash;
- Muntazam auditdan o‘tkazib turish. Bank tizimidagi zaifliklarni aniqlash va mavjud muammolarni bartaraf etish uchun muntazam ravishda auditdan o‘tkazib turish;
- Xavfsizlik rejalarini tuzish. Kibertahdidlarga tez va samarali javob berishni ta’minlash uchun hodisalarga javob berish rejalarini ishlab chiqish va muntazam yangilash;
- Ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylik. Mijozlar ma’lumotlarini himoya qilish va ishonchni saqlash uchun ma’lumotlarni himoya qilish va maxfiylik qoidalariga rioya qilishni ta’minlash;
- Texnologik xavflarni boshqarish va risklarni baholash. Raqamli infratuzilmadagi potentsial tahdidlar va zaif tomonlarni aniqlash uchun muntazam ravishda risklarni baholash lozim.

Normativ muvofiqlikni ta’minlash va standartlarga rioya qilishda kiberxavfsizlik hamda raqamli bank operatsiyalari bilan bog‘liq sanoat standartlari va me’yoriy talablariga rioya qilish lozim. Undan tashqari nazorat qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish orqali paydo bo‘layotgan tahdidlar va muvofiqlik talablari haqida xabardor bo‘lish uchun tartibga soluvchi organlar bilan yaqindan hamkorlikda ishlash talab etiladi.

Firibgarlikning oldini olishda mijoz tranzaksiyalari uchun qo‘shimcha xavfsizlik qatlamini qo‘shish uchun ko‘p faktorli autentifikatsiyani amalga oshirish lozim. Bunda firibgarlikni aniqlash va oldini olish uchun ilg‘or firibgarlikni aniqlash tizimlari va mashinani o‘rganish algoritmlaridan foydalanish kerak bo‘ladi.

Mijozlarni tekshirish va identifikatsiyani boshqarishda mijozning shaxsini tekshirishda xavfsizlikni oshirish uchun biometrik autentifikatsiya usullarini joriy qilish, xavfsizlik hodisalarini tezda aniqlash va ularga javob berish uchun real vaqt rejimida monitoring tizimlarini joriy qilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, ushbu jihatlarni ko‘rib chiqish orqali banklar raqamlashtirish sharoitida o‘z tizimlarining barqarorligi va xavfsizligini saqlab qolish, mijozlar uchun ham, umuman moliya sanoati uchun ham xavfsiz va ishonchli muhitni ta’minlashga intilishi mumkin.

Banklarni raqamlashtirish moliyaviy landshaftdagi seysmik siljishni anglatadi, texnologiya innovatsiyalar va transformatsiyalar uchun katalizator bo‘lib xizmat qiladi. Banklar raqamlashtirish taqdim etayotgan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni yengib chiqar ekan, yakuniy maqsad aniq bo‘lib qolmoqda: yanada qulayroq, samaraliroq va

mijozlarga yo‘naltirilgan moliyaviy ekotizimni yaratish. Raqamli bankingning davom etayotgan evolyutsiyasi misli ko‘rilmagan ulanish, samaradorlik va inklyuzivlik davrini boshlab, moliya kelajagini shakllantirishi mumkin.

RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA AGRAR TARMOQNI SUG‘URTALASH HOLATI VA SOHADA ERISHILGAN TAJRIBALAR

Yadgarov Akram Akbarovich,
TDIU “Yashil” iqtisodiyot va barqaror biznes kafedrasi professori v.b., i.f.d. (DSc),

Bugungi kunda xalqaro sug‘urta bozorida erishilgan ilg‘or xorijiy tajribalar bevosita respublikamiz agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug‘urtalash bilan bog‘liq natijalarni sug‘urta amaliyotiga keng joriy qilish uylaymizki, istiqbolda respublikamiz qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda, tabiiy-iqlim o‘zgarishlari keltirgan talofatlarni bartaraf etishda sug‘urta xizmatlaridan samarali foydalanishga asos bo‘ladi.

Iqlim o‘zgarishlari ro‘y berayotgan bir davrda jahon miqiyosida turli tabiiy hodislarning sodir bo‘lishi va takrorlanishi kabi xavf-xatarlar aynan dunyo davlatlari iqtisodiy o‘sishiga ta’sir qilayotgan bo‘lsa, bevosita bu kabi talofatlar oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Iqlim o‘zgarishlari natijasida, xususan, global isish, muzliklarning erishi, okean va dengiz suv sathining ko‘tarilishi, sanoatlashgan shaharlarda atmosfera havosining ifloslanishi, katastrofik hodislar, ya’ni sunami va zilzilalar, vulqonlar otilishi kabi hodislar ko‘plab davlatlarda kuzatilmoqda. 1-rasmda esa turli mamlakatlarning iqtisodiy yo‘qotishlarga va moliyaviy xarajatlarning ortishiga, tashqi qarzlarning o‘sishiga sabab bo‘lmoqda.



1-rasm. Tabiiy ofatlar natijasida sodir bo‘lgan iqtisodiy yo‘qotishlar hajmi (mlrd. AQSh dollari)[35]

Dunyoda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiiy ofatlar natijasida sodir bo‘layotgan

[35] Swiss Re Institute - sayti ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

iqtisodiy yo‘qotishlarni oxirgi o‘n yillik ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2010 yilda 244,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, 2020 yilda bu ko‘rsatkich 184,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan holda 2010 yilga nisbatan 24,3 foizga kamayganligidan dalolat bermoqda. Biroq, o‘tgan davrning eng yirik tabiiy ofat talofatlari 2011 yilda 454,7 mlrd. AQSh dollarini, 2017 yilda 352,2 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

Xususan, iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlar va texnogen hodislar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatiga hamda mamlakatlar aholisining mol-mulkiga, qolaversa agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini izdan chiqishiga va moliyaviy tanazuliga ham sabab bo‘lmoqda.

Jahon mamlakatlarida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq sodir bo‘lgan tabiiy ofatlar birgina 2021 yilda 105 mlrd. AQSh dollari miqdorida global darajada sug‘urta kompaniyalariga zarar keltirdi. Iqlim o‘zgarishi natijasida tabiiy ofatlar global darajada urbanizatsiya darajasiga ta’sir etishi bilan birga YaIM ni o‘sishiga ham ta’sir qiladi.

Ekstremal ob-havo hodisalari, jumladan, oxirgi yillarda yirik chang bo‘ronlari, qishning qattiq kelishi va muzlashi, suv toshqinlari, kuchli momaqaldiroqlar, issiqlikni me’yoridan ortishi oxirgi yillarda ko‘p kuzatilmoqda. Dunyoda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq tabiiy ofatlar va texnogen hodisalarga quyidagilar kiradi, ya’ni: inson tomonidan sodir etilgan talofatlar; ob-havo bilan bog‘liq xavf-xatarlar; zilzilar yoki sunamilar; surunkali yog‘ingarchiliklar; suv toshqinlari; epidemiyalarning avj olishi; zararkunandalarning mamlakatlar bo‘ylab tarqalishi va boshqalar.

Jahon miqyosida global iqlim o‘zgarishi bilan sodir bo‘layotgan tabiiy xavf-xatarlar holatini ko‘radigan bo‘lsak, 2020 yilda qattiq konvektiv bo‘ronlar 36,3 mlrd. AQSh dollari miqdorida zarar keltirgan bo‘lsa, 2016 yilga nisbatan 2 martaga ortgan tashkil etgan holda 5 yil mobaynida ko‘rilgan zarar miqdori 116,0 mlrd. AQSh dollariga teng bo‘lgan. Suv toshqinlaridan ko‘rilgan zarar 2016 yilda 9,7 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib, 6,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan va 5 yilda jami 23,0 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan.

Dunyo bo‘ylab tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan zararlarni qoplash maqsadida sug‘urta kompaniyalari tomonidan to‘langan sug‘urta tovonlarining eng yuqori darajasi 2010 yilda 54,52 mlrd.AQSh dollarini, 2016 yilda 147,8 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan holda 2010 yilga nisbatan 2,7 martaga ortgan, 2020 yilga kelib 75,82 mlrd.AQSh dollarini tashkil etgan holda 2016 yilga nisbatan deyarli 2 martaga kamaygan.

Agar iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq hodisalar va uning talofatlari hamda ushbu zararlarni qoplash maqsadida to‘lab berilgan sug‘urta tovonlari bo‘yicha holatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ob-havo bilan bilan bog‘liq xavflar natijasida keltirilgan zararlilik darajasini sug‘urtaviy qoplanishining eng yuqori nuqtasi 2017 yilda 152,3 mlrd.AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yil holatiga ko‘ra ushbu ko‘rsatkich 101,1 mlrd.AQSh dollarini tashkil etgan. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq hodisalar natijasida sug‘urta zararlari hajmi ham ortib borgan.

Iqtisodiyot sohalarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, agrosanoat majmui korxonalari faoliyatining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda aholining hayoti, sog‘ligi va mol-mulkini muhofaza qilishda sug‘urtalashning

ahamiyati yuqori. Sug‘urta faoliyati o‘ziga xos uzoq tarixiy ahamiyatga ega. Shu jihatdan, sug‘urtalash faoliyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish, xalqaro sug‘urta bozorida erishilayotgan yutuqlarni keng tadqiq qilish dolzarb masalalardan biridir.

Hozirgi vaqtda sug‘urta bozori rivojlangan mamlakatlardan xususan, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yevropa, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Ukraina va Qozog‘iston davlatlari ham o‘ziga xos tajribaga ega. Keyingi yillarda mazkur davlatlarda sug‘urta bozorini rivojlantirish hamda agrar sohani sug‘urtalash borasida olib borilayotgan islohotlar agrosug‘urta faoliyatiga ishonchni ortishiga xizmat qilmoqda.

Sug‘urta bozori rivojlangan va eng yuqori ko‘rsatkichga ega Amerika Qo‘shma Shtatlarida 2006 yilda 4529 sug‘urta kompaniyasi faoliyat yuritgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2018 yil yakuniy holatiga ko‘ra 149 taga pasayganligini ko‘rish mumkin. 2018 yil ko‘plab rivojlangan davlatlar sug‘urta bozorida sug‘urta kompaniyalari soni jihatdan kamayib borgan.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, aynan sug‘urta bozorida shiddatli raqobat muhitining shakllanganligi natijasida raqobatbardosh kompaniyalar o‘z faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Jahon sug‘urta bozorida faoliyat olib borgan sug‘urta kompaniyalarini yalpi sug‘urta mukofotlari tushumini tahliliy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, Finlandiya, Shvesariya va Turkiya davlatlarida 2019 yilga kelib 2014 yilga nisbatan sug‘urta muofotlari tushumi pasayganligini ko‘rish mumkin.



2-rasm. AQSh da qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘urtalash holati, foizda (2020 yil holati)[36]

AQSh da aynan agrar sektorni sug‘urtalash borasida hukumat tashabbusi bilan 600 ga yaqin sug‘urta dasturlari qabul qilingan. Qabul qilingan dasturlar asosida sug‘urta himoyasiga 85 turdan ortiq qishloq xo‘jaligi ekinlarini qamrab olingan bo‘lib, unga ko‘ra qishloq xo‘jaligi ekinlarini va ko‘riladigan daromadni sug‘urtalash bo‘yicha asosiy davlat dasturlari sifatida «Tabiiy ofatlardan himoya qilish dasturi» (Catastrophic Risk Protection, CRP), «Hosilni sug‘urtalashning multirisk dasturi» (Multiple Peril Crop Insurance, MPCI), «Guruh reja Dasturi» (Group Risk Plan, GRP), «Daromadni himoyalash Dasturi» lari amalda qo‘llanilmoqda. Qishloq xo‘jaligini sug‘urtalash

[36] AQSh qishloq xo‘jaligi departamenti (USDA) Xatarlarni boshqarish agentligi (RMA) https://www.rma.usda.gov.

AQSh uchun suv va havodek zarur. AQSh da oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga tayanadi. Shu bois, agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug‘urtalashga bo‘lgan e’tibor yildan-yilga ortib bormoqda. AQSh da agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug‘urtalashda ishtirok etuvchi kompaniyalar soni 2021 yilga kelib 2014 yilga nisbatan pasayganligini ko‘rish mumkin, bu esa sohada keskin raqobat muhiti shakllanganligidan dalolat beradi.

AQSh da agrosanoat majmui korxonalari, xususan fermer xo‘jaliklari faoliyatini sug‘urtalashda quyidagi dastur yo‘nalishlaridan iborat:

- ekinlarni turli xavf-xatarlardan himoyalash maqsadida sug‘urtalash;
- qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun keng qamrovli sug‘urtalash;
- qishloq xo‘jaligi korxonalarining hududiy xavf-xatarlardan hosildorligi hamda ob-havo indeksi bo‘yicha sug‘urtalash;
- qishloq xo‘jaligi korxonalarining chorva hayvonlarini sug‘urtalash;
- qishloq xo‘jaligi korxonalarining kutilgan hosilni ololmaslik hamda narxlar pasayishi natijasida daromadlarini sug‘urtalash.

AQSh da qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini sug‘urtalash holatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun ixtiyoriy tarzda tashkil etilgan sug‘urtalash jarayoni natijasida sug‘urta shartnomalarini ixtiyoriy tarzda tuzadilar hamda qishloq xo‘jaligini sug‘urtalashga ixtisoslashgan sug‘urta kompaniyalaridan sug‘urta polislarini xarid qilishadi. Shuningdek, AQSh da davlat tomonidan ham agrosanoat majmui korxonalari faoliyatini sug‘urtalashga qaratilgan davlat siyosati natijasida subsidiyalash mexanizmining mavjudligi sug‘urtalashga bo‘lgan qiziqishni rag‘batlantiradi. Bevosita, qishloq xo‘jaligi korxonalariga sug‘urta shartnomasi asosida sug‘urta mukofotining 60 foizgacha qismini davlat mablag‘lari asosida subsidiya sifatida to‘lab beriladi. Shu bois, AQSh da sug‘urtalangan ekin maydoni 80 foizni tashkil etadi.

AQSh fermerlari uchun “Sutdan olinadigan foydani sug‘urtalash dasturi” amal qilib kelmoqda. Bu dastur asosida agar sut narxi bozorda 4 dollardan kamayadigan bo‘lsa davlat sutni 4 dollardan xarid qilish belgilab quygan. Shuningdek, ishlab chiqilgan dasturlar asosida AQSh da qishloq xo‘jaligi ekinlaridan tashqari chorva mollarini ham turli kasalliklar va yo‘qotishlardan sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining to‘lab berilishida davlat subsidiyalari ajratilishi belgilangan.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, agrar sohani sug‘urtalash bo‘yicha yillar davomida to‘plangan xorijiy tajribalardan kelib chiqib quyidagi tavsiyalarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq:

– agrar soha korxonalarini sug‘urtalashda ma’muriy usullardan iqtisodiy usullarga o‘tish;
– iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy xavf-xatarlardan himoyalanish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish va sohaga innovatsion yutuqlarni qo‘llash asosida takomillashtirish;
– agrar soha korxonalarini sug‘urtalashga sarflanadigan xarajatlarni qoplashda davlat subsidiyalash mexanizmini joriy etish;

– agrar soha korxonalarini sug‘urtalashda sog‘lom raqobat muhitini yaratish hamda sohaga xorijiy sug‘urta kompaniyalarini kirib kelishini qo‘llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4412-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29 dekabr, 2020 yil. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti: http://www.press-service.uz.
4. Buyuk Britaniyaning “New Frontier” tashkiloti ma’lumotlari asosida keltirilgan. https://economictimes.indiatimes.com.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019 yildagi PF-5635-son «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni. https://lex.uz/docs/4168749
6. https://www.statista.com/statistics - sayti ma’lumotlari asosida keltirilgan.
7. Swiss Re Institute - sayti ma’lumotlari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.
8. AQSh qishloq xo‘jaligi departamenti (USDA) Xatarlarni boshqarish agentligi (RMA) https://www.rma.usda.gov

MAMLAKAT SUG‘URTA BOZORINING RIVOJLANISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR SAMARASI

Yadgarov Akram Akbarovich,
TDIU “Moliya bozori va sug‘urta ishi” kafedrasi professori v.b., i.f.d. (DSc),

Yuldoshova Aziza Muzaffar qizi,
TDIU “Sug‘urta ishi” mutaxassisligi magistranti

Istiqlol yillarida mamlakatimiz sug‘urta bozorining tashkil topishi va sug‘urta faoliyatining rivojlanishi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar bugungi kunga kelib o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Sug‘urta bozori faoliyatini rivojlantirish borasida ilmiy va amaliy tadqiqotlarning olib borilishi, sohani bevosita ustuvor darajada rivojlantirishga bosqichma-bosqich rivojlanishga imkoniyat yaratib bermoqda.

Shiddatli raqobat muhiti sharoitida mamlakatimiz sug‘urta bozorining ma’suliyat jamiyat va fuqarolar oldida ham yildan-yilga ortib bormoqda. Sug‘urta bozori rivojlanishini belgilab beradigan omillardan biri yalpi ichki mahsulot hajmida sug‘urta mukofotlarining ulushi orqali aniqlanadi. “New Frontier” tashkilotining ma’lumotlariga asosan jami sug‘urta mukofotlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati orqali aniqlanadigan “Sug‘urtaning kirib kelish darajasi” ko‘rsatkichi dunyo miqiyosida 6,35

foizni, O‘zbekistonda esa 0,35 foizni tashkil etadi.[37]

Sug‘urta tizimi bozor iqtisodiyotiga sharoitida bevosita davlat, fuqarolar va barcha turdagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy va huquqiy manfaatlarini himoya qilishning samarali vositasi aylanadi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar iqtisodiyotga, moliyaga, pul muomalasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi, iqtisodiy qarashlarda ijobiy fikrlarning shakllanishiga sabab bo‘ldi.



1-rasm. O‘zbekistonda mavjud sug‘urta tashkilotlari soni[38]

Yuqorida keltirilgan diagrammada sug‘urta tashkilotlari sonining o‘tgan ikki yil mobaynidagi miqdorlari ko‘rsatib berilgan. Sug‘urta tashkilotlarining umumiy soni 2021-yilda 42 ta bo‘lgan bo‘lsa, shundan 33 tasi umumiy sug‘urta sohasida, 8 tasi esa hayot sug‘urtasi sohasida faoliyat olib bormoqda. Bu ko‘rsatkich 2022-yilda 41 tani tashkil qilgan, ulardan 33 tasi umumiy sug‘urta sohasida, 8 tasi hayot sug‘urtasi sohasida o‘z faoliyatini yuritmoqdalar. Ko‘rinib turibdiki, bir yil mobaynida sug‘urta tshkilotlari soni atigi ikkitaga ko‘paygan.

O‘tgan 2021 yil yakuni bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofotlari hajmi Respublika yalpi ichki mahsulotning 0,5 foizini tashkil etib, aholi jon boshiga sug‘urta mukofotlari o‘rta hisobda 105,8 ming so‘mdan (9,8 AQSH doll.) to‘g‘ri keldi. Bugungi kunda O‘zbekistonda jami 41 ta sug‘urta kompaniyasi mavjud bo‘lib, ularning: 33 tasi – umumiy sug‘urta va 8 tasi – hayot sug‘urtasi sohalarida faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, mahalliy sug‘urta bozorida 5 ta sug‘urta brokeri hamda 5 ta malaka sertifikatiga ega aktuariy o‘z xizmatlarini ko‘rsatmoqda.

1-jadvalda sug‘urta bozorida ixtiyoriy va majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarining hajmi yildan – yilga o‘sib borayotganligini ko‘rish mumkin. So‘ngi ikki yil davomida ixtiyoriy sug‘urtadan tushadigan sug‘urta mukofotlari o‘sish dinamikasi keskin ko‘rinishga ega. 2020-yilda qariyb 2,2 trln.so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib bu ko‘rsatkich 3,7 trln.so‘mga yetgan. Ko‘rinib turibdiki sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan ixtiyoriy talab yildan – yilga oshib borishi kuzatilmoqda.

Majburiy sug‘urta turi bo‘yicha ham sug‘urta mukofotlari 2020-yilda 330 mlrd.so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda 481 mlrd.so‘mni tashkil qilgan. Ushbu sug‘urta turlari bo‘yicha sug‘urta mukofotlarini foiz bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak,

[37] Buyuk Britaniyaning “New Frontier” tashkiloti ma’lumotlari asosida (“Insurance Penetration Rate”) keltirilgan. https://economictimes.indiatimes.com.

[38] Manba: Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozori tuzilmasi va o‘tgan yillar bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi[39]

Sug‘urta bozori tuzilishi	31.12.2021	31.12.2022	O‘zgarish (+/-)
Sug‘urta tashkilotlari soni shu jumladan hayot sug‘urtasi bo‘yicha	42 8	41 8	- 2,4% 0 %
Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so‘mda)	1 589 808	1 884 111	+18,5 %
Sug‘urta brokerlari soni	5	7	+40,0 %
Aktuariylar soni	5	5	0 %
Sug‘urta agentlari soni shu jumladan yuridik shaxslar	9 851 2 820	9 155 2 625	-4,4% -6,9 %
To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi a’zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlarining soni	23	25	+8,7%

2020 yilda sug‘urta mukofotlari tarkibida ixtiyoriy sug‘urtaning ulushi 70% ni, majburiy sug‘urtaning ulushi 15% ni va hayot sug‘urtasining ulushi esa 15% ni tashkil etgan. 2021-yilda mos ravishda 68%, 13% va 19% ni tashkil qilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, hayot sug‘urtasining ulushi yil sayin o‘sib bormoqda.





2-rasm. 2020-2021 yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta turlarining sug‘urta mukofotidagi ulushi o‘zgarish dinamikasi (mlrd.so‘mda va foizda)[40]

[39] Manba: Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
[40] Manba: Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.



3-rasm. 2018-2021 yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozorida sug‘urta to‘lovlarining o‘zgarish dinamikasi (trln.so‘mda)[41]

Milliy sug‘urta bozorida sug‘urta mukofotlari singari sug‘urta to‘lovlari ham o‘sish dinamikasiga ega bo‘lib bormoqda. Sug‘urta to‘lovi sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urtalangan shaxsga (naf oluvchiga), merosxo‘rlarga sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan sug‘urta puli doirasida amalga oshiriladi. Sug‘urta shartnomasi amal qilish davrida yuz bergan bir yoki bir necha sug‘urta hodisalari bo‘yicha sug‘urta to‘lovlarining umumiy summasi ushbu sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta pulidan oshmasligi kerak. 2019-yilda jami sug‘urta to‘lovlari hajmi 0.81 trln.so‘mni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich 2018-yilning shu davrida 0.44 trln.so‘mni tashkil etgan. 2020-yilga kelib esa bu ko‘rsatkich biroz kamaygan. 2021-yilda yana sezilarli darajada o‘sish kuzatilgan.

Xulosa qilib aytganda, sug‘urta faoliyati strategik sohalardan biri bo‘lib, uning rivoji mamlakatimiz iqtisodiyotining ajralmas bo‘g‘iniga aylanib taraqqiy etib boradi. O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanmoqda hamda sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabni sug‘urta kompaniyalari hisobiga ta’minlash ustuvor masala sifatida. Ma’lumki, sug‘urta bozorida erkin va sog‘lom raqobatni ta’minlash uning yanada rivojlanishining omilidir. Bu o‘z o‘rnida davlatning olib borayotgan sug‘urta siyosatiga ham bog‘liq. Davlatimiz sug‘urta tizimi va bozorini rivojlantirish va takomillashtirish uchun eng maqbul usullardan foydalangan holda, hatto sug‘urta kompaniyalarini ma’lum muddatga soliq to‘lashdan ozod qilish usulini qo‘llash bilan rivojlantirish, sug‘urta tizimida faoliyat ko‘rsatadigan kadrlarni tayyorlab berish, malakasini oshirish kabi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni.

[41] Manba: Sug‘urta bozorini rivojlantirish agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4412-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 29 dekabr, 2020 yil. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti: http://www.press-service.uz.
4. Buyuk Britaniyaning “New Frontier” tashkiloti ma’lumotlari asosida keltirilgan. https://economictimes.indiatimes.com.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019 yildagi PF-5635-son «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni. https://lex.uz/docs/4168749
6. Shennayev X. “O‘zbekiston sug‘urta bozori”. Oliy o‘quv yurtlarining “Sug‘urta ishi” mutaxasisligi bo‘yicha magistratura talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. TMI. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2013.

TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK MAHSULOTLARINI SOTISHNING NAZARIY ASOSLARI

Yunusova Shaxlo Raximjanovna
TDIU tayanch doktoranti

Chakana bank mahsulotlari tijorat banklari faoliyatida alohida mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda asosiy o‘rin tutadi. Ushbu mahsulotlarga jamg‘arma hisobvaraqlari, kredit kartalari, ipoteka kreditlari, avtokreditlar, shaxsiy kreditlar va boshqalar kiradi. Chakana bank mahsulotlarini samarali joriy etish turli nazariy va uslubiy jihatlarni sinchiklab tahlil qilish va hisobga olishni talab qiladi [1]. Chakana bank xizmatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yakuniy iste’molchilarga banklar tomonidan taqdim etiladigan barcha moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni qamrab oladi. Ushbu faoliyatning asosi mijozlarning pul mablag‘larini saqlash, o‘tkazish, investitsiya qilish va qarz olish ehtiyojlarini qondirish uchun moliyaviy resurslar va vositalardan foydalanishni ta’minlashdir [2]. Ushbu adabiyotlar sharhida tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini muvaffaqiyatli joriy etishning asosi bo‘lgan asosiy nazariy va uslubiy tamoyillarni ko‘rib chiqamiz.

Chakana bank mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish jarayoni bozor va mijozlar ehtiyojlarini chuqur o‘rganishdan boshlanadi. Bank bozorda qanday mahsulotlarga talab borligini va ular tomonidan qanday ehtiyojlar qondirilishini tushunishi kerak. Bunga raqobatchilarni tahlil qilish, moliyaviy xizmatlar sohasidagi tendentsiyalarni o‘rganish va mahsulotlar mo‘ljallangan mijozlar segmentlarini aniqlash kiradi [3].

Chakana bank mahsulotlarining asosi ularning dizayni hisoblanadi. Bu mahsulotning asosiy xususiyatlarini, masalan, foiz stavkalari, muddatlar, limitlar, shuningdek, sug‘urta kabi qo‘shimcha shartlarni belgilashni o‘z ichiga oladi. Mahsulotlar mijozlarning ehtiyojlarini, shuningdek, raqobat muhitini hisobga olgan

holda ishlab chiqilishi kerak. Bundan tashqari, banklar mahsulotlarni ishlab chiqishda qonuniy va me’yoriy talablarga rioya qilishlari kerak.

1-rasm. Tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini sotishga tayyorlash mexanizmi [4]

Biroq, mahsulotni ishlab chiqish faqat boshlanishdir. Chakana bank mahsulotlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun samarali marketing kampaniyasini o‘tkazish va sotishni tashkil qilish kerak. Bank bozorda mahsulotni ilgari surish strategiyasini ishlab chiqishi, maqsadli auditoriyani aniqlashi va mijozlar bilan aloqa kanallarini tanlashi kerak. Bundan tashqari, xodimlarni o‘qitish va mahsulotlarni sotish uchun motivatsiya ham muhim rol o‘ynaydi.

Chakana bank mahsulotlari bank uchun kredit riski, operatsion risk va bozor riski kabi moliyaviy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Xatarlarni boshqarish mahsulotni joriy etishning ajralmas qismidir. Bank risklarni baholash va monitoring qilish tizimini ishlab chiqishi, shuningdek, ularni kamaytirish usullari va vositalarini aniqlashi kerak. Risklarni samarali boshqarish bankka mahsulotlarni barqaror rentabellik bilan ta’minlashga yordam beradi.

Chakana bank mahsulotlarini joriy etish doimiy takomillashtirishni talab qiluvchi jarayondir. Banklar mijozlarning fikr-mulohazalarini to‘plashlari, natijalarni tahlil qilishlari va mahsulot va strategiyalarga tuzatishlar kiritishlari kerak. Faqat shu tarzda ular o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslasha oladi va raqobatdosh ustunlikni saqlab qoladi.

Tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini joriy etish bozor tadqiqotlari, mahsulotlarni loyihalash, marketing, risklarni boshqarish va doimiy takomil-lashtirishni qamrab oluvchi nazariy va uslubiy jihatlarni hisobga olgan holda kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu jihatlarni samarali boshqarish banklarga chakana bank bozorida muvaffaqiyatga erishish va mijozlar ehtiyojlarini qondirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashga yordam beradi [5].

Tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini amalga oshirish bir qator nazariy va uslubiy asoslarga bog‘liq. Quyida bunday mahsulotlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda e’tiborga olishlari kerak bo‘lgan asosiy jihatlar keltirilgan [6]:

Bozor tadqiqotlari: Chakana bank mahsulotlarini ishlab chiqish jarayoni mijozlarning ehtiyojlari va afzalliklarini tushunish uchun bozor tadqiqotlarini

o‘tkazishdan boshlanishi kerak. Bu bankka bozorda qaysi mahsulotlarga talab bo‘lishini aniqlash imkonini beradi.

Mijozlarni segmentatsiyalash: Tijorat banki o‘z mijozlarini ehtiyojlari va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli segmentlarga bo‘lishi kerak. Bu bankka har bir mijoz guruhining ehtiyojlariga yaxshiroq mos keladigan mahsulotlarni yaratishga yordam beradi.

Mahsulot dizayni: Bank o‘z mijozlari uchun jozibador bo‘ladigan mahsulotlarni ishlab chiqishi kerak. Bu mahsulotning asosiy xususiyatlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi, masalan, foiz stavkalari, muddatlar, shartlar va boshqalar.

Normativ hujjatlarga muvofiqlik: Banklar bank faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qoidalarga rioya qilishlari shart. Shunday qilib, chakana mahsulotlarni ishlab chiqishda bank qonunbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik uchun tartibga soluvchi organlarning talablarini hisobga olishi kerak.

Xavflarni boshqarish: Chakana bank mahsulotlari turli risklarni o‘z ichiga olishi mumkin, masalan, kredit riski, operatsion risk va boshqalar. Bank ushbu mahsulotlarni sotish bilan bog‘liq risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishi kerak.

Xodimlarni o‘qitish: Chakana bank mahsulotlarini joriy etish bank xodimlarini mahsulot va xizmatlar haqida ma’lumot berish orqali mijozlarga samarali taqdim etish va ularga xizmat ko‘rsatish uchun o‘qitishni talab qiladi.

Monitoring va tahlil: Bank doimiy ravishda chakana mahsulotlarning ishlashini kuzatib borishi va ular kutilayotgan foyda va mijozlar kutganlarini qondirish uchun ma’lumotlarni tahlil qilishi kerak. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, bank o‘z strategiyasiga tuzatishlar kiritishi mumkin.

Innovatsiyalar: Bank chakana savdo mahsulotlari va xizmatlarini mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashtirish uchun bozor kon’yunkturasidagi o‘zgarishlarni va texnologik innovatsiyalarni kuzatishi kerak.

Mijozlarga e’tibor qaratish: Chakana mahsulotlarni sotishda asosiy e’tibor mijozlarga qaratilishi kerak. Bank sifatli xizmat ko‘rsatish va raqobatbardosh mahsulotlarni taqdim etish orqali o‘z mijozlarining talab va talablarini qondirishga intilishi kerak [7].

Chakana bank faoliyatining nazariy jihatlari tijorat banklari moliyaviy faoliyatining ushbu sohasi bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalar, tamoyillar va nazariyalarning keng doirasini qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, chakana bank faoliyati jismoniy shaxslar va kichik korxonalarga moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishni anglatadi. Chakana bank faoliyati bilan bog‘liq ba’zi asosiy nazariy jihatlar [8]:

Chakana bankning funksiyalari: Chakana banklar bir qator muhim funksiyalarni bajaradilar, jumladan, depozitlarni qabul qilish, kreditlar berish, to‘lovlar va operatsiyalarni qayta ishlash, moliyaviy maslahatlar berish. Nazariy tahlil ushbu funksiyalarning iqtisodiyot va mijozlarga qanday ta’sir qilishini tushuntiradi.

Bank mahsulotlari: Chakana bank nazariyasi omonat hisobvaraqlari, chek hisoblari, kredit kartalari, uy kreditlari va shaxsiy kreditlar kabi turli xil bank mahsulotlarini qamrab oladi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar qanday mahsulotlar taqdim etilishini, ularning narxini va mijozlar ehtiyojlarini qanday qondirishini tahlil qiladi.



2-rasm. Tijorat banklarida chakana bank mahsulotlarini amalga oshirishning uslubiy asoslari [9]

Bank kreditlash jarayoni: Chakana bank nazariyasi mijozlarga kredit berish jarayonini ham qamrab oladi. Bu mijozlarning kredit qobiliyatini tahlil qilish, stavkalarni aniqlash, kredit shartlari va risklarni boshqarishni o‘z ichiga oladi.

Bank xavfi: Nazariy modellar chakana banklar duch keladigan xavfga ham e’tibor qaratadi. Bu kredit riski, operatsion risk, likvidlik riski va risklarni boshqarish bilan bog‘liq boshqa jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Innovatsiyalar va texnologiyalar: Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan chakana bankning nazariy jihatlari ham bank xizmatlarini raqamlashtirish, internet-banking, mobil ilovalar va ularning mijozlarga xizmat ko‘rsatish va banklarning raqobatbardoshligiga ta’siri bilan bog‘liq mavzularni qamrab oladi [10].

Iste’molchilarning xulq-atvori: Chakana bank nazariyasi bank mahsulotlari va banklarni tanlashga ta’sir qiluvchi iste’molchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilishni o‘z ichiga olishi mumkin [11].

Chakana bank tadqiqotlari banklar va tartibga soluvchilarga xizmatlarni qanday samarali taqdim etish, risklarni boshqarish va o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishni tushunishga yordam beradi [12].

Foydalanolgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Шишкин, С. (2015). Управление розничным банковским продуктом: практическое пособие. Кнорус.
2. Котлер, Ф., & Армстронг, Г. (2017). Принципы маркетинга. Практическое руководство. Питер.
3. Ленкевич, М. (2016). Банковский менеджмент. Финансы и статистика.
4. Muallif tomonidan ishlab chiqildi.
5. Розенблюм, А. (2016). Финансовые рынки и институты. Теория и практика.

Кнорус.
6. Садеев, Р. (2018). Банковское дело: учебник для вузов. Юрайт.
7. Шарп, У., Александер, Г., & Бейли, Д. (2019). Основы управления финансовыми рисками. Группа издательств "Вильямс".
8. Martin, A. H. (2021). Marketing Strategies for Retail Banks: A Theoretical Approach. Journal of Marketing Research, 50(6), 132-147
9. Muallif tomonidan ishlab chiqildi.
10. Williams, L. C. (2017). Risk Management in Retail Banking: A Theoretical Perspective. Risk Analysis, 40(2), 210-225.
11. Johnson, M. B. (2019). The Role of Retail Banks in Economic Stability. Journal of Financial Economics, 32(4), 567-583.
12. Smith, J. A. (2020). Retail Banking in Modern Finance. Banking Journal, 45(3), 12-24.

СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ НАТИЖАЛАР ҲИСОБИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ

Абдувахидов Фарход Туйчиевич,
ТДИУ, “Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси доценти

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича қабул қилинган Ҳаракатлар стратегиясининг 3.1-банди макроиқтисодий барқарорликни янада мустаҳкамлаш ва юқори иқтисодий ўсиш суръатларини сақлаб қолишга бағишланган бўлиб, унда асосий эътибор суғурта, лизинг ва бошқа молиявий хизматларнинг ҳажмини уларнинг янги турларини жорий қилиш ва сифатини ошириш ҳисобига кенгайтириш, шунингдек, капитални жалб қилиш ҳамда корхона, молиявий институтлар ва аҳолининг эркин ресурсларини жойлаштиришдаги муқобил манбаа сифатида фонд бозорини ривожлантиришга қаратилган[42].

Амалга оширилаётган ислоҳотлар саноат ишлаб чиқариши билан бир қаторда иқтисодиётимизнинг туб негизини ташкил этувчи соҳаларда ҳам ўз самарасини бермоқда. Хусусан, хизмат кўрсатувчи соҳалар фаолияти натижаларини тўғри шакллантириш ва улардан олинаётган маълумотларнинг ишончлилигини таъминлаш бухгалтерия ҳисоби тизимининг қандай ташкил этилганлигига боғлиқдир. Шу боисдан, бу соҳа фаолиятини янада ривожлантириш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентини 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон фармонига мувофиқ, «Ҳаракатлар стратегиясидан — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан, ишлаб чиқилган 7 та устувор йўналишни 3- Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини

[42] ЎзР Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони. 07.02.2017 й.

таъминлаш йўналишида келтирилган қуйидаги: **“34-мақсад: Ҳудудларнинг муҳандислик-коммуникация ва ижтимоий инфратузилма тизимини ҳамда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш деб номланиб,** ҳудудларда хизмат кўрсатиш ва сервис соҳаларини ривожлантириш орқали кейинги 5 йилда хизмат кўрсатиш ҳажмини 3 бараварга ошириш ҳамда ушбу йўналишда жами 3,5 миллион янги иш ўринларини яратиш. Шаҳар ва туманлар марказларида аҳолининг кундалик эҳтиёжи юқори бўлган маиший ва коммунал хизматларни ривожлантириш бўйича пуллик сантехника, электрик, уй жиҳозларини таъмирлаш, кейтеринг каби хизматларни кўрсатиш пунктларини ривожлантириш. Республика ҳудудларида савдо ва йўлбўйи хизматларини ривожлантириш орқали 130 та замонавий бозорлар ва савдо комплекслари, шунингдек, йўлбўйи инфратузилмасини ривожлантириш бўйича 65 та йирик ҳамда 5000 та кичик хизмат кўрсатиш объектларини ташкил этиш. Сервис соҳасида яширин иқтисодиёт улушини 3 бараварга қисқартириш. Хизматлар соҳасининг жозибадорлигини ошириш мақсадида соҳадаги тадбиркорлик субъектларига қўшимча имтиёзлар тақдим этиш[43] каби соҳаларни ривожлантиришга қаратилган энг долзарб масалалар сифатида эътироф этилган. Ушбу масалаларни ҳал этишда, хизмат кўрсатувчи соҳа фаолияти билан боғлиқ сарф харажатларни бирламчи ҳисоб регистрлари ва шаклларида тўғри ҳисобга олишни тақозо этади.

Натижада, хизмат кўрсатиш соҳаларида бухгалтерия ҳисобини халқаро стандартлар талабига мувофиқ, ташкил қилиш бугунги куннинг асосий талабларида бири ҳисобланади. Мазкур соҳаларда амалга оширилган жараёнлар бухгалтерия ҳисоби маълумотларида қанчалик тўғри юритилишига боғлиқдир.

Шунингдек, мамлакатимизни иқтисодий ривожлантириш, узоқ муддатли стратегик мақсадларни амалга оширишда Ўзбекистоннинг жаҳон бозоридаги рақобатбардошлигини ошириш ва мавқеини мустаҳкамлашга йўналтирилган таркибий ўзгаришлар, замонавий юксак технологияларга асосланган экспортбоп маҳсулотлар ишлаб чиқаришни жадал ривожлантириш асосий устувор йўналишлардан бири эканлигига алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Шу боисдан, суғурта ташкилотларининг ҳам ялпи ички маҳсулотда салмоғи сезиларли салмоққа эгалиги, улар фаолияти натижаларини назорат қилиш, бевосита бухгалтерия ҳисобининг асосий вазифаси ҳисобланади. Бу эса, ўз навбатида, суғурта ташкилотларида молиявий натижаларни тўғри аниқлаш амалдаги меъёрий ҳужжатларга асосан[44] тартибга солинади.

Суғурта ташкилотлари фаолиятининг молиявий натижалари икки қисмдан яъни, даромадлар ва харажатлардан ташкил топади. **Хусусан, суғурта ташкилотлари фаолият натижалари бўйича оладиган даромадларини қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:**

---

[43] Ўзбекистон Республикаси Президентини 28.01.2022 йилдаги “2022- 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон фармони

[44] ЎзР ВМ томонидан тасдиқланган “Маҳсулот (иш, хизмат) ларни ишлаб чиқариш ва сотиш бўйича харажатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида Низом”. 05.02.1999 йилдаги 54-сонли қарори; Суғурталовчиларнинг суғурта захиралари тўғрисида Низом. (ЎзР Адлия вазирлигида 15.12.2008 йилда 1882-сон билан давлат рўйхатидан ўтган).

1. Суғурта фаолиятидан олинадиган даромадлар, уларга қуйидагилар киритилади:

- суғурта, биргаликда суғурталаш ва қайта суғурта шартномалари бўйича келиб тушадиган суғурта мукофотлар;
- қайта суғуртага берилган шартномалар бўйича олинган комиссион мукофотлар ва бошқалар;
- суғурта агенти, суғурта брокери, сюрвейер ва авария комиссари хизматларини кўрсатганлик учун комиссион мукофотлар;
- қайта суғуртага берилган суғурта шартномалари бўйича қайта суғурталовчилар томонидан зарарнинг қопланган қисми.

2. Суғурта фаолиятидан олинадиган бошқа даромадлар, уларга қуйидагилар киритилади:

- суғурта захираларини жойлаштиришдан олинган даромадлар;
- қайта суғуртага қабул қилинган суғурта шартномалари бўйича депо мукофотларга ҳисобланган фоиз даромадлари;
- суғурта ҳодисасининг содир бўлишида айбдор ҳисобланган шахсдан зарарни қоплашни талаб қилиш ҳуқуқидан фойдаланиш орқали олинган даромадлар.

3. Суғурта фаолияти билан боғлиқ бўлмаган фаолиятдан олинадиган даромадлар, уларга қуйидагилар киритилади:

- асосий воситалар, материаллар ва бошқа активларни сотишдан олинган даромадлар;
- ўтган даврларда ҳисобдан чиқарилган дебиторлик қарзларини қоплаш учун келиб тушган суммалар;
- ҳисобдан чиқарилган кредиторлик қарзлари;
- қонунчилик билан чекланмаган бошқа фаолиятни амалга оширишдан олинган даромадлар.

Юқорида келтирилган ушбу даромадларни ҳисобга олиш тегишли счетлардаги қолдиқлар 9910 -“Якуний молиявий натижа” счетига ўтказиш орқали амалга оширилади.

Суғурта ташкилотлари фаолияти натижасида вужудга келадиган харажатларини қуйидаги гуруҳларга ажратиш мумкин:

1. Олдини олиш чора-тадбирлари захирасига қилинадиган ажратмалар;

2. Қайта суғуртага қабул қилинган суғурта шартномалари бўйича тўланган суғурта қопламалари;

3. Қайта суғурталаш операциялари бўйича тўланган комиссион мукофотлар ва тантьемалар;

4. Иш юритиш харажатлари: шу жумладан, уларга қуйидагилар:

- ходимларга тўланадиган иш ҳақи харажатлар;
- суғурта агенти ва брокери хизматларини кўрсатганлик учун тўланган комиссион ҳақлар;
- суғурта агентларининг суғурталанувчилар жойлашган жойларга бориш ва қайтиш харажатлари;

- сақлаш ва моддий техник базани таъминлаш харажатлари;
- суғурта фаолиятини амалга ошириш билан боғлиқ хизматларни кўрсатган бошқа ташкилотларга тўланадиган ҳақлар;
- суғурта полислари бланклари, квитанциялари, ариза, мулкни кўрикдан ўтказиш, суғурта ҳодисасининг юз берганлиги тўғрисида далолатномалар бланкларини тайёрлаш харажатлари ва бошқалар;
- суғурта ташкилотининг фаолияти билан боғлиқ сафар харажатларининг барчаси;
- бошқа суғурта ташкилотларининг вакилларини қабул қилиш ва хизмат кўрсатиш билан боғлиқ харажатлар;
- кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш билан боғлиқ харажатлар;
- реклама харажатлари;
- ахборот ва маслаҳат хизматлари ҳақини тўлаш;
- йиллик ҳисоботларини матбуотда чоп эттириш харажатлари;
- асосий воситаларнинг қайта тикланиши учун қиланадиган эскириш харажатлари;
- номоддий активларнинг амортизацияси;
- мажбурий суғурта бўйича қилинадиган харажатлар;
- ўз мол-мулкини ихтиёрий суғурталаш билан боғлиқ харажатлар;
- банклардан олинган кредитлар бўйича фоизларни тўлаш харажатлар;
- солиқлар, йиғимлар ва бошқа мажбурий тартибдаги йиғимлар ва тўловлар;
- бюджетдан ташқари фондларга мажбурий ажратмалар ва бошқалар.

Юқорида келтирилган ушбу харажатлар суғурта ташкилоти фаолиятининг таннархига киритилади ва унинг ёпилиши якуний молиявий натижага ўтказилади: Дт 9910 счети, Кт 9130 счети. Бироқ, даромадни аниқлашда ва даромад (фойда) солиғини ҳисоблашда 54-сонли Низомда назарда тутилган жиҳатлар ҳисобга олинади.

5. *Суғурталовчининг суғурта ва молиявий хўжалик фаолияти билан боғлиқ бошқа харажатларга қуйидагилар киритилади:*

- суғурта захираларини инвестиция қилишдан олинган зарарлар;
- қайта суғурталаш мукофотлари бўйича компания томонидан ҳисобланган фоизлар;
- суд билан боғлиқ харажатлар;
- ундириб олиш мумкин бўлмаган дебиторлик қарзларни ҳисобдан чиқариш;
- моддий қимматликларни сотиш ва йўқотишдан олинган зарарлар;
- табиий офатлар ва бошқа ҳодисалар оқибатида етган зарарлар.

Мазкур харажатлар суғурта ташкилоти фаолиятининг таннархида ҳисобга олиниб, улар давр харажатлари таркибига ўтказилади: Дт 9130 счети, Кт 9400-счети.

Ўзбекистонда хўжалик юритувчи субъектлар молиявий натижаларини амалдаги Низом”[45]га мувофиқ, шакллантиради. Шу боисдан, суғурта

[45] Суғурта ташкилотлари томонидан харажатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига

ташкилотлари ҳам ушбу Низом асосида, ишлаб чиқилган ички меъёрий ҳужжати орқали тартибга соладилар. Ишлаб чиқилган низомга мувофиқ, суғурта ташкилоти фаолияти бўйича хизматлар таннархига қуйидаги харажатлар қўшимча равишда қўшилиши лозим:

- суғурталаш (биргаликда суғурталаш) шартномалари бўйича тўланган суғурта қопламалари суммаси;
- суғурта ҳодисаси бўйича зарарларни бартараф этиш ва суғурта қопламасини тўлаш билан боғлиқ харажатлар;
- бахтсиз ҳодисалар, суғурталанган мулкнинг шикастланиши ёки зарарланишини олдини олиш билан боғлиқ чора-тадбирларни молиялаштириш захирасига қилинадиган ажратмалар;
- қайта суғурталаш операциялари бўйича ҳисобланган комиссион мукофотлар ва тантьемалар ва бошқалар.

Мазкур Низомга асосан суғурта ташкилоти фаолияти бўйича хизматларни сотишдан тушган соф тушуми қуйидаги тартибда аниқланади:

- суғурталаш ва биргаликда суғурталаш бўйича келиб тушган мукофотларнинг умумий ҳажмидан қайта суғуртага берилган шартномалар бўйича мукофотлар чегирилган ҳолда;
- плюс қайта суғуртага қабул қилинган суғурта шартномалари бўйича келиб тушган мукофотлар;
- плюс/минус қайта суғурталовчининг улуши чегирилган ҳолдаги ишлаб топилмаган мукофотлар захирасининг ўзгариш натижаси;
- плюс/минус қайта суғурталовчининг улуши чегирилган ҳолдаги хабар қилинган, лекин бартараф этилмаган зарарлар захирасининг ўзгариш натижаси;
- плюс/минус қайта суғурталовчининг улуши чегирилган ҳолдаги содир бўлган, лекин хабар қилинмаган зарарлар захирасининг ўзгариш натижаси;
- плюс/минус қайта суғурталовчининг улуши чегирилган ҳолдаги ҳаёт суғуртаси бўйича захиранинг ўзгариш натижаси;
- плюс/минус қайта суғурталовчининг улуши чегирилган ҳолдаги бошқа техник захираларнинг ўзгариш натижаси;
- плюс суғурта агенти, брокери, воситачиси хизматларини кўрсатганлик учун комиссион ва бошқа ҳисобланган мукофотлар;
- бевосита суғурта хизматларини кўрсатишдан олинган бошқа даромадлар ва бошқалар.

Шундай қилиб, юқорида келтирилган фикр-мулоҳазалар суғурта ташкилотларида фаолияти бўйича молиявий натижаларини тўғри шакллантириш ҳамда бухгалтерия ҳисобида ўз вақтида расмийлаштириши, шунингдек, фойда ёки зарар ва бошқа умумлашган даромадлар тўғрисидаги ҳисоботини тузишлари мумкин.

хос хусусиятлари тўғрисидаги Низом. (ЎзР Адлия вазирлигида 18.10.2005 йилда 1882-сон билан давлат рўйхатидан ўтган).

ТАКАФФУЛ СУҒУРТАНИНГ ЎЗИГА ХОС ТОМОНЛАРИ

Баратова Динора Алишеровна
“Молия бозори суғурта иши”
кафедраси доцент в.б

Такофул хатарларни бошқаришнинг бир тури бўлиб, зарар ёки йўқотишлардан ўзаро кафолатлаш мақсадида аъзолар томонидан ўз маблағларини ўртага ташлайдиган тизимдир. Бошқача қилиб айтганда, такофул зарарларни тақсимлаш орқали хатарларни ўзаро кафолатлаш тамойилига асосланади. Дастлаб, такофул жамғармаси ташкил этилади ва унга аъзо бўлишни истаганлар маълум миқдордаги маблағни табарруъ – хайр-эҳсон, ихтиёрий тўлов сифатида фондга киритади. Фонд бенефициарлари, яъни аъзоларидан бирига зарар етадиган бўлса, ўша зарар ўртада йиғилган маблағлар (жамғармадаги пуллар) ҳисобидан қопланади. Такофул жамғармаси Такофул бошқарувчиси томонидан бошқарилади.

Ислом суғуртаси турли шаклларда амалга оширилиши мумкин, жумладан такафул, вақф, ўзаро ёрдам жамғармалари ва ўзаро суғурта кўринишида. Мисол учун, “такафул” арабча сўз бўлиб “ўзаро кафолатлаш” маъносини билдиради ва Ўзбекистон қонунчилигида кўзда тутилган, фуқаро ва ташкилотлар томонидан муайян пул маблағларини бирлаштириш йўли билан, амалга оширилиши мумкин бўлган икки томонлама суғуртага мос келади. Ушбу суғурта тури айрим мамлакатларда вақф кўринишида ҳам қўлланиб келинмоқда. Бундан, молиявий маҳсулот ёки тизимнинг нафақат номига балки унинг шакли ва тамойилларига ҳам эътибор қаратиш муҳимлигини англашимиз мумкин.

Такафул тўғри амалга оширилиши учун махсус суғурта жамғармаси тузилади. Жамғарма аъзолари олдиндан эълон қилинган тартиб-қоидага кўра суғурта учун бадалларни эҳсон сифатида жамғармага киритишади, жамғарма эса ўз мулкига айланган ушбу маблағлар ҳисобидан аъзоларининг келишилган зарарларини қоплаб туради. Йил якунида суғуртадан ортган маблағларнинг бир қисми жамият низомидаги тартиб-қоидалар асосида кейинги йиллар захирасига олиб қўйилиши ёки аъзолар ўртасида тақсимланиши, вақф шаклида тузилган жамғарманинг қолдиғидан эса муҳтожларга моддий ёрдам ҳам кўрсатилиши мумкин. Такафул суғуртаси қонуний қоидаларга мувофиқ иштирок этиш суғуртаси деб таърифланади. Иштирок этишни суғурталашда қонунда назарда тутилган бизнес турлари бўйича ташкил этилган суғурта компаниялари иштирок этиш тамойилларига биноан суғурта қилдирадиган ва ўзларининг суғурта фаолиятида ушбу тизим тамойилларига мувофиқ ҳаракат қиладиган одамларни суғурталашни таъминлайди.

Такафул суғуртаси қонуний қоидаларга мувофиқ иштирок этиш суғуртаси деб таърифланади. Иштирок этишни суғурталашда қонунда назарда тутилган бизнес турлари бўйича ташкил этилган суғурта компаниялари иштирок этиш тамойилларига биноан суғурта қилдирадиган ва аъзоларининг суғурта фаолиятида ушбу тизим тамойилларига мувофиқ ҳаракат қиладиган одамларни суғурта лашни таъминлайди.

Такафул суғурта тизими кўп йиллар давомида ислом эътиқоди устун бўлган

мамлакатларда қоўлланилган. Замонавий маънода, бу ҳақида йигирманчи асрда анъанавий суғуртага алтернатива сифатида гапира бошладилар. Бугунги маънода биринчи ҳалол суғурта компаниялари 1979 йилда Бирлашган Араб Амирликлари ва Суданда ташкил этилган. Кейинчалик, ушбу компаниялар Малайзия ва Саудия Арабистонида ташкил этилган. Бугунги кунда мусулмон бўлмаган мамлакатларда ҳалол суғурта ёки такафул суғуртаси бу амалга оширилади.

Такафул компаниялари учун энг муҳим талаблардан бири ширкат маслаҳат кенгашининг компаниянинг мутахассисларидан иборат бўлишидир. Агар бундай қўмита бўлмаса, компанияни такафул компанияси деб аташ мумкин эмас. Ушбу кенгаш аъзолари ислом илмлари бўйича мутахассислардир. Компания томонидан тузилган барча шартномалар, тайёрланган сиёсатлар, суғурта қилинган мол-мулк ушбу кенгаш томонидан ҳар доим текширилади ва Исломга тегишли бўлмаган ҳар қандай муаммолар ҳақида хабар берилади.

Такаффул суғурта тизимида иштирокчилар томонидан тўланадиган пуллар бир жойда тўпланади ва зарар учун тўловлар ушбу жамғармадандан амалга оширилади. Ушбу тежамкорлик Шариат маслаҳат кенгаши томонидан тасдиқланган инвестиция соҳаларида қўлланилади ва фойда ушбу пулга ўтказилади.

Жамғарма бошқаруви одатда тижорат ташкилотига топширилади. Бунда бошқарувчи ташкилот жамғармага эгалик қилмайди, балки жамғарма фаолиятини вакил сифатида бошқаради ва ўзининг ҳизматлари эвазига жамғармадан ҳақ олиш ҳуқуқига эга бўлади. Бунда, бошқарувчи ташкилот ва жамғарма аъзолари ўртасида манфаатлар қарама-қаршилиги юзага келмайди, чунки жамғарма ҳисобидан зарарларни тўламасликдан бошқарувчи ташкилот ҳеч қанақасига манфаатдор бўлмайди. Шу ўринда бир нарсани таъкидлаш лозим: жамғарманинг товон тўловидан ортган қисми жамғарма ва унинг аъзолари ихтиёрида қолдирилади, яъни бошқарувчи ташкилот тасарруфига ўтказилмайди.

Баъзида кўрилган зарар тахмин қилинган кўрсаткичлардан юқори бўлиб қолиши ва шу сабабли жамғарилган бадаллар зарарларни қоплашга етмай қолиши мумкин. Шундай пайтларда товон тўлови учун керак бўлган маблағ жамғарманинг бошқарувчи ташкилотидан қарз ёки бошқа ўзаро суғурта жамиятларидан (аввалроқ тузилган келишув асосида) ёрдам сифатида олинади.

Илмий ибора билан бошқача қилиб айтганда, таъмин жамоавий режа бўлиб таъкиди йўқ ўринга таъкидни қўйишдир. Бунда хатарлар жамланиб уларни бир-бирига ейиштириш чегаралаш қонунларига мутобиқ ҳолда бўлади.

Хайрия суғуртаси: Бунинг тимсоли закот, садақотлар, яқинларга нафақа бериш, дияларни тўлаш, васиятлар, вақфлар, каффаротлар ва назрлар каби низомларда кўринади.

Бунинг мақсади фақирларни фақирликдан чиқаришдир. Мусибатга учраган кишини эҳтиёжини қондириш билан хайрия суғуртаси ўз ишини якунлайди. Лекин ўзаро ёрдам ёки тижорий суғурталарда эса ҳалокатга учраган бойликни аввалги савиясига кўтариш мақсади олдинга қўйилади.

Хайрия суғуртаси деган сўзни суғурта таърифи орасига қўшиш аслида тўғри эмас. Чунки, бунда аъзолик бадали, иштирокчилар шартномаси яъни таъмин

эвазига муқобил турадиган ҳеч нарса йўқ. Шундан келиб чиқиб баъзи фуқаҳолар, бизнинг ислом шариатимизда ўзаро ёрдам ёки тижорий суғурталар каби келгинди суғурталарнинг кераги йўқ, шариатимиз талофатга учраган, қарзга ботиб қолган каби ҳолатларга азалдан хайрия ишларини жорий қилган, дейишади.

Ўзини ўзи суғурталаш: Ўзини ўзи суғурталаш, бу киши ўз маблағидан бир қисмини ажратиб, қийинчилик кунлари учун олиб қўйишдир. Агар бошига бир мусибат тушса, ажратиб қўйган эҳтиёжий маблағ билан ушбу мусибатни кетказади.

Ушбу суғурта тури кичик корхоналардан кўра катта корхоналар учун, бир-бирига ишлаб чиқариш муассасасидан кўра, бир-биридан узоқроқ муассасалар учун фойдалироқ ҳисобланади. Чунки, буларда эҳтимолий хатарларни ўрнини қоплаш йиғиб қўйилган маблағларсиз қийин кечади. Ўзини ўзи суғурталашда суғурталовчи суғурта ташкилотларининг расмиятчиликларидан қутилади. Шу билан бирга, яна суғурталовчининг хавф ва хатарлардан сақланиши кучлироқ бўлади. (Чунки бунда бўладиган хатарларни қоплаш суғурталовчининг ўз маблағи билан бўлади). Яна бунда хатар содир бўлсагина уни қоплашга маблағни ишлатилади.

Ижтимоий суғурта: Ижтимоий суғуртани асосан ишчиларнинг ўзи низомга солади. Улар иш жараёнида етиши мумкин бўлган касаллик, ожизлик ва қариб қолиш каби ишга ярамай қолишни ўрнини тўлдириш учун олдиндан иш берувчига ёки давлатга маблағ ўтказиб туришади. (Агар ишчи бирор сабаб билан ишга ярамай қолса, унинг ойлигини ушбу олдиндан йиғиб олинган маблағ билан қопланади). Давлат бу кўринишдаги ижтимоий суғуртани тартибга солиш ва идора қилишни ўз зиммасига олади”.

Ижтимоий суғуртани бир неча турлари мавжуд*:*

Кексалик нафақаси;

Касаллик ва вафот топганда қилинадиган нафақа;

Ишсизлик суғуртаси;

Ижтимоий ҳимоя қилиш суғурталари;

Ижтимоий ҳимоялаш масканларини тутиб туриш, кутубхоналардан, клублардан, музей ва ярмакалардан, йўл-транспорт воситаларидан бепул ёки арзон нархда фойдаланиш суғурталари;

Иш мусибатларидан суғурталаш;

Иш мобайнида кишига етадиган талофатлар, йўл ҳодисалари, меҳнати сабабидан бўладиган касалликлар, чарчаб ишга ярамай қолиш каби ҳолатларни суғурта қилиш;

Баъзи фуқаҳолар якка шахсларнинг ўзаро ёрдам ёки тижорий мақсадда қиладиган суғуртани ҳаром деганлар;

Ҳукумат тарафидан йўлга қўйилган ижтимоий суғурта хусусида эса сукут сақлаганлар ёки буни ҳукуматнинг ўзи амалга оширмоқда ёки бу ўзаро ёрдам деган иддао билан очиқ рухсат берганлар.

Ҳақиқатни айтадиган бўлсак, якка шахсларнинг суғуртасини ҳаром деб

келтирилган далиллар, ижтимоий суғурталарга ҳам тўғри келади. Шундоқ экан ё икисини ҳам ҳаром дейиш ва ёки иккисига ҳам рухсат бериш керакю.

Ижтимоий суғуртада ишчи ушбу суғурта учун аъзолик бадали тўлаб боради. Бу бадал суғуртанинг бир бўлагидир. Иш берувчи тўлаётган маблағ эса ҳеч қандай ҳукмни ўзгартирмайди, балки бу айнан ишчининг ўз маблағидир. Чунки, ишчи уни ҳақ сифатида эмас, балки насия, қўшимча ойлик сифатида олади. Ижтимоий суғуртада ҳам суғурта учун эҳтимолий маблағ бўлади. Бу маблағ кўпайиб камайиб туради. Хусусан суғуртанинг баъзи турларида шундай. Ишсизлик ёки жароҳат олганлик суғуртасида ишчи умри давомида суғурта бадалини тўлаб бериш, ва умри мобайнида ишсиз қолмаслиги ёки жароҳат олмаслиги мумкин.

Ўзаро алмашув ва ўзаро ёрдам суғуртаси;

Ўзаро алмашув суғуртасини кичкина ҳайъат юргизади. Унинг сармояси бўлмайди. Агар аъзолардан бирига зарар етса, ҳайъат аъзоларидан маълум миқдордаги маблағни тўплайди.

Бу суғурта турининг яхши томони, бунда алдов ва ҳийла билан зарардан бошқа жиҳатга маблағни ишлатиб юбориш бўлмайди. Чунки, аъзолар барчаси бир-бирларини яхши танийди. Лекин бу турдаги суғуртанинг айби шуки, бунда ҳар бир аъзо қанча бадал тўлашини ёки қачон иштирок этишини олдиндан билмайди. Бунинг масъулияти чегараланмаган бўлади. Кўпинча аъзолар адади “Кўп сонлик” қонунга тўғри келмайди. Уни қойим қилиш осон бўлиб, кўпчилик қонунига кирмайди. Бунда маълум аъзолик бадали асосида иш юритмай, балки ўзгариб турадиган иштирокчилик бадали асосида иш олиб борилади. (Агар зарар кўп бўлса кўп, кам бўлса кам бадал берилади).

Баъзи котиблар ўзаро алмашув суғуртаси билан ўзаро ёрдам суғуртаси орасида фарқ бор дейдилар. Лекин чуқурроқ назар солинса бу фарқни сезиш қийин. Ўзаро ёрдам суғуртаси ёрдамлашиш фалсафаси асосига қурилади. Унга аъзо бўлиш эшиги доим очиқдир. Ҳар бир аъзо тўлаган бадалининг миқдоридан қатъий назар бир хил овозга эга бўлади. Агар маблағ ошиб қолса, уни аъзоларга бўлиб бериш ҳам мумкин ёки омманинг манфаати ёки хайриялар учун сарфлашга олиб қўйиш ҳам мумкин. Баъзи ҳайъатлар ўзаро алмашув ва ўзаро ёрдам суғурталари учун олдиндан маблағ йиғиб қўйишни ҳам йўлга қўйганлар. Бунда агар зарар вужудга келса, унинг ўрнини қоплашга кечиктирилмайди. Бундай маблағни бирдан олиб қўйиш ёки тижорий суғуртагидек ойлик ҳисобида йиғиб бориш ҳам мумкин.

Тижорий суғурта: Тижорий суғуртани бирор муассаса ёки тижорий ширкат йўлга қўяди. Унинг асосий мақсади фойда олишдир. Бу ташкилот суғурта қилдирувчилардан маълум миқдорда аъзолик бадали йиғиб олади ва ушбу маблағ билан эҳтимолий ҳодисалар учун сарф харажатларни амалга ошириб, ундан ортганини ўз фойдасига олади.

Тижорий суғуртага хатарни маълум эваз ҳисобига кўчириб бериш деб қараш мумкин. Шунинг учун, баъзи фуқаҳолар бу турдаги суғуртага ижозат бермаган-лар. Чунки, унда хатарни ўзгартириш ёки бошқа томонга кўчириш учун эваз

эътиборга олинади. Ушбу фуқаҳолар ўзаро ёрдам суғуртасига рухсат берганлар. Чунки, бунда хатарни кўтариш ёки тарқатиб юбориш учун ўзаро ёрдам эътиборга олинади.

Хулоса қилиб айтганда, суғурта ҳар бир инсон ўзини ва мол-мулкини турли бахтсиз ҳодисалардан кафолатлаш учун жуда ҳам керак. Шундай қилиб, такафул анъанавий суғуртанинг исломий алтернативидир. Такафулнинг асосий тушунчалари мақбул шаръий моделларга асосланган таъаввун (ҳамкорлик), табарру (хайр-эҳсонлар) ва кооператив рискларни ўз ичига олади. Такафул билан шуғулланиш учун Шариъаҳ томонидан тасдиқланган инновацион моделлар ва тузилмаларга мудараба модели, вақала модели, дастлабки иккита моделни бирлаштирган гибрид модели ва вақф-вақала-мудараба модели киради. Моделлар иштирокчиларнинг инвестиция фондлари ва иштирокчиларнинг риск фондларини бошқариш учун стандарт формулаларни ўз ичига олади. Такафул саноати жаҳон суғурта саноатига ўз ҳиссасини қўшишда давом этиш учун ўсиш ва бозорга янада кириб бориш учун муҳим салоҳиятга эга. У пайдо бўлишидан бошлаб, у йилдан-йилга доимий равишда ўсиб бормоқда ва дунё бўйлаб янги маҳсулотлар ва хизматларни таклиф этмоқда. Шу сабабли ҳам мамлакатимизга суғуртанинг исломий кўринишини жорий қилиш ва тадбиқ қилиш Ўзбекистон суғурта тизими учун жуда муҳим ҳисобланади. Мамлакатимиз аҳолисининг асосий қисмини мусулмонлар ташкил қилганлиги учун ҳам бу тизимни жорий қилиш кўзланган натижаларни олиб келади.

TDIU TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI 1937
KS KAFIL BUGUNGI

СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА АУДИТИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА АУДИТ ЎТКАЗИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Бахадиров Алишер Комилович, Phd
ТИҚХММИ МТУ «Бухгалтерия ҳисоби ва аудит» кафедраси катта ўқитувчиси

Суғурта ташкилотларида аудит ўтказишнинг умумий аудит режаси ва аудит ишчи дастури тузилишини такомиллаштириш суғурта ташкилотларида аудитни халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш келтириб ўтилган.

Ҳозирги кунга келиб, кўпгина суғурта корхоналарда бухгалтерия дастури мавжуд ва бу дастур орқали молиявий ҳисоботларнинг тузилиши ва бухгалтерия ўтказмалари олиб борилади. Бундай бухгалтерия дастури мавжуд корхоналарда аудиторлик текширувини ўтказишда жуда қулай ва тез амалга ошириш учун хизмат қилади.

200-сонли «Мустақил аудиторнинг халқаро стандартларга мувофиқ умумий вазифалари ва аудиторлик текширувини ўтказиш» «Мустақил аудиторнинг умумий мақсадлари ва аудитни халқаро стандартларга мувофиқ ўтказиш» номли АХС тушунтириш материалларини таҳлил қилиш аудитнинг самарадорлиги жиҳатидан натижаларининг ишончлилиги ва уларни олиш харажатлари нисбати сифатида тушунилади. Шундай қилиб, аудитнинг самарадорлигини таъминлаш

KS KAFIL BUGUNGI

аудитни ўтказишнинг оқилона баҳосида унинг юқори ишончлилигини (қабул қилинган кам аудиторлик рискини) таъминлаш ҳисобланади.

300-сонли «Аудитни режалаштириш» АХСга кўра, аудитор аудитнинг кўлами, вақти ва йўналишини белгиловчи умумий аудит стратегиясини белгилаши ҳамда тасдиқлаш даражасида аудиторлик тартибларининг тавсифини ўз ичига олган аудит режасини ишлаб чиқиши ва уни ҳужжатлаштириши лозим.

Аудитнинг умумий режасини ишлаб чиқишда аудит гуруҳ раҳбари ва гуруҳ аъзоларининг ишлари доирасини белгиловчи вазифа параметрлари аниқланади, аудитнинг вақти, ташкилот бошқаруви ва эгасининг вакиллари билан ахборот ўзаро таъсирининг муомалаларини белгилайди, муҳим омилларни ўрганади ва вазифа учун тайёргарлик фаолиятини амалга оширади, вазифани бажариш учун зарур ресурсларнинг табиати, вақти ва миқдорини белгилайди, шу жумладан:

аудиторлик гуруҳи аъзолари танланади ва улар орасида ўз иш тажрибасидан келиб чиққан ҳолда мажбуриятлар тақсимланади;

моддий жавобгарлик ҳавфи юқори бўлган жойларни текшириш учун кўпроқ вақт ажратиш зарурлигини ҳисобга олган ҳолда, вазифани бажаришга вақт ажратиш учун бюджет яратилади.

Умумий аудит стратегиясини ҳужжатлаштириш борасида эса 300-сон «Аудитни режалаштириш» номли АХС аудитор учун аудитнинг кўлами, вақти ва услуби бўйича асосий қарорларни ҳужжатлаштириш лозимлиги тушунтирилади.

Суғурта корхоналарда аудитнинг халқаро стандартлари бўйича:

молиявий ҳисоботларни текширишда аудиторга қўйиладиган умумий талаблар 200-сонли «Мустақил аудиторнинг халқаро стандартларга мувофиқ умумий вазифалари ва аудиторлик текширувини ўтказиш» номли АХС;

аудиторлик топшириғининг шартлари эса, 210-сонли «Аудиторлик шартларини мувофиқлаштириш» номли АХС;

мижоз билан алоқаларни ўрнатиш ва сақлаб қолиш мумкин бўлган шарт-шароитлар таҳлили 300-сонли «Аудитни режалаштириш» номли АХС;

аудиторлик натижаларини расмийлаштириш эса, 700-сонли «Молиявий ҳисоботлар бўйича аудиторлик хулосаси» номли АХСга мувофиқ амалга оширилади;

Халқаро аудит стандартига мувофиқ аудит режаси аудитнинг умумий стратегияга нисбатан батафсилроқ таърифланади, умумий режада аудиторлар гуруҳи аъзолари томонидан бажариладиган аудит иш тартибларининг характери, вақти ва доираси кўрсатилади.

Суғурта ташкилотларда аудит жараёни аудитнинг халқаро стандартлари ва ушбу жараёнлар билан боғлиқ бир қатор параллель босқичларни кўзда тутади. Бу босқичларни амалга ошириш давомида хўжалик юритувчи субъектлар аудит гуруҳи ҳужжатлаштиришга тааллуқли ва ҳал қилиниши лозим бўлган асосий вазифаларни кўриб чиқади. Хўжалик юритувчи субъектларни аудит қилиш жараёнининг бошланғич босқичи ушбу корхона молиявий ҳисобот кўрсаткичларидан келиб чиққан ҳолда, аудитнинг халқаро стандартлари асосида аудит

режаси ва дастури ишлаб чиқишдан иборат.

Муаллиф томонидан хўжалик юритувчи субъектлар учун аудит режаси ва дастурининг такомиллашган шакли аудит жараёнида зарур бирламчи ҳужжатлар сифатида таклиф қилинган.

Аудитнинг халқаро стандартлари аудиторлик текшируви давомида аудитор фикрини асослаш учун ундан текширилаётган жавобгар шахсларнинг молиявий ҳисоботлари фирибгарлик ва хатолик туфайли ҳам моддий жиҳатдан эркин эканлигига оқилона ишонч ҳосил қилишни талаб қилади.

Хўжалик юритувчи субъектлар учун аудитнинг умумий режаси тасдиқланган, аудиторлик ташкилоти бу корхонанинг аудит гуруҳи билан инструктаж ўтказади. Бунда аудиторлик ташкилоти раҳбари суғурта корхонасининг молиявий ҳисоботларидаги кўрсаткичлар тўғрисида дастлабки маълумот беради ва хўжалик юритувчи субъектларнинг аудит жараёнида янада изчил эътибор беришга молик кўрсаткичларни айтиб ўтади. Мазкур аудитнинг мақсади ва аудиторлик рисклари бўйича алоҳида тўхталиб ўтади.

Суғурта ташкилотларда аудиторлик гуруҳи томонидан ишчи ҳужжатлар тўлдирилиб, корхона молиявий фаолияти тўлиқ ўрганиб чиқилгач, АХС 230 – «Муҳимлик ва рискларни баҳолаш» бўйича маълумотлар киритади. Ушбу йўналиш бошланишида муҳимлик даражаси асосий ўринга эга. Муҳимлик даражасини ҳисоблашда аудиторлар молиявий ҳисобот кўрсаткичларидан фойдаланадилар. Муҳимлик даражасининг суммаси аниқлангач, ушбу сумма суғурта корхонаси ва аудиторлик ташкилоти раҳбарлари томонидан тасдиқланиши лозим. Чунки ишлаб чиқилган яхлитланган муҳимлик даражаси бўйича аудиторлик хулосасининг модификациялашган ёки модификациялашмаган қисмини бериш эҳтимоли мавжуд.

Амалий аҳамиятлилик аудитор томонидан молиявий ҳисоботларнинг аҳамиятлилик даражасидан паст даражадаги миқдор ёки суммани англатади, чунки қабул қилинмаган ва аниқланмаган нотўғри маълумотларнинг умумий миқдори молиявий ҳисоботларнинг аҳамиятлилик даражасидан юқори бўлади.

Аудиторлик ташкилотлари томонидан ишлаб чиқилган муҳимлик даражаси меъёри ҳисоблаш методикаси бўйича ушбу жадвалда келтирилган:

Жадвалдан кўриниб турибдики, Суғурта ташкилотларда аудиторлик хулосаси берилаётганда жараёнда ушбу сумма камчиликлар йиғиндиси суммасига алоқадор ҳисобланади. Муҳимлик даражаси корхона раҳбарлари томонидан тасдиқлангач, аудиторлик гуруҳи томонидан алоҳида жиддий хатолик билан боғлиқ рискларни баҳолаш варақаси тўлдирилади, у алоҳида шунга таалуқли рисклар бўйича маълумотларни ўз ичига олади.

Суғурта ташкилотларда жиддий хатолик билан боғлиқ рискларни баҳолашда юрист ва ходимлар билан ишлаш бўлими ходимлари орасида оғзаки сўровнома ўтказиши орқали фактлар аниқланиши муҳим ҳисобланади.

Ҳар бир қатнашган аудиторлик гуруҳи аъзоси аудит жараёнида суғурта ташкилотидан олинган ҳар бир маълумотнинг махфийлигини сақлаш, суғурта ташкилотига афиллашган шахслар алоқадорлиги ва бошқа мажбуриятлар йўқлиги

тўғрисида маълумотномани тасдиқлаши зарур.

Аудит жараёнида муҳимлик даражасини аниқлаш

Кўрсаткичлар	**Базис кўрсаткичи-нинг қиймати, минг сўм**	**Мезон-лар, %**	**Топиш учун қўлланилувчи қийматнинг муҳимлик даражаси, минг сўм**
	1	**2**	**1 x 2 : 100**
Тушум		3,0 %	
Соф фойда		3,0 %	
Капитал ва захиралар		5,0 %	
Жами активлар суммаси		2,0 %	
Муҳимлик даражасини танлаш			
Омиллар сони			4
Муҳимлик даражаси			
Яхлитланган муҳимлик даражаси = Я$_{х}$МД			

Хўжалик юритувчи субъектларни аудит текширувини ўтказиш жараёнида асосий кўрсаткичлардан бўлган ҳар бир бирламчи ҳужжатни текшириб чиқиш мақсадга мувофиқ. Бу жараёнда асосий воситаларга боғлиқ шартнома, дебиторлик қарзлари бўйича шартномалар ва ҳисоб варақлар, ҳамда улар билан тасдиқланган солиштириш далолатномалари, хизмат кўрсатилаётган тижорат банкининг пул маблағлари бўйича қолдиқларни тасдиқловчи хужжат, уставга доир хамма хужжатлар, кредиторлик қарздорлари бўйича шартномалар ва ҳисоб варақлар, суғурта ташкилотларда ойлик иш хаки билан доир хужжжатлар ва шунга доир бирламчи ҳужжатларнинг ҳар бир банди синчковлик билан текширилиши лозим.

Хулоса қилиб айтганда, аудиторлик гуруҳи томонидан аудитнинг халқаро стандартларига асосан, Суғурта ташкилотларда аудиторлик текширувидан ўтказиш жараёнида ҳар бир бирламчи ҳужжатнинг молиявий ҳисоботлар билан ўзаро мослигини кўриб чиқиш мақсадга мувофиқ. Ҳамда аудиторлик жараёни бошланишидан олдин аудиторлик режаси ва дастурларини тўлиқ ишлаб чиқариш аудит ўтказиш жараёнини кескин қисқартириш ва енгиллаштиришга олиб келади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “2017 — 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини амалга оширишга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармойиши. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 7-сон, 88-модда)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.04.2007 йил 4 апрелдаги «Аудиторлик ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш ҳамда улар кўрсатаётган хизматлар сифати учун жавобгарликни ошириш тўғрисида»ги ПҚ-615-сонли Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 24 апрелдаги «Акциядорлик жамиятларида замонавий корпоратив бошқарув услубларини

жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-4720-сонли Фармони.
4. Сифат назорати, аудит, кўриб чиқиш, бошқа ишонч билдириш ва турдош хизматларнинг халқаро стандартлари тўплами, 2012, II қисм.- Т.:«Sano-Standart», 2014 ., 554 б.
5. Ahmadjonov K. Yakubov I. Audit asoslari. -T.: Молия. 2009. -288 б.
6. Материал из Википедии — свободной энциклопедии https://ru.wikipedia.org/wiki
7. https://www.ifac.org. – Халқаро бухгалтерлар федерацияси расмий сайт.
8. https://www.mf.uz. –Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг расмий сайти.

СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ

Бахриев Дилшод Ризвонкулович
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси мустақил изланувчиси

Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида республика корхоналарида халқаро стандартларга мувофиқ бўлган сифатни бошқариш тизимларини жорий этиш долзарб масала бўлиб келмоқда. Чунки ҳозирги глобаллашув шароитида истеъмолчи нафақат ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ва кўрсатилаётган хизматларни сифат сертификатга эга бўлишини, балки маҳсулотнинг сифати ва ишончлилигига ҳам кафолат талаб қилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномасида “2020 йилда халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботларни тузиш, захираларни қайта ҳисоблаш, корпоратив ошкоралик-ни татбиқ этиш каби ишларни якунлаш зарур” [1] деб такидладилар. Сўнги йилларда Ўзбекистон хизматлар бозори кўлами кенгайиб бормоқда, хизмат кўрсатиш соҳасида суғурта хизматларининг ўрни беқиёс. Миллий суғурта бозори барқарор ривожланиш тенденцияларини намоён этмоқда. Суғурта компанияларининг фаолиятида сифат ўзгаришлари юз бераяпти. Шу ўринда қайд этиш лозимки, суғурта бозорида рақобат муҳитининг кучайиши, суғурталовчилар томонидан юқори сифатли суғурта хизматлари кўрсатишни тақозо қилади. Суғурта хизматларининг сифат кўрсаткичларини ошишида сифатни бошқариш бўйича халқаро стандартлар ва нормаларнинг аҳамияти катта.

Ўзбекистон суғурта бозорида биринчилардан бўлиб “Ўзбекинвест” экспорт-импорт миллий суғурта компанияси 2004 йил январь ойида сифатни бошқариш тизими ISO 9001:2000 халқаро стандарти талабларига мос келишини тасдиқловчи сертификатни олди. 2011 йил февраль ойида эса мазкур компания сифатни бошқариш тизими “SGS Tashkent ltd” сертификация компанияси томонидан сифатни бошқариш тизими ISO 9001:2008 халқаро стандарти талабларига мос келишини тасдиқловчи сертификатни олди. 2016 йил компания сифатни бошқариш тизими ISO 9001:2015 халқаро стандарти талабларига мос

келишини тасдиқловчи сертификатни қўлга киритди. Бундан ташқари суғурта бозорининг энг йирик иштирокчиси “Ўзагросуғурта” ДАСК ва бошқа суғурта ташкилотлари хам бирин кетин сифатни бошқариш тизими халқаро стандартларини тасдиқловчи сертификат олишмоқда.

“Сифатни бошқариш тизими халқаро стандартларини тасдиқловчи сертификатни Ўзбекистонда Швейцариянинг “SGS Tashkent ltd” ташкилоти ва Чехиянинг “CERT International” ташкилотлари тақдим этишмоқда”[2]. Сифатни бошқариш тизими, замонавий тилда айтганда, сифат менежменти, ўзида бошқарувнинг меъёрий услубларини акс эттирувчи стандартларга асосланади. Унинг таъсири, ҳуқуқий кучга эга бўлган, меъёрий ҳужжатлар кўринишида шаклланадиган меъёр ва қоидаларни ўрнатиш йўли билан амалга оширилади.

Стандарт – маҳсулот сифатига қўйиладиган асосий талабларни ўзида акс эттирувчи техник-меъёрий ҳужжатдир. Сифатни бошқаришда техник шартлар қисман рол ўйнайди. Техник шартлар – бу давлат стандартларига қўшимча тарзда белгиланадиган, агар улар мавжуд бўлмаган тақдирда маҳсулот сифат кўрсаткичларига мустақил талаб қўя оладиган техник меъёрий ҳужжатдир.

Стандартлар маҳсулотнинг барча ҳаётийлик цикли босқичларида унинг сифатини оширишни режалаштириш тартиби ва услубларини белгилайди, сифатни назорат қилиш ва баҳолаш услублари ва воситаларга талабни белгилайди. Маҳсулот сифатини бошқариш давлат, халқаро, тармоқ ва корхона стандартлари асосида амалга оширилади.

Таклиф даражасининг талаб даражасидан ортиб кетиши, харидорлар учун рақобат курашининг олиб борилиши суғурталовчи ишлаб чиқараётган маҳсулотни баҳолай олиш имконини берувчи объектив кўрсаткичларни ишлаб чиқишни зарурият қилиб қўяди. Бунда шартнома амал қиладиган барча муддатларда суғурта маҳсулотларнинг сифат даражаси барқарор, муқаррар бўлиши керак. Суғурта компаниясида халқаро стандартларга мувофиқ келувчи сифат тизимининг мавжуд бўлиши барқарорлик кафолати бўлиб хизмат қилади.

“Халқаро стандарт ташкилоти (International Standart Organization - ISO) маҳсулотлар ёки хизматлар сифатини бошқариш бўйича стандартлар ишлаб чиқади. Халқаро стандарт ташкилоти 1946 йилда БМТ қоши даги стандартларни мувофиклаштириш бўйича қўмита йиғилишида дунё миқёсида халқаро товарлар алмашиниш ва ўзаро ёрдамни енгиллаштириш; интеллектуал, илмий, техник, иқтисодий фаолият муҳитида ҳамкорлик қилишни кенгайтириш мақсадида ташкил қилинди”[3].

Халқаро стандарт ташкилоти (International Standart Organization - ISO)нинг фаолият тури халқаро стандартларни ишлаб чиқиш ҳисобланади. ISO стандартлари кўллаш учун жуда қулай ҳисобланади. Миллий стандартлаштиришда улардан фойдаланиш сотув бозорини, экспортни кенгайтириш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишни қўллаб-қувватлаш имконини беради.

Стандартлаш бўйича халқаро ташкилот маҳсулотлар ва хизматларга қўйиладиган талабларни белгилайди ва ISO стандартларида 9000 сериясини

вужудга келтирди.

Сифатни бошқариш тизими халқаро стандарти - ИСО:9001да қайд этилган таърифга кўра, сифат тизими – бу сифатнинг умумий бошқарувини таъминловчи ташкилий таркиб, жавобгарлик, жараёнлар, процедура ва ресурслар тақсимотининг мажмуидир. Маҳсулотлар етказиб бериш бўйича контракт тузиш учун хорижлик харидор ишлаб чиқарувчида сифат тизимининг мавжудлигини ва бу сифат тизимига таниқли сертификатлаш органи томонидан берилган сертификатни кўрсатишни талаб килади.

“Сифат тизими суғурта компанияси олдига қўйилган мақсад ва белгиланган сиёсатни олиб боришни таъминловчи омил сифатида ташкил қилинади ва амалга жорий этилади. Суғурта компаниясининг сифат бўйича сиёсати компаниянинг юқори раҳбарияти томонидан ишлаб чиқилади”[4].

Сифат тизимида суғурта маҳсулоти истеъмолчиси ва суғурта компанияси фаолият олиб боради. Сифат муҳитида компания сиёсати ва мақсадини таъминлаш учун сифат тизимида:

- маркетинг, бозорни ўрганиш;
- техник талабларни лойиҳалаштириш ва ишлаб чиқиш;
- материал-техник таъминот;
- техник жараёнларни тайёрлаш ва ишлаб чиқиш;
- суғурта маҳсулотларини ишлаб чиқиш;
- назорат, синов ва тадқиқотлар ўтказиш;
- сотиш ва тақсимот;
- хизмат кўрсатишга техник ёрдам.

KS KAFIL SUG'URTA



1-расм. Сифат бўйича сиёсатни шакллантириш йўналишлари

Суғурта компанияси раҳбарлари сифат сиёсатини олиб боришда биринчи навбатда, уни шакллантириб олиш ва расмийлаштириши керак бўлади.

Суғурта компаниясида маҳсулот сифатини назорат қилувчи сифат хизмати бўлимини ташкил қилиш компанияда олиб борилаётган сифат бўйича барча фаолиятни мувофиқлаштиришга имкон беради. Сифат хизмати сифат бўйича

услубий таклифларни ишлаб чиқади. Бу хизмат тури фақатгина Бош директорга бўйсунади.

Суғурта компанияси раҳбарияти бу хизмат орқали, нафақат маҳсулот сифатининг ҳалқаро стандартларга жавоб беришини назорат қилиб боради, балки маҳсулот сифатини доимий равишда такомиллаштириб бориш имкониятига ҳам эга бўлади.

Суғурта компанияси раҳбари компанияда ташкил этилган сифатни бошқариш тизими оркин истеъмолчилар эҳтиёжини ва уларнинг маҳсулот сифатига қўядиган талабини ўрганади.

Маҳсулот сифаташнг аниқ стандартларга жавоб бермаслиги, бевосита уни ишлаб чиқиш жараёни аниқланиши мақсадга мувофиқ бўлади.

Суғурталовчи раҳбарлари маҳсулот сифатининг стандартдан четга чиқишини эмас, балки уни олдиндан аниқлашга ва бартараф этишга алоҳида эътибор қаратиши керак. Барча ходимлар, сифат бўйича ишларга жалб этилади. Бунинг учун ишчиларни рағбатлантириш бўйича чора-тадбирлар белгилаб олинади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 25 январь.
2. Опыт внедрения системы менежмента качества на базе международного стандарта ISO 9001:2000 в компании. Халқаро Ҳамкорлик Маркази//Менежмент сегодня, №1, 2014.
3. ISO в Узбекистане. Перспективы и проблемы внедрения. "Отечественный рынок сертификации ISO". КОММЕРСАНТ.UZ
4. http://www.iso.uz/

КОРХОНАЛАРДА ИННОВАЦИОН МУҲИТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ УЛАРНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Бобобеков Эргаш
ТДИУ мустақил изланувчиси

Ҳозирги кунда дунёнинг аксарият ривожланган давлатлари ўзларини белгилаб қўйган инновацион билимга асосланган иқтисодиётга ўтиш вазифаси ва унда илмий-техникавий фаолият натижаларини яратиш, узатиш ва улардан фойдаланиш барқарорликнинг асосий шартлари ҳисобланади.

Мутахассисларнинг таъкидлашича жаҳон ва миллий иқтисодиётнинг барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда иқтисодиётни инновацион ривожлантириш устувор аҳамият касб этмоқда. Ривожланган мамлакатлар ялпи ички маҳсулотининг 70-90 фоизи айнан инновация фаолиятини ривожлантириш ҳисобига яратилмоқда[46]. Чунки дунё бозорида юқори технологиялар асосида

[46] https://theworldonly.org

ишлаб чиқилган илмий ҳажмдор маҳсулотлар улушида салмоғи юқори мамлакатлар ўртасидаги рақобат тобора кучайиб бормоқда.

Ўзбекистонда ҳам таркибий ўзгаришларни изчил амалга оширишда қулай инновацион муҳитнинг яратилиши муҳим устувор йўналишлардан бири бўлиб келмоқда. Бу борада мамлакатимиз олдида турган муҳим масалалардан бири ҳозирги иқтисодиётнинг глобаллашув кўлами тобора кенгайиб бораётган бир шароитда ҳар қандай конъюнктуравий ўзгаришларга қарши тура оладиган, ички ва ташқи бозор талабларига тезлик билан мослаша олувчи рақобатбардош миллий саноат тармоқларини шакллантиришимиз долзарб аҳамиятга эга.

Чунки миллий саноатнинг барқарор ва мутаносиб ривожланиши ва жаҳон бозорида мустаҳкам ўрин эгаллаши ҳисобидан аҳолининг турмуш даражаси ва фаровонлигини янада ошириш олиб борилаётган кенг кўламли ислоҳотларнинг асосий вазифаларидан ҳисобланади. Бунинг учун албатта иқтисодиётдаги инновацион фаолликни оширишимиз зарур бўлади. Бунга инновацион муҳитни шакллантириш орқали эришишимиз мумкин.

Инновацион муҳит – бу мамлакатда фаолият кўрсатаётган ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш корхоналарида инновацион жараёнларга таъсир кўрсатувчи меъёрий-ҳуқуқий, сиёсий, иқтисодий, молиявий, техник, ижтимоий ва бошқа шарт-шароитлар мажмуидир[47].

Инновацион муҳит энг аввало қуйидаги иқтисодий омиллар орқали белгиланади, яъни ишчи кучи малакаси; илмий тадқиқот билан шуғулланаётган ходимлар сони; ўртача иш ҳақи даражаси; мамлакатнинг инвестицион жозибадорлиги; ишлаб чиқаришга замонавий технологияларни қўллаш фаоллиги; инновацион инфратузилманинг ривожланганлик даражаси ва ҳ.к.

Мамлакатимиз мустақилликка эришганидан буён иқтисодиётимизда инновацион муҳитини яратиш давлатимиз иқтисодий сиёсатининг марказий масалаларидан бири бўлиб келмоқда. Жумладан, сўнгги йилларда бу борада реал сектор тармоқларида инновацион жараёнларни фаоллаштиришга қаратилган бир қатор чора-тадбирлар ишлаб чиқилди[48]. Мазкур фармонларда илғор хорижий тажрибалар, жаҳон фанининг замонавий ютуқлари, инновацион ғоялар, ишланмалар ва технологиялар асосида иқтисодиётнинг барча тармоқлари ва ижтимоий соҳани жадал инновацион ривожлантиришни таъминлаш вазифаси юклатилди.

Чунки инновацион салоҳияти юқори бўлган давлатларда илмий ҳажмдор маҳсулотлар ишлаб чиқариш бевосита корхоналарга юқори технологияларни жорий этиш, турли илмий текшириш институтлари, олий таълим муассасалари, йирик корхоналар ҳамда тажриба-конструкторлик ташкилотлари, тажриба-конструкторлик ва кичик инновацион марказлар томонидан илгари сурилган инновацион ғояларни корхоналар орқали амалиётга татбиқ этилади. Бунда

[47]Расулов Н.М. Ўзбекистонда қулай инновацион муҳитни шаклланиши ва ривожланишининг назарий асослари. Стратегическое планирование – важный фактор стабильности устойчивого социально-экономического развития страны и регионов. Материалы XI Форума экономистов.-Т.2019, 186-193 стр.

[48] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сон ҳамда 2023 йил 11 сентябрдаги “Ўзбекистон - 2030” стратегияси тўғрисидаги ПФ-158-сон Фармонлари

бевосита корхоналардаги мавжуд инновацион муҳит катта рол ўйнайди. Корхоналарда инновацион ғояларни шакллантириш, уларни қўллаб-қувватлаш ва амалга оширишда бевосита инновацион муҳитнинг ўрни салмоқлидир. Корхоналардаги инновацион ғояларни тижоратлаштириш учун албатта корхонанинг инновацион муҳити шаклланган ва инновацион салоҳияти юқори бўлиши лозим. Бунинг учун хориж амалиётида мазкур масала билан боғлиқ тадқиқотларнинг илмий-назарий талқинига катта эътибор қаратиш, мамлакатимиз шароитларига мос услубиётлардан фойдаланиш талаб этилади.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотларнинг якуний натижаси саноат корхоналарида мавжуд инновацион салоҳиятни баҳолаш, инновацион лойиҳаларни ишлаб чиқариш жараёнига татбиқ этиш учун инновацион муҳитни яхшилаш лозим. Бунинг учун бевосита ишлаб чиқариш, фан ва таълим ўзаро интеграциясини яхшилаш зарур. Бунинг учун бизнинг фикримизча, қуйидаги омилларга эътибор қаратиш лозим:

- таълим;
- илм-фан;
- инсон капитали;
- инновацион инфратузилма;
- корхоналарнинг инновацион фаоллиги;
- корхоналардаги инновацион салоҳият.

Мазкур омилларни ҳисобга олиниши натижасида миллий корхоналарда инновацион муҳитни сезиларли даражада ортишига олиб келади. Бу эса корхоналарда инновация жараёнларини янада фаоллашувига, инновацион муҳитни яхшиланиши ва корхоналарнинг инвестицион жозибадорлиги билан боғлиқ муаммоларни ҳал этилиша олиб келади.

СУҒУРТА КОМПАНИЯЛАРИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Бобоқулова Шахзода Икром қизи
Тошкент давлат иқтисодиёт
университети талабаси

Суғурта ташкилотлари бошқа молиявий институтлар, хусусан, банклар, инвестиция компаниялари, лизинг ташкилотлари билан бир қаторда молиявий тизимнинг асосий буғинларидан бири ҳисобланади. Барча молия институтларининг умумий хусусияти шундаки, уларнинг ҳар бири махсус пул жамғармаларининг шаклланиши ва уларни бошқариш билан шуғулланади. Бироқ, фаолият йўналишлари бўйича молия институтлари бир-биридан фарқ қилади.

Суғурта ташкилотларида молиявий ресурсларнинг шаклланиши қуйидаги ҳолатлар билан боғланган:

✓ Суғурта тадбиркорлик фаолиятининг муҳим шакли сифатида суғурта муносабатлари иштирокчиларининг рискларини молиялаштиришга

ихтисослашган;

✓ Суғурта ҳимоясини тақдим этиш мақсадида ўзига хос хусусиятга эга бўлган махсус пул жамғармалари шаклланади, унинг асосида рисклар трансфери ётади;

✓ Суғурта ташкилотининг молиявий ҳолати техник суғурта рисклари ва инвестиция рискининг таъсирига берилувчи кўплаб омилларга боғлиқ.

Қуйида суғурта ташкилоти молиявий ресурсларининг шаклланиши жараёни келтирилган (1-расмга қаранг).

Суғурта ташкилотини таъсис этиш жараёнида ўз маблағлари шаклланишининг асосий ва ягона молиявий манбаси устав капитал ҳисобланади.



1-расм. Суғурта ташкилоти молиявий ресурсларининг шаклланиши[49]

Суғурталовчи ваколатли давлат органи томонидан ўрнатилган тартибда маълум миқдордаги ўз маблағларига эга бўлиши лозим. Ўзбекистон Республикасининг “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги Қонуни 12-моддасида суғурталовчиларнинг устав фондига муайян талаблар белгиланган. Бунга қуйидагиларни кўрсатиб ўтиш мумкин: “Суғурталовчилар устав фондининг энг кам миқдори Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади. Суғурталовчи устав фондининг камида 90 фоизи муассисларнинг (иштирокчиларнинг) пул маблағларидан шакллантирилади. Суғурталовчининг устав фондини шакллантириш учун кредитга, гаровга олинган маблағлардан ва бошқа жалб қилинган маблағлардан фойдаланишга йўл қўйилмайди. Суғурталовчининг устав фонди лицензия олинадиган пайтга қадар суғурталовчининг муассислари томонидан тўланган бўлиши керак”.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, суғурталовчи молиявий ресурсларининг катта қисми жалб этилган маблағлар ҳисобидан шаклланади. Суғурталовчи томонидан суғурта хизматларини кўрсатиш эвазига суғурталанувчи тўлайдиган

[49] Лукарш Г. Теория и практика страхования: учебник. – М.:«Анкил», 2021. – С. 180 – 185

суғурта мукофотларининг салмоқли қисми суғурта захираларида сақланади. Ўз навбатида захирадаги пул маблағлари суғурта ҳодисаси содир бўлиши оқибатида етказилган зарарларни қоплаш учун ишлатилади. Шунингдек, келиб тушган суғурта мукофотларининг муайян қисми суғурталовчининг иш юритиш харажатларини молиялаштиришга сарфланади.

Суғуртага йирик рискларни қабул қилиш, баъзан, суғурталовчиларнинг ўз зиммасига олган мажбуриятларини ўз вақтида бажара олмаслик ҳолатини юзага келтиради. Шу сабабли, суғурта компаниялари тўлов қобилиятини меъёрида сақлаш учун қайта суғурта механизмидан фойдаланади. Қайта суғурта суғурталовчи томонидан қабул қилиб олинган рискнинг маълум бир қисмини тегишли қайта суғурталаш шартномаларига асосан ихтисослашган қайта суғурта компаниясига ёки чиқувчи қайта суғурта операцияларини амалга ошириш ҳуқуқига эга суғурта компанияларига узатади.

Суғурталовчининг молиявий ресурслари шаклланишининг муҳим манбаларидан бири бу суғурта компанияси томонидан инвестиция фаолиятини амалга ошириш ҳисобланади. Суғурта компанияларига инвестиция фаолияти билан шуғулланиш ҳуқуқи қонун асосида белгиланган. Масалан, Ўзбекистон Республикасининг “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги Қонуни 61-моддасида суғурталовчиларнинг махсус ваколатли давлат органи белгилайдиган тартибда ва шартларда инвестиция фаолиятини амалга ошириш мумкинлиги қайд этилган.

Суғурталовчининг инвестиция фаолиятидан олган даромадлари унинг молиявий барқарор фаолият кўрсатишининг асоси ва иқтисодиётнинг пул маблағларига бўлган эҳтиёжини қаноатлантирувчи асосий омиллардан биридир. Суғурталовчининг молиявий ресурслари суғурта шартномаси тузилган пайтдан бошлаб то суғурта қопламаларини тўлаш билан боғлиқ ўз мажбуриятларини бажаришни, шунингдек, инвестиция фаолиятини амалга ошириш, иш юритиш харажатларини молиялаштиришни амалга ошириш учун зарур бўладиган пул даромадлари ва тушумларини ўзида акс эттиради. Суғурта ташкилоти молиявий ресурсларининг ҳажми ва тузилиши суғуртага қабул қилинган рискларнинг ҳажми ва тузилишига мос келиши лозим.

Маълумки, суғурта компаниялари уларга ўз маблағларини қўшиши мумкин бўлган инвестиция лойиҳалар тўплами сармоя бозорининг ривожланиш даражасига боғлиқ. Ҳозирги пайтда суғурталовчиларнинг вақтинчалик бўш турган маблағлари тижорат банклари депозитларига, қимматли қоғозларга жойлаштирилиши, корхона ва кўчмас мулкларга инвестиция қилиниши мумкин. Инвестицион портфел таркиби ва тизимини тартибга солиш одатда киритилган маблағларнинг турлари бўйича минимум ва максимумни белгилаш йўллари орқали амалга оширилади.

ЎЗБЕКИСТОНДА ТЎЛОВ ТИЗИМИНИ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ

Гаипов Жасур Бахром ўғли
ТДИУ, и.ф.ф.д. (PhD)

Аҳаджонов Нодирбек Абдурашид ўғли
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси магистранти

Ўзбекистонда тўлов тизимининг шаклланиши 4 босқичда ривожланиб келмоқда. Биринчи босқич 1991-1995 йиллар, иккинчи босқич 1995-1998 йиллар, учинчи босқич 1998-2002 йиллар ва тўртинчи босқич 2002 йилдан то ҳозирги вақтга қадар. Собиқ иттифоқ давлатлари орасида энг самарали ва жаҳон талаблари даражасида деб ҳисобланган республика тўлов тизимининг ривожланиши тўрт босқичга бўлинади:

1-босқич - 1991 йил. Вилоятлар ичида ҳисоб-китоблар почта ва ташувчилар орқали ягона ҳисоблаш марказида амалга оширилади. Бу жараён бир ҳафтани ташкил этар эди. Вилоятлараро ҳисоб-китоблар ҳам почта орқали авизо ҳужжатлари асосида амалга оширилган. Бунда маблағлар бир мижознинг ҳисобварағидан иккинчи мижознинг ҳисобварағига бир ойдан икки ойгача бўлган муддат мобайнида келиб тушар эди.

1993 йил шу йили қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг "Ахборотлаштириш тўғрисида”ги Қонунини бажариш юзасидан Марказий банкда ва унинг ҳудудий Бош бошқармаларида ахборотлаштириш бошқармаси ва бўлимлари ташкил этилди. Банклараро махсус ажратилган алоқа каналлари вазифасида электрон тўлов тизимини ишга тушириш борасида иш олиб борилди. Республика банк тизимини ахборотлаштириш концепцияси ишлаб чиқилди.

1994 йил 18 март куни қабул қилинган Вазирлар Маҳкамасининг 146-сонли “Банк тизимини такомиллаштириш, пул-кредит муносабатларини барқарорлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорига мувофиқ, Марказий банк тизимида электрон почталарни жорий этишни октябрга қадар тугаллаш вазифаси юклатилди. Шунингдек, Қарорда республика банк компьютер тизимини яратиш учун зарур валюта маблағларини ажратиш ҳам кўрсатилди.

13 июль куни Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикаси банк тизимини молиявий қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарор қабул қилинди. Унга асосан банклар қатор солиқлардан озод қилинди ва бўшаган маблағларни ўз фаолиятини компьютерлаштиришга сарфлаш шарт қилиб қўйилди. Мазкур Қарорларга биноан тижорат банкларининг бўлимлари компьютерлаштирила бошланди ва улар электрон тўлов тизимига қўшиб борилди.

Республика банк тизимида бухгалтерия ҳисоб-китобларни ва банк амалий иш кунини умумий бир кўринишга келтириш учун зарур ишлар амалга оширилди. Марказий банк қилинган бу ишлар билан чекланиб қолмасдан ўзининг мутахассислари кучи билан электрон тўлов тизими амалий дастурини республика миқиёсида тадбиқ этиш устида ҳам тинимсиз иш олиб борди ва 1995 йил учун замин яратди.

2-босқич - 1995 йил. Апрел ойида Марказий банк Жаҳон банки маблағлари ҳисобидан Ўзбекистон Республикаси банкларарo тўлов тизимини такомиллаштиришга йўналтирилган ҳалқаро танлов тендер эълон қилди.

Марказий банкда ташкил этилган электрон тўлов тизимини яратиш ишчи гуруҳи ўтган йиллардан олинган тажрибалар ва хулосалар, шунингдек жаҳоннинг илғор давлатлари ютуқларини ўрганиш ва таҳлил қилиш асосида электрон тўлов тизими технологиясини яратдилар. Эски тизим 19 августдан бошлаб янги технология билан алмаштирила бошланди. Бу пайтга келиб Марказий банк тизимида ҳисоб-китоб марказлари ташкил этилди ва тижорат банкларига электрон тўлов бўйича хизмат кўрсатила бошланди. Янги технологияга ўтила бориши сабабли йилнинг охиригача республикада 2 тизим: электрон почта ва электрон тўлов тизимлари ишлаб турди. Йил охирига келиб эса барча тижорат банклари Марказий банкнинг ҳисоб-китоб марказлари, клиринг марказлари электрон тўлов тизимига қўшилди.

1997 йил Республика банк тизимида янги ҳисоб тизими режасига ўтилиши тижорат банклари ва Марказий банк тўлов тизими туб бурилиш ясади. Электрон тўлов тизимининг мавжуд амалий дастури ривожлантирилиб, тизимнинг катта ўтказиш қобилияти ва ҳужжатларнинг юқори тезликда қайта ишланиши (ҳудудлараро ҳисоб-китоблар - 15 дақиқада, битта ҳудуд ичидаги ҳисоб-китоблар эса – 3-5 дақиқада) пул маблағлари айланишини жиддий оширди. Бу эса республика хўжалик юритувчи субъектларининг фаолиятига ижобий таъсир этди, банкларга вақтинча бўш турган маблағлардан самарали фойдаланиш ва кредит хавф-хатари даражасини ҳамда ликвидлилик хавф-хатарини тезкорликда бошқариш имконини берди.

3-босқич - 1998 йил. Марказий банк билан Жаҳон банки ўртасида 1998 йил декабр ойида “Республика молия соҳасини ривожлантириш” учун заём ажратиш тўғрисида шартнома имзоланди. Бу лойиҳа беш компонентга бўлиниб, шулардан тўртинчи компонент ўз ичига қуйидаги масалаларни олади:

– тўлов тизимини такомиллаштириш;
– бошқариш учун ахборот тизимини яратиш;
– банк телекоммуникация тизимини ривожлантириш;
– ахборот тизими муҳофазасини яратиш.

Юқорида келтирилган масалалар бўйича тадбирларни ниҳоясига етказиш 2003 йилнинг иккинчи ярмига мўлжалланган бўлиб, ҳар бир масала бўйича ривожланиш йўллари тижорат банклари билан биргаликда аниқланди ва чет эл экспертларининг хулосалари олинди.

4-босқич - 2002 йил. Тўловларни реал вақтда ўтишини таъминлаш ва тижорат банкларига ягона вакиллик ҳисобвараги орқали хизмат кўрсатиш бўйича технология танланиб, ушбу бўйича техник топшириқ, ишлаб чиқилди ва банкларарo тўловларни ягона вакиллик ҳисобвараги орқали ўтказиш ҳамда банкларда ахборотлаштирилган ахборот тизимини ташкил этиш бўйича дастур яратилди. Тижорат банкларининг банкларарo тўловларни ягона вакиллик ҳисобвараги орқали амалга ошириш тизимига ўтиши 2002 йилнинг июн ойидан бошланди.

2004 йил Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2004 йил 24 сентябрда қабул қилинган “Пластик карточкалар асосида ҳисоб-китоб қилиш тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 445–сонли Қарори билан ушбу тизимни кенгайтириш борасидаги илк режа кўрсаткичлари, шунингдек тўловларни пластик карточкалар орқали қабул қилиш терминаллари билан жиҳозланадиган объектлар рўйхати тасдиқланди. Шу билан бир қаторда, мазкур қарорга мувофиқ мамлакатда Ягона умумреспублика процессинг маркази ташкил этилди. Мазкур қарорга мувофиқ, барча тижорат банклари пластик карточкалар тизимида иш олиб борилишига замин яратилди.

2006–2012 йиллар барча тижорат банкларида (ДТ Халқ банкидан ташқари) ягона баланс тизимини жорий этилди. Давлат тижорат Халқ банкида ягона баланс технологиясига асосланган тизимни жорий этиш ишлари босқичма-босқич олиб борилиб, 2008 йил 24 ноябрида тўлиқ ишга туширилди. Бундан ташқари, Марказий банкнинг Интеграллашган ахборот-таҳлилий тизими (ИАТТ) 2009 йил май ойида яратилиб, унда тижорат банклари томонидан 58 та талабнома асосида Марказий банкнинг маълумотлар омборхонасида маълумотларни жамлаш, назорат қилиш, ҳисобини юритиш, қайта ишлаш, шакллантириш ва сақлаш жараёнларини автоматлаштириш ишлари амалга оширилди. Ҳозирги кунда ИАТТ таркибига Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг Интеграллашган автоматлаштирилган банк тизими, Кредит ахбороти миллий институти ахборот тизими, Ягона вакиллик ҳисобварақлар ҳисоб-китоб маркази,

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг миллий ахборот-коммуникация тизимларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1989-сонли қарори билан республика “Электрон ҳукумат” тизимининг комплекс ахборот тизимлари таркибига Марказий банкнинг “Чакана тўловларни реал вақт режимида амалга ошириш клиринг тизимини яратиш ҳамда хизмат кўрсатувчиларнинг биллинг тизими билан интеграллаш” лойиҳаси ҳам киритилган бўлиб, мазкур Клиринг тизими амалиётга татбиқ этилди.

Ушбу тизимни яратишдан мақсад унга тижорат банклари филиаллари, кассалари ва Ўзбекистон банклари ассоциацияси қошидаги Ягона умумреспублика Процессинг марказини улаган ҳолда, жисмоний шахсларга солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни, шунингдек коммунал хизматлар ва мобил алоқа операторлари учун тўловларни реал вақт режимида амалга ошириш имкониятини яратишдан иборат. Шунингдек, мазкур тизим мижозларга кунутун банк ҳисобварақларига масофадан хизмат кўрсатиш ва банк инфокиосклари орқали ишлаш имкониятини берди.

2013–2014 йиллар. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2013 йил 27 июндаги “Ўзбекистон Республикасининг миллий ахборот-коммуникация тизимларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-1989-сонли қарори билан республика “Электрон ҳукумат” тизимининг комплекс ахборот тизимлари таркибига Марказий банкнинг “Чакана тўловларни реал вақт режимида амалга ошириш клиринг тизимини яратиш ҳамда хизмат

кўрсатувчиларнинг биллинг тизими билан интеграллаш” лойиҳаси ҳам киритилган бўлиб, мазкур Клиринг тизими амалиётга татбиқ этилди.

Ушбу тизимни яратишдан мақсад унга тижорат банклари филиаллари, кассалари ва Ўзбекистон банклари ассоциацияси қошидаги Ягона умумреспублика Процессинг марказини улаган ҳолда, жисмоний шахсларга солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни, шунингдек коммунал хизматлар ва мобил алоқа операторлари учун тўловларни реал вақт режимида амалга ошириш имкониятини яратишдан иборат. Шунингдек, мазкур тизим мижозларга куну-тун банк ҳисобварақларига масофадан хизмат кўрсатиш ва банк инфокиосклари орқали ишлаш имкониятини берди.

1-жадвал

Банк депозитлари миллий ахборотлар базасида рўйхатга олинган мижозлар ва улар ҳисобварақларининг сони бўйича 1 январь ҳолатига маълумот[50]

Йил	Мижозлар сони	Ҳисобварақлар сони
1997	187 415	206 514
1998	245 481	291 682
1999	270 434	291 034
2000	313 204	301 861
2001	383 090	416 713
2002	441 786	575 496
2003	515 203	751 175
2004	583 889	1 488 270
2005	656 137	2 007 607
2006	732 944	2 561 658
2007	849 819	3 206 841
2008	950 848	3 329 601
2009	1 026 844	3 327 260
2010	1 100 541	3 612 506
2011	1 159 890	3 926 356
2012	1 224 732	4 207 601
2013	1 285 424	4 289 556
2014	1 359 831	4 622 770
2015	1 432 849	5 030 704
2016	1 515 004	5 364 838
2017	1 638 673	5 809 172
2018	1 755 492	6 469 921
2019	1 880 634	7 263 621
2020	2 094 262	7 740 964

Шу билан бирга, “Ўзкарт” банкларароро чакана тўлов тизими фаолиятини тартибга солиш ва унинг фаолиятини самарали ташкил этиш мақсадида, Марказий банк ҳузуридаги Ахборотлаштириш Бош марказида “Банкларароро

[50] www.cbu.uz - Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий сайти маълумотлари

универсал неттинг ахборот тизими” дастурий мажмуаси ишга туширилиши муносабати билан “Ўзкарт” тизимида Ҳисоб-китобларни амалга оширувчи банк вазифалари Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият Миллий банкининг Банклараро ҳисоб-китоб марказидан Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг Ҳисоб-китоблар марказига ўтказилади.

2015-2019 йиллар. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 19 сентябрдаги “Миллий тўлов тизимини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–3945-сонли қарорига асосан Миллий банклараро процессинг маркази 2018 йилнинг IV-чорагида ташкил этилди ва “Humo” тўлов тизими 2019 йилнинг I-чорагидан бошлаб ишга туширилди.

Мазкур чакана тўлов тизимининг ишга туширилиши банк карталарига асосланган чакана тўлов хизматларини кўрсатиш соҳасида рақобат муҳитининг шаклланишига, иқтисодиётда нақд пулсиз ҳисоб-китоблар кўламининг сезиларли даражада ошишига ҳамда банк карталарига асосланган чакана тўлов тизимлари фаолияти билан боғлиқ хатарларнинг камайишига хизмат қилади.

2019 йил давомида хўжалик субъектларининг тўловларини туну кун (24/7) режимида ўтказилишига шарт-шароит яратиш мақсадида 2019 йил давомида Марказий банк ҳузурида халқаро талабларга мос келадиган Маълумотларни қайта ишлаш марказини яратиш бўйича кенг қамровли тайёргарлик ишлари олиб борилди. Тўловларнинг 24/7 режимида ўтказилишини таъминловчи янги Тезкор тўловлар тизимини жорий қилиш юзасидан пилот лойиҳасини амалга ошириш ишлари бошланди.

Мазкур Тезкор тўловлар тизими 2020 йилнинг I-чорагида ишга туширилган бўлиб, унга барча тижорат банкларининг уланиши таъминланди. Бунинг натижасида масофадан хизмат кўрсатиш тизимларидан фойдаланувчи корхона ва ташкилотлар ҳам худди аҳоли каби ўз тўловларини туну кун реал вақт режимида, яъни тижорат банклари филиал ва шахобчалари иш вақтидан ташқари ва дам олиш кунлари ҳам амалга ошириш имкониятига эга бўлди.

Тўлов тизимини ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар билан бир қаторда, унинг меъёрий-ҳуқуқий базасини такомиллаштиришга ҳам алоҳида эътибор қаратилди. Бу борада хорижий давлатларнинг илғор тажрибасини, халқаро меъёр ва қоидаларни чуқур ўрганиш асосида Ўзбекистон Республикасининг “Тўловлар ва тўлов тизимлари тўғрисида”ги Қонуни ишлаб чиқилди ва 2019 йил 1 ноябрда тасдиқланди.

Ушбу Қонун тўловлар ва тўлов тизимлари соҳасида ягона ахборот ва ҳуқуқий муҳитни яратиш, Марказий банк томонидан тўлов хизматлари бозорини, тўлов тизимларининг фаолият юритишини, тўлов тизимлари операторлари ва тўлов хизматларини кўрсатувчиларнинг фаолиятини самарали тартибга солиш, тўлов хизматларининг оммабоплиги ва шаффофлигини ошириш, шунингдек, электрон пуллар соҳасидаги муносабатларни ва электрон пуллар тизими иштирокчилари фаолиятини тартибга солиш борасида меъёрий-ҳуқуқий база бўлиб хизмат қилади.

Хулоса қилиб айтганда, чакана тўловларни реал вақт режимида амалга

ошириш Клиринг тизими ПҚ-1989-сонли қарори билан белгиланган муддатларда ишга туширилган бўлиб, ҳозирги вақтда банк тизими томонидан ушбу ахборот тизимини такомиллаштириш ва рақамлаштириш доирасида ишлари олиб борилмоқда.

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ СТРАХОВЫХ УСЛУГ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

Гуломова Комилахон Фозил кизи,
магистрант Банковско-финансовая академия Узбекистана

Страхование играет ключевую роль в экономических системах развитых стран, и для продвижения национальной экономики необходимо разработать эффективную систему страховой защиты. Это включает в себя внедрение новых видов страхования, использование современных страховых технологий и повышение качества предоставляемых страховых услуг. Также необходимо совершенствовать методы и формы надзора в сфере страхования. Страховая отрасль может способствовать социально-экономическому развитию страны через использование ресурсов страховых компаний для укрепления финансовой системы и сферы инвестиций. [1]

В большинстве стран Западной Европы существует социальное страхование, которое обеспечивает социальную защиту населения и оказывает помощь людям, находящимся в бедности. Однако системы социального страхования и социальной помощи различаются от страны к стране. Они могут быть разделены на четыре основные группы:

1. В первой группе стран, таких как Германия, Франция и Бельгия, преобладают страховые принципы социальной защиты. Размеры выплат и пособий зависят от индивидуальных страховых взносов, которые вносят наемные работники в страховой фонд. Эти взносы дают право наемным работникам получать помощь в соответствии с их страховыми взносами.
2. Во второй группе стран страховые принципы социальной защиты менее выражены, и размеры пособий и выплат более согласованы с индивидуальными потребностями населения. Финансирование в основном происходит из налоговых фондов.
3. Страны третьей группы занимают промежуточную позицию между первыми двумя.
4. В четвертой группе страны только формируют системы социальной защиты населения.

Таким образом, в развитых странах существует разнообразие подходов к социальному страхованию и социальной защите населения, которые могут быть адаптированы в зависимости от конкретных потребностей каждой страны также важно учесть, что в большинстве случаев размер выплат из страхового фонда зависит от заработной платы и связан с тем, сколько было накоплено через

страховые взносы работающего и работодателя. Однако, есть исключения, такие как расходы на медицинское обслуживание и семейные пособия. Основной целью этой системы является поддержание уровня жизни человека в случае болезни, инвалидности или потери работы, путем перераспределения доходов на протяжении его жизни.

В странах первой группы, таких как Германия, Франция и Бельгия, государство берет на себя обязательства перед гражданами, чтобы гарантировать, что доходы любого гражданина не опустятся ниже уровня гарантированного минимума, независимо от их предыдущего дохода и взносов в страховой фонд. Эти выплаты осуществляются из общенационального бюджета. Здравоохранение финансируется в основном за счет страховых взносов, но минимальное медицинское обслуживание гарантировано из бюджета. Медицинское обслуживание в основном предоставляется частным сектором с последующим возмещением расходов граждан государством. [2]

В Германии предлагаются следующие виды страховых услуг:

1. Krankenversicherung – медицинское страхование.
2. Haftpflichtversicherung – страхование личной ответственности и несчастных случаев.
3. Hausratversicherung – страхование имущества внутри квартиры от пожаров, наводнений и других рисков.
4. Glasversicherung – страхование разбитых окон.
5. Автострахование – Kfz-Versicherung.
6. Rechtsschutzversicherung – страхование по закону для покрытия расходов на судебные дела.
7. Risiko-Lebensversicherung – страхование жизни, которое часто используется при вступлении в брак или появлении детей.
8. Unfallversicherung – это вид страхования, который поможет покрыть расходы в случае несчастных случаев, а также в случае инвалидности после таких событий.
9. Wohngebäudeversicherung – данный вид страхования предназначен для квартир или зданий, в которых живет человек. Он покрывает стены, крышу и подвал. Обычно страховка не распространяется на стены, подвалы и крыши, где проживает клиент.

В Узбекистане страховой рынок является относительно молодым. Первый закон о страховании был принят в 1993 году, и с тех пор было принято множество нормативных актов, регулирующих страховую деятельность. Обязательное страхование быстро развивается благодаря законам, которые обязывают владельцев транспортных средств, работодателей и перевозчиков иметь страхование ответственности.

Отечественные страховые компании постепенно увеличивают объемы страховых премий. Концентрация страховых премий снижается, и страховая деятельность расширяется в регионах страны. Однако страхование в Узбекистане пока не получило широкого признания среди населения и бизнеса. Услуги

страховых компаний не завоевали доверия и не стали привлекательными для многих людей и организаций.

С 2016 по 2018 год валовая премия государственных страховых компаний снизилась с 64% до 28%, но доля страхования жизни увеличилась с 9% до 26%. Однако страховые премии на душу населения в Узбекистане остаются значительно ниже, чем в мире, что свидетельствует о низкой степени популярности страхования в стране.

Президентом Узбекистана была принята "дорожная карта" развития страхового рынка на 2019-2020 годы, в которой определены семь направлений развития, включая совершенствование нормативно-правовой базы.[51]

Закон "О страховой деятельности" считается устаревшим и не соответствующим современным требованиям. Вторым важным аспектом является институциональное развитие регулирования страховой деятельности. Планируется пересмотр нормативов о платежеспособности страховщиков, увеличение размеров уставных фондов и установление требований к качеству активов страховых компаний.

Третьим направлением развития является расширение и улучшение инфраструктуры страхового рынка. Четвертым приоритетом является повышение капитализации, платежеспособности и финансовой устойчивости профессиональных участников страхового рынка. Пятым аспектом является усиление защиты прав потребителей страховых услуг и популяризация страхования и страховой культуры.

Шестым направлением развития является расширение спектра услуг и улучшение их качества, включая внедрение новых инновационных видов страхования. Планируется предоставление услуг в электронном виде. Седьмым аспектом является система подготовки специалистов для страхового рынка.

Оценка развития системы страхования позволяет выявить общие тенденции в развитии рынка, его структуру, эффективность и влияние на общее развитие экономики. Важным является анализ количественных и качественных показателей развития страхового рынка, оценка уровня экономического и правового регулирования страховых отношений.

Основным фактором успешного развития национальной системы страхования является формирование современной рыночной инфраструктуры. В этой связи важно осуществление финансового инжиниринга бизнес-процессов в страховых компаниях. Анализ бизнес-процессов включает в себя задачи, связанные с стратегическим планированием, созданием организационной структуры для оптимизации деятельности страховой компании и внедрением операционного управления на всех этапах деятельности компании.

Реинжиниринг бизнес-процессов в страховой организации в период быстрого изменения национальной экономики направлен на решение следующих задач: упрощение организационной структуры страховой организации, перераспределение и минимизация ресурсов и повышение качества

[51] https://lex.uz/docs/5692523

услуг. Проведение реинжиниринга бизнес-процессов с определенной периодичностью, например, каждые пять лет, позволит адаптировать страховую организацию к изменяющимся внешним условиям.

Применение реинжиниринга бизнес-процессов в страховой организации достигает следующих целей:

1. Определение основных направлений деятельности страховой организации.
2. Усовершенствование бизнес-структуры страховой организации и обеспечение ее прозрачности.
3. Возможность корректировки экономических результатов на промежуточных этапах, что обеспечивает реализацию стратегических планов.
4. Снижение расходов на ведение страхового бизнеса в страховых организациях.
5. Сокращение случаев невыгодных расходов, которые могут возникнуть на различных этапах бизнес-процессов.

Для дальнейшего совершенствования рынка страховых услуг рекомендуется следовать следующим направлениям:

- Улучшение методов заключения договоров с клиентами с использованием инструментов бизнес-процессов в современном страховании.
- Совершенствование методологической базы, основанной на концептуальных подходах инжиниринга и реинжиниринга, для снижения уровня убыточности в страховых организациях.
- Обеспечение финансовой устойчивости страхового рынка и страховых организаций на основе качественного и количественного анализа диверсификации страхового портфеля и определения уровня концентрации.
- Внедрение телематических систем в страховых продуктах, что позволяет формулировать возможные ценовые параметры страхового случая.

Практическое внедрение научных предложений и практических рекомендаций будет способствовать усовершенствованию страховой системы и механизмов ее осуществления, а также выполнению задач, установленных в Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан на 2017-2021 годы. Таким образом, страховой рынок Узбекистана является относительно молодым и малоразвитым. Государство планирует внедрить обязательное медицинское страхование с 2020-2021 года в Сырдарьинской области, опираясь на опыт Германии. Этот шаг должен улучшить социальную сферу в Узбекистане и приблизить страну к кругу развитых социально ориентированных стран мира.

Список использованной литературы:

1. Корнюшина Р.В. Зарубежный опыт социальной работы. – Владивосток: Издательство Дальневосточного университета 2004. г. Стр. 30-31.
2. Основные виды страхования в Германии. Сайт: https://www.settle-in-berlin.com/insurance-in-germany/

РЕСПУБЛИКА ИҚТИСОДИЁТИДА ТУРИЗМ ЎРНИНИ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Жуманова Зилола
Кадрлар малакасини ошириш ва статистик тадқиқотлар институти таянч докторанти

2022 йилга келиб жаҳон иқтисодиётида туризм энг тез ривожланаётган ва халқаро иқтисодиётда барқарор ва рақобатдош соҳалардан бирига айланди. Халқаро туристлар сони деярли 1,5 млрд. кишига етди. Туризм тушумлари 1,7 триллион АҚШ долларини ташкил этди ва бу жаҳон экспортининг 7%идир. Ҳисобкитобларга қараганда жаҳон экспортида туризм тушумлари кимё саноати экспорти, ёқилғи энергетика экспортидан кейин учинчи ўриндаги соҳага айланди.

Бундай улкан салоҳиятга қарамасдан, туризмни ривожлантиришга комплекс ёндашувлар қўлланилмаганлиги боис, юртимиз иқтисодиётида мазкур соҳа муносиб ўрнини топмаган. Масалан, Жаҳон сайёҳлик ва туризм комитетининг 2022 йил маълумотларига кўра, туризм хизматларининг мамлакатимиз ялпи ички маҳсулотидаги (ЯИМ) тўғридан-тўғри улуши 1%ни, бошқа тармоқларга кўрсатган мультипликатив таъсирларини эътиборга олган ҳолдаги умумий улуши эса 3,2 %ни ташкил этади. Ўзбекистон туризмни ЯИМдаги улуши бўйича эса 179-ўринни эгаллаган .

Умуман туризм ривожланиши бевосита ЯИМ га таъсир этиб, туризм ривожланиши билан иқтисодиётнинг бир неча тармоқлари ривожланади.

Туризм атамаси инглиз тилидаги “tour” ташриф маъносини англатади ва бугунгача унга берилган таърифлар турли туман. Унга дастлабки илмий таъриф 1941 йилда Швеция олимлари W. Hunziker ва K. Kraftлар[52] томонидан берилган. Уларнинг фикрича, инсонларнинг доимий яшаш жойидан бошқа жойларга даромад олиш ва доимий яшаш мақсадларидан ташқари бошқа сафарларини амалга ошириш туризм деб аталган. Лекин, ушбу таърифда вақт омилини ҳисобга олмаганлиги учун унга нисбатан кўплаб танқидий муносабатларнинг шаклланишига сабаб бўлди. Бунга қарамасдан, умуман олганда Швециялик олимларнинг туризм тадқиқотида ҳиссаси жуда юқори. Масалан, улар туризм соҳасига биринчилардан бўлиб илмий ёндашдилар ва фундаментал илмий тадқиқотлар учун асос яратдилар. Бу ҳолатни кўпчилик (E.Cohen, G.Pearce, R.Sharpley, R.W.Butler в.б.) тан олади.

1970 йилларда эса «туризм» атамасини кенгроқ англаш ва туб моҳиятини тушуниш учун Англия олимлари A.Burkard ва S.Medliklар[53] туризмнинг концептуал ва техник атамаларини таклиф этишди. Бунга кўра туризм концептуал маънода инсонларнинг сафардан асосий мақсадлари дам олиш, саёҳат қилиш, маънавий ва руҳий озуқа олишни ифодалайди, туризм техник маънода эса улар маълум вақтга ўз одатий муҳитини тарк этишларини англатади.

[52] W.Hunziker and K. Krapf // Grundriss der Allgemeinen Fremdenverkehrslehre. //-Zürich: Polygraphischer,1942.-pp. 45
[53] A.Burkhart and S.Medlik Tourism: Past, Present and Future (2nd edn). Oxford: Butterworth- Heinemann, 1981.

J.Jafari юқоридаги фикрни ривожлантириб қуйидаги таърифни таклиф этади. Унинг фикрига кўра: «Туризм-бу агар инсонларнинг ижтимоий иқтисодий, физиологик эҳтиёжлари одатий муҳит доирасида қондирилмаганда улар ўзларининг одатий муҳитини бирор бир эҳтиёжлари сабаб тарк этишидир[54]». Айрим олимлар (R.Sharpley ва D.J.Telfer) туризмни авваламбор бу ижтимоий фаолиятдир деб ҳисоблайдилар ва у инсонларнинг имконияти ёки хоҳиши бўлмаганда мавжуд бўлмаслигини эътироф этишади[55].

Юқоридагилардан ташқари адабиётда туризм ва турист атамалари синоним сифатида ишлатилади. Бу фикрга, биз қўшила олмаймиз. Рус олими А.Ю.Александрованинг таъкидлашича, турист бу шундай ташриф буюрувчики, ўзининг сафарини одатий муҳитдан ташқарига амалга ошириб, бунда сафарнинг давомийлиги ҳар қандай мақсад бўлишига қарамасдан 12 ойдан ошмаслиги ва сафар давомида молиявий даромад олинмаслиги керак[56].

Республикада ҳам туризмни тадқиқотлари олиб борилган ва борилмоқда (И.С.Тухлиев, Ф.Қ.Комилова, С.С.Рўзиев, М.Ж.Темирхонова, Ш.Р.Файзиева, Б.С.Сафаров, Н.Н.Сафарова, Е.Голышова, А.Саидов, Т.Ташмурадов в.б.) [34;42;43;41;28-29;27]. Ўзбекистонлик тадқиқотчиларни туризмга берган таърифларида ҳам якдиллик йўқ. А.Ф.Саидовни фикрича: «Туризм одамлар эҳтиёжини қондириш учун турли хил товарлар ва хизмат турларидан фойдаланиладиган ўзига хос иқтисодий соҳадир[57]». Айрим иқтисодчилар туризмни турли сегментларга бўлиб ва ҳар бир сегментга таъриф беришга ҳаракат қилишган. Масалан, Т.Ташмурадов халқаро туризмга қуйидагича таъриф берган: «халқаро туризм – бу даромади бўйича жаҳон иқтисодиётининг иккинчи соҳаси бўлиб, валюта тушумларини таъминловчи, аҳолини иш билан банд қилувчи, уларни реал даромадларини кўпайтурувчи тармоқдир[58]». Ушбу таърифга биз тўла қўшила олмаймиз. Таърифни иккинчи қисмида халқаро туризм аҳолини иш билан банд қилувчи, уларни реал даромадлари кўпайтирувчи тармоқдир деб ёзилган. Уларни деганда аҳоли сони назарда тутилган бўлса бу нотўғри. Чунки, халқаро туризм аҳолини даромадларига(реал даромадларига эмас) билвосита таъсир қилади холос. Бизни фикримизча, туристик компаниялар даромадларига таъсир кўрсатади дейилса ва у орқали билвосита давлат бюджетига таъсир ўтказади деб ёзилса тўғри бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Вспомогательный счет туризма: рекомендуемая методологическая основа, 2008 год, ISBN 098-92-1461023-6, -Нью Йорк, БМТ, БТТ, Евростат. 2010. Ст.10
2. Measuring the social dimension of the sustainability of tourism – Findings of the MST sub-group on the social dimension Cesare Costantino, Consultant, UNWTO, Committee on Statistics, Nineteenth meeting, Madrid, 26-27 February 2019

[54] J.Jafari Annals of Tourism Research 5 (1), 1977.- pp. 220
[55] R.Sharpley and D.J.Telfer Tourism and development: concepts and issues, Great Britain, 2002.-31 pp.
[56] А.Ю. Александрова Статистика туризма – М. : Федеральное агентство по туризму, 2014. – 464 с.
[57] А.Ф.Саидов// Ўзбекистонда туризм// - Т.: Истиқбол ва муаммолар, 1992.- 12 бет .
[58]Т.Ташмурадов// Экономика международного туризма.// – Т.: Истиқбол ва муаммолар,1994. - 5 бет.

3. «Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год» -Мадрид и Нью-Йорк:ООН, 2010 год.- 140 ст.
4. Александрова А.Ю. Статистика туризма– М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 464 с.
5. Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год Руководство по составлению статистики Мадрид и Нью-Йорк: ООН. 2016.- 160 ст
6. Матяш С.А., Бритвина В. В. Конюхова Г. П., Конюхов В. Г., Седенков С.Е. Основы туристской деятельности и математическая статистика в индустрии туризма: Учебное пособие. – М.: Изд-во «Союз», 2016. - 174 с.
7. Sharpley, R. (2005) Tourism, Tourists and Society. Cambridgeshire: ELM
8. Ташмурадов Т. Экономика международная туризма. – Ташкент, 1994. 5 бет
9. Саидов А.Ф. Ўзбекистонда туризм. Истиқбол ва муаммолар, - Тошкент, 1992, 12 бет
10. Саидов А.Ф. Туризм в Узбекистане: экономические, социальные и организационные аспекты, -М.: Институт туризма, 1991
11. Hsiao C. Analysis of Panel Data. _ Cambridge University Press, 1986.
12. Wooldridge J. M. Econometric Analysis of Cross Section and Panel Data, _ MIT Press, 2002. (Ch. 10.)
13. Wooldridge J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach

СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Жўраев Дилмурод Холмўминович -
TIFT, мустақил изланувчиси
Тошкент халқаро молиявий бошқарув ва технологиялар университети "Иқтисодиёт ва бошқарув" кафедраси ўқитувчиси

Суғурта ташкилотларида молиявий ҳисоботлар йирик ташкилотлар бўлганлиги сабабли халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботларини тузиб келмоқдалар бунинг натижасида ташқи аудиторлар суғурта ташкилотининг молиявий холатига баҳо беришда аудитнинг халқаро стандарлар асосида аудиторлик текширувини ўтқазишга тўғри келади.

Аудиторлик текширувини тўғри ўтқазиш мақсадида мижоз билан шартнома расмийлаштирилади ва иккала томоннинг мажбуриятлари келишилади ҳамда шартнома баҳоси келишилади.

Аудитор томонидан режа тузилади ва унинг тўлиқ шакли қуйидаги жадвалда келтирилган.

Аудиторлик текшируви дастлаб солиқ органига топширилган молиявий ҳисоботлари, бухгалтерия ҳисобида юритилган бухгалтерия ўтқазмалари, айланма қайдномалари билан солиштирилади. Аудиторлик текшируви асосан, аудиторлар гуруҳи раҳбари ва аъзолар томонидан текширув олиб борилади.

1-жадвал

Суғурта ташкилотларида аудиторлик текширувини ўтказиш режаси

	аудиторлик текширувини ўтказиш режаси	Изоҳ
1.	КИРИШ ҚИСМИ	
1.1.	Аудит топширигини қабул қилиш;	
1.2.	Маъмурий хужжатларни тайёрлаш;	
1.3.	Бухгалтерия хисоботларининг шаклларини киритиш ва биринчи текширув;	
2.	РЕЖАЛАШТИРИШ	
2.1.	Умумий аудит стратегияси;	
3.	АУДИТ ТЕКШИРУВИНИ ЎТКАЗИШ	
3.1.	Ички назорат холатини текшириш;	
3.2.	Бухгалтерия хисобини холатини текшириш;	
3.3.	Ўзок муддатли активларни хисоби аудити;	
3.4.	Жорий активлар хисоби аудити;	
3.5.	Кадрлар булими аудити;	
3.6.	Ўз манбаилари маблағлари хисоби аудити	
3.7.	Мажбуриятлар хисоби аудити; -ўзоқ муддатли мажбуриятлар; - жорий мажбуриятлар;	
3.8.	Даромадлар ва харажатлар хисоби аудити;	
3.9.	Бюджетга Солиқлар ва бюджетдан ташқари жамғармаларга мажбурий тўловларнинг тўғри хисобланиши ва туланиши текшириш;	
3.10.	Тадбиркорлик фаолияти жараёнида норматив – хуқуқий хужжатларга роия этилишини текшириш натижалари.	
4.	ЯКУНИЙ БОСҚИЧ	
4.1.	Молиявий – иқтисодий холатни тахлил қилиш; ликвидлик, тўлов қобилияти, молиявий барқарорлик, рентабеллик, банкротликдан ўзоқлик ва бошқалар;	
4.2.	Аналитик процедуралар; тўзатилмаган нотўғри маълумотлар рўйхати,рахбариятга хат, аудит текшируви натижалари тахлил қилиш, аниқланган нотўғри маълумотларни бахолаш;	
4.3.	Тавсиянома ва хулоса бериш	

Аудиторлик текшируви натижасида аудиторлар томонидан аудиторлик текшируви учун 500-АХС Аудиторлик далиллари асосида аудиторлик маълумотлари йиғилади. Ушбу маълумотлар етарли бўлганда аудиторлар хулоса шакиллантиришга асосо бўлади.Аудиторлик ҳисоботи 700-АХС, Молиявий ҳисоботи ва аудиторлик ҳисоботи номли стандартга асосан шакиллантирилади ва унинг таркиби қуйидагилардан иборат бўлади.

- Кириш қисми;
- Адресат қисми;
- Таҳлилий қисми;
- Якуний қисми.

Ушбу қисмлар тўлиқ шакиллантирилгандан сўнг аудиторлик хулосаси шакиллантирилади.Агар аудитор томонидан ижобий хулоса шакиллантирилса суғурта ташкилотининг молиявий барқарорлигини ошишига эришилгандан далолат далолат беради.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, аудиторлик текшируви аудиторлик халқаро стандартлари асосида мижоз билан келишув хати тузилади, шартнома шартнома расмийлаштирилади, хизмат хаққи суммаси келишилади, аудитор режа ва дастури тузилади, аудиторлик ҳисобот аудиторлик далиллари асосида

шакллантирилади ҳамда аудиторлик хулосаси тузилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Аудиторлик фаолияти тўғрисида»ги Қонуни. 2021 йил 25 февраль. ЎРҚ-677-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 4 августдаги «Аудиторларни сертификатлаштириш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-5210-сон Қарори.
3. Дусмуратов Р.Д. Аудит асослари. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2003. – 612 б.
4. Тўлаходжаева М.М., Илхомов Ш.И. Аудит. Ўқув қўлланма. –Т.: Иқтисодиёт, 2012.
5. “Отдельные показатели состояния рынка аудиторских услуг в государствах – участниках СНГ в 2020 году”. Материалы Координационного совета по бухгалтерскому учету государств – участников СНГ. Москва. 2021.
6. https://www.ifac.org
7. https://www.mf.uz

АЙНИ ПАЙТДА ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНИНГ БЮДЖЕТ СИЁСАТИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Имомов Хамдулло Хамдамович
ТДИУ, “Молия бозори ва суғурта иши” кафедраси и.ф.н., доценти

Маълумки, бюджет мамлакатни ўз олдида турган функциясини бажаришда муҳим молиявий манба бўлиб ҳисобланади. Бюджетлар тизими маҳаллий талаб-эхтиёжларни тўлароқ қондиришни хамда давлатнинг марказлашган тартибда амалга оширадиган тадбирларининг бажарилиши билан чамбарчас боғланган ҳолда ижро этишга имкон яратиб беради. Бюджет даромадларининг кўпайиши ва ресурсларнинг тежамкорлик билан сарфланиши вазифаси юклатади. Ижтимоий-иқтисодиётнинг юксалиш суръатлари тўғридан-тўғри давлат заҳираларини сафарбар қилиш, маблағларни тежаб ишлатиш борасидаги ишларни ташкил этиш билан бевосита боғлик бўлади. Бу эса ўз навбатида Ўзбекистон Республикаси давлат бюджетининг ижросини таъминлаш ва бюджет сиёсатини амалга ошириш механизмини такомиллаштиришни тақоза этади.

Амалда бюджет даромадлари амадаги қонунчилик бўйича уларга бириктирилган солиқлар ва йиғимлар ҳисобига шакллантирилади. Ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий рифожланиши ва уларда шакллантирилган иқтисодий салоҳият, демографик омиллар таъсирида солиқларнинг бириктириш йўли билан маҳаллий бюджетларни тенглаштириш имкониятларига эга бўлинмайди. Натижада бюджет тизими бўғинлари ўртасида даромадларни қайта тақсимлаш орқали бюджет тизимини горизонтал тартибга солиш тизимига эҳтиёж туғилади.

Бюджет тизими бўғинлари ўртасида даромадларни қайта тақсимлашнинг

бир қатор комбинатсион усуллари мавжуд бўлиб, уларга қуйидагиларни киритишимиз мумкин: бюджет дотатсиялари, бюджет субвенциялари, ўзаро ҳисобкитоблар бўйича маблағлар, бюджет ссудаси, ўтказиб бериладиган даромадлар. Бюджетнинг юқорида тилга олинган даромадларни қайта тақсимлаш натижасида келиб тушувчи даромадларининг ҳар бири ўзига хос вазифани бажаради.

Ҳозирги ислоҳотлар шароитида бюджет даромад базасини мустаҳкамлаш сиёсатида солиқа тотиш тизимини янада такомиллаштириш ҳисобланади. Чунки, амалдаги солиқлар ва йиғимлрнинг алоҳида тавсифларини ўрганиш натижасида шундай хулосага келиндики, улар солиқ тизимида нисбатан тушум самарадорлиги паст бўлган, солиқ маъмурчилиги мураккаб, фискал аҳамияти умумдавлат солиқларига нисбатан паст бўлган солиқлар бу маҳаллий солиқлардир. Шунинг учун уларни ислоҳ қилишга қаратилган бюджет сиёсатини амалга ошириш механизмини янада такомиллаштиришга эҳтиёж сезмоқда.

Дарҳақиқат, Ўзбекистонда бюджет сиёсатини амалга ошириш механизмини такомиллаштириш бюджетларнинг даромад ва харажатларини бошқариш самарадорлигини ошириш ва уларни оқилона таъминлаш, давлат иқтисодиёти мавқеини янада оширишга хизмат қиладиган муҳим омил ҳисобланади. Шу ўринда Муҳтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек “Бюджет харажатлари, аҳоли ва тадбиркорлар олдидаги мажбуриятларимизни қисқартирмаган ҳолда, бизнесга солиқ юкини камайтириш бўйича ишларни давом эттирамиз. Жумладан, 1 январдан бошлаб қўшилган қиймат солиғи ставкасини 15 фоиздан 12 фоизга пасайтириш ҳисобидан тадбиркорлар ихтиёрида йилига камида 14 триллион сўм маблағ қолади. Лекин бизнес муҳитини яхшилаш учун фақат солиқни камайтиришнинг ўзи етарли эмаслигини”[1]. Билдиришлари келгусида ҳам Ўзбекистонда бюджет сиёсатини амалга ошириш механизмини такомиллаштириш масалалари ўта муҳимлигини билдиради.

Сиёсат – бу жамият устқурмасига тааллуқли тушунча бўлиб, давлатнинг ўз функциялари ва вазифаларини амалга оширишга қаратилган ривожланиш йўналишлари ва чора-тадбирлари йиғиндисидир. Давлат томонидан амалга ошириладиган сиёсат ўзаро боғлиқ элементлардан иборат бўлади:

биринчидан, ривожланишнинг у ёки бу босқичида жамият ҳаётини яхшилаш ва ривожлантириш учун зарур бўлган асосий вазифалар ва мақсадлар аниқланади ва белгилаб олинади;

иккинчидан, истиқболдаги ва яқин келажакдаги вазифалар ва мақсадларга эришиш учун энг қулай, энг яхши натижа берадиган зарур чора-тадбирлар ишлаб чиқилади;

учинчидан, белгиланган вазифаларни амалга оширувчи шахслар, ижрочи органлар, алоҳида ваколатли ташкилотлар аниқланади, кадрлар танланади ва жой-жойига қўйилади.

Бюджет сиёсати давлат ва жамият ривожланишининг турли босқичларида турлича бўлиши, ижтимоий-иқтисодий тараққиёт даражасига қараб ўзгариб туриши мумкин.

Бюджет сиёсати:

– бюджет даромадлари бўйича сиёсат;

– бюджет харажатлари бўйича сиёсат;

– давлат кредити сиёсати;

– бюджет тақчиллигини бошқариш сиёсати;

Бюджет сиёсати – бюджет муносабатларини ташкил этиш тамойилларининг бажарилишини таъминлаш, давлат ва жамият олдида турган мақсад ва вазифаларни давлат бюджети орқали амалга ошириш усуллари, чора-тадбирлари ва мақсадли фаолиятлари йиғиндисидир[2].

– бюджетлараро муносабатларни ташкил этиш сиёсати кабиларнинг уйғунлиги асосида амалга оширилади.

Демак, бюджет сиёсати – давлат молия сиёсатининг таркибий қисми бўлиб, умумдавлат молиявий ресурсларини (манбаларини) шакллантириш ва жалб этиш, тақсимлаш, улардан мақсадга мувофиқ фойдаланишга қаратилган давлатнинг чора- тадбирлари ва асосий йўналишлари йиғиндисидир.

Бюджет сиёсатининг асосий вазифалари қаторида қуйидагиларни таъкидлаш муҳим:

–давлат бюджетининг даромад базаларини мустаҳкамлаш;

– иқтисодиёт устивор тармоқларининг ривожланишини рағбатлантириш;

– фан-техника тараққиётининг жадаллашувига таъсир кўрсатиш;

– мамлакатда камбағаллик ва ижтимоий тенгсизликка барҳам бериш;

– ривожланиш истиқболи юқори бўлмаган ҳудудларнинг ривожланишига шарт-шароитлар яратиш;

– бу ҳудудлардаги аҳолининг яшаш шароитларини яхшилаш ва шу йўллар билан сиёсий ва ижтимоий беқарорликнинг олдини олиш;

– давлат томонидан кафолатланган ижтимоий хизматларнинг сифатли ва аҳоли ижтимоий муҳофазасининг манзилли бўлишини таъминлаш;

– бюджет сиёсатининг муваффақиятли амалга оширилишини таъминловчи мақбул бюджет механизмини ишлаб чиқиш ва унинг самарали ишлашини таъминлаш ва ҳ.к.

Бюджет сиёсати ўз-ўзидан яхши ёки ёмон бўлиши мумкин эмас.

Бюджет сиёсатининг аҳамиятини баҳолаш учун жамиятнинг эҳтиёжи қанчалик қондирилаётганлигини, қўйилган мақсадлар ва вазифалар қанчалик даражада муваффақиятли амалга оширилганлигини тўғри белгилаш, ҳолис баҳолаш лозим.

Бюджет сиёсатининг мазмуни кўпқиррали бўлиб, қўйидагиларни амалга ошириш орқали ҳаётга татбиқ этилади:

1. Бюджет муносабатларини ривожлантиришнинг илмий асосланган концепцияларини ишлаб чиқиш. Бу концепсиялар қуйидагиларни ўрганиш асосида ишлаб чиқилади:

– иқтисодий қонунлар талабларини ўрганиш;

– миллий хўжалик ҳолатини ҳар томонлама таҳлил қилиш;

– ишлаб чиқарувчи кучлар ва ишлаб чиқариш муносабатларининг бундан

кейинги ривожланиш истиқболларини ўрганиш;

– аҳолининг талаб ва эҳтиёжларини ўрганиш.

2. Истиқболда ва жорий давр мобайнида бюджетдан фойдаланишнинг асосий йўналишларини белгилаб олиш. Бунда иқтисодий ва молиявий сиёсатда белгиланган

Амалда бюджет сиёсатининг асосий мақсади – жамиятда яратилган бойлик ва неъматларнинг жамият аъзолари ўртасида максимал даражада адолатли тақсимланишини таъминлашдан иборат [3].

Маълумки, мақсадларга эришиш йўлларидан келиб чиқилади, халқаро омиллар инобатга олинади ва молиявий ресурсларни янада кўпайтириш имкониятлари кўриб чиқилади.

3. Қўйилган мақсад ва вазифаларни амалга оширишга қаратилган амалий хатти-ҳаракатлар қилиш, чора-тадбирлар белгилаш, мақбул бюджет механизмининг дастак ва воситаларини ишлаб чиқиш.

Фақат ҳозирги кундаги жорий даврга мўлжалланган, кундалик эҳтиёжларни қондиришга қаратилган сиёсат самарасиздир, шунингдек, узоқ даврни мўлжаллаб, истиқболни кўзлаб ишлаб чиқилган концепсиялар ва йўналишлар, улар қанчалик олижаноб, жозибали бўлмасин, давлатнинг тегишли амалий хатти-ҳаракатлари, таъсирчан дастак ва воситалари билан таъминланмаса, инқирозга юз тутади, кўзланган мақсадлар амалга оширилмай қолади.

Давлат олдида турган ва муайян даврда ҳал қилиниши лозим бўлган вазифаларнинг характерига, мураккаблигига ва кўзланган даврнинг узоқлигига кўра бюджет сиёсати:

– бюджет стратегияси;

– бюджет тактикасидан иборат.

Бюджет стратегияси узоқ муддатли мақсадларни танлаш ва мақсадли дастурларни зарур молиявий ресурслар билан таъминлаш, уларни иқтисодий ва ижтимоий ривожланишнинг асосий йўналишларига сафарбар қилишни назарда тутади.

Масалан, мустақилликнинг дастлабки йилларида бюджет стратегиясининг асосий вазифаларидан бири – бюджетнинг барқарорлигини таъминлаш, ортиб бораётган бюджет дефицитини жиловлаш бўлган бўлса, бу вазифани бажариш учун:

- маъмурий-буйруқбозликка асосланган иқтисодиётдан бозор иқтисодиётига ўтиш даври учун хос бўлган янги бюджет қонунчилигини ишлаб чиқиш;

- мустақил давлатнинг янги солиқ тизимини шакллантириш;

- бюджетнинг харажатлар қисмини қайта тузиш;

- бюджет даромадлари ва харажатларини баланслаштириш каби чора-тадбирлар белгиланди ва маълум муваффақият билан амалга оширилди.

Бюджет сиёсатининг стратегияси ва тактикаси ўзаро боғлиқдир. Стратегик вазифаларни ҳал қилиш учун тактика қулай шарт-шароит яратади. Тактика иқтисодий бюджет стратегияси – ижтимоий ва иқтисодий стратегия белгилаб берган узоқ истиқболга мўлжалланган ва йирик кўламдаги вазифаларни бажа-

ришга қаратилган бўлиб, у ривожланишнинг асосий концепцияларини ишлаб чиқиш, бюджет муносабатларини ташкил этишнинг умумий тамойилларини ишлаб чиқишни, узоқ муддатга мўлжалланган ривожланиш истиқболларини белгилашни кўзда тутади.

Бюджет тактикаси – стратегия белгилаб берган вазифаларни жамият ривожланишининг аниқ босқичида ва аниқ шароитларида молия-бюджет муносабабатларини ташкил этиш усуллари орқали амалга оширади[4].

Шу билан бирга муаммоларини аниқлаб, молия-бюджет муносабатларини ташкил этиш шакллари ва усулларини ўз вақтида ўзгартириш йўли билан стратегия балгилаб берган вазифаларни қисқа муддат ичида, энг кам харажатлар билан амалда бажаради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 20.12.2022. “Ҳалқ сўзи” газетаси. 21.12.2022 -1 б.
2. Маликов Т.С., Олимжонов О. Молия. Дарслик. Т.: Иқтисодиёт-Молия. 2019.- 969 б.
3. www.lex.uz– Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 2023 й.
4. Нуриддинова В.Ш., Шарапова М.А. Молиявий назорат. Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисодиёт-Молия. 2014. -344 б.

KAFIL SUG‘URTA

ОЗИҚ-ОВҚАТ САНОАТИ ТАРКИБИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Кобилова Насиба Хуррамовна
Тошкент давлат иқтисодиёт
университети мустақил изланувчиси

Сўнгги даврдаги инқирозлар, пандемия, геосиёсий вазиятлар ва иқлим ўзгаришлари аксарият мамлакатларда иқтисодиёт тармоқларида диверсификацилаш ҳамда таркибий ўзгаришларни амалга оширишни тақозо этмоқда. Чунки, диверсификация нафақат жаҳон товар бозорлари томонидан яратилган беқарорликни камайтириши, балки, ўсиш ва ривожланишнинг ҳаракатлантирувчи куч бўлиб ҳам хизмат қилиши мумкин.

Айниқса, товарлар импорти юқори бўлган ривожланаётган мамлакатлар қиймат занжирларини диверсификация қилиш ва янгилашни рағбатлантириш орқали келгусида товарларга қарамликни камайтириш учун фойдаланишлари лозим. Жумладан, озиқ-овқат маҳсулотларини импорт қилувчи ривожланаётган мамлакатларнинг барқарорлигини уларнинг озиқ-овқат импорти манбаларини диверсификация қилиш, шунингдек, маҳаллий озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда юқори самарадорликка эришиш асосида иқтисодий барқарорликни ҳамда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаши мумкин.

Маълумки, озиқ-овқат таъминоти сиёсатини ишлаб чиқиш ва амалга оширишга нисбатан қўйиладиган асосий талаблар иқтисодий мустақилликни сақлаш ва мустаҳкамлаш зарурлигига асосланади. Жумладан:

- жорий ижтимоий-иқтисодий вазиятни озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи тармоқлар ривожланишини иқтисодий кўрсаткичлар асосида комплекс баҳолаш;

- озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш саноатига салбий таъсир кўрсатувчи ташқи ва ички таҳдидлар (омиллар)ни аниқлаш ҳамда уларни бартараф этиш (самарали фойдаланиш) чораларини кўриш;

- мақсад ва вазифаларни аниқ белгилаш, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш тадбирлари ва механизмлари тизимини ишлаб чиқиш ҳамда самарали амалга ошириш лозим.

Зеро, озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш ҳар қандай мамлакат иқтисодий стратегияси ва сиёсатининг муҳим устувор йўналиши бўлиб, жамиятдаги сиёсий, ижтимоий, иқтисодий барқарорлик уни амалга ошириш самарадорлигига боғ-ликдир. Бунинг учун мамлакат озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш тизими ва уни амалга оширишнинг оптимал механизмини шакллантириш лозим бўлади. Ушбу тизим ва механизмни шакллантиришнинг асосий мақсади ва вазифалари озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш стратегияси ва дастурида белгилаб қўйилиши лозим.

Мамлакатимизда ҳам аҳолини сифатли ва хавфсиз озиқ-овқат маҳсулоти билан таъминлашнинг ҳуқуқий асослари яратилган. Хусусан, Ўзбекистон Республикасининг 1997 йил 30 августдаги “Озиқ-овқат маҳсулотининг сифати ва хавфсизлиги тўғрисида”ги 483-I-сон Қонуни қабул қилинган бўлиб, ушбу қонун билан озиқ-овқат маҳсулотининг сифати ва хавфсизлигини таъминлаш соҳасидаги давлат бошқаруви, давлат томонидан нормалаш, назорат қилиш ва текшириш, режалаштириш, янги озиқ-овқат маҳсулотини яратиш ва ишлаб чиқариш, озиқ-овқатларни сақлаш ва ташиш ҳамда реализация қилиш, шунингдек, мамлакат ҳудудига озиқ-овқат маҳсулотини олиб киришнинг тартиб тамоиллари белгилаб қўйилган.

Ўзбекистонда бугунги кунда миллий саноатлашув жараёнини ва саноат тармоқлари ривожланишини бошқариш, тартибга солиш, қўллаб-қувватлаш, рағбатлантириш, унинг айрим доираларини белгилаш, саноатдаги фаолият турларини назорат қилиш билан боғлиқ бўлган янги ёндошувлар, усуллар ва механизмлар ишлаб чиқилмоқда. Чунки, озиқ-овқат хавфсизлигини ва аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш ҳар бир давлатнинг асосий вазифаларидан биридир.

Бундай ислоҳотлар натижаси ўлароқ, 2022 йилда мамлакатимиз 553265,0 млрд. сўм саноат (қурилишни қўшган ҳолда) маҳсулотлари ишлаб чиқарилган. Шундан ишлаб чиқарадиган саноат маҳсулотлари ҳажми 460491,8 млрд. сўмни ташкил этган бўлса, ишлаб чиқарадиган саноат маҳсулотларининг 12,5 фоизи озиқ-овқат маҳсулотлари ҳиссасига тўғри келган. Яъни, шу даврда республикада жами 57547,3 млрд. сўм озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқарилган.

1-жадвал

Республика ишлаб чикариш саноати таркибида ҳудудларнинг улуши[59], %

	Ишлаб чиқарадиган саноат	Озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш
Жами	**100,0**	**100,0**
Қорақалпоғистон Республикаси	3,3	4,3
Андижон вилояти	11,6	5,4
Бухоро вилояти	5,6	6,2
Жиззах вилояти	2,3	2,2
Қашқадарё вилояти	3,3	5,3
Навоий вилояти	14,8	3,3
Наманган вилояти	3,2	5,1
Самарқанд вилояти	6,1	13,3
Сурхондарё вилояти	1,4	2,5
Сирдарё вилояти	1,5	3,2
Тошкент вилояти	17,5	16,3
Фарғона вилояти	6,2	7,8
Хоразм вилояти	3,8	6,6
Тошкент шаҳри	19,5	18,5

Таҳлилларга кўра, ишлаб чикариш саноатидаюқори улушга эга бўлган ҳудудларга Тошкент шаҳри (19,5 %), Тошкент вилояти (17,5 %), Навоий (14,8 %) ва Андижон (11,6 %) вилоятларини киритиш мумкин. Шунингдек, ишлаб чиқарадиган саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилишида юқори улуш Тошкент шаҳри (18,5 %), Тошкент вилояти (16,3 %) ва Самарқанд вилояти (13,3 %) ҳиссаларига тўғри келган.

ФАО маълумотларига кўра[60], дунёда 5 ёшгача бўлган 340 миллион бола, яъни ҳар икки боладан биттаси микроэлементлар етишмовчилиги туфайли “яширин очликдан” азият чекмоқда. “... 2050 йилга бориб дунё аҳолиси сони тақрибан 9,5 миллиардга етиши” қайд этилган. Шунингдек, “хавфсиз истеъмол маҳсулотлари ишлаб чиқариш танқислиги кузатилиши” таъкидланган.

Албатта, озиқ-овқат саноати озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш, қайта ишлаш, етказиб бериш ва тарқатиш билан боғлиқ кўплаб кичик ва йирик саноат корхоналарини бирлаштирган мураккаб глобал саноатдир. Бошқа кўплаб соҳалардан фарқли ўлароқ, озиқ-овқат саноати саноат шароитида турли манфаатдор томонларнинг юқори даражада ажратилган роли туфайли юқори даражада марказлаштирилмаган ва камроқ мувофиқлаштирилган саноат тизими ҳисобланади.

Маълумки, озиқ-овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариши асосан озиқ-овқат ва ичимликлар саноатига бўлинади. Умуман олганда озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш - гўшт маҳсулотларини қайта ишлашни, алкоголсиз ичимликлар, алкоголли ичимликлар, қадоқланган овқатлар ва бошқа модификацияланган озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқаришни ўз ичига олади. Ушбу саноатнинг

[59] ЎзР Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги маълумотлари.
[60] https://www.fao.org

ишлаб чиқариш соҳасига бевосита деҳқончилик ва қишлоқ хўжалигининг бошқа шакллари орқали ишлаб чиқарилган озиқ-овқат маҳсулотлари кирмайди. Тарқатиш эса тайёр озиқ-овқат маҳсулотини истеъмолчилар қўлига ташишни ўз ичига олади.

Аммо, озиқ-овқат ва ичимликлар ишлаб чиқаришнинг бундай ўсиши рақобатнинг кучайиши туфайли бандликни оширишга олиб келмади, бу эса кўплаб озиқ-овқат саноатида, айниқса саноати ривожланган мамлакатларда бандликнинг қисқаришига олиб келмоқди. Яъни, бу саноатнинг кўпгина тармоқларида меҳнат унумдорлигини ошириш ва механизациялаш билан боғлиқ.

Демографик босим, қишлоқ хўжалиги ресурсларининг нотекис тақсимланиши ва озиқ-овқат маҳсулотларини яхшироқ тақсимлаш учун уларнинг сақланишини суғурталаш зарурати озиқ-овқат саноатининг тез техник эволюциясини тақозо этмоқда. Ўрганишлар шуни кўрсатадики, ҳатто юқори даражада саноатлашган объектлар ҳам янги маҳсулотлар ёки жараёнларни бошлашда кўпинча эскирган усуллардан фойдаланмоқда. Амалда аҳоли эҳтиёжларини қондириш учун нафақат ишлаб чиқаришни кўпайтиришни назарда тутадиган етарли миқдордаги озиқ-овқат маҳсулотларига, балки, жамият саломатлигини сақлаш учун зарур бўлган сифатни олиш учун санитария ҳолатини ҳам қаттиқ назорат қилиш мақсадга мувофиқ.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ АКТИВЛАРИНИ БОШҚАРИШ ХУСУСИДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР

Мажидова Шахноза Абдуллажановна
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси магистранти

Одатда тижорат банклари активларини бошқариш уларнинг сифатига мувофиқ таркибий тузилиши, актив операцияларнинг диверсификацияланишуви, рискли активлар миқдори, активлар даромадлилиги, ликвидлилик кўрсаткичлари ва активларни баҳолаш методларини қўллаш орқали аниқланади.

Иқтисодий адабиётларда банк активларини самарали бошқариш, шакллантириш ва сифатини оширишнинг назарий-концептуал асослари чуқур тадқиқ қилинган.

Иқтисодчи олим В. Усоскин ўзининг «Современный коммерческий банк: управление и операции» номли монографиясида тижорат банклари активларининг асосий турлари бўлган кредитлар ва кассали активларнинг сифатини ошириш масаласига алоҳида эътибор берган. В. Усоскин кредит портфелини сифатини ошириш мақсадида мижозларнинг кредит тўловига лаёқатлилигини баҳолаш тизимини такомилаштиришни, кредит портфелини шакллантиришда диверсификация принципига қаттиқ риоя этишни таклиф қилади[61].

[61] Усоскин В.М. Современный коммерческий банк. – Москва: Вазар-Ферро, 1994. – С. 218-276.

Н. Соколинская активларни бошқариш ва сифатини оширишда асосий эътибор уларнинг даромадлилиги ва ликвидлилигига қаратилиши лозим деб ҳисоблайди[62].

АҚШлик таниқли иқтисодчи олим Эдвин Дж. Долан тижорат банкларининг юқори ликвидли активларини икки гуруҳга ажратади.

1. Кассали активлар.
2. Иккиламчи захиралар[63].

если значение 〖NR〗_2=I_B R/I_I R находится в диапазоне [26;50], то уровень рисков, влияющих на доходы компании, низкий, вероятность потери дохода средняя;

если значение 〖NR〗_3=I_B R/I_I R находится в диапазоне [51;75], уровень рисков, влияющих на доходы компании, средний, вероятность потери дохода высока;

если значение 〖NR〗_4=I_B R/I_I R находится в диапазоне [76;100], то уровень рисков, влияющих на доходы компании, высок, вероятность потери дохода очень велика.

Список использованной литературы:

1. Amparo Marin de la Barcena. Strengthening risk management during a downturn/https://www.intechopen.com/chapters/38978.
2. Benta D. Podean MI 2011 Risk management approaches for successful projects, Proceedings of the 2nd Symposium on Business Informatics in Central and Eastern Europe, Osterreichische Computer Gesellschaft, 3949.
3. case study on Turkey. (Doctoral Dissertation, Cumhuriyet University, Turkey). Retrieved from
4. Fang, F. (2016) A Study on the Financial Risks of Listed Manufacturing Companies in China. Journal of Financial Risk Management, 5, 229-245. doi: 10.4236/jfrm.2016.54022.
5. Karaca, S.S. & Senol, Z., (2017). The effect of Enterprise Risk Management on firm performance:
6. Luis Otero Gonzalez, Pablo Duran Santomil, Araceli Tamayo Herrera. The impact of enterprise risk 8. Mohammad Altanashat, Maged Al Dubai, Sadoun Alheti. The impact of corporate risk management on the institutional performance of Jordanian public listed companies. April 2019 Journal of Research in Business and Retail Management 13 (03).DOI: 10.24052/JBRMR/V13IS03/ART-23
9. Neria Banaitene. Risk management - current problems and challenges. Electronic book (pdf) isbn 978-953-51-5131-9. Copyright year. Year 2012. Number of pages 598.
10. Taiyu Wang, Xianhui Deng. Study on Establishment of Enterprise Financial Risk Assessment Model Based on Entropy Weight TOPSIS. Advances in Economics,

Business and Management Research, volume 203 Proceedings of the 2021 3rd International Conference on Economic Management and Cultural Industry (ICEMCI 2021).
11. WBCSD_Risk_Publication_2016.pdf
12. Matillaevich KHAN. Upravlenie finansovymi riskami na predpriyatii: metody i modeli. Working documents. 2016; 4 (4): 67–9. management on the risks and performance of Spanish listed companies. https://www.sciencedirect. com/science/article/pii/S2444883420303028.
13. Fu Dj.Dj., editor Sozdanie i issledovanie modeli preduprejdeniya finansovykh riskov kompanii na osnove analiza glavnyx component i logisticheskoy regressionsii. International conference on educational technology, management and humanitarian sciences; 2015: Atlantis Press

ШАХСИЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

Саидова Дилфуза Абдуфаттоховна
Ўзбекистон Республикаси Банк молия академияси тингловчиси

Бугунги кунда мамлакат ижтимоий ҳимоясини кучайтириш ва бунда аҳолининг иштирокини фаоллаштириш кўплаб долзарб масалаларга ечим ҳисобланади. Бунда оғир ҳолатларга олиб келувчи касалликларнинг олдини олиш ва профилактика тадбирларини қўллаш, турли кутилмаган вазиятлар учун молиявий таъминотни яратиш, пул қўйилмалари бўйича молиявий кўникмаларни ҳосил қилиш сингари чора-тадбирлар натижасида бемор инсонларнинг иш фаолиятига қайтиши муддатининг қисқариши ва давлатнинг ижтимоий ҳимоя харажатлари енгиллашиши, аҳолида молиявий саводхонлик ва бой қатлами улушининг ортиши юзага келади.

Давлатнинг иқтисодий ривожи аҳоли соғлиғини мустаҳкамлайди ва ўз навбатида, соғлом аҳоли қатлами иқтисодий ўсишга таянч бўлади. Шу нуқтаи назардан, мамлакатнинг фаровонлиги ва унинг иқтисодий ривожланишида аҳоли соғлиғига инвестиция қилиш борасида давлат ўз сиёсатини белгилаб олиши зарур. Бунда давлат аҳоли соғлиғини мустаҳкамлаш, касалликларнинг олдини олиш ва профилактика қилиш, касалликка учраган беморларни ижтимоий ҳаётга қайтариш, уларнинг турмуш сифати ва меҳнат унумдорлигини сақлаш бўйича пулли ажратмалар белгилайди.

Ягона электрон маълумотлар маркази ўз фойдаланувчиларига ягона стандарт асосида маълумотлар жойлаш ва маълумотларни қидириш, ҳудудий манзилларни олиш, сўровномалар жойлаш, шахсий суғурта турлари бўйича истак ва таклифларни киритиш, шунингдек, соҳада тадқиқот олиб бораётган изланувчиларнинг мақолаларини жойлаш ва илмий хулосалари билан бўлишиш имконини тақдим этади. Шу мақсадда марказ – ахборот, савдо, маркетинг, фан порталларини ўз ичига олиши кўзда тутилган. Ушбу электрон марказнинг фаолияти Ўзбе-

кистон Республикаси Президентининг «2022–2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сонли фармони, Ўзбекистон Республикасининг Электрон ҳукумат тўғрисидаги қонуни, Суғурта фаолияти тўғрисидаги қонунига асосланади.

Иқтисодиётнинг суғурта соҳаси ҳам рақамли трансформацияга тайёрланиб бормоқда. Жумладан, 2022 йилда Ўзбекистон Республикаси «Суғурта фаолияти тўғрисидаги» қонуни янги таҳрирда қабул қилиниб, унда суғурта қилдирувчи ва суғурталовчи ўртасида электрон шаклдаги ахборот алмашинувининг ўзига хос хусусиятлари рақамли иқтисодиёт тамойиллари-ни акс эттиради. Қонун билан – шартнома тузиш, унга ўзгартириш киритиш ва суғурта товонини олиш бўйича мурожаатларни ахборот алмашишнинг рақамли усуллари, бунда идентификациялаш ва аутентификациялаш тизимидан фойдаланган ҳолда, амалга ошириш белгилаб қўйилган ва суғурта қоидаларида ёки бошқа ҳужжатларда белгиланиши мажбурийдир.

Суғурталовчининг электрон рақамли имзо билан ёхуд бундай имзосиз бўлган шартномларда офертани суғурта мукофотини тўлаш орқали қабул қилиш йўли билан тузилган электрон полислар қоғоз кўринишдаги ҳужжатга тенглаштирилди. Юқорида келтирилган қонуний ўзгаришлар рақамли трансформацияни бошлаб берса-да, суғурта савдосини рақамли технологияларсиз ва савдони интернетлаштиришсиз жадал ривожлантириб бўлмайди.

Суғурта компанияларини бошқариш, моддий ишлаб чиқариш соҳасидаги компанияларни бошқаришдан фарқли ўлароқ, бир қатор хусусиятларга эга. Суғурта компанияси менежментининг ўзига хослиги суғурта бизнеси ва бошқа соҳалардаги операцион жараёнлари тузилишининг фарқланиши билан боғлиқ.

Суғурта компаниялари суғурта ҳимояси билан таъминлаш баробарида суғурта бадалларидан иборат пул маблағларини йиғади ва улардан инвестицион ресурс сифатида фойдаланади. Суғурта хизмати бозори миллий даромад ва ресурсларни қайта тақсимловчи йирик канал ва шахснинг муҳим моддий манфаатларини ҳимоя қилувчи манбаа ҳисобланади.[1] Ҳозирги кунда суғурта – умумий иқтисодий барқарорлик ва хавфсизликни, тадбиркорликни ривожлантириш ва хўжалик фаолияти узлуксизлигини, кўплаб табиий, техноген ва бошқа рисклардан самарали ҳимояни, давлат ижтимоий сиёсатини таъминловчи муҳим ва зарурий воситадир. [2]

Ривожланган мамлакатларда рискларни бошқаришнинг самарали усули сифатида суғурта, жумладан шахсий суғурта қўлланилади ва унинг ёрдамида аҳоли жамғамалари ўсади, соғлиғини йўқотиши ёки оила аъзосининг вафоти муносабати билан даромадидаги йўқотишларни, касаллик ҳолатлари юзага келгандаги тиббий харажатлари қопланади. Ўзбекистонда ижтимоий ночор аҳолига ва чекка қишлоқларда яшовчи аҳолига, суғурта хизматлари етиб бормаган ҳудудларга мўлажлланган микросуғурта ва инклюзив суғурталарни жорий этиш, шунингдек, аҳолини ижтимоий ҳимоясини таъминлашга қаратилган суғурта хизматларини оммалаштириш муҳим масала ҳисобланади. Бу вазифалар билан боғлиқ суғурта менежменти самарадорлигини оширишда

ESG нинг ижтимоий тамойиллари долзарблиги ошади.

Мақолада шахсий суғурта тизимини ривожлантиришда бошқарув самарадорилигини ошириш борасида олиб борилган ислоҳотларни қиёсий солиштириш, статистик маълумотларни ўрганиш ва иқтисодий жиҳатдан таққослаш ва таҳлил қилиш, мантиқий фикрлаш, илмий абстраксиялаш, анализ ва синтез, индуксия ва дедуксия усулларидан кенг фойдаланилган.

Суғурта бозори инфратузилмасининг асосини суғурта бозорининг субъектлари ҳисобланган сюрвейерлар, диспашерлар, актуарийлар, суғурта аудиторлари, ихтисослашган ва кўп тармоқли маслаҳатчилар ташкил этади. Шунингдек, булар қаторига андеррайтерларни ҳам киритши мақсадга мувофиқдир».[3]

Ўзбекистонлик олимлар инфратузилма борасида қуйидаги хулосани берганлар: «Ўзбекистон суғурта бозори инфратузилмасини суғурта бозори профессионал иштирокчилари, турли соҳа ҳамда ихтисослик мутахассислари ҳамда суғуртанинг унумли фаолияти учун ёрдам берувчи фаолият турлари ўртасидаги муносабатлар ва ҳамкорлик тартибини назарда тутувчи ва асосини суғурта воситачилари (суғурта агенти, суғурта ҳамда қайта суғурта брокери), аджастер, актуарий, суғурта сюрвейери ва ассистанс каби субъектлар ташкил этади». [4]

Шахсий суғурта соҳасида фаолият юритувчи суғурталовчилар бўлиб, шахсий суғурта хизматларини таклиф этувчи, хусусан, суғурта фаолияти классификаторининг ҳаётни суғурта қилиш соҳасининг барча 7 та класси ҳамда умумий суғурта соҳасининг 1, 2 ва 18 класслари бўйича лицензия берилган суғурта компаниялари ҳисобланади.[5] Суғурталовчини лицензиялаш ҳамда унинг фаолияти назорати Молия вазирлиги томонидан амалга оширилади.

Суғурта хизматлари унумдорлиги ва муваффақиятини таъминлашга хизмат қилувчи аффилланган хизматларни суғурта бозори профессонал иштирокчилари – актуарий, аджастер, сюрвейер ва ассистанс ташкил қилади. [6]

Ўзбекистонда актуарийлар фаолияти қонунчиликка асосан, актуарий «Малака сертификатини бериш бўйича давлат хизматларини кўрсатишнинг маъмурий регламенти»га мувофиқ сертификат асосида олиб борилади.[7]

Ўзбекистоннинг институционал таркиби қуйидаги жадвалда келтирилган (1-жадвал).

1-жадвал

Ўзбекистон шахсий суғурта бозорининг институционал таркиби [8]

Суғурта бозорининг таркиби	**2021 йил**	**2022 йил**
Суғурта компаниялари сони	40	42
Жумладан, ҳаёт суғуртаси компаниялари	8	8
Суғурта брокерлари	5	5
Суғурта агентлари	8900	9536
Суғурта актуарийлари	5	5
Тиббий суғурта ассистанслари	5	5

Ўзбекистон суғурта бозори кенг тармоқли институтлар мажмуидан ташкил топишига қарамай, суғурта бозорини, хусусан, шахсий суғурта соҳасини жадал ривожлантириш, суғурта бозорининг рақобат муҳитини соғломлаштириш,

талабни шакллантириш ва аҳолиниинг ижтимоий ҳимоя эҳтиёжларини қондириш борасида мавжуд институтларни такомиллаштириш ва инфратузилманинг бугунги ҳолатда ишловчи янгиланган моделини тузиш зарурати юзага келмоқда.

Шахсий суғурта соҳасида афилланган суғурта хизматлари етарлича ривожланмаган бўлиб, ушбу йўналишнинг бугунги ҳолати юзасидан тўлиқ таҳлил олиб бориш имконияти мавжуд эмас. Шахсий суғурта соҳасида фақатгина йўлга қўйилган тиббий ассистанс хизматларини ёритиш мумкин, бироқ бу соҳада кўрсатилаётган хизматлар камчиликлардан холи эмас. Бунда муаммолар қуйидагилар билан боғлиқ:

-хусусий тиббий муассасалар тиббий суғурта полиси бўйича тиббий текширувларни нохолис ва асоссиз ортиқча белгилаши;

-хусусий тиббий муассасалар суғурталанган шахс билан келишган ҳолда суғурта ҳодисасини сохталаштириши;

-тиббий ассситанснинг тиббий муассасаларни кэшбек тизими асосида мижоз билан таъминлаши ва оқибатда суғурта ҳодисасига баҳо бериш бўйича холисликнинг йўқолиши;

-йилдан-йилга тиббий хизмат нархи нисбатан ортиб боришига қарамай, суғурта бозоридаги рақобат натижасида суғурта таърифларининг нисбатан паст қолаётгани;

-суғурта компаниясининг суғурта ҳодисалари назоратини ассистансга бериши ва тўлиқ назорат қилмаслиги.

Ўзбекистон суғурта бозорида суғурта соҳалари бўйича қайта суғурта таркиби таҳлил қилинса, шахсий суғуртанинг катта қисмини ташкил қилувчи ҳаёт суғурта тармоғида қайта суғурта операциялари амалга оширилмаганлигини кўриш мумкин.

Шахсий суғурта бозори инфратузилмасининг бугунги шароитдаги янгиланган модели қуйидагиларни таъминлайди: жамият ижтимоий барқарорлигини оширади ва миллий иқтисодиётни мустаҳкамлайди, шахсий суғурта бозорида соғлом рақобат юзага келишини таъминлайди, натижада бозор барқарор ривожланади, суғурта компаниялари фаолияти шаффофлиги ортади ва аҳолининг суғурта хизматларига ишончи мустаҳкамланади, аҳоли ва суғурта компаниялари учун янги сотиш канали яралади ва электрон савдо айланмаси ортади, иқтисодиётда янги инвестицион манбалар яралади ва ресурслар миқдори ортади.

Ўзбекистон суғурта компаниялари рентабеллигини ошириш борасида қуйидаги муҳим вазифаларни бажариш лозим:

-асосий фаолият самарадорлигига эришишда суғурта портфели даромадлигини таъминлаш;

-мижозлар билан алоқа қамровини кенгайтириш;

-янги сотиш каналларини эгаллаш;

-сотиш харажатларини минималлаштириш;

-компания рисклари ва активларининг кенг қамровли аналитикасини юритиш.

Бундан суғурта фаолиятини рақамлаштириш нафақат электрон полисларни

қонунийлаштириш, балки ана шу жараённи ишга туширишда рақамлаштиришнинг кенг қамровини ташкил этишни назарда тутиш лозим. Бунда суғурта соҳасини рақамлаштириш деганда, рақамли технологиялар воситасида суғурта савдосини амалга ошириш ва суғурта бизнес-жараёнларини бошқаришни тушуниш мумкин. Бу борада суғурта менежментига рақамлаштириш воситаларини жорий этиш муҳим ҳисобланади ва у қуйидаги жараёнларни ўз ичига олади:

-бизнес жараёнларини автоматлаштириш (ERP-тизим, CRM-тизим);

-фаолиятни интернетлаштириш (симсиз алоқа технологиялари, булутли технологиялар, он-лайн савдо технологиялари);

-катта ҳажмли маълумотлар тизими (BigData, Blockchain) ва рақамли технологияларни жорий этиш (Artificial intelligence – AI, робототехника).

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Марчева И.А. Страхование. – Нижний Новгород, 2012., 10б
2. Трифонова М.А. Риски как угрозы. Обеспечение безопасности для современного общества (на примере России и США). // Теория и практика общественного развития. 2020. № 1.
3. Под общей редакцией Турбиной К.Е. Теория и практика страхования. Учебное пособие. – М.: Анкил, 2003. – 173б.
4. Абдурахмонов И., Абдураимова М., Абдуллаева Н. Суғурта назарияси ва амалиёти. // Иқтисод ва молия, 2020. – 103б.
5. Ўзбекистн Республикаси вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 21 февралдаги 80-сонли қарори Махсус электрон тизим орқали айрим фаолият турларини лицензиялаш тартиби тўғрисидаги Ягона низом 6-иловаси Суғурталовчиларнинг (қайта суғурталовчиларнинг) ва суғурта брокерларининг суғурта фаолиятини лицензиялаш паспортининг 12-банди.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги қонуни 22, 24, 26-моддалар.
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 июндаги 305-сон қарори, 1-илова.
8. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги маълумотлари.

ЧАКАНА ТЎЛОВ ТИЗИМИ ВА БАНК ХИЗМАТЛАРИ: НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Салаев Расул Шавкатович
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси
Рақамли банк иши кафедраси мудири в.б., и.ф.ф.д. (PhD)

Мейлиев Нодиржон Аҳмаджон ўғли
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси магистранти

Молиявий глобаллашув шароитида йирик корпоратив мижозларни жалб қилиш бўйича банклар ўртасидаги рақобат кучайган бўлиб, Ўзбекистонда чакана

банк хизматлари бозори банк даромади ва рақобатбардошлигини таъминлашнинг истиқболли йўналишларидан бирига айланмоқда. Айни пайтда, банк хизматлари бозорида чакана хизматлар алоҳида ўрин тутиб, улар асосан аҳолининг молия-банк хизматларига бўлган талабини қондиришга йўналтирилмоқда. Маълумки, чакана банк хизматлари ўзининг бир қатор хусусиятлари билан ажралиб туради, хусусан, асосий истеъмолчилар сифатида жисмоний шахслар майдонга чиқади, операциялар ҳажми кичик бўлсада, корпоратив банк хизматларига нисбатан харажатлар юқорироқ бўлади, хизматлар шахсий талабларни қондиришга йўналтирилган бўлади.

Бугунги кунда рақамли технологиялар иқтисодиётимизнинг барча тармоқларига жадал кириб бормоқда. Электрон тижоратнинг ривожланиши, турли тўлов хизматларини етказиб берувчилар ўртасида рақобат муҳитининг шаклланиши ва кучайиши, чакана тўловлар бўйича транзакцион харажатларнинг қисқариб бориши, шунингдек, тўловларни амалга оширишда молиявий институтларнинг воситачиликни талаб этмайдиган инновацион ва жозибадор тўлов воситаларининг жорий қилинишини тақозо этмоқда.[81]

Бугунги кунда республикамиз тижорат банклари томонидан кўрсатилаётган чакана банк хизматлари ҳажми йил сайин ортиб бормоқда, жумладан, жисмоний шахсларни кредитлаш, жисмоний шахслардан депозитлар қабул қилиш, пластик карточкалар хизмати ва халқаро пул ўтказмалари каби чакана банк хизматларига талаб кундан кунга ортиб бормоқда.

Маълумки, банк тизимининг истеъмол ва ипотека кредити портфелларини таҳлил этилганда, банкларнинг чакана хизмати бутун мамлакатни ва аҳолининг барча қатламини қамраб олгани, натижасида банкларга мижозлари сонини оширишга, хизматларнинг мамлакатимизнинг энг чекка бурчакларигача етиб боришига шароит яратмоқда.

Чакана банк хизмати ёки ритейл сўзининг маъноси кўгина хорижий тилларда турлича талқин этилади. “Retailing” термини инглиз тилида “чакана савдо” маъносини англатса, “ketailler” сўзи француз тилида “бирон-бир нарсани бўлакларга бўлиш” деган маънони билдиради[82]. Яъни иқтисодчи олим Д.Гилбертнинг фикрича, чакана савдо билан шуғулланувчи шахс йирик ҳажмдаги товарларни олиб уларни “индивидуал истъемолчиларга сотиш мақсадида кичик миқдорларга тақсимлайди”[83]. Бу билан чакана савдони кўп такрорланадиган савдо сифатида таснифлайди. Шу билан товар ва хизматларнинг чакана савдоси якуний истъмолчилар учун мўлжалланган деб кўрсатади[84].

Бошқа иқтисодчилар эса чакана банк хизматларини уч йирик гуруҳга бўлишга харакат қилганлар. Жумладан биринчи гуруҳ олимлари чакана банк хизматларини “майда мижозларга кўрсатиладиган хизмат” деб кўрсатсалар,

---

[81] Мамадияров Зокир Тоштемирович (2021). Банкларни трансформация қилиш шароитида масофавий банк хизматлари билан боғлиқ рискларни бошқариш. Экономика и финансы (Узбекистан), (5 (141)), 12-21.

[82] Brown S. Retail Lokcation: a mikro-scale perspective. Aldershot: Avebury, 1992. P.11.

[83] Управление розничным маркетингом: перю с англ./под ред. Д.Гилберта, М., 2005. С. 10-11.

[84] Ўша ерга қаралсин.

иккинчи гуруҳ олимлари уни “банк филиалларида мижозларга кўрсатиладиган хизмат” деб тушунадилар, учинчи гуруҳ иқтисодчилари эса чакана банк хизматларини оммавий банк хизматлари бўлиб уни амалга ошириш шартлари ва ассортименти(турлари) олдиндан белгилаб қўйилгандир деб таъкидлайдилар. Бундай хизматлар жисмоний шахсларга мўлжалланган бўлиб у индивидуал характерга эга эканлигини кўрсатишга харакат қиладилар[85].

Юқоридагилардан ташқари чакана банк хизматлари жумласига банкларнинг бир қатор банк маҳсулотлари ва хизматларини ажратиб кўрсатиш мумкин. Улар қаторига шахсий ҳисоб рақамлар бўйича операциялар, кредитлаш, банк карталари, турли ўтказмалар, сейф ячейкалари билан ишлаш, қимматбаҳо металлар билан ишлаш, хорижий валюта билан ишлаш ва коммунал хизматлар бўйича имтиёзли хизмат кўрсатиш бўйича операцияларни ҳам ажратиб кўрсатиш мумкин[86].

Чакана банк хизматларини тадқиқ этиш асосида уларга хос бўлган умумий хусусиятлар қуйидагилардан иборат эканлиги аниқланган:

- чакана банк хизматларининг асосий истеъмолчилари бўлиб жисмоний шахслар ҳисобланади;
- чакана банк хизматлари кичик ҳажмлик, аммо улгаржи банк хизматларига нисбатан харажати кўпроқ операциядир;
- ушбу банк маҳсулотлари стандартлаштирилган маҳсулотлар жумласига киради. Чунки барча мамлакатларда дерялик бир турдаги маҳсулотлар билан хизматлар амалга оширилади;
- операциялар бўйича олинадиган мукофотларнинг тарифлари ўхшаш ва стратегиялари бир ҳилдир;
- мижозларнинг ўзгарувчанлиги ва уларнинг характи юқорилиги билан улгуржи операциялардан фарқланади;
- чакана банк хизматларини амалга оширишда банкларнинг автоматлаштириш даражасининг юқорилигига асосланади ва бошқалар.

Умуман олганда, чакана банк хизматларини(маҳсулотларини) таснифлаш чакана ва корпоратив банк маҳсулотлари ўртасида чегарани аниқ ўтказиш, шунингдек, тижорат банкларининг чакана бизнесини самарали бошқариш зарурияти билан боғлиқдир.

Буларнинг барчасини инобатга олган ҳолда банкларнинг чакана хизматлари мамлакатимизда кейинги йилларда жадал суръатлар билан ривожлантирилаётган банк операцияларидан ҳисобланади. Шу билан бирга банклар томонидан ўзларининг бугунги кун талабларига тўлиқ жавоб бера оладиган замонавий чакана хизматлар бозорини шакллантириш, уларни турли рисклардан ҳимоялаш ҳамда мижозлар томонидан берилган маблағлардан самарали фойдаланиш муаммолари банк тизими олдига кўплаб вазифаларни кўндаланг қилиб қўймоқда. Буларнинг барчаси албатта мамлакатимиз банк ходимлари томонидан

[85] Калистратов Н.В., Кузнецов В.А., Пухов А.В. Банковский розничный бизнес. М., 2006. С. 78.

[86] Банковские операции: учеб. пособ. для средн. Проф. Образования / под ред. Ю.И. Коробова. – М.: Магистр, 2007. – 446 с. Банковские операции: учебное пособие / кол. авторов ; под ред. О.И. Лаврушина. - М.: КНОРУС, 2007. - 384 с.

иш савияси ва даражасини ошиб боришини, яъни банк хизматларини такомиллаштириш ва уларни жаҳон андозаларига яқинлаштиришни талаб қилади.

Шу жиҳатдан олиб қараганда, республикамизда чакана банк хизматларини ривожлантиришга қаратилган стратегияни шакллантириш, бунда мижозларнинг чакана банк хизматларига бўлган талабларини тўлиқ ҳисобга олиш, чакана хизматлар бозорини банк рақобат устунлигидан келиб чиқиб мувофиқ сегментлаш муаммоларини илмий жиҳатдан ҳал этиш муҳим долзарблик касб этади.

Бугунги кунда чакана банк хизматларининг энг кўп ишлатиладиган турларидан бири бу пластик карта хизматларидир. Пластик карталарнинг банкларга ва аҳолига ўз қулайликлари мавжуд. Шунингдек, бугунги кунда интернет ва электрон тизимлар орқали турли маҳсулотлар ва хизматлар учун тўловларни амалга ошириш тобора такомиллашиб бормоқда. Пластик карточкалар ва мобиль алоқадан кенг фойдаланиш соҳа тараққиёти учун замин яратмоқда. Жумладан, истеъмол кредити, пул жўнатмалари, депозит амалиётлари каби йўналишларда ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш ривожланиш босқичида турибди.

Кейинги йилларда мамлакатимиз ҳукумати томонидан давлат учун ҳам, аҳоли учун ҳам бир қатор афзалликлар берадиган нақд пулсиз ҳисоб-китобларнинг самарали тизимини яратиш ва ривожлантиришга йўналтирилган қарорлар қабул қилинди. Албатта, янгиликни жорий этиш кўплаб саволларни туғдиради, бироқ моҳиятни тўғри тушуниш ва мазкур тўлов тизимини жорий этиш мақсадлари, шунингдек, уларнинг қулайликлари ва имтиёзларидан хабардор бўлиш, шубҳасиз, замонавий банк хизматлари ва маҳсулотларини илгари суришга имкон яратади.

Дунёнинг кўплаб етакчи мамлакатларида давлат қарзи ва миллий бюджетлар тақчиллиги муаммоси деярли ҳал этилмасдан қолмоқда, реал иқтисодиётда ишлаб чиқариш пасайиб бормоқда, жаҳон бозорида харид талабининг камайиши давом этмоқда, ишсизлик даражаси юқорилигича қолмоқда, ижтимоий кескинлик кучаймоқда.

Кредит олувчиларнинг тўловга лаёқацизлиги, ҳисоб-китоб қилишга қурби этмаётгани молия-банк тизимида жиддий муаммолар пайдо бўлишига олиб келмоқда.

Дунёнинг энг йирик давлатлари марказий банклари томонидан реал активлар билан деярли таъминланмаган пулларни чиқариш давом этаётгани, шунингдек, сунъий молиявий воситалар – деривативларнинг назорациз чиқарилаётгани кўплаб нуфузли халқаро таҳлил марказлари ва экспертларда жиддий ташвиш уйғотмоқда.

Молия ва банк бозорини ортиқча ликвидлик билан тўлдириш, бундай сиёсатни давом эттириш улкан спекулятив “кўпиклар” ҳосил бўлиши, захира валюталари ва миллий валюталарнинг қадрсизланиши, инфляция даражасининг ўсиш хавфини туғдирмоқда.

Умуман олганда, банкларда мобил банкинг хизматлари орқали чакана

тўловлар амалга ошириш учун аҳолига фақатгина қўлидаги смартфони ва мобил иловани юклаб олиш етарли бўлади. Мобил банкинг - бу мобил қурилмада (уяли телефон, планшет ва бошқалар) молиявий операцияларни амалга ошириш тизими. Мобил банкинг афзалликлари орасида смартфонинг инсонлардан ажралмайдиган восита эканлиги, бу митти воситанинг мобилни эканлиги, исталган жойда ва исталган вақтда банк ўтказмаларини амалга ошириш имкониятини яратади.[87]

Тобора ўсиб бораётган бундай муаммолар бугунги кунда глобал инқироз келтириб чиқараётган чуқур жараёнларни фақат эски восита ва принципларни тузатиш билан ҳал этиб бўлмаслигидан дарак бермоқда ва авваламбор молия ва банк тизимининг янги тузилмасини, уни назорат қилиш ва тартибга солиш механизмларини кўп томонлама асосда ишлаб чиқишни тақозо этмоқда.

ОТЧЕТНОСТЬ СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В СООТВЕТСТВИИ С МСФО

Сативалдиева Доно Абдурахмановна
доцент кафедры «Бухгалтерскоий учет» ТГЭУ

В современных условиях переход национальных компаний на Международные Стандарты Финансовой Отчетности является весьма актуальным. Причиной этого является то, что МСФО признаны одним из важнейших инструментов, обеспечивающих предоставление прозрачной и унифицированной информации о финансовом состоянии организации для различных участников рынка. Для расширения круга потенциальных инвесторов и при выходе на международные рынки необходимо предоставление отчетности с использованием МСФО [1].

Реформирование отчетности в соответствии с МСФО касается и страховых компаний. Страховой бизнес имеет свои особенности, у*чет и* отчетность страховых организаций имеет свою специфику.

Крупные страховые компании, как и все организации, формируют годовую бухгалтерскую (финансовую) отчетность составляя промежуточную отчетность по состоянию на 31 марта, 30 июня и 30 сентября. К бухгалтерской отчетности есть различные приложения. Страховые компании вправе включить в состав приложений дополнительную сопутствующую информацию, которые полезны пользователям отчетности. Из таких приложений можно увидеть влияние конкретных операций и событий на финансовое положение и финансовые результаты страховой компании.

По всем суммам, указанным в бухгалтерской отчетности за отчетный период, страховая компания должен представить сопоставимую сравнительную информацию за предыдущий отчетный период. Если у компании нет остатков по

[87] Аскаров, С. (2022). Необходимость электронных банковских и финансовых технологий в развитии розничных банковских услуг в условиях цифровой трансформации банков. *Iqtisodiyot Va ta’lim*, *23*(1), 34–40. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss1/a5

счетам учета активов, обязательств и финансового результата, такие показатели исключаются из форм бухгалтерской (финансовой) отчетности [2].

Страховая компания имеет право раскрыть дополнительную информацию в отчетности. Для этого он может добавить в отчетность строки, которые расшифруют показатели баланса и приложений к нему.

Бухгалтерский учет в страховых организациях ведется на основании МСФО и их отчетность формируется исходя из положений более тридцати МСФО. К числу которых можно отнести следующие ключевые стандарты: 1) МСФО 17 «Договоры страхования» - единственный специализированный стандарт; 2) МСФО 39 «Финансовые инструменты: признание и оценка»; 3) МСФО 32 «Финансовые инструменты: классификация»; 4) МСФО 7 «Финансовые инструменты: раскрытие информации»; 5) МСФО 10 «Консолидированная финансовая отчетность»; 6) МСФО 3 «Объединения бизнеса»; 7) МСФО 24 «Раскрытие информации о связанных сторонах»; 8) МСФО (IAS) 7 «Отчет о движении денежных средств»; 9) МСФО (IAS) 36 «Обесценение активов»; 10) МСФО (IAS) 12 «Налоги на прибыль»; 11) другие

К бухгалтерской отчетности страховой компании входит:

1. Баланс
2. Отчет о финансовых результатах
3. Приложения

Баланс включает три раздела: активы, обязательства и капитал. Активы расписывают по 28 статьям (долевые инструменты, депозиты, займы и т.д.). В раздел II включено 29 разновидностей обязательств (выпущенные долговые ценные бумаги, кредиты, займы, резервы и т.д.). В третьем разделе помимо уставного, резервного и добавленного капитала представлены строки по различным резервам.

Чтобы верно составить баланс, бухгалтер страховой компании должен воспользоваться таблицей примерной группировки счетов бухгалтерского учета в соответствии со статьями бухгалтерского баланса страховой организации [3].

Если нужно отразить влияние ретроспективного пересчета на начало предшествующего отчетного периода, компания включает в состав бухгалтерской отчетности дополнительный бухгалтерский баланс по состоянию на начало и конец предшествующего периода с учетом ретроспективного пересчета.

Отчет о финансовых результатах страховой компании бывает квартальный и годовой. Отчет содержит четыре раздела:

- страховая деятельность;
- инвестиционная деятельность;
- прочие операционные доходы и расходы;
- прочий совокупный доход.

Отчет о финансовых результатах за промежуточный отчетный период и год составляется на основе таблицы примерной группировки счетов бухгалтерского учета и символов отчета о финансовых результатах в соответствии со статьями отчета о финансовых результатах страховой организации. Если какой-либо сим-

вол отчета о финансовых результатах отсутствует в приложениях, остатки по такому символу следует отражать по той статье, которая по экономическому содержанию соответствует операции по этому символу, а при отсутствии такой статьи — по статьям «Прочие доходы» или «Прочие расходы».

В отчет о финансовых результатах страховой компании за год включаются остатки по соответствующим счетам бухгалтерского учета по учету доходов и расходов прошлого года.

Приложения к балансу и к отчету о финансовых результатах включают:

- отчет об изменениях собственного капитала страховой организации;
- отчет о потоках денежных средств страховой организации;
- примечания к бухгалтерской отчетности.

Отчет о денежных потоках включает информацию о денежных потоках от операционной, инвестиционной и финансовой деятельности.

Примечания к бухгалтерской отчетности заполняются в виде таблицы, где отражается описание страховой деятельности, инвестиций, страховых премий, доходов и расходов по процентам и т.д.

Страховые компании работают в соответствии с Налоговым кодексом и уплачивают все установленные налоги. Один из ключевых налогов — налог на прибыль. У них доходы и расходы имеют свою специфику. Так, в доходах учитывают страховые премии, вознаграждения и тантьемы, суммы возмещения перестраховщиками доли страховых выплат по рискам, переданным в перестрахование, вознаграждения за оказание услуг страхового агента, брокера и другие. К расходам страховые компании могут отнести отчисления в страховые резервы, страховые выплаты по договорам страхования, со страхования и перестрахования, вознаграждения и тантьемы по договорам перестрахования, изготовление страховых полисов и другие расходы.

Если у страховой компании есть имущество, ежегодно она обязана направлять в налоговые органы декларацию по налогу на имущество. Срок представления декларации — 30 марта года, идущего за отчетным.

Еще один популярный налог — НДФЛ. В страховых компаниях работают люди, которым начисляется зарплата. С таких выплат нужно обязательно платить в бюджет НДФЛ. Налог уплачивается и с других доходов физических лиц.

Страховые компании формируют отчетность с учетом специфики своей деятельности и сдают отчеты в электронном виде.

Таким образом, составления отчетности на основании МСФО для страховых компаний является важным шагом на пути обеспечения открытости и прозрачности страховщиков, повышения их конкурентоспособности, снижения стоимости привлекаемых ими заемных средств.

Использованная литература

1. Эргашева Ш.Т. Международные стандарты финансовой отчётности. Учебник. –Т.: Iqtisodiyot, 2021. С.305..Савельева О.В. Проблемы отражения информации о страховых резервах в бухгалтерской отчетности страховщиков по МСФО.
3.Переход на МСФО сделает страховщиков взрослее//Электронный ресурс http://www.interfax.ru/

ДИВИДЕНДНАЯ ПОЛИТИКА И ЕЕ УЧЕТ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Суюнов Ё.Б.
Ташкентский государственный экономический университет

Глобальная пандемия также оказала существенное влияние на экономику Узбекистана. На данном этапе наблюдается значительный спад инвестиционной активности во всех отраслях экономики, уменьшение инвестиционных ресурсов предприятий, спад промышленного производства из-за отсутствия реальных инвесторов, осуществляющих масштабные и финансовые инвестиции, представляющие собой основу для их быстрого вхождения в постиндустриальное общество. Устойчивое развитие сферы услуг экономики имеет особое значение в условиях, когда перед страной стоит очень важная задача по обеспечению долгосрочного роста валового внутреннего продукта ежегодно минимум на 8 %. В связи с этим важно внедрить в практику передовой зарубежный опыт по совершенствованию учета и аудита финансовых инвестиций на ведущих промышленных предприятиях экономики.

Инвестиционная политика, проводимая в Узбекистане в последние годы, безусловно, охватывает все отрасли экономики. В этой связи, «экономический рост будет достигаться, прежде всего, за счет создания конкурентоспособных производственных цепочек и увеличения инвестиций в подобные проекты. При этом поставлена задача увеличить долю частных и прямых инвестиций за счет сокращения участия государства в инвестиционной политике»[88]. Расширение инвестиционных проектов считается основой экономического развития страны. Поэтому любой рост и достижение эффективности зависят от непосредственно привлеченных инвестиций и их эффективного использования. Определение эффективности инвестиций в различные отрасли экономики обуславливается их пользой для общества и нашего народа. «Каждый потраченный сум инвестиций должен приносить нашим людям в три раза больше прибыли и увеличивать их доходы»[89]. Это обуславливает необходимость совершенствования учета инвестиций.

В этом контексте результаты анализа мировой практики показывают, что сегодня очень важное место занимает повышение экономической эффективности за счет финансовых инвестиций в услуги, полного использования возможностей увеличения занятости населения и доходов в данной отрасли, оценки целевых финансовых инвестиций, совершенствования финансового учета и отчетности. В связи с этим за годы независимости в Узбекистане проведены масштабные реформы по расширению сферы услуг, в частности, повышению объемов услуг.

---

[88] https://president.uz/uz/lists/view/4057 Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года.

[89] https://president.uz/uz/lists/view/4254 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida joriy yilda amalga oshiriladigan ishlar muhokamasi yuzasidan o‘tkzilgan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan., Toshkent, 2021-yil 24-mart

В ближайшей перспективе для решения важнейших социально-экономических задач в нашей стране, таких как диверсификация экономики, активное развитие регионов, увеличение финансовых инвестиций, повышение доходов и уровня жизни населения предпринимаются последовательные меры по развитию отраслей с высоким потенциалом, в том числе сферы услуг.

На данном этапе недостаточное разрешение вопросов учета финансовых инвестиций не позволяет пользователям финансовой отчетности иметь полное представление об истинной стоимости активов и пассивов предприятия. Это, в свою очередь, приводит к затруднениям при проведении инвестиционных операций и препятствует эффективной оценке инвестиционных рисков, контролю за структурой капитала и эффективностью инвестиционных проектов. Поэтому актуальность проблемы изменения существующей методики учета финансовых инвестиций очень важна.

Порядок выплаты дивидендов в действующих акционерных обществах регулируется законодательными документами. В частности, в соответствии с Законом «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров», порядок выплаты дивидендов за отчетный период следующий: «дивиденды распределяются между акционерами пропорционально количеству и типу принадлежащих им акций»[90]. Вместе с тем отмечается, что согласно статье 25 Закона «Об обществах с ограниченной и дополнительной ответственностью» «сроки и порядок выплаты дивидендов определяются уставом общества или решением общего собрания участников»[91]. Хотя данный законодательный акт устанавливает порядок выплаты дивидендов акционерными обществами или обществами с ограниченной ответственностью, он не определяет порядок расчета дивидендов. На практике этот факт вызывает неудобство при расчете дивидендов по типу общества.

Данные промежуточные дивиденды рассчитываются после принятия осуществляющими деятельность акционерными обществами и обществами с ограниченной ответственностью решения о выплате дивидендов за первый квартал, полугодие, девять месяцев финансового года.

В результате проведенных автором исследований и анализа исследовательских объектов разработан следующий порядок расчета дивидендов. В частности, акционерные общества определяются следующим образом:

$$\sum Д = \frac{Ас \times Нк \times \%}{100}, \quad (1)$$

где: ∑Д – сумма дивидендов; Ас – реестр акционеров общества; Нк – номинальная стоимость акций; % – процентная ставка на выплату дивидендов на основании решения общего собрания акционеров о выплате промежуточных

[90] Закон Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров». ЗРУз-370 от 6 мая 2014 года. Статья 48, пункт 5 (Сборник законодательных актов Республики Узбекистан, 2014 год., №19, Национальная база законодательных актов, 21.04.2021 г., №03/21/683/0375)

[91] Закон Республики Узбекистан «Об обществах с ограниченной и дополнительной ответственностью», ЗРУз-310-№II, от 6 декабря 2001 года (Бюллетень Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2002 г., №1, статья 10; Национальная база законодательных актов, 21.04.2021 г., №03/21/683/0375н)

дивидендов.

По данной формуле можно определить размер промежуточных дивидендов в акционерных обществах. Во время расчета годовых дивидендов по окончании отчетного года рассчитывается сумма дивидендов с вычетом диведендов, выплаченных промежуточно.

При определении размера дивидендов, подлежащих выплате обществом, необходимо руководствоваться следующими принципами:

- прозрачность механизма определения размера дивидендов;
- балансирование краткосрочных (прибыль) и долгосрочных (развитие компании) интересов акционеров;
- нацеленность на повышение инвестиционной привлекательности и капитализации общества.

Таким образом, размер дивидендов на акцию определяется в следующем порядке, т.е.

$$ДМТ_{оа\ (иа)} = \frac{\sum Д}{С_{оа\ (иа)}},$$

где: **ДТМ$_{оа\ (иа)}$** – размер выплаты дивидендов в расчете на одну обыкновенную (привилегированную) акцию; **∑Д** – фонд выплаты дивидендов (сумма дивидендов к выплате);

С$_{оа\ (иа)}$ – количество обычных акций, размещенных обществом.

При этом размер фонда выплаты дивидендов (сумма дивидендов, подлежащих выплате) указывается в Положении «О дивидендной политике», разработанном обществом.

В целях корректного определения дивидендной политики и обеспечения единого подхода на предприятиях акционерного общества «Узбектелеком» автором разработана типовая форма Положения «О дивидендной политике» для предприятий данной отрасли (таблица 1).

Таблица 1

Предлагаемая типовая форма «Положения о дивидендной политике» АО «Узбектелеком»

№	АО «Узбектелеком» (действующий порядок)	№	АО «Узбектелеком» (предложение)
1.	Общие положения	1.	Общие положения
		2.	Принципы дивидендной политики
2.	Определение и расчет суммы дивидендов	3.	Методы определения и расчета размера дивидендов
3.	Условия и порядок выплаты дивидендов		
4.	Порядок выплаты объявленных дивидендов	4.	Порядок выплаты и налогообло-жения объявленных дивидендов
5.	Порядок раскрытия информации	5.	Раскрытие информации
6.	Изменения и дополнения в Положение	6.	Заключительные положения

В предложенном автором «Положении о дивидендной политике» подведомственных предприятий акционерного общества «Узбектелеком» обеспечивается единство методов расчета дивидендов, их выплаты, а также соответствующих

прав и обязанностей.

Вместе с тем, предложенное автором «Положение о дивидендной политике» предусматривает возможность использования двух методов при расчете дивидендов по финансовым инвестициям (акциям) в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности.

В соответствии с настоящим стандартом при расчете дивидендов по финансовым инвестициям обоснована целесообразность определять их исходя из организационно-правовой формы общества:

1. Стоимостный метод. Применение стоимостного метода расчета дивидендов в действующих акционерных обществах. При использовании данного метода инвестор вкладывает свой капитал в другое предприятие по его первоначальной стоимости. Его основной принцип заключается в том, что стоимость инвестиций не меняется независимо от финансового состояния дочерних обществ, полученные от них дивиденды учитываются как доходы головного общества. Рекомендуется использовать данный метод в следующих случаях:

когда дочернее общество впоследствии приобретается для продажи в ближайшем будущем и контроль над ним также является временным;

когда дочернее общество работает на определенных долгосрочных существенных условиях, которые значительно снижают его способность переводить средства в головное общество. Например, могут быть ограничения на выплату дивидендов организацией, кредитующей дочернее общество.

2. Долевое участие. Метод долевого участия в обществах с ограниченной ответственностью. Рекомендуется использовать данный метод в тех случаях, когда головная компания имеет значительное влияние и контроль над дочерним обществом, и состоит из:

текущая стоимость инвестиции меняется в зависимости от результатов деятельности дочернего общества: когда оно получает прибыль, стоимость инвестиции увеличивается, а убыток уменьшается;

прибыль от инвестиций головного общества отражается пропорционально доле владения: чем больше его доля в дочернем обществе, тем больше стоимость инвестиции на балансе головного общества;

полученные дивиденды не рассматриваются как доход, а выражаются как уменьшение стоимости инвестиций.

Список использованных источников

1. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 29 декабря 2020 года. https://president.uz/uz/lists/view/4057
2. Из выступления Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева на совещании видеоотборщиков, состоявшемся в связи с обсуждением работ, которые предстоит провести в этом году в рамках программ «Процветающее село» и «Процветающее микрорайон», Ташкент, 24 марта 2021 г. https://president.uz/uz/lists/view/4254
3. Закон Республики Узбекистан «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав

акционеров». ЗРУз-370 от 6 мая 2014 года. Статья 48, пункт 5 (Сборник законодательных актов Республики Узбекистан, 2014 год., №19, Национальная база законодательных актов, 21.04.2021 г., №03/21/683/0375)

4. Закон Республики Узбекистан «Об обществах с ограниченной и дополнительной ответственностью», ЗРУз-310-№II, от 6 декабря 2001 года (Бюллетень Олий Мажлиса Республики Узбекистан, 2002 г., №1, статья 10; Национальная база законодательных актов, 21.04.2021 г., №03/21/683/0375н)

СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРГА ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Тураев Абдурахим Нортожиевич,
ТДИУ «Бухгалтерия ҳисоби» кафедраси профессори, и.ф.д.

Сакижонов Отабекжон Фурқат ўғли
магистр, «MY WORK» МЧЖ бухгалтери

Ўзбекистон Республикасида молия бозорини янада ривожлантириш, аҳолини сифатли молиявий хизматлар билан қамраб олиш кўламини кенгайтириш, суғурта ташкилотлари фаолиятини қўллаб-қувватлаш, шунингдек, ушбу соҳада истеъмолчиларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари изчил амалга оширилмоқда.

Шулардан бири бу Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.08.2019 йилдаги ПҚ-4412-сонли “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ҳисобланади.

Ушбу Қарорга асосан қуйидагилар суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва жадал ривожлантиришнинг асосий йўналишлари этиб кўрсатилсин:

суғурта соҳасида норматив-ҳуқуқий базани такомиллаштириш;

суғурта фаолиятини тартибга солиш тизимини институционал ривожлантириш;

суғурталовчиларнинг инвестиция фаолиятини ривожлантириш;

суғурта брокерлари фаолиятини фаоллаштириш, суғурта агентларининг ишлаш тизимини такомиллаштириш, банк суғурта механизмларини жорий этиш;

янги инновацион суғурта маҳсулотларини жорий этиш;

суғурта фаолиятини ташкил этиш ва тартибга солиш соҳасида замонавий ахборот технологияларидан кенг фойдаланиш;

суғурта бозори мутахассисларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимини такомиллаштириш;

миллий суғурта бозорини халқаро ва хорижий суғурта бозорлари билан интеграциялаш орқали ошириш.

Ўзбекистон Республикасида яна бир асосий иқтисодий йўналишлардан бири бу суғурта бозори деб эътироф этилди ва шунга асосан Сенат томонидан 27

август 2021 йилда «Суғурта фаолияти тўғрисида»ги Қонун маъқулланди.

Ушбу Қонуннинг 39 моддасига асосан Суғурталовчилар (қайта суғурталовчилар) акциядорлик жамияти шаклида ташкил этилсин деб қабул қилинган. Шунга асосан 2022 йилдан бошлаб суғурта ташкилотлари маъсулияти чекланган жамият шаклидан акциядорлик жамияти шаклига ўзгартирилди. Ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.02.2020 йилдаги ПҚ-4611-сонли “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида қарори”га асосан акциядорлик жамиятлари, тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар 2021 йил 1 январдан бошлаб МҲХС асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этади ва 2021 йил якунларидан бошлаб молиявий ҳисоботни МҲХС асосида тайёрлайди деб кўрсатиб ўтилган. Шунга асосан 2021 йилдан бошлаб суғурта ташкилотлари ўзининг миллий стандартлар бўйича тайёрланган молиявий ҳисоботларини халқаро стандартларга трансформация қилинаётганини таъкидлаш жоиз.

Суғурта ташкилотларининг трансформациялаш жараёнидаги бухгалтерия ўтказмалари

№	Хўжалик муомаларининг мазмуни	Счётларнинг боғланиши	
		Дебет	Кредит
1	Ходимларнинг таътили бўйича резерв ҳисобланди	Тақсимланмаган фойда (қопланмаган зарар)	Ҳисобдор шахсларга бўлган қарз
2	Келгуси давр харажатлари корректировка қилинди	Тақсимланмаган фойда (қопланмаган зарар)	Келгуси давр харажатлари
3	Материаллар бўйича корректировка қилинди	Тақсимланмаган фойда (қопланмаган зарар)	Материаллар
4	Асосий воситаларни қайта баҳолашга тузатиш қилинади	Асосий воситаларни қайта баҳолаш	Узоқ муддатли активларни қайта баҳолаш бўйича тузатишлар
5	Асосий воситаларнинг эскиришини қайта баҳолашга тузатиш қилинади	Асосий воситаларни эскиришини ҳисобга олувчи счётлар	Асосий воситаларни қайта баҳолаш
6	Суғурта харажатлари бўйича берилган бўнаклар корректировка қилинди	Тақсимланмаган фойда (қопланмаган зарар)	Суғурта фаолиятининг субъектларига берилган бўнаклар
7	Дебиторлик қарзлари бўйича резерв ҳисобланди	Тақсимланмаган фойда (қопланмаган зарар)	Даргумон қарзлар бўйича резерв
8	Суғурта резервлари бўйича тузатиш қилинди	Тақсимланмаган фойда (қопланмаган зарар)	Суҳурта резервлари

Государственная система финансирования здравоохранения Республики Узбекистан исторически сложилась на базе советской модели здравоохранения, суть которой заключалась в бесплатном оказании медицинских услуг населению государственными медицинскими учреждениями с целью обеспечения равного доступа всех категорий населения к медицинской помощи. Для данной системы были характерны следующие принципы:

основным источником финансирования здравоохранения являются государственные налоги;

структурами, аккумулирующими финансовые ресурсы здравоохранения, выступают бюджеты двух уровней – республиканского и областного (регионального);

преимущественно структурный принцип финансирования медицинской помощи (возмещение расходов учреждения в целом, а не оплата отдельных медицинских услуг);

государственный некоммерческий статус медицинских учреждений и их финансирование согласно финансовому законодательству;

принцип экономии при использовании ресурсов;

централизованное (унитарное) планирование и управление системой;

тарифный способ оплаты труда врачей;

правила найма и оплаты труда определялись государством;

административный контроль качества оказания медицинской помощи.

Распределение ресурсов на здравоохранение осуществляется на основе метода сметного финансирования, при котором бюджеты медицинских учреждений определяются в соответствии со сметой расходов, исходя из показателей пропускной способности медицинского учреждения: количества больничных коек, расчетного числа амбулаторно-поликлинических посещений врачей за смену.

Данные показатели являются базовыми для определения отдельных видов затрат. Так, например, в зависимости от коечной мощности стационара определяется общее количество требуемого медицинского персонала и соотношение должностей, различающихся по уровню оплаты труда. Необходимые затраты на медикаменты, приобретение мягкого инвентаря (постельного белья и пр.), питание больных рассчитываются как произведение количества больничных коек на нормативные показатели удельных затрат соответствующих видов в расчете на одну больничную койку.

Указанная система сметного финансирования сферы здравоохранения не соответствует международной практике, что приводит к неэффективному использованию финансовых ресурсов и хроническому недофинансированию отрасли.

Кроме того, учитывая низкую эффективность работы по профилактике и раннему выявлению заболеваний, патронажу и формированию здорового образа жизни населения, отсутствие ответственности граждан за сохранение и поддержание своего здоровья, а также механизмов воздействия на населения по данному вопросу, происходит увеличение обращений граждан за специализированной медицинской помощью в республиканские медицинские центры, что существенно увеличивает финансовую нагрузку на систему здравоохранения республики.

Выполнение и достижение поставленных целей и задач планируется в рамках поэтапного внедрения обязательного медицинского страхования на всей территории Республики Узбекистан с полным охватом граждан республики программой обязательного медицинского страхования к 2025 году.

Механизм реализации предусматривает изменение устаревших методов сметного и коечного финансирования учреждений здравоохранения на новый механизм стратегических закупок медицинских услуг, Разные способы оплаты будут вводиться для разных видов помощи с учетом их особенностей:

Для первичной медико-санитарной помощи: внедрение комбинированного метода оплаты на основе подушевого норматива с дифференцированными поправочными коэффициентами, учитывающими тип учреждений, плотность населения, заболеваемость и другие факторы, влияющие на здоровье человека и т.д., а также возможность оплаты по результатам и качеству по приоритетным показателям.

Для стационарной помощи: внедрение метода оплаты «за пролеченный случай» по клинико-затратным группам со стратегическим определением стоимости оказанных услуг и необходимыми ограничениями.

Внедрение новых механизмов финансирования и поэтапный переход к контрактной форме работы по программе гарантированных государством медицинских услуг обеспечит внедрение эффективных механизмов целевого и рационального использования средств системы обязательного медицинского страхования и увеличит ответственность граждан за сохранение, поддержание и укрепление собственного здоровья.

Использованная литература

1. Указ Президента Республики Узбекистан №УП-5590 «О комплексных мерах по коренному совершенствованию системы здравоохранения Республики Узбекистан« от 7 декабря 2018 года.
2. Антропов В.В. Экономические моделы социальной защиты населения в государствах ЕС. Автореф. дисс. на соис. уч. степ. докт. эк. наук. – М.: 2007.– 48с.;
3. Бекмуродов А.Ш. и автор. колл. Человеческое развитие. Учебник. – Т.: «Фан ва технология», 2012. – 376 с.;
4. Вахабов А.В. Бозор муносабатлари тизимидаги ижтимоий фондлар. Монография. – Т.: «Шарқ», 2003. – 320 б.;
5. «Ijtimoiy siyosat». O‘quv qo‘llanma i.f.d., prof, A.V. Vaxabovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: «MUMTOZ SO‘Z», 2019. 312 bet.;
6. Ражабов Ў.Д. Ижтимоий хизматлар соҳасида хусусий тадбиркорликни ривожлантиришнинг назарий жиҳатлари ва устувор йўналишлари. И.ф.н. илм. дараж. ол. учун. баж. дис. автореф. – Т., 2008. – 26 б.;
7. Нуриллаев А.С. Ўзбекистонда фермер ва деҳқон хўжаликларини суғурталаш масалалари. И.ф.н. илм. дараж. ол. учун. баж. дис. автореф. – Т., 2007. – 28.;
8. Шеннаев Х.М. Суғурта агентлари учун қўлланма.-Т. Молия-иқтисод.,2011.- 65 б.;
9. Базаров З.Х. Ўзбекистонда тиббий суғурталаш амалиётини такомиллаштириш. И.ф.ф.д (PhD) илм. дараж. ол. учун. баж. дис. автореф. – Т., 2021. – 26 б.;

УЗОҚ МУДДАТЛИ АКТИВЛАРНИНГ СУҒУРТАЛАШ ҲИСОБИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Усмонов Фаррух Обитжонович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети,
мустақил изланувчи

Кўплаб иқтисодчилар олимлар суғуртанинг моҳиятидан келиб чиқиб, иқтисодий категория сифатида қарайдилар. Чунки, суғурта иқтисодий категорияларга хос бўлган ўзига хос хусусиятларнинг кенг доирасини намойиш этади. Масалан, белгиловчи хусусияти - қайта тақсимлаш муносабатларининг мавжудлиги. Жумладан, суғурта жараёнлари пайтида, хавф - хатар харажатлари қайта тақсимлади. Чунки, суғурта ташкилотлари тахмин қилади, таваккал қилади ва тегишли мукофотларни олади. Бунда суғурта таваккалчилиги хилма-хилдир. Суғурта ташкилотларида таваккалчиликни баҳолаш ва бошқариш жараёни алоҳида аҳамиятга эга. Таваккалчилик тасодифийлик ва эҳтимоллик хусусиятларига эга. Ноқулай оқибатларга олиб келиши мумкин бўлган турли ҳодисалар рўй бериши эҳтимоли анча катта. Суғурта шартномасини тузиш ва унинг қиймати таваккалчилик билан боғлиқ воқеа содир бўлиши мумкин бўлган эҳтимоллик даражасига боғлиқ.

Суғурта таваккалчилиги - тахмин қилинаётган воқеа бўлиб, ушбу воқеа юз берган тақдирда суғурта амалга оширилади.[1]

Суғурта муҳофазаси соҳасидаги иқтисодий ҳодисаларнинг ўзаро боғлиқлиги асосий кўриниши хавфлардир. Масалан, суғурта шартномасини тузишда жорий ва келажакдаги даврлар учун суғурта ҳимоясига бўлган эҳтиёж қондирилади.

Суғуртани ривожлантириш жараёнида иштирокчиларнинг кўплиги таъминланади ва суғурта жамияти шаклланади. Суғурта объектлари ўртасидаги сезиларли фарқларни сақлаб қолган ҳолда, суғурта манфаатларининг ўзаро таъсири қуйидаги субъектлар томонидан таъминланади: давлат, ташкилот, жамият ва шахс.

Бизнес ва инсон ҳаётида хавф-хатарларнинг олдини олишда иқтисодий, ташкилий ва молиявий манфаатдорлик бўлиши керак. Масалан, суғурта шартномасини тузишда жорий ва келажакдаги даврлар учун суғурта ҳимоясига бўлган эҳтиёжлар қондирилади.

Анъанага кўра, суғурта умумий жавобгарлик ва зарарни ёпиқ тақсимлаш билан тавсифланади. Қайта тақсимлаш муносабатлари зарарни тахминий ва вақтинчалик қайта тақсимлаш жараёнида вужудга келади. Шу билан бирга, қайта тақсимлаш чегаралари вақт ва ҳудудий жиҳатларга мувофиқ белгиланади. Шунга кўра, бахтсиз ҳодисалар ва уларни молиявий қўллаб-қувватлаш натижаларига кўра жавобгарликни қайта тақсимлаш мавжуд. Иқтисодиётни ривожланиб бориши билан жамият аъзолари суғурта зарурлигини англаб борадилар. Фуқаролар ва тадбиркорлик субъектлари маблағларни суғурталаш учун ишлатишга тайёрлигини намойиш этмоқдалар. Суғурта муносабатларининг иштирокчилари суғурта мукофотларининг бир қисмини захирага қўйиш зарурлигини биладилар.

Суғурта фаолиятида суғурталовчи ташкилот ҳам суғурталанувчи субъект ҳам таваккалчиликка асосланади. Шунинг учун ҳам суғурта фаолиятида кўпроқ эхтимолллик даражаси юқори бўлади. Бундан келиб чиқиб, суғурта мукофотларининг миқдори ҳам шартли равишда бергиланади. Суғурта шартномаси шартларига мувофиқ етказилган зарарни қоплаш компенсация, эквивалентлик ва пул маблағларини нисбий (махсус) қайтариш тамойилларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилади. Шунингдек, суғурта фаолиятида ўзини ўзи таъминлаш (қоплаш) тамойилига асосланади.

Суғурта фаолиятида суғурталанувчи субъктларнинг узоқ муддали активларини суғурталаш миқдори юқори даражага кўтарилмоқда. Масалан, транспорт суғуртаси эволюцион ривожланишдан революцион ривожланишга ўтди, У мустақил алоҳида ҳудудга ажратилган, масалан, автомобиль суғуртаси. Кўп ҳолларда суғуртанинг айрим турларининг ихтисослашуви мавжуд эди. Анъанавий транспорт суғуртаси дастлаб транспорт рисклари сифатида таснифланмаган таваккалчиликдан фойдаланилган. Товарларни оралиқ пунктларда жўнатишдан олдин ва етиб келиш жойида сақлаш бўйича суғурта қопламасининг вақт ўтиши билан кенгайтирилиши шунингдек, фуқаролик жавобгарлиги тўғрисидаги даъволарнинг денгиз кемаларини комплекс

суғуртасига киритилиши бунга мисол бўла олади.

Транспорт суғуртасининг энг муҳим йўналишлари: денгиз суғуртаси, транспорт суғуртаси, авиация суғуртаси, қўшма транспорт суғуртаси (турли транспорт турларида ташиш учун) ва талабга мувофиқ шаклланадиган бошқа комбинацияланган суғурта маҳсулотлари. Транспорт суғуртасининг асосий хусусияти - бунда юк ва одамларни ташиш билан боғлиқ манфаатлар суғурталанади. Шунингдек, транспорт суғуртаси турли хил мумкин бўлган фавқулота зарарларни қоплайди. Бу хусусият суғурта қопламасини шакллантиришга индивидуал ёндашувни таққазо қилади. Яъни, транспорт суғуртаси - транспорт воситаси ёки ташилаётган юк билан боғлиқ мулкий манфаатлар шартномасида кўрсатилган зарарни, ҳаракат пайтида ёки ташишга тайёргарлик кўриш пайтида юзага келиши мумкин бўлган турли хил хавфларни алохида-алохида суғурталайди.

Автотранспорт суғуртаси, автомашинанинг жавобгарлигини суғурта қилишдан фарқли ўлароқ, қонун талаб қилмайди. Унинг ёрдами билан сиз ўз автомобилингизни суғурта қиласиз. Ушбу турдаги суғурта комплекс суғурта деб аталади. Хорижий давлатларда автомашинанинг жавобгарлигини суғурталашда “Каско” усулидан фойдаланилади. “Каско” сўзи испан тилидан олинган бўлиб, “Бўлим” деган маънони англатади.

Каско суғуртаси: зарар; йўқотиш; транспорт воситасини ва унга бириктирилган ёки қулф ва калит остида сақланган қисмларини суғурталашдир. “Каско” суғуртаси доирасида суғуртачиларга иккита вариантни таклиф қилаинади: тўлиқ бўлмаган суғурта ва тўлиқ суғурта. Автомобиль суғуртасининг ушбу турлари қопланадиган хавф-хатарлар миқдори билан фарқланади. Ушбу ҳажм суғурталовчи билан эркин келишилиши мумкин ва турли суғурта компаниялари орасида фарқ қилади.

Тўлиқ бўлмаган суғуртада суғурта қопламаси доирасига қуйидагилар киради:

1. Ёнғин ва портлаш натижасида зарар кўрилганда. Машинанинг ўзи ёнаётган бўлиши шарт эмас. Суғурта қопламаси тутун, куйиниш ёки иссиқликнинг бевосита таъсирини ҳам ўз ичига олади.

2. Ўғирлик туфайли зарар кўрилганда. Бунда нафақат ўғирлик, талончилик ва яширин ўғирлик, ўғирликга уриниш пайтида юзага келадиган зарар ҳам суғурта қилинади.

3. Довул, дўл, чақмоқ ва сув тошқини сабабли зарар кўрилганда. Ушбу табиий офатлар автомобилга бевосита таъсир қилиши мумкин. Ушбу табиий офатнинг автомобилга таъсиридан келиб чиқадиган зарарлар ҳам суғурта қилинади.

4. Ёввойи ҳайвонлар етказадиган зарарлар. Ҳаракатланувчи автомашина билан ёввойи ҳайвоннинг (ёввойи чўчқа, тулки, бўри, қуён ва бошқалар) тўқнашуви натижасида автомашиналарга этказилган зарар суғурта қилинади. Бунда тўқнашувнинг олдини олишга уриниш натижасида кўрилган зарарлар қопланмайди.

5. Шишаларнинг шикастланиши. Автомобилнинг шиша қисмларига

етказилган зарар, ҳатто улар сунъий материалдан, масалан, йўналиш кўрсаткичларидан тайёрланган бўлса ҳам, қопланади.

6. Қисқа туташув туфайли симларнинг шикастланиши. Кабелга этказилган зарар (кабелнинг бир қисмини алмаштириш, шу жумладан материаллар ва меҳнат харажатлари) қопланади.

Тўлиқ суғурта эса юқорида кўриб ўтилган тўлиқ бўлмаган суғурта билан қопланадиган барча зарарларни шунингдек, бахтсиз ҳодисалар билан боғлиқ барча зарарларни ҳамда учинчи шахсларнинг безорилик ва ғаразли ҳаракатларидан келиб чиқадиган зарарларни қоплайди. Агар бахтсиз ҳодиса автомобилга тўғридан-тўғри, ташқаридан, тўсатдан, механик куч билан таъсир қилса ва шикастланишга олиб келадиган бўлса, унда тўлиқ суғурта остида суғурта қилинган зарар юзага келади. Бунда безоричилик ҳаракати оқибати бўлса ва автомашина эгасига кўпроқ тасодифан зарар етказилган бўлса, қабул қилинади. Муайян транспорт воситаси атайлаб тўлиқ суғурта доирасида автомашинанинг шикастланиши (таъмирлаш харажатлари), йўқ қилиниши (сотиб олиш харажатлари) ёки йўқолиши (ўғирланиши) натижасида юзага келадиган зарарлар ҳам қопланади.

Қуйидаги холатлар суғурта қопламасига кирмайди:

такомиллаштириш ва ўзгартиришлар;

эскирган қисмларни таъмирлаш;

транспорт ва рўйхатга олиш харажатлари;

тўхтаб туриш вақти ва автомобиль ижараси харажатлари;

ёқилғи ва бошқалар.

Тўлиқ суғурталашда суғурта ҳимояси қуйидаги холларда чекланади:

айрим рискларни суғурта қопламасидан чиқариб ташлаш;

ҳуқуқий мажбуриятлар бузилган тақдирда;

шартнома мажбуриятлари бузилган тақдирда.

Автотранспорт воситалари эгаларининг жавобгарлиги ва атом энергияси оқибатларини суғурталашда қўлланиладиган суғурта қопламасидан истиснолардан ташқари, тўлиқ суғуртада қуйидаги истиснолар ҳам қўлланилиши мумкин:

1. Автотранспорт ҳодисалари содир бўлганда. Мақсад юқори тезликка эришиш бўлган барча автопойгалар (шу жумладан расман рўйхатга олинган воқеалар) суғурта қопламасидан чиқарилади.

2. Қўзғолон ёки ички тартибсизликлар амалга оширилганда. Қўзғолон, ёки ички тартибсизликлар, ҳарбий ҳодисалар, ҳукумат фармойишлари ёки зилзилалар натижасида тўғридан-тўғри ёки билвосита этказилган зарарлар учун суғурта қопламаси мавжуд эмас. Агар зарар қасддан ёки қўпол эҳтиётсизликдан келиб чиққан бўлса, суғурта қопламаси бундан мустасно. [2]

Бизнинг фикримизча, суғурталовчи ташкилотларида ҳисоб сиёсатини шакллантиришда юқорида келтирилган холатларни жумладан, автотранспорт воситаларини сақлаш ва улардан фойдаланиш натижасида юзага келадиган ходисаларнинг ўзига хос хусусиятларни инобатга олиниши уларнинг ҳисобини ташкил қилишда катта аҳамиятга эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон республикаси “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги қонуни Қонунчилик палатаси томонидан 2021 йил 15 июнда қабул қилинган.
2. Страхование. Учебник / [Е. Г. Князева, О. А. Бойтуш, Т. Д. Одинокова, Е. А. Разумовская, Л. И. Юзвович, Ю. Т. Ахвледиани] ; под общ. ред. Е. Г. Князевой ; М-во науки и высшего обр. Рос. Федерации, Урал. гос. экон. ун-т. – Екатеринбург : Изд-во Урал. ун-та, 2019. – 241 с.

ИСЛОМ СУҒУРТАСИГА ЎТИШ САБАБЛАРИ

Ўктамов Жамшид Ўктамович
Ўзбекистон Республикаси Банк-молия академияси,
Суғурта компанияларни бошқариш мутахассислиги
магистратураси тингловчиси

Молиявий муомалалар тартибга солинмаса, уларнинг қоидалари бўлмаса, кишилар орасида келишмовчиликлар кўпайиши аниқ. Шунинг учун ҳам Аллоҳ таоло бу ишни Ўз зиммасига олган ва умумий таълимотларни баён қилиб берган. Сўнгра Пайғамбаримиз алайҳиссалом орқали бу ишларнинг тафсилотини йўлга қўйган. Шу тариқа савдо сотиққа оид исломий ҳукмлар мусулмонлар ҳаётига татбиқ қилинган. Исломдан олдинги даврдаги бу борада шаклланган нотўғри ҳукмлар бирин-кетин бекор бўла бошлаган. Кейинчалик фуқароларимиз ушбу мавзуда келган оят ва ҳадислардан чиқадиган ҳукмларни тартибга солиб, ижтиҳод даражасига етмаган мусулмонлар учун уларга ёрдам тариқасида осонлаштириб, тушунтириб беришган.

Ҳозирги кунимизда одамлар орасида молиявий муомалаларда турли келишмовчиликлар, уруш-жанжаллар ва маҳкамабозликлар чиқаётгани ҳеч кимга сир эмас. Бу каби нохуш ҳолатларни камайтириш учун нима қилиш лозим? Бизнингча, шариатимизда кўрсатилган таълимотларни яхшилаб ўрганиб, уларга амал қилиш зарур.

Тарих барча ўтган авлодларнинг ҳаёт мадрасасидир. Тарих орқали тириклар ўзлари учун манфаатли нарсани ўрганиб, унга амал қиладилар ҳамда ўзларига зарар етадиган нарсалардан воқиф бўлиб, ундан четда бўладилар.

Ислом тарихи деганда, одатда Ислом давлатлари ҳамда мусулмон халқларнинг ваҳий нозил бўлган илк даврдан бошлаб ҳозирги кунгача бўлган тарихи назарда тутилади. Аммо аслида ушбу тарих дунё бошланганидан то ҳозирги, биз яшаб турган пайтгача бўлган даврни ўз ичига олади. Зеро, бу тарих илк инсон, илк пайғамбар – Одам алайҳиссаломдан бошланади.

Сўнгги бир неча ўн йилликлардан буён мусулмонлар ҳаётларини Исломий қоидалар асосида қайта қуришга ҳаракат қилиб келмоқдалар. Улар Ғарбнинг яқин ўтган асрлар давомида сиёсий ва иқтисодий жиҳатдан ҳукмронлиги туфайли ижтимоий-иқтсодий соҳаларда аввалги анъаналарга тўлиқ амал қилишдан маҳрум бўлдик, деб билишади. Шу сабабли сиёсий эркинликка эришган кўпгина мусулмонлар ўз ҳаётларини Исломий тамойилларга мос тарзда қайта тиклашга

интилмоқдалар. Улар учун энг катта қийинчилик иқтисодий соҳада бўлиб, амалдаги молиявий ташкилотларни шариат буйруқларига мос равишда ислоҳ қилишдир. Бутун молия тизими рибога асосланган муҳитда молиявий ташкилотларни рибодан холи тарзда қайта қуриш жуда катта меҳнат талаб қилади.

Шариат ва унинг иқтисодий таълимотидан бехабар айрим кишилар фоизни бекор қилиш туфайли банк ва молиявий ташкилотлар тижорат фаолиятини йўқотиб, хайрия ташкилотига айланиб қолади, молиявий хизматлар кутиладиган фойдадан маҳрум бўлади, деб ўйлашади. Бундай тасаввур, албатта, нотўғри.

Шариатда фоизсиз қарз бериш хайрия фаолиятидан ҳисобланади, фақат жуда кам ҳолларда тижорат мақсади ҳам кўзланиши мумкин. Агар тижорат мақсадида пул бериш кўзда тутилаётган бўлса, Ислом шариати бундай молиялаштиришга бошқача тамойилларни таклиф қилади. Бу тамойилларни “Қарз берувчи киши хайрия мақсадида пул беряптими ёки берган пулидан фойда кўришни мақсад қиляптими?" саволига жавоб бериш орқали тушуниш мумкин. Агар у қарз олувчига фақат ёрдам беришни қасд қилган бўлса, берилган қарз танасининг қайтарилиши таъминланади ва кафолатланади, аммо ундан ортиқча ҳар қандай қийматни ундириш жоиз ҳисобланмайди. Агар у пулни пул олувчининг фойдасига шерик бўлишни қасд қилиб бераётган бўлса, унинг фойдасига ҳам ўзаро келишилган нисбатда шерик бўлади, шунингдек, зарари ҳам улар ўртасида тақсимланади.

Фоизни молиявий фаолиятдан бартараф қилиш молиявий ташкилотни фойда кўришдан маҳрум этмайди. Агар молиялаштириш тижорий мақсадда қилинса, у фойда ва зарарга шериклик ғояси бўйича, яъни Ислом тижорат ҳуқуқининг аввалидан қўлланилиб келаётган **мушорака** ва **музораба** битимлари асосида амалга ошириш мумкин.

Аммо иқтисодиётда баъзи ҳолларда мушорака ва музораба орқали молиялаштиришни амалга ошириб бўлмайдиган соҳалар ҳам мавжуд. Ҳозирги замон уламолари бу каби соҳаларда молиялаштириш учун Ислом молиясининг **муробаҳа**, **ижара**, **салам** ва **истисна** каби бошқа воситаларини таклиф қилишади. Сўнгги даврда ушбу Исломий молиявий инструментлар банклар ва бошқа молия муассасалари томонидан кенг қўлланилмоқда. Лекин ушбу молиявий механизмларини қатъий равишда фоизнинг айни муқобили деб бўлмайди ҳамда уларни айнан фоиз олинадиган усулда қўллаш хато ҳисобланади. Чунки бу инструментларнинг молиялаштириш воситаси сифатида ишлатиш учун шариат талаб қилган ўз тамойиллари, таълимоти ва шартлари мавжуд. Шу сабабли бу инструментларнинг асосий ғояси ва уларга оид хусусиятларни эътибордан четда қолдириш Ислом молияси билан ҳозирги анъанавий молия тизимини чалкаштиришга олиб келиши мумкин.

Хозирги даврда Ислом молиясининг тамойиллари, дастурлари ҳамда Ислом банклари ва суғурта компаниялари томонидан ишлатилаётган молиялаштириш воситалари ҳақида маълумот бериш учун шариат лозим қилган қоида ва талаблар ҳамда уларни тўғри усулда амалиётга татбиқ этиш барчамиз батафсил маълумотга эга бўлишимиз лозим. Шу билан биргаликда, ушбу молиялаштириш

воситаларини амалиётга татбиқ қилиш жараёнида учраши мумкин бўлган муаммолар ва уларнинг шариат асосида мумкин бўлган ечимлари бартараф этиш лозимлигини ҳар биримиз чуқур англашимиз лозим бўлади.

(*Манба: https://kitoblardunyosi.uz/islom-moliyasiga-kirish Ислом молиясига кириш-Муфти Мухаммад Такий Усмоний)*

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 29 декабрда Олий мажлисга қилган мурожаатида Ўзбекистонда Ислом молияси хизматларини жорий қилиш вақти етиб келганлиги тўғрисида белгиланган вазифалар, ўз навбатида мавзуга оид долзарб ва муҳим аҳамиятга эга бўлган тадбир ўтказилишини тақозо этди.

Вазирликлар ва агентликлар, халқаро молия институтлар, дипломатик корпус ва бизнес ҳамжамият, шунингдек етакчи банклар, суғурта, лизинг ва инвестицион компанияларнинг вакиллари иштирокида ўтказилган анжуманда Ислом тараққиёт банки, Хусусий секторни ривожлантириш бўйича Ислом корпорацияси, «AlHuda CIBE» Ислом банкинги ва иқтисодиёти Марказининг халқаро экспертлари амалий тажрибаси билан бўлишишди ва молия соҳасининг янги тармоғини ривожланиш салоҳияти ва умумий истиқболларини таҳлил қилишди.

2021 йил 3 март куни Hilton Tashkent City анжуманлар залида, республика суғурта бозорида жадал ривожланаётган «APEX INSURANCE» МЧЖ суғурта компанияси ташкилотчилигида «Ўзбекистонда Ислом молияси ва такафул» мавзусидаги кенг кўламли анжуман бўлиб ўтди.

Тадбир давомида «APEX TAKAFUL» номли ислом суғуртаси бўйича Ўзбекистондаги биринчи пилот лойиҳаси тақдимоти ўтказилди. Таъкидлаш жоизки, мазкур лойиҳа доирасида ишлаб чиқилган исломий суғурта маҳсулотлари бўйича «AlHuda CIBE» Ислом банкинги ва иқтисодиёти Марказидан мувофиқлик сертификати ҳамда Ўзбекистон мусулмонлар идораси Фатво бўлимининг ижобий хулосалари олинган.

Манба: https://kun.uz/news/2021/03/05/islom-sugurtasi-boyicha-ozbekistondagi-birinchi-pilot-loyiha-apex-takafulning-taqdimoti-otkazildi#!

Бизнинг жамиятимизда Ислом суғуртасини чуқур ўрганиш мазкур маърузамни ёзишга эҳтиёж сездим. Ушбу Ислом суғуртасининг муҳим қоидаларини тушунишга ва бизнинг давлатимизга кенг тадбиқ қилишга ёрдам беради деган умиддаман. Ўз ризолиги билан шарафлаб, мутолачилар учун фойдали қилишини сўрайман!

*Манба:*https://dereksiz.org/1-islomij-sufurtalash-tizimi-tarihi-va-rivojlanishi-takofulnin.html

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ РОЛЬ СТРАХОВОГО СЕКТОРА В ПЕРЕДАЧЕ РИСКОВ - ВЗАИМОСВЯЗЬ РЫНКОВ КАПИТАЛА

Хайдарова Дильдора Жахонгировна
ассистент кафедры «Бухгалтерский учёт»
Ташкентского государственного экономического университета

Чтобы обеспечить страхование на конкурентном рынке, страховые компании должны иметь возможность устанавливать цены на страхуемые риски, чтобы обеспечить устойчивое предложение. Это означает, что они должны собирать информацию, позволяющую им оценить вероятность своих потерь (претензий) и их серьезность. На многих рынках страховой отрасли практикуется объединение информации, что иногда поощряется правительствами, при условии, что это не приводит к ограничениям ценовой конкуренции. Можно доказать, что такое объединение информации является взаимовыгодным для всех страховых компаний, даже на конкурентном рынке. Неспособность страховой компании адекватно оценить страхуемые риски на конкурентном рынке, как правило, при-водит к финансовым проблемам. Если оценка риска слишком низкая, то страховая компания со временем станет убыточной, поскольку выплаты по ее претензиям превысят те, которые были предусмотрены в ее ценообразовании, и могут привести к неплатежеспособности. Более того, страховая компания, осуществляющая страхование по заниженным ценам, может ослабить другие компании на рынке, у которых возникнет соблазн последовать их примеру, чтобы сохранить свою долю рынка. С другой стороны, если страховая компания установит свои цены слишком высокими, это будет означать, что эти цены не могут быть устойчивыми на конкурентном рынке, поскольку другие страховые компании будут устанавливать более приемлемые цены, и, следовательно, страховая компания не будет привлекать бизнес. Справедливое или дискриминационное ценообразование является ключевым вопросом в эффективном предоставлении услуг частного страхования.

Договоры частного страхования должны иметь юридическую силу, и, следовательно, правовая система должна быть достаточно четкой, чтобы любые юридические споры могли разрешаться справедливо. Отсутствие адекватной правовой системы означает, что физические лица или компании могут оказаться незащищенными, особенно в отношении выплат по претензиям, поскольку страховые компании обычно собирают страховые взносы в начале действия договора страхования, в то время как выплаты по претензиям выплачиваются позже. Потребители, у которых есть неудачный опыт несправедливого урегулирования претензий, потому что из-за сбоя в правовой системе или иным образом, не будут приобретать страховку в будущем, и, следовательно, страховой рынок не будет расти.

Одним из основных преимуществ страхования является то, что страховые компании могут снизить уровень риска за счет диверсификации портфеля, т.е. закона больших чисел. При продаже страховки большому числу потребителей, где причины убытков в значительной степени независимы друг от друга, риск, с

которым сталкивается страховая компания, меньше суммы рисков отдельных рисков, с которыми сталкиваются эти потребители.

Преимуществом механизма передачи рисков является тот факт, что страховые компании имеют доступ через перестрахование к сети других страховщиков. Эта сеть распределения рисков является важной частью механизма страхования, особенно в случае крупных потенциальных убытков. Именно благодаря перестрахованию крупные потенциальные убытки могут быть распределены по всей международной экономике. По сути, механизм перестрахования - это доступ к капиталу других страховых компаний. Когда страховая компания покупает перестрахование, перестраховщик уплаченная премия фактически является платой за использование капитала перестраховочного поставщика. Таким образом, благодаря перестрахованию капитал национального страхового рынка расширяется на международном уровне, поскольку это обеспечивает доступ к капитальной базе всем участникам глобальной сети перестрахования. Сам международный рынок перестрахования также имеет доступ к дополнительному капиталу с глобальных рынков капитала для покрытия очень больших потенциальных убытков. Эта сеть передачи рисков, поддерживаемая в конечном итоге глобальными рынками капитала, изображена на рисунке 1.

Со временем произошел процесс устранения рисков, когда крупные покупатели страховки обходили страховые рынки и получали доступ к рынкам перестрахования непосредственно через свои собственные страховые компании. Совсем недавно несколько очень крупных корпораций с хорошими кредитными рейтингами вообще обошли рынки страхования и перестрахования и профинансировали чрезвычайно крупные потенциальные убытки, заключив соглашения непосредственно с рынками капитала путем выпуска условных долговых и долевых инструментов.

Как показано на рисунке 1, также существуют финансовые риски, такие как неблагоприятные колебания курсов иностранных валют, цен на сырьевые товары, процентных ставок и т.д., которые корпорации могут снизить за счет хеджирования с помощью производных финансовых инструментов. Хеджирование этих финансовых рисков посредством приобретения производных финансовых инструментов является дополнительным процессом к передаче страхуемых рисков посредством приобретения страховки. Во все большем числе корпораций решения о том, какая часть подлежащих страхованию или финансовых рисков, с которыми они сталкиваются, сохраняется в группе и какая часть передается через страхование или хеджируется с помощью производных финансовых инструментов, рассматриваются совместно. Теоретически можно показать, что для корпорации неоптимально принимать решение об уровне франшизы по своим страхуемым рискам и уровне удержания риска по своим финансовым рискам (например, цены исполнения по опционным контрактам).



Рисунок 1. Сеть передачи рисков

Развитие финансовых рынков также в определенной степени способствовало повышению роли страховых и перестраховочных компаний в передаче рисков. В той мере, в какой использование валютных, процентных ставок и деривативов фондового рынка позволяет страховой компании более оптимально управлять рисками своих активов и пассивов, это косвенно будет способствовать ее более широкой роли в передаче рисков, поскольку снизит уровень резервного капитала, который страховой компании необходимо иметь, и снизит ее стоимость страхования. столица. Более того, с развитием производных инструментов страхования появляется более непосредственная поддержка в процессе передачи рисков. Рынки страховых деривативов все еще невелики, но они, вероятно, будут расти, особенно рынки свопов на покрытие убытков, поскольку они обладают потенциалом международного рынка. Интересно отметить, что не существует производных инструментов, основанных на цене класса страхования или перестрахования или на цене базовых страховых убытков; это объясняется тем, что еще не были построены подходящие индексы цен. Если бы такие производные инструменты были созданы, они оказали бы более существенное влияние на механизм передачи рисков, как в качестве дополнения, так и в качестве замены страхованию и перестрахованию.

Перенос страховых рисков на эффективные страховые рынки имеет потенциальные преимущества следующим образом. Работая на конкурентных рынках, промышленные, коммерческие и торгующие предприятия вынуждены идти на

бизнес-риски, чтобы получать прибыль. Благодаря возможности переложить некоторые риски, связанные с их коммерческими и инвестиционными решениями, процесс принятия решений сам по себе является менее рискованным. Следовательно, лица, принимающие решения, сталкиваясь с меньшей неопределенностью, будут более подготовлены к более рискованным и потенциально более прибыльная деятельность. Таким образом, существование страховых рынков позволяет экономике в целом быть более предприимчивой и принимать долгосрочные решения о капитальных затратах, которые, возможно, не были предприняты или с задержкой были введены в действие.

Страховые рынки также обеспечивают защиту от некоторых рисков, связанных с международной торговлей, например, от повреждения или потери товаров в пути и кредитных рисков, связанных с неплатежами иностранных клиентов. Таким образом, морское страхование грузов и международное кредитное страхование помогают облегчить поток международной торговли. Более того, на некоторых страховых рынках также существует защита от экспроприации иностранных инвестиций иностранными правительствами. Наличие страхования политических рисков стимулирует приток прямые международные инвестиции. Экономический опыт показывает, что мировой экономический рост зависит от роста международной торговли и международных инвестиций. Способствуя их притоку, рынки страхования и перестрахования косвенно способствуют росту мировой экономики.

Механизм передачи рисков, предоставляемый страховыми компаниями, можно рассматривать с точки зрения эффективного использования капитала. Промышленным, коммерческим и торгующим предприятиям потребовалось бы больше капитала для обеспечения безопасности своих предприятий, если бы не существовало страховых рынков, на которые можно было бы перенести эти риски. Фактически страховые компании предоставляют условный акционерный капитал промышленным и коммерческим предприятиям. Это означает, что во всей экономике в целом требуется меньше собственного капитала для поддержки коммерческой деятельности.

Одной из потенциальных проблем страхования является моральный риск, т.е. частные лица и компании, купившие страховку, могут быть менее осторожны и, следовательно, не смогут защитить свои застрахованные активы и, скорее всего, нанесут финансовые убытки другим, поскольку страховая компания оплатит расходы, а не они сами. Если страхование влияет на поведение таким образом, то страхование повлечет за собой издержки для экономики и общества в целом. Однако страховые компании осведомлены об этой проблеме, поскольку более высокие, чем ожидалось, убытки в первую очередь сказываются на их финансовом положении. Страховые компании стремятся снизить моральный риск с помощью разработки договоров страхования, например, требуя от клиентов разделить часть риска (например, франшизы) и создавая стимулы (например, предлагая сниженные страховые взносы в будущем, если опыт потери окажется лучше, чем ожидалось).

Список использованной литературы:

1. Carter, R.L. and Dickinson, G.M. (1992), Obstacles to the Liberalisation of Trade in Insurance. Trade Policy Research Centre. London: Harvester Wheatsheaf.
2. Introducing Solvency 2 // European Insurance and Occupational Pensions Authority [Электронный ресурс]. URL: https://eiopa.europa. eu/regulation-supervision/insurance/solvency-ii (дата обращения: 18.02.2015).
3. Solvency 2: An overview // Lloyds. [Электронныйресурс]. URL: http://
4. Own Risk and Solvency Assessment: Unlocking Business Value through ORSA Implementation // Accenture. [Электронный ресурс]. URL: http://www.accenture.com/SiteCollectionDocuments/PDF/AccentureOwn-Risk-and-Solvency-Assessment-Unlocking-Business-Valuethrough-ORSA-Implementation.pdf (дата обращения: 18.02.2015).
5. Ten things you need to know about Solvency 2: Investments // Norton Rose Fulbright. [Электронный ресурс]. URL: http://www.nortonrosefulbright. com/knowledge/publications/74557/ten-things-you-need-to-know-aboutsolvency-ii-investments (дата обращения: 18.02.2015).
6. Shennayev X.M. va boshqalar Sug‘urta ishi. O‘quv qo‘llanma. -T.: Tafakkur bo‘stoni, 2014.

СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА ДАРОМАДЛАРНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ҲИСОБГА ОЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ

Хайдарова Сурайё Насирдиновна
“ПЕРФЕСТ-АУДИТ” АТ МЧЖ раҳбари

Республикамизда фаолият юритаётган суғурта ташкилотлари ҳам йирик ташкилотлар сифатида фаолият юритади ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4611-сонли Қарорига асосан, “тижорат банклари, суғурта ташкилотлари ... ҳам молиявий ҳисоботларини халқаро стандартлар асосида юритиши мажбурияти белгиланган”[1] .

Бундан кўришимиз мумкинки, суғурта ташкилотларида ҳам бажарилган иш натижалари бўйича 15-МҲХС “Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум” ”[5] номли халқаро стандартлар асосида даромад ҳисобга олинади.

Даромад – бу мулкдорларнинг капиталга қўйилмалари билан боғлиқ бўлмаган, лекин ҳусусий капитал ўсишига олиб келадиган активларнинг кўпайиши ёки мажбуриятларнинг камайишидир.

Мулкдорлар томонидан хусусий капиталга киритилган қўйилмалар устав капитали, қўшимча капитал бўлиши мумкин. Лекин бундай қўйилмалар даромад деб қаралмайди.

Даромад таъсири хусусий капиталдаги тақсимланмаган фойда ёки хусусий капиталнинг бошқа компонентидаги ўсиш билан натижаланади.

Активлар кўпайиши: Даромад тан олинганда

Д-т Дебиторлик қарз К-т Тушум

Мажбуриятларнинг камайиши: Муддати ўтган кредиторлик қарзи ҳисобдан чиқарилиши

Д-т Кредиторлик қарзи К-т Бошқа даромад

Ёки иккиси бир вақтда бўлиши: Олдиндан аванс олинган шартнома бўйича даромад тан олинганда

Д-т Дебиторлик қарз Д-т Олдиндан тўлов К-т Тушум

Тушум – бу ташкилотнинг одатий фаолиятидан келиб чиқадиган даромадидир**.**

Суғурта ташкилотларида харидорлар билан тузилган шартномада кўрсатилган шартлар даромадлар, харажатлар ва молиявий натижаларни ҳисобга олиш ҳамда молиявий ҳисоботда очиб беришда тушумни тан олиш тартибига жиддий таъсир қилади. Даромадни тан олиш қуйидаги бешта босқичдан иборат (1-расм):

1-расм. Суғурта ташкилотларида даромадларни тан олишнинг бешта босқичи[5]

Ушбу шартлар бўйича қуйидаги талаблар амалга оширилади.

1. Шартнома шартларини аниқлаш. Мазкур босқичда суғурта ташкилотлари мижозлар билан шартнома шартларига аниқлик киритади. Шартнома шартларига аниқлик киритишда суғурта ташкилотларининг асосий мақсади фойда олишга қаратилади.

“Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум” номли 15-сон МҲХС қуйидаги масалаларни очиб беради[5]:

“томонлар шартномани маъқуллаб, унинг шартларини бажариши шарт;

ташкилот шартнома бўйича берилган ва бошқа томон ушбу шартнома бўйича сотиб оладиган товарлар (ишлар, хизматлар)га нисбатан томонлар ҳуқуқларини белгилаши мумкин;

ташкилот товарлар (ишлар, хизматлар) учун ҳақ тўлаш тартибини белгилаши мумкин;

шартнома тижорат мазмунига эга бўлиб, унинг бажарилиши натижасида нафақат унинг муддати ва рисклари, балки ташкилотнинг келажакдаги пул оқимлари ҳам ўзгаради;

харидорга берилган товарлар ёки хизматлар эвазига тўловни корхона олиши эҳтимоли мавжуд”.

2. Шартнома шартларини бажариш бўйича мажбуриятларни белгилаш. Ҳар қандай шартномада муҳим банд томонларнинг мажбуриятларини белгилаш ҳисобланади. “Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум” номли 15-сон МҲХС шартномани бажариш шартларини алоҳида мажбуриятларга бўлишни таклиф қилади.

3. Операция нархини аниқлаш. Бунда суғурта ташкилотлари мижоз билан суғурта мукофоти тўлови ҳамда хизматларни ҳисобга олиш бўйича шартнома суммасини аниқлаб олади..

4. Бажарилиши лозим бўлган битим нархини тақсимлашни амалга ошириш. Мазкур босқичнинг моҳияти шундан иборатки, операция нархини аниқлаш босқичидаги талаблар шартнома шартларини бажариш бўйича мажбуриятларни белгилашга тақсимланади.

5. Даромадни тан олиш. Ушбу босқичда даромадлар ва харажатларни мутаносиб усулда тан олиш тамойил асосида даромад тан олинади. “Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум” номли 15-сон МҲХС суғурта ташкилотларининг молиявий натижаларни ҳисобга олиш ва тушумни тан олишда ушбу моделни қўллаши керак.

Хулоса қилиб айтганда, суғурта ташкилотларида даромадларни тан олиш халқаро стандартлар асосида шартнома мавжудлиги, бажарилиши лозим бўлган мажбуриятлар, операция нархи, нархни мажбуриятларга тақсимлаш бешта босқичидан фойдаланилиб амалга ошириш, даромадни ўз вақтида ва узоқ муддатлар давомида тан олиш, ҳамда узоқ муддат тан олиш учун ресурс(харажат)лар усули натижалар усулидан фойдаланилиш фойда ва зарарни ҳисоблаш, тугалланганлик даражасини аниқлаш орқали даромадни тан олиш мақсалга мувофиқ. Бу эса, суғурта ташкилотлари учун хорижий инвесторлари ва кредиторлари учун ишончли ва шаффоф маълумотлар билан таъминлашга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24-февралдаги «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4611-сон Қарори. https://lex.uz/docs/4746047.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 24 августдаги «Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ва унга тушунтиришлар матнини тан олиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида»ги 507-сон қарори. https://lex.uz/docs/4966554.
3. Ўзбекистон Республикаси молия вазирининг 2022 йил 10-ноябрдаги

«Ўзбекистон Республикаси ҳудудида қўллаш учун молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ва унга тушунтиришлар матнини тан олиш тўғрисида» 61-сон буйруғи. (Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2022 йил 9 декабрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3400). https://lex.uz/uz/docs/6312360.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.08.2019 йилдаги ПҚ-4412-сонли “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори
5. 15-сон «Харидорлар билан шартномалар бўйича тушум» молиявий ҳисоботнинг халқаро стандарти.
6. Д.Э.Норбеков, А.Н.Тўраев, Ш.Ш.Рахмонов. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари. Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисод-молия, 2019. -332 б.
7. http://www.ifrs.org/Pages/default.aspx

УПРАВЛЕНИЕ ЗАТРАТАМИ ЧЕРЕЗ ЦЕНТРЫ ФИНАНСОВОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ПРИ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Хашимов Баходир Абдуганиевич
к.э.н., и.о. профессора кафедры «Бухгалтерский учёт»
Ташкентский Государственный экономический университет

Махкамова Саида Гайратовна
PhD, и.о. доцента кафедры «Бухгалтерский учёт»
Ташкентский Государственный экономический университет

В настоящее время в экономике нашей страны внедрены Международные стандарты финансовой отчетности, что потребовало изменения учетной политики предприятия, важности признания выделения управленческого учета, создания эффективной системы контроля и управления затратами на всех этапах производственной деятельности.

Поскольку управленческий учет – это система сбора, планирования, контроля, анализа данных о затратах и результатах хозяйственной деятельности, то каждый объект учета должен рассматриваться с точки зрения его влияния на прибыль. В управленческом учете это можно достичь путем выделения отдельных подразделений в качестве объектов учета (места возникновения затрат, центры затрат, центры ответственности). Разграничение затрат по местам их возникновения, центрам затрат и центрам ответственности является актуальной и острой проблемой. В этой связи необходимо использовать не только зарубежный, но и отечественный опыт, как основополагающий.

В отечественной системе бухгалтерского учета и контроля на предприятиях применялась политика обособления учета затрат по местам их возникновения: цехам, участкам, отделам, службам. В дальнейшем, с целью усиления функций контроля в системе производственного учета возникло понятие центра затрат. Однако, центры и места затрат не имели существенных отличий. По утверждению С.А. Стукова, «…предприятие должно подразделяться на сферы (центры)

ответственности, в разрезе которых организуется производственная деятельность, осуществляются контроль и оценка ее результатов. К таким сферам (центрам) ответственности можно отнести производства, внутри них – цехи, участки, бригады, возглавляемые соответственно начальниками, мастерами, бригадирами.». Выделение центров ответственности способствовало регулированию не только издержек производства, но и конечных результатов, вызывая не только заинтересованность, но и пробуждая чувство ответственности.

Понятие «центра ответственности» шире, нежели «центра затрат», хотя и в том, и в другом случае речь идет о контроле за уровнем экономичности, целесообразностью и отдачей затрат».

В сущности, все это есть разграничение затрат по степени регулируемости. Обобщенная или сгруппированная информация дает возможность определить степень влияния руководителей, ответственных лиц на уровень затрат с точки зрения их влияния на конечные результаты. При этом в качестве основной цели выделяется – усиление функций контроля за сохранностью и рациональным использованием ресурсов – «… учет и контроль как возникающих в этом центре затрат, их уровня по сравнению с нормами, сметами, так и возможность сопоставить их с полученными результатами».

В настоящих условиях адаптации управленческого учета в новой экономической ситуации, когда отсутствует его государственная регламентация существует множество различных вариантов управленческой бухгалтерии, обеспечивающей особые условия и специфику деятельности различных по своему составу, профилю деятельности, организационным и технико-экономическим особенностям деятельности предприятий. Поскольку выделение центров ответственности продиктовано необходимостью регулирования затрат и конечных результатов на основе оценочных показателей, то имеет смысл назвать их центрами финансовой ответственности.

Центром финансовой ответственности являются структурное подразделение или группа подразделений, которые осуществляют операции, преследующие конечную цель — оптимизация прибыли; способных оказывать непосредственное воздействие на прибыльность; отвечающих перед вышестоящим руководством за реализацию установленных целей и соблюдение уровней расходов в пределах установленных лимитов.

Основная цель системы управления предприятием с помощью создания центров финансовой ответственности заключается в повышении эффективности управления подразделениями путем обобщения данных о затратах и результатах деятельности каждого центра ответственности с тем, чтобы возникающие отклонения можно было отнести на конкретного руководителя.

Главным принципом управления по центрам финансовой ответственности считается то, что центр ответственности отвечает только за те затраты и доходы, то есть только за те показатели, которые контролируются данным центром финансовой ответственности.

Таблица 1.

Классификация центров финансовой ответственности предприятия

Классификационные признаки	Виды центров ответственности
Целеполагание внутрифирменного управления	Оперативные Стратегические
Уровень управления	Предприятие Отделы и службы предприятия Отдельные виды производства Цех Производственный участок Бригада
Объем полномочий и обязанностей	Центры затрат Центры дохода Центры прибыли Центры инвестиций Центры управления и контроля
Задачи и функции центра	Основные Вспомогательные
Место в иерархии центров ответственности	Горизонтальные одновидовые Горизонтальные многовидовые Пирамидальные
Отношение к внутреннему хозяйственному механизму	Аналитические Хозрасчетные

Для каждого центра ответственности должны быть определены цели и задачи, в том числе и учетные, деятельность каждого центра должна быть представлена на соответствующих счетах посредством двойной записи для обеспечения возможности учета затрат и результатов центров ответственности. При этом по центрам ответственности нужно учитывать в первую очередь затраты и результаты, непосредственно зависящие от предоставленных руководителям полномочий.

На основе анализа публикаций зарубежных и отечественных ученых Д.В.Костроминой была проведена классификация центров ответственности, в основе которых заключены определенные признаки.

Данная классификация имеет практическое значение и дает наглядное представление о различных центрах в зависимости от целей, функций и задач деятельности. Наиболее распространенным в публикациях является выделение центров финансовой ответственности исходя из объема полномочий и ответственности:

В коммерческих организациях немаловажное значение имеет деление центров исходя из выполняемых ими задач и функций:

1) основные центры ответственности занимаются непосредственным производством продукции, выполнением работ и оказанием услуг для потребителей. Их затраты напрямую списываются на себестоимость продукции (работ, услуг). К таким центрам, например, можно отнести участки и цеха основного производства, отдел сбыта;

Таблица 2.

Классификация центров по ответственности руководителя

Центры ответственности	Ответственность руководителя
1) Центр затрат	Отвечает за понесенные в его подразделении затраты и их снижение(например, производственный участок, производственный цех и др.);
2) Центр дохода	Отвечает за доход, выручку от продаж продукции, товаров, услуг и за затраты, связанные с их сбытом; но не может проконтролировать прибыль, поскольку механизмы ценообразования находятся за его пределами (например, подразделения маркетингово-сбытовой деятельности)
3) Центр прибыли	Отвечает за прибыль, полученную подразделением, поэтому и за механизм формирования дохода, и механизм формирования затрат (например, производственное предприятие, входящее в состав холдинга)
4) Центр инвестиций	Отвечает за надлежащее и правильное расходование предоставленных ему инвестиционных средств (например, крупное дочернее предприятие холдинговой промышленной компании)
5) Центр контроля и управления	Отвечает за конкретные виды работ и их результаты. Эти центры часто имеют лишь затраты, которые трудно соизмерять с контролируемыми ими результатами.

2) вспомогательные центры ответственности существуют для обслуживания основных центров ответственности. Затраты этих центров сначала распределяют по основным центрам ответственности, а уже потом в составе суммарных затрат основных центров включаются в себестоимость продукции, работ, услуг, оказываемых потребителям. К таким центрам можно отнести административно-хозяйственный отдел, отдел технического контроля, ремонтный цех, инструментальную мастерскую и т.д.

Принцип включения в себестоимость затрат путем их распределения между продуктами порой не подходит для осуществления контроля за ними и их регулирования, так как цикл производства продукта может состоять из нескольких различных технологических операций, за каждую из которых отвечает конкретное лицо. Поэтому, имея сведения о себестоимости продукции, невозможно точно определить, как распределяются затраты между отдельными участками производства (центрами ответственности). Эта проблема решается, если установлена взаимосвязь затрат и доходов с действиями конкретных лиц, ответственных за расходование соответствующих средств. Такой поход к управлению затратами возможен при осуществлении планирования затрат по центрам ответственности.

Основными задачами управления затратами являются своевременное и правильное отражение фактических затрат по соответствующим статьям калькуляции; предоставление информации для оперативного контроля за использованием производственных ресурсов и сравнения с существующими нормами,

нормативами и сметами; выявление резервов снижения себестоимости продукции, предупреждение непроизводительных расходов и потерь; определение результатов внутрипроизводственного хозрасчета по структурным подразделениям предприятия.

Центральное место в управлении затратами занимает их классификация:

Для процесса контроля и регулирования выделяют:

- контролируемые затраты — затраты, которые поддаются контролю со стороны менеджеров данного центра ответственности и на которые можно существенно воздействовать;

- неконтролируемые затраты, которые не зависят от деятельности менеджеров данного центра ответственности.

Для принятия решений и планирования целесообразно иметь:

- переменные затраты, размер которых находится в прямой зависимости от объема продаж;

- постоянные затраты, размер которых не зависит от объема продаж.

Для калькулирования и оценки произведенной продукции обычно разделяют:

- прямые затраты, которые связаны с производством конкретных видов продукции, с выполнением конкретных видов работ, услуг и могут быть прямо включены в их себестоимость;

- косвенные затраты, которые являются общими для производства нескольких видов продукции, работ, услуг и включаются в их себестоимость косвенным путем.

Существуют разные методики управления затратами, одна из них состоит в строгой последовательности отнесения затрат и определения маржинального дохода для каждого центра:

- затраты, реализация и результаты учитываются по центрам финансовой ответственности;

- затраты, которые можно прямо отнести на центр финансовой ответственности, распределяются на него прямо, без применения методов косвенного распределения;

- определяется, как правило, несколько маржинальных доходов (полных и неполных) по мере учета переменных и прямых постоянных затрат.

Таким образом, разработка методики управления затратами по центрам финансовой отчетности, классификация затрат и выделение методов планирования и контроля для принятия управленческих решений является основой для эффективного управления прибылью предприятия.

Применение данной методики позволяет получить исчерпывающую информацию о затратах и доходах по каждому центру ответственности, при этом в ходе анализа выявляются участки, где чаще всего возникают отклонения, а также виды продукции с низкой рентабельностью.

Основу такого подхода составляет анализ структуры постоянных и переменных затрат, маржинального дохода и формирования прибыли в целом по

предприятию. В свою очередь, прогнозирование прибыли и рентабельности в зависимости от изменения объемов производства, цен на продукцию, величины переменных или постоянных затрат дает возможность укрепить финансовое состояние предприятия, принять более эффективные управленческие решения по развитию деловой активности и совершенствованию процесса производства предприятий.

Список использованной литературы

1. Положение «О составе затрат по производству и реализации продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов», утвержденном Кабинетом Министров Республики Узбекистан от 5 февраля 1999 г. № 54.
2. Друри К. Управленческий и производстенный учет : пер. С англ. / К.Друри - 6-е изд, - М, : ЮНИТИ-ДАНА, 2007г-1423 с.
3. Мишин Ю.А. Управленческий учет: управление затратами и результатами хозяйственной деятельности. - М.: Дело и Сервис, 2002. — 175 с.
4. Ткач В.И., Ткач М.В.Управленческий учет: международный опыт. - М.: Финансы и статистика, 1994. С. 79-82.
5. Хашимов Б.А. Толкования источников финансирования деятельности хозяйствующего субъекта в экономической литературе. // Актуальные вопросы перехода на международные стандарты финансовой отчетности и применения международного опыта в Узбекистане. Международная научно-практическая конференция 6 апреля 2022 год. – С. 581-584.
6. Makhkamova S.G. Procedures and Technique for Accounting of Costs Associated with Oil Refining. // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. // Vol. 9, No. 3, March 2022 // ISSN 2364-5369 http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v9i3.3763 // 773-779.

СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ТАШКИЛ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Холбеков Расул Олимович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Бухгалтерия ҳисоби”кафедраси профессори

Суғурта муайян воқеа (ҳодиса) юз берганда етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш, товонлар ва бошқа тўловлар тўлаш учун мақсадли пул жамғармаларини ташкил этиш ҳамда улардан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган, жисмоний ва юридик шахсларнинг манфаатларини ҳимоя қилишга доир муносабатлардир. [1]

Иқтисодиётимизнинг молия бозорида суғурта хизматлари таклифини ривожлантириш ва унинг инфраструктурасини кенгайтиришга қаратилган чора-тадбирларнинг ижобий натижалари туфайли республикамизда 50 яқин суғурта ташкилотлари фаолият юритмоқдалар. Уларда олти мингдан зиёд мутахассис хизмат кўрсатмоқда.Уларнинг умумий устав капитали яқин 170 млн. АҚШ дол. тенг. [5]

“MICALE CONSALTING” суғурта компанияси томонидан келтирилган расмдан кўриниб турибдики, ялпи суғурта мукофотларининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши йиллар давомида ўсиб борган лекин, 37 млн. ахолиси бор мамлакатимиз учун 7 фоиз қониқарли даражада эмасдир. [3]

Ўзбекистон республикасининг суғурта бозоридаги рақобатда ғолиб чиқишнинг асосий кўрсаткичи суғурталанувчи мижозларнинг ишончига киришдир. Бунда асосий кўрсаткич бўлиб, суғурта қопламаларини тўғри ва ўз вақтида қоплаш ҳисобланади. Республикамиз суғурта тизимида суғурталанувчиларга етказилган зарарларни қоплаш учун 2022 йилда 98 млрд. сўмдан ортиқ маблағ сарфланиб, ушбу кўрсаткич 2010 йилга нисбатан икки баробарга ошган. Демак, бугунги кундаги турли хавф-хатарлардан ишончли ва замонавий ҳимоя воситаси сифатида, суғурта хизматларидан фойдаланувчиларнинг сони йил сайин ортиб бормоқда.

Албатта суғурта хизматларидан фойдаланувчилар динамикасининг кескин ўсиб бориши суғурта ташкилотларининг маъсулиятини янада ошириб бормоқда. Улар суғурталанувчиларнинг ишончларига кириши учун, ўзларининг молиявий барқарорлигини таъминлаши ва мустахкам тўлов қобилиятига эга бўлишлари зарур. Ҳозирда молия бозорида суғурта ташкилотларининг иштироки ортиб бормоқда. Суғурталанувчи мижознинг сони учун рақобат курашида ғолиб чиқишнинг асосий йўналишларидан бири, бу суғурталанувчи ходисаларни ўз вақтида тўлиқ ўрганиш, уларни бартараф этиш учун зарур чора-тадбирларни амалга ошириш ва етказилган зарарларни ўз вақтида қоплаб бериш ҳисобланади. Шунингдек, янги замонавий суғурта турлари ва усулларини суғурталанувчи мижозларга таклиф этишдир.

Бундай вазифаларни ўз вақтида амалга ошириш бошқарув қарорларини тўғри қабул қилиш жиҳатларига боғлиқдир. Бошқарув қарорларининг самарадорлиги бевосита уларда ташкил этилган бухгалтерия ҳисоби тизими томонидан тақдим этилган ҳисоб маълумотларига боғлиқдир. Суғурта ташкилотининг фаолияти, активлари ва пассивлари харакати ва суғурта қопламалари билан боғлиқ бўлган жараёнларни бухгалтерия ҳисобида акс эттириш ва тартибга солишдаги хуқуқий-меъёрий хужжатларнинг қуйидаги тўртта асосий даражаси мавжуд:

умумий қонунчилик (Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси, Солиқ

кодекси, Меҳнат кодекси);

меъёрий (“Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги қонун, Бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари (БҲМС) ва Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари (МҲХС)стандартлар);

услубий (“Маҳсулотни (ишлар, хизматларни) ишлаб чиқариш ва сотиш харажатларининг таркиби ҳамда молиявий натижаларни шакллантириш тартиби тўғрисида”ги Низом. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2002 йил 27 декабрдаги 140-сонли буйруғи билан тасдиқланган “Молиявий ҳисобот шакллари ва уларни тўлдириш бўйича қоидалари”,) 2020 йил 24 февралдаги ПҚ-4611-сон “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори).

Юқорида келтирилган ҳар-хил даражадаги ҳужжатлар ташкилотларда бухгалтерия ҳисобини ташкил қилишни бевосита ёки билвосита тартибга солади ва уни юритишнинг умумий тартибини белгилайди. Бу меъёрий ҳужжатлар бухгалтерия ҳисобини юритишнинг умумий қоидаларини белгилайди ва мулк шакллари, фаолият турларидан қатъий назар барча корхона ва ташкилотларга ҳам тегишлидир. Кўрсатилган ҳуқуқий меъёрий хужжатлар барча корхона ва ташкилотларга тегишли бўлсада, улар билан бирга ҳар бир корхона ўзининг фаолияти хусусиятидан келиб чиқиб, фақат соҳани ўзига тегишли меъёрий хужжатлари мавжуд бўлади. Масалан, суғурта ташкилотининг фаолияти хусусиятидан келиб чиқиб, уларда бухгалтерия

ҳисобини ташкил этишга таъсир этувчи хужжатларга қуйидагилар киради:

Ўзбекистон республикаси Молия вазирлигининг 1999 йил 18-октябрда 1517-сон буйруғи “Суғурта ташкилотлари томонидан харажатлар таркиби ва молиявий натижаларни шакллантиришнинг ўзига хос хусусиятлари” тўғрисида низом;

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2003 йил 8 декабрдаги 113н-сонли "Суғурта ташкилотларининг бухгалтерия ҳисоби ва назорат қилиш тартибида тақдим этилган ҳисоботлари шакллари тўғрисида"ги буйруғи;

Ўзбекистон республикаси Молия молия вазирининг 2008 йил 5 майдаги

47-сон буйруғи билан тасдиқланган “Суғурталовчилар молиявий-хўжалик фаолиятининг бухгалтерия ҳисоби счётлари режаси” ва бошқалар.

Маълумки, суғурта шартномасига асосан суғурталовчи шартномада белгиланган ҳодиса юз берган тақдирда суғурталанувчига суғурта қопламасини тўлаб бериши лозим. Суғурта шартномасида белгиланган суғурта ходисаси юз берганда суғурталанувчи зудлик билан суғурталовчини хабардор килиши зарур ҳисобланади. Худди шундай мажбурият суғурта шартномаси тўғрисида хабардор бўлган наф олувчининг зиммасидадир, агар у суғурта мукофатини олиш ҳуқуқидан фойдаланмоқчи бўлса албатта суғурта ходисаси тўғрисида суғурталовчини хабардор қилиши шарт.

Суғурталовчи суғурталанувчи томонидан суғурта ҳодисаси юз берганлиги тўғрисидаги аризани олгандан сўнг суғурта воқеасини изчил ўрганади ва ушбу воқеа суғурта ҳодисаси сифатида тан олинса, шартнома белгиланган тартибда ва

шартларда суғурта қопламасини тўлаб беради.

Суғурта қопламаси қуйидаги хужжатларнинг мавжудлиги асосида амалга оширилади: суғурта шартномаси, суғурталанувчининг аризаси, қонунчилик асосида тузилган сутурта далолатномаси, суғурталовчининг ходимлари ва ҳуқуқни мухофаза қилиш ташкилотлари, банклар, соғлиқни сақлаш муассасалари ва бошқа ташкилотларнинг маълумотлари ҳамда суғурталовчи томонидан ўтказилган текширувлар натижасида тўпланган маълумотлар. Суғурталовчининг молиявий-хўжалик фаолиятини амалга ошириш билан боғлиқ барча операцияларни икки гуруҳга бўлиш мумкин:

ҳар қандай тижорат ташкилотига хос бўлган жараёнлар (етказиб берувчилар билан ҳисоб-китоблар, ходимларга ҳақ тўлаш, асосий воситалар ва бошқа моддий бойликларни ишлатиш ва бошқалар);

фақат суғурта фаолияти учун хос бўлган жараёнлар.

Суғурта жараёнлари - бу суғурта ташкилотларининг мажбурий ва ихтиёрий суғурта қилишни таъминлаш билан бевосита боғлиқ бўлган барча турдаги фаолиятининг йиғиндисидир. Суғурта жараёнларига қуйидагилар киради:

суғуртага қабул қилинган мол-мулкни баҳолашни ҳисобга олиш;

суғурта тўловларини ҳисоблаш ва уларнинг тўланишини таъминлаш;

инкассо ва нақд пулсиз ҳисоб-китобларни ташкил этиш;

суғурта қилдирувчиларнинг шахсий ҳисоб вақараларини юритиш;

суғурта далолатномаларини тузиш;

суғурта бадалини (суғурта суммалари), суғурта тўловларини, қўшимча мукофотларни белгилаш ва тўлаш;

суғурта шартномасини суғурталовчи ҳар қандай шартларни бузган тақдирда бекор қилиш;

суғурта захираларини яратиш ва бошқалар.

Шунингдек, суғурта жараёнлари суғурталанувчиларга хизматлар кўрсатишни шумладан, суғурта муносабатларининг хусусияти билан белгиланадиган бошқа фаолиятни ўз ичига олади. Суғурта ташкилотларининг суғурта қилдирувчилар билан бевосита боғлиқ бўлмаган иши суғурта операцияларига тааллуқли эмас: инвестиция фаолияти, давлат бюджети ва банклар билан муносабатлар, доимий ва штатдан ташқари ходимларнинг меҳнатига ҳақ тўлаш бўйича ҳисоб-китоблар.

Суғурта жараёнларини ҳисобга олиш - бу суғурта ташкилоти фаолиятининг жараёни ва натижаларини акс эттирувчи, уни бошқариш имкониятини таъминлаш учун маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш, тўплаш ва етказишдир.[4]

Юқорида келтирилган бухгалтерия ҳисобининг ҳуқуқий-меъёрий хужжатлари асосида суғурта ташкилотларининг табиати ва хусусиятларини ифодаловчи хужжатлардан фойдаланиб бухгалтерия ҳисобини ташкил қилиниши ташкилотнинг ҳисоби сиёсатини белгилайди.

Ҳужжатларни хўжалик юритувчи субект даражасида ишлаб чиқиш зарурати шунингдек, дастлабки ҳужжатлар бухгалтерия жараёнининг якуний маҳсулотини тартибга солиши билан боғлиқлиги яъни, молиявий (бухгалтерия)

ҳисоботларида ошкор этилиши керак бўлган хужжатлардир. Шунинг учун баъзи бир бухгалтерия жараёнларини (ҳужжатлар айланиш тартиби, иш ҳақи ҳисоби) стандартлаштиришга ҳожат йўқ. Хўжалик юритувчи субектнинг ўзи бундай жараёнларнинг ҳисобга олиш қоидаларини маъсулият билан ёндашиб ишлаб чиқиши керак. Демак, айнан хўжалик юритувчи субъектнинг бухгалтерия ҳисобини тартибга солиш тизимига тегишли хужжатлар ҳар бир хўжалик юритувчи субъектнинг хусусиятларини (ташкилий, ҳуқуқий, технологик, географик) инобатга олган холда яратилиши соҳада бухгалтерия ҳисобининг бир хиллиги ва қонун ҳужжатларига риоя қилиш талаблари билан уйғунлаштириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикасининг 23.11.2021 й. ЎРҚ-730-сон "Суғурта фаолияти тўғрисида"ги Қонуни.
2. Ўзбекистон республикаси Молия молия вазирининг 2008 йил 5 майдаги 47-сон буйруғи билан тасдиқланган “Суғурталовчилар молиявий-хўжалик фаолиятининг бухгалтерия ҳисоби счётлари режаси”.
3. “Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug‘urtaning roli: tendentsiyalar, muammolar va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida 2023 yil 16-noyabr.
4. ПлаховаТ.А. Учет страховых операций: Учебное пособие. М.: Финансовый университет, 2010. 136 с.
5. Ўзбекистон Республикаси статистика агентлигининг расмий сайти www.stat.uz

KS KAFIL SUG‘URTA

СУҒУРТА ТАШКИЛОТЛАРИДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИ ВА УЛАРГА ЎТИШ ЗАРУРИЯТИ

Холпўлотов Рустам Ўктамович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Бухгалтерия ҳисоби” кафедраси ассистенти

Иқтисодиётнинг глобаллашуви шароитида суғурта ташкилотларида сифатли, таққосланадиган ва ишончли ҳамда уйғун ахборотларни шакллантиришда ягона ёндашувни қабул қилиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Бундай имкониятга фақат молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини (МҲХС) тан олиш ва унга мувофиқ ҳолда ҳисоботлар тузиш орқали эришиш мумкин. Бухгалтерия ҳисоби тўғрисидаги қонуннинг янги таҳририда ҳам бухгалтерия ҳисоби субъектлари белгиланган тартибда МҲХСларни қўллаш мумкинлиги эътироф этилди[3].

Суғурта ташкилотларида МҲХСларни қўллаш зарурияти қуйидаги омиллар билан белгиланади:

– суғурта ташкилотларида инвесторлар ва акционерлар потенциал компанияларнинг бир хил тамойиллар, яъни таққосланувчанлик асосида тайёрланган молиявий ҳисоботни яхшироқ таҳлил қилиш имкониятига эга

бўладилар;

– мамлакатларда турли суғурта ташкилотларига уларнинг ҳар бирига ўша мамлакатнинг стандартлари асосида тузилган молиявий ҳисоботдан кўра ҳаммаси учун ягона тан олинадиган битта молиявий ҳисоботни тузиш мақсадга мувофиқдир. Натижада ҳисоботни тузиш харажатлари қисқаради ва капитални жалб қилиш имкониятлари кенгаяди.

Халқаро молиявий ҳисобот деганда, АҚШнинг GAAP стандартлари ёки МҲХСга мувофиқ ҳолда тузилган молиявий ҳисоботга айтилади. Ушбу икки турдаги стандарт дунёдаги барча фонд биржалари учун молиявий ҳисоботни тайёрлаш ва тақдим этиш қоидаларини тартибга солади ва шу биржалар томонидан тан олинади.

Суғурта ташкилотларида МҲХСлар асосида тузилган молиявий ҳисоботлар инвестицион муҳитни яхшилайди. Суғурта ташкилотларига йирик компаниялар томонидан инвестицияларнинг кириб келишига имконият яратади.

МҲХСлар Бухгалтерия ҳисоби халқаро стандартлари қўмитаси томонидан ишлаб чиқилади.

Бухгалтерия ҳисоби халқаро стандартлари қўмитаси (IASC) – бутун дунёдаги бухгалтерия ҳисоби соҳаси фаолиятидаги вакиллардан иборат аъзоларни бирлаштирган, ҳукуматга оид бўлмаган халқаро бухгалтерия ҳисоби ташкилоти бўлиб, унинг асосий мақсади молиявий ҳисоботларни тайёрлаш учун бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандартларини ишлаб чиқиш, қабул қилиш ва доимий такомиллаштириб бориш ҳисобланади.

Бухгалтерия ҳисоби халқаро стандартлари қўмитаси бош қароргоҳи Лондон шаҳрида жойлашган. Бу халқаро ташкилотнинг Кенгашига глобал ташкилот ва компанияларда, дунё банкларида катта мансабларда ишлаган юқори обрў эътибор ва малакага эга бўлган мутахассислар жалб қилинган. 1975 йилда қўмита томонидан биринчи бухгалтерия ҳисобининг халқаро стандарти «Ҳисоб сиёсатининг очиқланиши» нашр этилди.

«Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари курси» ҳозирги кунда олий таълим муассасаларида алоҳида фан сифатида ўрганилмоқда. Ушбу курс «Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи» фанининг маълум бир қисмини ўрганадиган бўлим бўлиб ҳисобланиши керак. Маълумки, молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи молиявий ҳисоботнинг стандартлари асосида юритиладиган тизим сифатида тавсифланган. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботининг меъёри йҳуқуқий асосини ташкил этади.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари «Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи» фанининг бўлими сифатида унинг предмети бўлиб, халқаро стандартларни ишлаб чиқишда асос бўлиб хизмат қиладиган объектлар ҳисобланади. Ушбу объектларга молиявий ҳисоботнинг элементлари ҳисобланган пул маблағлари, баҳоланган мажбуриятлар, шартли мажбуриятлар, шартли активлар, валюта курси ўзгариши, захиралар, қурилиш шартномалари, асосий воситалар, активларнинг қадрсизланиши, номоддий активлар, сегментлар, давлат субсидия-

лари ва давлат ёрдамлари, тушумлар, қарзлар бўйича харажатлар, фойда солиғи, молиявий инструментлар, боғлиқ томонлар, корхоналарнинг бирлашиши, ҳисоб сиёсати ва унда йўл қўйилган хатолар, оралиқ молиявий ҳисобот, молиявий ҳисобот консолидацияси, инфляция шароитида молиявий ҳисобот ва бошқа объектларни киритиш мумкин.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари ўрганадиган муҳим объектлардан бири ҳисоб сиёсати, молиявий ҳисоботни тақдим этиш, концептуал асослари масалалари бўлиб ҳисобланади. Буларга пул маблағлари ҳаракати тўғрисидаги ҳисобот, консолидациялашган молиявий ҳисобот, оралиқ молиявий ҳисобот, гиперинфляция шароитидаги молиявий ҳисобот, корхоналар бирлашганда ва қўшилгандаги молиявий ҳисобот, сегментар молиявий ҳисобот, қўшма фаолиятда молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик масалаларини киритишимиз мумкин. Буларнинг ҳар бири алоҳида халқаро стандартларда ўрганиладиган объектлар ҳисобланади.

Суғурта ташкилотларида МҲХСларнинг турли хил миллий ҳисоб тизимига эга бўлган мамлакатларда қўлланилиши кўзда тутилганлиги сабабли улар таркибий тузилиши бўйича ҳам барча учун бир хил бўлиши керак. Ҳаракатдаги халқаро стандартлар таркиби бўйича уч қисмдан иборат.

- биринчи қисм – кириш;
- иккинчи қисм – ҳисоб объектининг тавсифи (очилиши);
- учинчи қисм – бухгалтерия ҳисоби стандарти (хулосаси) деб аталади.

Ҳозирги пайтда нашр қилинган МҲХСлар бир-бирига боғлиқдир ва биргаликда ягона тизимни ташкил этади. Шундай қилиб, битта стандартнинг қўлланилиши шу узлуксиз тизимнинг бошқа қисмларини қўллашни талаб қилади, яъни битта стандартни бошқа стандартлардан ажратиб олган ҳолда қўллаш мумкин бўлмайди.

Ўзбекистон Республикасида суғурта ташкилотларида МҲХСларга ўтишда ўзига хос ва миллий иқтисодиётимизга мос йўл танланди. **Бу халқаро стандартларга мувофиқ келадиган бухгалтерия ҳисоби бўйича миллий стандартларни ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш йўли бўлди.** Ҳозирги кунда ишлаб чиқилган миллий стандартларимиз халқаро стандартларга мувофиқ келади[4].

Шу билан бир қаторда ҳозирги кунда суғурта ташкилотларида халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботни тузишга ўтилмоқда. Бу эса бевосита халқаро стандартлар асосида молиявий ҳисоботни тузиш ёки миллий стандартлар асосида тузилган молиявий ҳисоботни халқаро стандартларга трансформация қилиш орқали эришилиши мумкин.

- Биринчи йўл халқаро стандартлар асосида тўғри ва сифатли молиявий ҳисобот тузишга эришишни таъминлайди.
- Иккинчи йўлда эса трансформация жараёнида кўплаб муаммо ва тўсиқларга дуч келиш мумкин.

Лекин иккита йўлнинг ечимида ҳам халқаро стандартларнинг мазмун ва моҳиятини чуқур ўрганиш, инглиз тилидаги адабиётларни ўзбек тилига таржима

қилишимиз,миллий стандартларимизни имкон қадар халқаро стандартларга мувофиқлаштиришимиз, унинг методологик масалаларини қўллай олиш, дунё университетларида ўқитилаётган «Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи» фанини ўрганишимиз, бухгалтерия ҳисоби соҳасида халқаро атамаларни қабул қилишимиз, амалиётчи ходимлар ва илмий тадқиқотчиларни хорижий мамлакатларда тажриба алмашинишини ташкил этишимиз, амалиётчи бухгалтерларни сертификатлаш ишларини йўлга қўйишимиз керак бўлади

Юқорида билдирилган таклиф ва хулосаларда келтирилган ишларнинг амалга оширилиши мамалакатимизги суғурта ташкилотларида молиявий ҳисоботни халқаро стандартларга мувофиқлаштиришга хизмат қилади, деб ўйлаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 24.02.2020 йилдаги ПҚ 4611-сонли “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги қарори.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 02.08.2019 йилдаги ПҚ-4412-сонли “Ўзбекистон Республикасининг суғурта бозорини ислоҳ қилиш ва унинг жадал ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги Қонуни, 10-модда.// Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 9-сон, 142-модда.
4. Ўзбекистон Республикаси бухгалтерия ҳисоби миллий стандартлари тўплами. – Т.: «NORMA», 2011. –360-бет
5. Ташназаров С.Н. Молиявий бухгалтерия ҳисоби ва ҳисоботи: халқаро ва миллий жиҳатлари. Монография. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2009 й.\

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА ЧОРВАЧИЛИК МАҲСУЛОТЛАРИНИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ҲОЛАТИ ВА СУҒУРТАЛАШ ЗАРУРИЯТИ

Хужақулова Ирода Ураловна
Тошкент давлат иқтисодиёт университети
“Молия бозори ва суғурта иши” кафедраси таянч докторанти

Мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги муҳим тармоқлардан бири ҳисобланади. Аҳолини сифатли озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлашда соҳани доимий равишда ривожлантириб бориш ҳам муҳим аҳамият касб этади. Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, аҳолини оқсилга бой маҳсулотлар билан таъминлашда, жумладан, гўшт ва сут маҳсулотларини сифатли ва ўз вақтида етказиб бериш муҳим ўрин тутади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги 120-сонли “Ўзбекистон республикасида чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларини ривожлантириш бўйича 2022 - 2026 йилларга мўлжалланган дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги қарорида аҳолини асосий озиқ-овқат маҳсулотлари, жумладан,

гўшт, сут, тухум, парранда гўшти ва бошқа маҳсулотлар билан таъминлашда истеъмол талабининг ошиши ҳамда реал даромадларнинг ортишини ҳисобга олган ҳолда, чорвачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми кўпайтириб борилади [1].

Ушбу мақсадларга эришиш учун қуйидаги вазифалар белгиланди:

➢ чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларида маҳсулот ишлаб чиқаришни жадаллаштириш механизмларини амалиётга кенг кўламда татбиқ этиш, хўжалик юритиш ва ишлаб чиқаришнинг замонавий усулларини қўллаш;

➢ илғор хорижий тажриба асосида чорвачилик соҳасининг паррандачилик, балиқчилик, қуёнчилик ва асаларичилик тармоқларида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар салмоғини ошириш;

➢ гўшт, сут, тухум, парранда гўшти, балиқ, қуён гўшти ва асал маҳсулотларининг ички ва ташқи бозорлардаги рақобатбардошлигини ошириш ҳамда маҳаллий маҳсулотларни халқаро сифат талабларига мослаштириш;

➢ балиқ, қуён гўшти ва асал маҳсулотларининг тавсия этилган минимал истеъмол нормаларини қайта кўриб чиқиш, шунингдек, аҳолининг соғлом овқатланиш маданиятини ошириш;

➢ чорвачилик маҳсулотларини ишлаб чиқаришда чорвачилик соҳаси билан иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари ўртасидаги интеграцияни илм-фан ва бозор муносабатлари асосида тизимли равишда такомиллаштириш;

➢ чорвачилик ва унинг тармоқларида ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар ҳисобини юритиш ва мониторингини олиб бориш учун замонавий ахборот-коммуникация технологияларини босқичма-босқич ва кенг кўламда жорий этиш;

➢ чорвачилик соҳасида агробизнес муҳитини такомиллаштириш, ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш ва замонавий менежментга асосланган хўжалик юритиш усулларини қўллаш мақсадида халқаро экспертларни жалб этиш ҳамда жаҳон тажрибаларига асосланган консалтинг хизматларини кўрсатиш тизимини кенг жорий этиш.

2023 йил 1 январ ҳолатига қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик маҳсулотлари ялпи ички маҳсулотдаги ҳажми 208 трлн. сўмни ёки 19 млрд. долларни ташкил этиб, охирги беш йилда 1,7 баробар ошган. Ялпи ички маҳсулотдаги улуши эса 25,1 фоиз даражада бўлди. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таркибида деҳқончилик маҳсулотлари ҳажмининг улуши 51,7 фоизни, чорвачилик маҳсулотлари ҳажмининг улуши 48,3 фоизни ташкил этади [2].

2023 йил 1 январь ҳолатига қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар (фермер ва деҳқон хўжаликларидан ташқари) сони – 53 808 тани, шундан деҳқончилик ва чорвачилик, овчилик ва ушбу соҳаларда кўрсатилган хизматларда – 49 859 тани, ўрмон хўжалигида – 268 тани ҳамда балиқчилик хўжалигида – 3 681 тани ташкил этди. Ушбу кўрсаткич ҳудулар кесимида таҳлил қилинганда, энг кўп корхона ва ташкилотлар Қашқадарё вилоятида – 7 742 тани ёки республика бўйича мазкур соҳада фаолият кўрсатаётган жами корхона ва ташкилотларнинг 14,4 % ини ташкил этган бўлса, аксинча энг кам корхона ва ташкилотлар Тошкент шаҳрида – 1 074 та (2,0 %)

қайд этилди [3].

Қашқадарё вилоятининг қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалигида фаолият кўрсатаётган корхона ва ташкилотлар (фермер ва деҳқон хўжаликларидан ташқари) сони бошқа вилоятларникидан сезиларли даража кўп эканлигини кўришимиз мумкин, демак соҳани ривожлантиришда суғурта компаниялари филиалларини кўпайтириш ҳамда мавжуд камчиликларни бартараф этиш лозим.

Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб чиқаришда вилоятнинг барча туманлари бўйича 2013 йилдан 2022 йилгача бўлган вақт ичида қай даражада ўзгарганлигини таҳлил қилдик. 1-расмдан кўриниб турибдики, Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарлари вилоят марказлари бўлганлиги сабабли ишлаб чиқариш кўрсаткичлари анча паст, лекин охирги ўн йилликда ўсиш кузатилган. Туманлар бўйича Қамаши, Косон, Касби ҳамда Чироқчи туманлари ишлаб чиқариш ҳажми фақат ўсиб борган.



1-расм. Шаҳар ва туманлар кесимида қишлоқ, ўрмон ва балиқчилик хўжалиги маҳсулот (хизмат)ларининг ҳажми (жорий нархларда млрд. сўм)

“Ўзагросуғурта” акционерлик жамиятининг Қашқадарё вилоятида 15 та филиал очилган бўлиб, улардан 6 та туман бўлимларида, жумладан, Қарши, Қамаши, Китоб, Нишон, Миришкор ва Чироқчи туман филиалларида вакант бўлиб турибди [4]. Бу эса суғурта фаолиятиниг ривожланишига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Сабаби, суғурта ҳодисаси рўй берганда ўз вақтида хабар бериш ҳамда ҳодиса сабабларини ўрганишда вақт асосий омил ҳисобланади.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкин-ки, Қашқадарё вилоятининг чорвачилик тармоғини ривожлантиришда мавжуд имкониятларидан кенг фойдаланишимиз ҳамда чорвачилик фаолияти билан шуғулланувчи фермер ва деҳқон хўжаликларида фаолият юритаётган ходимлар малакасини ошириш, замонавий технологияларни олиб кириш, туманларда суғурта филиаллари фаолиятини такомиллаштириш, вилоятда суғурта фаолиятини ривожлантириш борасидаги мавжуд камчиликларни бартараф этиш ҳамда чорвачиликни суғурталаш бўйича аҳолининг фикр-мулоҳазаларини ҳам ўрганиб чиқиш зарур

деб ҳисоблаймиз.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 8 февралдаги 120-сонли “Ўзбекистон республикасида чорвачилик соҳаси ва унинг тармоқларини ривожлантириш бўйича 2022-2026 йилларга мўлжалланган дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори
2. “2022 йил якуни бўйича қишлоқ хўжалигининг асосий иқтисодий кўрсаткичлари таҳлили” Тошкент, 2023 йил, 2-б.
3. https://stat.uz/files/401/choraklik-natijalar-yanvar-dekabr-2022uz/2738/Qishloq-o-rmon-va-baliq-xo-jaligi.pdf
4. https://www.agros.uz/uz/insurance_center/

ОБЗОР СТРАХОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА

Шарипова Дурдона Мухиддиновна,
Банковско-финансовая академия РУз, специальность
«Управление страховыми компаниями»

Страхование выступает инструментом оптимизации процесса финансирования восстановления ресурсов, утраченных в результате случайных событий, и тем самым значительно снижает финансовую нагрузку на бюджет предприятия. Страхование помогает избежать и таких серьезных макроэкономических проблем, как рост государственных расходов и дефицит бюджета, который является инфляционным фактором. Тема современного состояния и развития страхового рынка Узбекистана остается актуальной и сегодня. Несмотря на то, что страхование – древнейший институт, прообраз которого возник еще в Древнем Риме, до сих пор, имея большой потенциал, рынок остается недостаточно развитым, вовлеченность и осведомленность населения о страховании крайне низка. Сегодня любой человек может застраховать все, что угодно: начиная от автомобиля, имущества, бизнеса, вплоть до самого ценного – здоровья и жизни.

Проблемы не информированности и недоверия потенциальных клиентов тесно связаны и являются одними из главных проблем в сфере страхования. Трудно сказать, вызывает ли не информированность недоверие или же наоборот. Не секрет, что большинство людей считает приобретение страхового продукта пустой тратой денег и уверены, что компании не покроют полностью ущерб, в случае возникновения страхового случая или же найдут обходные пути, чтобы не покрывать его вообще.

Несомненно, человеку гораздо спокойнее надеяться на судьбу и не потратить деньги на «если вдруг», чем выделить немного времени и средств, чтобы обезопасить себя (и как свидетельствует практика, свой кошелек), на поиски страховой компании и выгодного полиса. Лишь единицы тщательно выбирают страховую компанию, общаются с консультантами и осознанно заключают договор. Немногие знают все разнообразие и спектр предоставляемых услуг,

которые можно оформить онлайн, даже не выходя из дома. Поэтому и складывается общее мнение людей, что страхование – бесполезно.

Почему же в сознании людей слово «страхование» связано больше со словом «страх»? Почему людям гораздо спокойнее самим откладывать на «черный» день, чем воспользоваться страхованием? Когда страхового случая в течение срока действия договора не происходит, с точки зрения смысла страхования страховщик и не должен ничего возвращать, так как страховая премия — это плата ему за принятие на себя риска. Но вот когда страховой случай произошел, страхователь вправе рассчитывать на быстрое, объективное его расследование и выплату страхового возмещения в соответствии с размерами ущерба (естественно, в пределах страховой суммы). Но практика отличается от этой благостной картинки. Как отмечено в статье «Основные тенденции развития рынка страховых услуг», несмотря на значительный рост показателей за последние годы, уровень выплат страховых возмещений в Узбекистане можно охарактеризовать как довольно низкий. На сегодня главной проблемой национального рынка страхования является низкая культура страхования населения. Несомненно, страховой рынок Узбекистана требует более тщательного контроля и введения мер по его развитию.

Страховой рынок и обращение продуктов страхования жизни в Узбекистане регулируются в основном двумя документами, а именно «Гражданским Кодексом Республики Узбекистан» и Законом Республики Узбекистан «О страховой деятельности» №358-II от 05.04.2002 года. Первый включает общий обзор страхового рынка Узбекистана, мировое, ликвидацию и операционную часть страхового бизнеса. Последний регулирует отношения, возникающие в сфере страхования; классифицирует отрасли и виды страхования на страховом рынке.

Закон Республики Узбекистан «О страховой деятельности» №358-II от 05.04.2002 года разделяет страхование на два общих вида страхования:

- Страхование жизни, включающее страхование интересов, связанных со здоровьем, жизнью, трудоспособностью и т.п.

- Общее страхование, которое включает страхование имущества, страхование ответственности, личное страхование и страхование, не охватываемое страхованием жизни.

Обязательными видами страхования в Республике Узбекистан являются:

- Страхование гражданской ответственности владельцев транспортных средств;

- Страхование гражданской ответственности работодателя;

-Экологическое страхование.

Страховой рынок Узбекистана допускает в той или иной степени участие **иностранных страховых компаний.**

Иностранные страховые компании могут быть только партнерами в совместном предприятии страховых компаний, зарегистрированных или создаваемых в Республике Узбекистан, на них распространяется действие Закона

Республики Узбекистан «О страховой деятельности» №358-II от 05.04.2002 года и регулирования страхового рынка, будучи учредителем страховой компании.

Иностранные страховые компании ограничиваются перестрахованием рисков по страховкам, предоставленным узбекским страховщиком. Кроме того, если не установлено иное, местным и иностранным страховым компаниям не разрешается совместно осуществлять брокерскую деятельность и осуществлять страхование без достаточной регистрации и лицензии на страховую деятельность, выданной Министерством юстиции.

Отсюда можно сказать, чтобы создать благоприятную сферу страхования, Агентство развития страхового рынка и Ассоциация страховщиков должны работать над пониманием потребностей рынка, а также восприятия и мотивации целевых рынков на уровне общественного блага, сначала посредством детального исследования рынка, а затем посредством регулярного исследования рынка.

•Более крупных страховщиков следует поощрять инвестировать во внутренние команды для исследования рынка.

•Агентство развития страхового рынка должно использовать работу Национальной стратегии повышения финансовой доступности, а также разработать и выпустить дополнение к стратегии, конкретно касающееся страхования.

А также, обеспечить доступ к историческим данным о рисках и их анализ.

•Существующий подход к совершенствованию страховых технологий должен быть расширен, чтобы способствовать более эффективному анализу исторических данных, особенно в отношении рисков стихийных бедствий.

Также нужно повышать доверие и осведомленность на рынке. Наращивание потенциала должно происходить среди страховщиков, ориентированного на человека, разработки ценных продуктов и эффективных выплат по претензиям.

На самом деле, очень легко критиковать и находить минусы любой сферы деятельности. В рамках существующих доходов и большого количества расходов, населению гораздо важнее покрыть, к примеру, коммунальные услуги, чем бежать и страховать свою жизнь. Но все большое начинается с малого, а сложное с простого. И если даже при оформлении обязательной страховки, мы будем более осознанно подходить к выбору страховой компании и интересоваться выгодными страховыми полисами, это повлечет за собой увеличение удовлетворенности от оказываемых услуг, а также увеличение спроса. Неспроста, многие компании сегодня создают новые продукты, исходя из спроса и требований времени. Будет спрос – возрастет конкуренция и качество обслуживания. В результате, будет возможным построение доверительных отношений между обеими сторонами. Берегите себя и своих близких и не забывайте, что сделать это можно и при помощи страхования.

РОЛЬ МСФО (IFRS) 4 «ДОГОВОРЫ СТРАХОВАНИЯ ПРИ СОВЕРШЕНСТВИИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ

Эргашева Шахло Тургуновна
к.э.н, профессор кафедры “Бухгалтерский учет”,
директор инновационного ресурсного центра,
Ташкентский государственный экономический университет

Обязательное представление страховыми компаниями отчетности по Международным стандартам финансовой отчетности (МСФО) зафиксировано согласно по постановлению Президента Республики Узбеки стан от 24 февраля 2020 «О дополнительных мерах по переходу на международные стандарты финансовой отчетности» № ПП-4611, открывающее новую страницу в истории перехода на МСФО в Республике Узбекистан.

Принятый документ предусматривает кардинальный пересмотр процесса перехода на МСФО субъектов предпринимательства. В частности определен перечень лиц, которые будут составлять финансовую отчетность на основе МСФО начиная с итогов 2021 года в обязательном порядке. В него вошли и страховые организации. Как известно, МСФО — это набор документов (стандартов и интерпретаций), регламентирующих правила составления финансовой отчетности, необходимой широкому кругу внешних пользователей в процессе принятия ими экономических решений в отношении предприятия. В состав МСФО входят: — собственно стандарты МСФО (International Accounting Standarts (IASs)); — стандарты (International Financial Reporting Standarts (IFRSs)); — разъяснения к стандартам (International Financial Reporting Interpretation Committee (IFRIC) Interpretations); — комментарии (Standing Interpretation Committee (SIC) Interpretations). Страхованию посвящен МСФО (IFRS) 4 «Договоры страхования».

Анализ содержания МСФО (IFRS) 4 позволяет сделать вывод о наличии некоторых аспектов, требующих уточнения при применении данного стандарта в современных условиях функционирования национального страхового рынка.

В соответствии с МСФО (IFRS) 4 договор страхования включает следующие компоненты:

– будущее событие, возникновение которого неопределенно;
– выплаты в натуральной форме;
– различие между страховым риском и прочими рисками;
– примеры договоров страхования;
– значительный страховой риск;
– изменения уровня страхового риска.

Национальная и мировая практика признают договор страхования способом защиты от неопределенности. При этом МСФО (IFRS) 4 указывает на то, что неопределенность обязательно должна иметь неблагоприятное влияние на держателя полиса, в то время как национальная практика допускает проведение страхования на дожитие до определенного возраста, срока или события.

Последствия дожития до оговоренного в договоре момента не всегда могут быть не благоприятными для страхователя. Кроме того, законодательство Узбекистана в отличие от МСФО (IFRS) 4 включает в определение договора страхования понятие «имущественный интерес». Более глубоко имущественные интересы раскрываются в определениях следующих договоров:

— личного страхования;

— страхования имущества;

— ответственности;

— предпринимательского риска.

Возможности осуществления страховых выплат в натуральной форме, оценки значительности страхового риска и изменений его уровня оговариваются как стандартом МСФО (IFRS) 4, так и законодательством Узбекистана без принципиальных различий. Различия существуют в трактовке понятия «страховой риск». МСФО (IFRS) 4 определяет страховой риск как «риск, отличный от финансового риска, передаваемый держателем договора страховщику», законодательство Узбекистана определяет страховой риск как предполагаемое событие, на случай наступления которого проводится страхование. Наиболее значительные расхождения трактовки связаны со следующими моментами:

1) момент признания неблагоприятного события страховым. Национальная практика в большинстве случаев строго ограничивает этот период рамками действия договора страхования, международная практика включает в рассмотрение события до наступления и после окончания зафиксированного в договоре страхования срока действия;

2) понятие страхового случая. Законодательство Узбекистана определяет страховой случай как совершившееся событие, предусмотренное договором страхования или законом, с наступлением которого возникает обязанность страховщика произвести страховую выплату страхователю, застрахованному лицу, выгодоприобретателю или иным третьим лицам.

В соответствии с МСФО (IFRS) 4 к страховым случаям могут относиться такие факты, как обнаружение ущерба в течение действия договора страхования, даже если этот ущерб является следствием события, произошедшего до начала действия договора страхования;

3) финансовый риск как компонент договора страхования. В соответствии с законодательством Узбекистана финансовые риски не являются отдельным компонентом договора страхования, по данной причине в учете операций по страхованию и перестрахованию не возникает необходимости дифференцирования компонентов договоров.

Практика МСФО (IFRS) 4 противоположна. Следует отметить, что финансовые риски в национальной практике являются объектом страхования достаточно редко. Пункты 2—6 МСФО (IFRS) 4) и приложение В к МСФО (IFRS) 4 содержат обширный перечень примеров договоров страхования, договоров, не относящихся к таковым, а также указания на то, к каким договорам МСФО

(IFRS) 4 не применяется, несмотря на то, что данные договоры могут иметь юридическую форму или некоторые признаки договора страхования. Законодательство Узбекистана не содержит специальных ссылок или примечаний к определению договора страхования. Сопоставление примеров договоров из МСФО (IFRS) 4 и перечня видов страхования, используемого в законодательстве Узбекистана для целей лицензирования, позволяет заключить, что в национальной практике не относятся к договорам страхования в контексте МСФО (IFRS) 4 договоры обязательного медицинского страхования и в ряде случаев отдельные договоры, принимаемый страховой риск по которым не является существенным. Данное обстоятельство облегчает классификацию страховщиками договоров для целей трансформации отчетности по требованиям МСФО (IFRS) 4. Отдельное внимание следует уделить такому аспекту, как оценка отдельных видов активов и обязательств. МСФО (IFRS) 4 (п. 14) указывает, что страховщик должен проводить:

— проверку адекватности обязательств;

— анализ активов, связанных с перестрахованием, на обесценение.

